

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

M.Abdurahmanova, D.Fattoxova, U.Xalmuxamedova,  
N.Inogamova, N.Egamberdiyeva

**O‘ZBEK TILI**

O‘quv qo‘llanma

**Toshkent  
«MUMTOZ SO‘Z»  
2018**

UO‘K  
KBK

“O‘zbek tili”. O‘quv qo‘llanma (M.Abdurahmanova, D.Fattoxova, U.Xalmuxamedova, N.Inogamova, N.Egamberdiyeva). O‘zbekiston Milliy universiteti, 2017-yil. 290 bet.

“O‘zbek tili” o‘quv qo‘llanmasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tavsiya etgan namunaviy dastur asosida yaratildi. Qo‘llanma o‘quv yili davomida rejada belgilangan mavzularni o‘z ichiga olgan. Har bir dars turli sohalarga oid matnlar, grammatik materiallar, mavzuni mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar, talabalar og‘zaki nutqini o‘stirishga qaratilgan nutqiy mavzularga oid matnlar, nutq uslublari ustida ishlashga qaratilgan topshiriqlar, glossariy va lug‘atlar bilan boyitilgan. Mazkur qo‘llanma OTM bakalavriat bosqichining 1 - kurs rus guruhi talabalari va o‘zbek tilini mustaqil o‘rganuvchilarga mo‘ljallangan.

***Mas’ul muharrir:***  
**f.f.d., prof. R.Sayfullayeva**

***Taqrizchilar:***  
**Z.Xolmanova** – Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU O‘zbek tili o‘qitish metodikasi kafedrası mudiri, f.f.d.,prof.  
**M.Ahmedova** – Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU dotsenti, p.f.n.

## SO‘ZBOSHI

Mamlakatimizda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar demokratik ta‘lim tizimiga asoslangan bo‘lib, unda olg‘a surilayotgan g‘oyalar shaxsning ma‘naviy, huquqiy madaniyatini insoniyat erishgan barcha yutuqlar asosida qurish, ta‘lim tizimini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish, jamiyat uchun har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlashdek muhim ishga qaratilgan. Ana shu vazifalarni ijobiy hal etish natijasida aqlan yetuk, axloqan barkamol, jismonan sog‘lom, dunyoqarashi keng, teran fikrlaydigan inson shakllanadi.

Oliy ta‘lim muassasalarida amalga oshirilayotgan o‘quv jarayoni, xususan, til o‘qitish bilan bog‘liq fanlar bo‘lajak mutaxassislarning shaxs sifatida shakllanishi, intellektual, axloqiy jihatdan rivojlanishlari uchun qulay sharoitlarni yaratmoqda.

Til – millatning ruhi, uning ulkan boyligi, shu bois tilni umumbashariy qadriyatlar sirasiga kiritadilar. Til – aloqa vositasi. Uning kommunikativ belgilari insonlar o‘rtasidagi turli munosabatlarda, nutqiy vaziyatlarda namoyon bo‘ladi. Dunyoda millatning borligini namoyon qiladigan asosiy belgi ham tildir. Shunday ekan, yurtimizda mustaqillik sharofati bilan turli sohalarda erishilayotgan yutuqlarni tahlil va targ‘ib etishda o‘zbek tilining qudratidan foydalanish o‘rinli. Sababi ta‘lim o‘zga tillarda olib boriladigan guruh talabalariga o‘zbek tilining boy merosini o‘rgatish, ilm-fan, san‘at, madaniyat, tarix, sport sohasidagi yutuqlarimizni ko‘rsatish, til o‘rgatish asosida milliy-ma‘naviy merosimiz va qadriyatlarimizga hurmat hissini shakllantirish – dolzarb masalalardan biri. Bu masalalarni tahlil etishda “O‘zbek tili” faniga doimo ehtiyoj seziladi. Mazkur qo‘llanma shu ehtiyojdan kelib chiqib Oliy ta‘lim bakalavriatura bosqichining ta‘lim o‘zga tillarda olib boriladigan guruh talabalari uchun mo‘ljallandi.

“O‘zbek tili” o‘quv qo‘llanmasi 2017- yil Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Namunaviy dastur asosida tayyorlandi. O‘quv qo‘llanma dasturdagi 45ta mavzuni o‘z ichiga oladi. Mavzular ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan. Mavzularni yoritishda turkigo‘y shoir, mutaffakir, davlat arbobi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan parchalar olinib, ulardan har bir mavzu uchun epigraf sifatida foydalanildi.

O'quv qo'llanmada talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga qaratilgan yangi qiziqarli matnlar, suhbat matnlari, grammatik mashqlar, orfoepik va imlo qoidalari, vaziyatli topshiriqlar, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish masalalari, har ikki tilda tarjima matnlari, izohli va ikki tilli lug'at, test topshiriqlari hamda glossariyga o'rin berildi.

"O'zbek tili" o'quv qo'llanmasi ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan guruh talabalariga til malakalarini oshirishga ko'maklashuvchi, ularning nutq faoliyatini rivojlantirishga asos bo'luvchi manba bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

### ***O'quv qo'llanmada berilgan shartli belgilar:***

-  *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling*
-  *O'qish uchun material*
-  *Tarjima mashqi*
-  *Maqollarni yod oling*
-  *Suhbat matni*
-  *Grammatik ma'lumot*
-  *She'rni yod oling*
-  *Test topshiriqlari*
-  *Lug'at*
-  *Hujjat namunalari bilan ishlash*
-  *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*
-  *Diqqatingizni jamlang!*

## **O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi**

Abdulla Oripov she’ri  
Mutal Burhonov musiqasi

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,  
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!  
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!  
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon  
Olamni mahliyo aylagan diyor.

## 1-mavzu. O‘zbekiston – yagona Vatan

*Odil bo‘l, elingni asragil faqat  
Elga bosh bo‘layin desang toabad.*

### O‘qish uchun material

#### O‘zbekiston – yagona Vatan

O‘zbekiston– dunyodagi eng qadimiy va betakror o‘lkalardan biri. Biz shu betakror zamin bag‘rida yashaymiz, uning musaffo havosidan, zilol suvidan, beqiyos ne‘matlaridan bahramand bo‘lamiz. Diyorimiz shunchalar betakrorki, O‘zbekiston deganda, ko‘z o‘ngimizda Farg‘ona vodiysining so‘lim shahar va qishloqlari, Samarqand, Buxoro va Xivaning ko‘hna me‘moriy obidalari, Qoraqalpog‘iston zaminidagi qadimiy qal’a-qo‘rg‘onlar, Ustyurt kengliklari, Toshkentning go‘zal va azim qiyofasi, Qashqadaryoning bepoyon qirlari, Surxon tog‘lari, har bir mintaqa va viloyat xalqining o‘ziga xos fe‘l-atvori va udumlari namoyon bo‘ladi.

Bugun yurtimiz ozod, erkin, mustaqil. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganiga chorak asrdan oshdi. Mana shu davr ichida boy tarixiy merosimizga, milliy qadriyatlarimiz va an‘analarimizga munosabat butunlay o‘zgardi. Milliy bayramlarimiz va urf-odatlarimiz qaytadan tiklandi. Mustaqillik yillarida Respublikamiz qishloq va shaharlarining qiyofasi o‘zgacha tus oldi. Zamonaviy uslubdagi ilm dargohlari, madaniy-maishiy obyektlar, mehmonxonalar, madaniyat va sport koshonolari yangidan qurildi.

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘zining yer osti va yer usti boyliklariga to‘la egalik qilib, ulardan samarali foydalana boshladi. Bu esa uning iqtisodiy qudratini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik O‘zbekistonning siyosiy tizimida ham jiddiy o‘zgarishlarga olib keldi. Mamlakatimiz tarixida birinchi bor muqobillik asosida Prezident saylandi. O‘zbekiston Respublikasining yuksak demokratik talablariga monand asosiy qonuni - birinchi Konstitutsiyasi va shu asosda ko‘pdan-ko‘p qonunlar qabul qilindi. O‘zbekiston parlamenti – ikki palatali.

O‘zbekiston jahon sahnasiga chiqdi. O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi o‘nlab nufuzli xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘ldi. Uning mustaqilligini 170 dan ortiq davlat tan oldi, o‘nlab mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatildi.

O'zbekiston o'z davlat ramzlari – bayrog'i, gerbi, madhiyasiga ega. Endilikda O'zbekiston jadal rivojlanayotgan, siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi barqaror, demokratik respublikadir.

### Kim vazir bo'ladi?

Vazir el boshlig'ining o'ng qo'lidir. U, shubhasiz, juda kerakli kishidir. Vazir tufayli og'ir yuklar yengillashadi, ishlar pishiq-puxta bo'ladi.

Vazirlik – ulug' ish. Bu ishga ishonchli, yetuk va sara, idrokli, dono va yumshoq ko'ngil, ayni paytda dadil va jur'atli kishilar kerak. Vazir ko'zining to'q bo'lishi uni har xil mol - mulk oldida suqlanishdan asraydi. Ko'zi och odam bor olamni yesa ham to'ymaydi. Vazirning ko'rinishi yoqimli, ishlari to'g'ri, fe'l-atvori ishlariga mos bo'lsa, el-yurt ham undan doimo bahra topadi.

Kishining tashqi ko'rinishi uning ichki olamidan, ya'ni ma'naviy boyligidan xabardor qilishi mumkin. Bulardan tashqari, vazir dono, o'ktam, hisob-kitobni juda puxta biladigan, tetik hamda turli-tuman yozuvlarni biladigan bo'lishi ham talab etiladi. Vazir ochiq dil, ko'nglida kir saqlamaydigan bo'lmog'i kerak. Vazirlikka butun, rostgo'y, yozuv-chizuv ishlaridan to'la xabardor bo'lgan kishi kerak. Uning qilig'i, xulq-atvori ko'pchilikka manzur, tili bilan dili bir bo'lishi lozim. Uyat-andisha egasi, dili tozalar bu amalga munosibdir. Ko'zi to'q, bilag'on, sezgir, yaxshi-yomonning farqiga boruvchilar vazirlikka kengashchi bo'ladi. Kengashchilar har bir ishni teng qiluvchilardir. Yaxshi vazir – yurtga boylik, elga rohat.

(Yusuf Xos Hojib)

### Ona yurt sog'inchi

Vatan nima o'zi? Vatan – ona allasi taralgan, beshiging izlari chizilgan zamin. Ajdodlaring ko'milgan qabriston, ota-onangning izlari qolgan ko'chalar, sening lahjangda so'zlashadigan, qosh-u ko'zi xuddi sening kabilar yashaydigan qadrdon yer – Vatandir!

Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta hayitlik olgan joying, birinchi o'qituvchi, birinchi muhabbatingni tanitgan makon – Vatandir!

Osmoni ko'rpang, maysasi dimog'ingni bosib yotadigan muattar bolishingdir. Vatan mung'aygan tandirli, pastakkina tomli kulbandan boshlanadi. Unga bo'lgan muhabbating ham shu ostonada tug'iladi.

(T.Sodiqova)

🔗 *Berilgan so‘z va iboralarning ma‘nosini bilib oling  
ma‘naviy boylik, mol - mulk oldida suqlanish, tarixiy meros, milliy  
qadriyat, an‘ana, maftun etmoq, ajdodlaring ko‘milgan qabriston,  
hayitlik, mung‘aygan tandir, muattar bolish.*

📖 *She‘rni ifodali o‘qing*

Sendek yurtni yana qaydan topsa bo‘lar?

Yashayapman tuprog‘ingning taftin sezib,  
Boychechaklar terib yurdim, qiring kezib,  
O‘zbekiston, yurtlararo ketding o‘zib,  
Sendek yurtni yana qaydan topsa bo‘lar?  
Gul o‘sarmi o‘zga yurtlar, tog‘larida?  
Bulbul honish qiladimi, bog‘larida?  
Shod kularmi ular bola chog‘larida?  
Sendek yurtni yana qaydan topsa bo‘lar?  
Bolaligim gulday kechgan ona diyor,  
Yolg‘on so‘zlar sening uchun hozir ham or,  
Baxtiyoring bugun senga bitdi ash‘or,  
Sendek yurtni yana qaydan topsa bo‘lar?  
Yashayapman tuprog‘ingning taftin sezib,  
Boychechaklar terib yurdim qiring kezib,  
O‘zbekiston, yurtlararo ketding o‘zib,  
Sendek yurtni yana qaydan topsa bo‘lar?

*Topshiriq.* She‘rni ifodali o‘qing, mazmunini o‘z so‘zingiz bilan sharhlang.

Vatan istagi

Bu Vatanda bir Vatan qurmoqni istaydir ko‘ngil,  
Beqafas qushdek o‘zin ko‘rmoqni istaydir ko‘ngil.  
Bu Vatan timsoli bo‘lsa, teng quyoshi shu‘lavor,  
Shu‘lalar qo‘ynida charx urmoqni istaydir ko‘ngil.  
Ul Vatanga bayroq - insof, tug‘i - sarhad, muhri - mehr,  
Sarhad uzra soqchidek turmoqni istaydi ko‘ngil.  
Bu Vatan bo‘yniga zanjir solmoq istar kimki boz,  
Ko‘ziga nafrat o‘qin urmoqni istaydir ko‘ngil.  
Ul Vatan yelkanlarini ma‘rifat ummonida  
Qiblayi iymon sari burmoqni istaydir ko‘ngil.  
Bas, yetar, yolg‘on saodat, yolg‘on erk, yolg‘on Vatan,



Hurriyat zavqini chin surmoqni istaydir ko'ngil.  
Qutlug' istiqlol kunida, ey Vatan, bag'ringda shod,  
Erkin o'g'loning bo'lib yurmoqni istaydir ko'ngil. ( E. Vohidov)

### *Lug'at*

tug' – bayroq  
sarhad – chegara, hudud  
boz – yana  
hurriyat – erkinlik, ozodlik, istiqlol, mustaqillik

*Topshiriq.* Savollarga javob bering:

1. Shoir o'zini qanday ko'rmoqni istaydi?
2. Insof, mehr-oqibat tuyg'ulari she'rda qanday tasvirlangan?
3. Mustaqillikka qarshi chiquvchilarga shoir qanday munosabatda bo'ladi?
4. “Yolg'on saodat, yolg'on erk, yolg'on Vatan” kabi jummalarni qanday tushunasiz?

*Topshiriq.* “Vatan istagi” she'ridagi notanish so'zlarning ma'nosini bilib oling va yozib qo'ying.

### *Tarjima mashqi*

#### Узбекистан

Республика Узбекистан расположена в центре Центральной Азии. На территории современного Узбекистана цивилизация развивалась с древних времён. Этот край имеет богатую историю, уходящую своими корнями в глубь тысячелетий.

Народы Узбекистана дали миру крупных учёных, знаменитых поэтов и писателей, которые оставили великое наследие человечеству. В мире нет человека, который бы не слышал о великом писателе, поэте и учёном Алишере Навои. Огромно наследие великого философа, врача и поэта Абу Али Ибн Сины, получившего широкую известность в Европе под именем Авиценны.

Узбекистан с самым большим населением среди стран Центральной Азии обладает богатыми природными ресурсами. Страна находится на третьем месте в мире по экспорту хлопка, добывает большое количество газа и золота, а также является

признанным в своём регионе производителем химической промышленности и машиностроения.

### Узбекистан – моя Родина

Узбекистан – многонациональная страна. Здесь проживает более 100 наций. Все народности Узбекистана живут в мире, согласии и дружбе. На нашей земле уважают народные традиции и отношение к каждой нации особенное. А ведь всем хорошо известно, что когда возражаются национальные ценности, возрастает роль культурного наследия народа. Уважать язык, культуру, традиции народа – это значит уважение к каждому представителю этой нации. В многонациональном Узбекистане следуют именно этим принципам.

🌀 *Grammatik ma'lumot.* Orfoepiya qoidalari. O'zbek tilida tovushlar talaffuzi.

Orfoepiya – adabiy tilning to'g'ri talaffuz qoidalari haqidagi bo'limi. U adabiy tilda to'g'ri talaffuz etish me'yorlarini belgilaydi. Orfoepiya me'yorlari tilning fonemalar tizimi, fonemalarning ma'lum o'zgarishlari bilan bog'liq. Orfoepik talaffuz me'yorlari adabiy til bilan birgalikda shakllanadi. Jonli so'zlashuv va mahaliy shevalar orfoepik me'yorning buzilishi hisoblanadi. Talaffuzda sheva xususiyatlariga yo'l qo'ymay adabiy tilda so'zlash muhim ahamiyatga ega. *Oka, apa* emas, *aka, opa*; *kelutti, kelopti, kevotti* emas, *kelyapti* kabi. Masalan *aql, qism, ism, fikr, vaqt, ilm, uzr, xalq, naql, nasl, hukm* kabi arabcha so'zlarning barchasida urg'u birinchi bo'g'inga tushadi. *Muhim, mudir, muqim, muhit, mumkin, munis* kabi arabcha so'zlarning ikkinchi bo'g'ini urg'u oladi va juda aniq talaffuz qilinadi. *Bahor, nahor, savol, savob, avval, shamol* kabi so'zlarning birinchi bo'g'inida a tovushi o tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, lekin a yoziladi. Orfoepiya radio va televideniye eshittirishlarini olib borishda, o'quv yurtlarida ta'lim berishda, nutq madaniyatining boshqa sohalarida adabiy tilning talaffuz me'yorlariga rioya qilishni talab etadi.

Nutq tovushlari talaffuz paytida ba'zi o'zgarishlarga uchraydi. Bular asosan ikki xil bo'ladi:

| Tovush almashishi                                                 |                                                                                 | Tovush tushishi                                                                                              |                                                            |
|-------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------|
| Unlilar                                                           | Undoshlar                                                                       | Unlilar                                                                                                      | Undoshlar                                                  |
| son-sana<br>ong-angla<br>sayla-saylov<br>o‘qi-o‘quv<br>yosh-yasha | yutuq-yutug‘i<br>kurak -kuragi<br>bilak-bilagi<br>tilak-tilagi<br>tanbur-tambur | shahar-shahri<br>qorin-qorni<br>burun-burni<br>o‘g‘il-o‘g‘li<br>ocha                      oladi-<br>ocholadi | men - mening<br>past -pasay<br>sust -susay<br>ulug‘-ulg‘ay |

*Topshiriq.* Orfoepik me’yorlar va urg‘uga rioya qilib, she’rni yod oling.

Qaro qoshing, qalam qoshing  
 Qiyiq qayrilma qoshing qiz.  
 Qilur qatlimga qasd qayrab,  
 Qilich qotil qaroshing qiz.  
 Qafasda qalb qushin qiynab  
 Qanot qoqmoqqa qo‘ymaysan,  
 Qarab qo‘ygil qiyo, qalbimni  
 Qizdirsin quyoshing qiz.                      ( E. Vohidov)

*Topshiriq.* Matnlarni o‘qing, matndagi fikrlarga o‘z munosabatingizni bildiring. Talaffuz bilan bog‘liq 2 ta mantiqiy va 7 ta imlo xatoni tuzating.

#### Orol va qit’a

Insoniyat Orol emas, qit’a bo‘lib yashashni o‘rgansa, ko‘p balolarning oldi olingan bo‘lardi.

#### So‘z mas’uliyati

Maktab o‘qituvchisining so‘zi o‘ttiz bolaga yetib boradi. Universitet domlasining so‘zi yuz talabaga yetib boradi. Notiqning so‘zi ming tinglovchiga yetib boradi. Qalamkashning so‘zi bir yo‘la o‘n ming, yuz ming kitobxonga yetib boradi. Demak, uning so‘z mas’uliyati ham boshqalarnikidan ming marta ortiqroqdir.

( O‘. Hoshimov)

#### ☑ Test topshiriqlari

1. *Singlimning ancha ulg‘ayib qolgan o‘g‘li yig‘lab o‘rnidan turdi-da, yana onasining bag‘rida uxlab qoldi.* Ushbu gapdagi necha so‘z tarkibida tovush tushishi kuzatiladi?

a) 3 ta soʻzda      b) 4 ta soʻzda      s) 5 ta soʻzda      d) 6 ta soʻzda

2. Berilgan qaysi soʻzlarda *n* harfi *m* tarzida talaffuz qilinadi?

1)tinmay; 2)oʻn besh; 3)qamchin; 4)qantarmoq; 5) manmanlik;  
6)sunbul

a) 1, 2, 5, 6      b) 1, 3, 4, 5      s) 2, 4, 6      d) 3, 5, 6

3. *Sanab sanogʻiga yetolmadi.* Ushbu gapdagi soʻzlar tarkibida jami nechta tovush oʻzgarishi yuz bergan?

a) 2ta      b) 3ta      s) 4 ta      d) 5 ta

4. Berilgan qaysi soʻzlar talaffuzida tovush oʻzgarishi yuz beradi?

1) manba; 2) yonma-yon; 3) tandir; 4) qalampir; 5) tanbal; 6)  
yonbosh

a) 1, 2, 5, 6      b) 1, 3, 4, 6      s) 2, 3, 4, 5      d) 3, 4, 5, 6

5. Qaysi soʻzlarda *q* tovushi *x* tarzida talaffuz etilsa ham *q* yoziladi?

a) soʻroq, oqibat, sogʻliq      b) taqsimot, maqsad, oqsil  
s) oqim, bosqich, choʻziq      d) oʻqlov, iqtisod, oqish.

**?** *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:*

1. Vatan deganda nimani tushunasiz? Fikrlaringizni asoslab bering.

2. Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatining toʻlaqonli subyektiga aylanishi qaysi jarayonlarda oʻz aksini topgan? Dalillar asosida tushuntiring.

3. “Ona yurtim - oltin beshigim” degan hikmatli soʻzning maʼnosini izohlang.

4. Orfoepik talaffuz meʼyorlari qanday shakllanadi?

5. Orfoepik meʼyorning buzilishiga nimalar sabab boʻladi?

*Uyga vazifa.* “Oʻzbekiston – yagona uyimiz” mavzusida matn tuzing.

## 2-mavzu. O‘zbek tili – davlat tili

*Tili bilan aziz, baxt topar kishi,  
Tili bois ba'zan yorilar boshi.*

### O‘qish uchun material

#### O‘zbek tili – davlat tili

Ona tilimiz – o‘zbek tiliga 1989-yil 21-oktabrda Davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas tarixiy voqeaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi. Har yili 21-oktabr yurtimizda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun sifatida keng nishonlanadi. Ushbu sanaga bag‘ishlangan tadbirlarda “Davlat tili haqida”gi Qonunning ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha tahlil etilib, galdagi vazifalar belgilanishi yaxshi an’anaga aylangan.

O‘zbek tili turkiy tillar guruhiga mansub bo‘lib, u mustaqil til sifatida XI asrdan boshlab shakllana boshladi va to hozirgi kunimizgacha bu tilda ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Xususan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, shuningdek, Atoiy, Sakkokiy, Mavlono Lutfiy, Bobur, Alisher Navoiylarning yaratgan boy ilmiy-adabiy meroslarini tilga olish mumkin.

Til – millatimiz faxri, g‘ururi. Shunday ekan, ona tilimizga doimo hurmat va e‘tiborda bo‘lib, uning jamiyatimizdagi mavqeini yuksaltirishga har birimiz o‘z hissamizni qo‘shaylik. Zero, til bor ekan, millat barhayot, uning istiqboli nurli va charog‘ondir.

### She’rni yod oling

#### Ona tilim

Oh, ona tilginam, muqaddas tilim,  
Bir og‘iz so‘zingga jonim tasadduq.  
Bunchalar shirinsan, bunchalar so‘lim,  
Bormikin ajib til sendan ham ortiq!  
Sen onam tilisan, otam tilisan,  
Sen bobom tilisan asrlar oshgan.  
Mehrda beqiyos nozik gulisan,

G‘azabda quturib Amuday toshgan.  
Sen yorim tilisan, bolam tilisan,  
Nevaram-chevaram tili bo‘lib qol.  
Sen mag‘rur quvonsang, o‘ssang haqlisan,  
Ufqda kutadi yorqin istiqbol. (Shuhrat)

### *Lug‘at*

tahlil — анализ  
mustaqil — самостоятельный, независимый  
mavqe — статус,  
muqaddas — священный, святой

### *Suhbat matni*

Men o‘zbek tilini o‘rganyapman

Anvar: Nastya, salom!

Nastya: Salom, Anvar! Seni ko‘rganimdan juda xursandman.

Anvar: Nastya, sen o‘zbek tilida juda to‘g‘ri va ravon so‘zlayapsan, qoyilman, barakalla!

Nastya: Chunki men o‘zbek tilini mukammal o‘rganishga harakat qilyapman. Ustozim Surayyo opa menga bunda ko‘maklashyaptilar. Ular tilni o‘rganishda badiiy adabiyotning o‘rni kattaligini doim ta’kidlaydilar. Shuning uchun bugun kutubxonaga yo‘l oldim.

Anvar: Juda yaxshi-da, men ham sen bilan borsam bo‘ladimi? Yo‘l-yo‘lakay suhbatlashib ketardik?

Nastya: Juda yaxshi. Menga kitob tanlashda yordam berib yuborasan.

Anvar: Qanday mavzudagi kitoblarni yoqtirasan?

Nastya: Men tarixiy shaxslar, yozuvchilar haqidagi asarlarni sevib o‘qiyman.

Anvar: Unda men senga Oybekning “Alisher Navoiy” nomli asarini o‘qishni maslahat bergan bo‘lardim. Bu mening eng sevimli kitoblarimdan biri.....

*Topshiriq.* Dialogni davom ettiring.

### *Diqqatingizni jamlang!*

Mutafakkirlarning til va nutq haqidagi fikrlari

1. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar. (I.Karimov).

2. Ko'ngil maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalitin so'z bil.(A. Navoiy)
3. Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak, millatning ruhini yo'qotmakdur. (A. Avloniy)
4. O'z Vataninga bo'lgan muhabbatingni o'z tilingga muhabbatingsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. ( K.Paustovskiy).
5. Din, tibbiyot, tarix, huquq va astronomiya sohalarida Amir Temur o'ta biluvchan edi. Ko'p o'qigan, Osiyoning eng unumli uch (turkiy, arabiy, forsiy) tilini juda mukammal bilgan hukmdor edi. (Alfons de Lamartin)
6. Tildagi har bir so'z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg'usining natijasidir, o'sha tafakkur va tuyg'ular orqali so'z yordamida mamlakat tabiati va xalq tarixi ifoda etilgan. (K.D.Ushinskiy).

### Tarjima mashqi

В деятельности человека язык—величайшее средство осознания действительности, способствующее обмену мыслями и взаимопониманию в обществе.

Язык — созданное человечеством общественное явление, развивающееся соответственно общественно-культурному прогрессу каждой нации.

### Maqollarni yod oling

Ovqatni tuz mazali qiladi, odamni — so'z.

Til — aql o'lchovi.

Tilingda bo'lsa boling, kulib turar iqboling.

Qunt bilan ilm o'rganish — igna bilan quduq qazish.

### Grammatik ma'lumot. O'zbek tilining asosiy imlo qoidolari.

“O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI”dan

2– tutuq belgisi:

1.A'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la kabi o'zlashma so'zlarda unidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi;

2. *Mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi soʻzlarda oʻ unlisi choʻziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qoʻyilmaydi;

3. *In'om, san'at, qat'iy, mas'ul* kabi oʻzlashma soʻzlarda unlidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi.

Quyidagi qoʻshimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) taqlid soʻzlardan fe'l yasovchi –*illa* (*chirilla, taqilla*) qoʻshimchasi soʻz tarkibida *v* yoki *u* tovushi boʻlganda –*ulla* tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi –*dir* qoʻshimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir boʻgʻinli soʻzlarda (*kel* soʻzidan boshqa), shuningdek, *z* undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qoʻshiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qoʻshimcha –*tir* aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi –*ga*, chegara bildiruvchi –*gacha*, ravishdosh shaklini yasovchi –*gach, -guncha, -gani, -gudek*, sifat-dosh shaklini yasovchi –*gan*, buyruq maylining II shaxs koʻrsatkichi –*gin*, shuningdek, –*gina* qoʻshimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) *k* undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda bu qoʻshimchalarning bosh tovushi *k* aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechikkudek, bukkan, ekin, kichikkina* kabi;

b) *q* undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda bu qoʻshimchalarning bosh tovushi *q* aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'rqqudek, achchiqqina* kabi;

d) qolgan barcha hollarda, soʻz qanday tovush bilan tugashidan va bu qoʻshimchalarning bosh tovushi *k* yoki *q* aytilishidan qatʼiy nazar, *g* yoziladi: *bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha* kabi.

Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki *obod* soʻzi bilan ifodalangan joy nomlari qoʻshib yoziladi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot boʻlgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

Rus tilidan aynan oʻzlashtirilgan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan hosil qilingan qoʻshma soʻzlar qoʻshib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat,*



*bayramoldi, suvosti* kabi. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qos'himchalar qo'shib yoziladi: *SamDU, ToshDUningkabi*. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zXDP MK (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi)*.

Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi, -inchi qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi: *7-sinf, 5-"A" sinfi, 3-, 7-, 8-sinf o'quvchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri* kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X sinf* kabi.

Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi. Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o'rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi*. Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *"O'zbekiston Qahramoni" (unvon), "Oltin Yulduz" (medal)*. Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *"Sog'lom avlod uchun" (orden), "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" (faxriy unvon), "Matbaa a'lochisi" (nishon)* kabi.

Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (*sh, ch, ng*) birgalikda ko'chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: *AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: 5-“A” sinf, V “B” guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: “Navro‘z – 92” (festival), “O‘qituvchi – 91” (ko‘rik tanlov), “Andijon – 9”, “Termiz – 16” (g‘o‘za navlari), “Boing – 767” (samolyot), “Foton – 774” (televizor) kabi.

A.J.Jabborov, A.D.Abduvaliyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, v.b. (va boshqalar), sh.k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so‘zdan ajratib ko'chirilmaydi.

*Topshiriq.* Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Davlat tili, maqom, ramz, nishonlandi, an‘ana, tillar guruhi, ilmiy-adabiy meros, hurmat va e‘tibor.

*Topshiriq.* Berilgan so‘zlarning yozilishiga e‘tibor qarating va ular yordamida gaplar tuzing.

Qal‘a, ma‘rifat, ta‘rif, ba‘zan, she‘r, ta‘m, e‘lon, ta‘sir, mas‘ul, san‘at, ta‘minot, ne‘mat, ma‘no, ta‘na, ta‘zim.

☒ *Test topshiriqlari*

1. Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on o‘yinay hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak, millatning ruhini yo‘qotmakdir. Ushbu fikr muallifini toping.

a) A. Avloniy      b) A.Cho‘lpon      s) A.Qodiriy      d) A.Navoiy

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”, deb aytilgan?

a) 1-moddasida      b) 2-moddasida      s) 3-moddasida      d) 4-moddasida

3. O‘zbek tili asosiy imlo qoidalarining so‘nggi tahriri qachon qabul qilindi?

a) 1989-yil 21-oktabr      b) 1998-yil 31-avgust

s) 1995-yil 24-avgust      d) 1995-yil 21-dekabr

4. Fonetik yozuv tamoyili asosida yozilgan so‘zlarni aniqlang?

a) tuzsiz, o‘qibdi, menga      b) angla, sana, buloqqa

s) stol, stul, komanda      d) buloqqa, menning, Dilfuzapa

5. To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini toping.

a) avf, suverenitet      b) gram, kilagramm

s) aktsiya, shprints      d) qayiqqa, bog‘ga

**?** *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:*

1. O‘zbek adabiy tilining rivojiga, taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan mutafakkirlardan kimlarni bilasiz?
2. O‘zbek adabiy tili mustaqil til sifatida nechanchi asrlardan boshlab shakllangan?
3. Bugungi kundagi yoshlarning savodxonlik darajasini qanday baholaysiz?
4. Alisher Navoiyning turkiy tilning imkoniyatlarini ochib berishga bag‘ishlangan mashhur asarini bilasizmi?
5. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyingi o‘zgarishlar natijasini tahlil qiling.

*Uyga vazifa. “Til – millatning faxri” mavzusida referat tayyorlang.*

### 3-mavzu. Milliy qadriyatlar – millat iftixori

*Otalar soʻzidir biz uchun meros,  
Otalar soʻzining nafi beqiyos.*

 *Oʻqish uchun material*

#### Oʻlmas qadriyatlar

Har bir taraqqiy etgan, madaniyatli xalqning oʻz tili, urf-odati, moddiy va maʼnaviy boyliklari bor. Oʻzbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy madaniyatga ega boʻlgan xalqlardan biri sifatida oʻzining maʼnaviy va moddiy xazinasiga ega. Oʻtmish ajdodlarimizdan bizga qadimiy urf-odatlar, anʼanalar xalqona meros boʻlib avlodlardan avlodga oʻtib kelgan. Bu bilan biz xaqli ravishda faxrlansak arziydi. Oʻzbekiston mustaqillikka erishgandan soʻng milliy urf-odatlarimizning tiklanishi istiqbolimizning buyuk neʼmatidir, chunki milliy urf-odatlarimiz qadriyatlarimiz negizidir.

Urf-odatlarda insonning chin inson boʻlib yashamogʻi uchun barcha narsalar keng qamrab olinganki, unda turmush tarzi, yashash odobi, muomala madaniyati, insonlarga munosabat, ota-onaga hurmat kabilar oʻz aksini topgan. Urf-odatlar to yaqingacha oʻz davrining qonuni vazifasini bajargan. Biz ota - bobolarimiz amal qilib kelgan milliy, maʼrifiy, madaniy, diniy urf -odatlarini avaylab-asrab, kelajak avlodga mukammal ravishda inʼom etmogʻimiz lozim.

#### Milliy qadriyat – maʼnaviy boylik

Qadriyat atamasi keng boʻlib, voqelikdagi hodisalarning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. U inson faoliyatidagi rang-barang narsalar, tabiat hodisalari, qadriy munosabatlar uchun manba sifatida namoyon boʻlishi mumkin. U insonning kundalik hayotida, ongining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Qadriyatlar mazmuni xilma-xil turga boʻlinib, turmushning barcha tomonlarini qamrab olgan. Bir guruh olimlarning fikriga koʻra, ular “hayot qadriyatlari” va “madaniyat qadriyatlari”dan iborat.

Ikkinchi guruhdagilar esa madaniyatning anʼanaviy boʻlinishiga asoslanib, qadriyatlarni ham “moddiy” va “maʼnaviy” tarzda tasnif etadilar. Uchinchi guruh olimlar qadriyatlarni “moddiy” va “maʼnaviy” va “ijtimoiy-siyosiy” turlarga ajratishadi. Yoshlarni maʼnaviy shakllantirishda ikkinchi guruh tasnifiga asoslanish maqsadga muvofiq, chunki hozirgi jamiyat talabiga javob beruvchi yoshlarda har ikkala guruhga xos qadriy sifatlar mujassam boʻlmogʻi lozim.

*Topshiriq.* Guruhlarga bo‘linib “Assesment” texnologiyasi bo‘yicha topshiriqlarni bajaring.

### “ASSESSMENT” TEXNOLIGIYASI

|                                                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                                                                          |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p style="text-align: center;"><b>TEST</b></p> <p>Qadriyat nima?</p> <p>a) milliy urf-odatlar<br/>b) milliy bayramlar<br/>d) xalq dostonlari<br/>e) barcha javoblar to‘g‘ri</p> | <p style="text-align: center;"><b>MUAMMOLI VAZIYAT</b></p> <p>Siz oilangiz bilan orziqib kutilgan tadbirga otlanypsiz. Kutilmaganda eshik qo‘ng‘irog‘i chalindi. Eshik ortida chaqirilmagan mehmonlar turibdi. Sizning harakatingiz?</p> |
| <p style="text-align: center;"><b>SIMPTOM</b></p> <p>Milliy urf-odatlarimizni ifodalovchi yasama so‘zlarga misollar keltiring</p>                                               | <p style="text-align: center;"><b>AMALIY KO‘NIKMA</b></p> <p>“Mehmon otangdek ulug‘” xalq maqolini izohlang</p>                                                                                                                          |

*Topshiriq.* Berilgan so‘zlar va so‘z birikmalari asosida “Mehmon kutish qoidolari” mavzusida matn yarating.

Yakshanba, dasturxon bezamoq, saramjon-sarishtalik, shirinliklar, yaxshi kayfiyat, mehr bermoq, tansiq taomlar, maslahatlashmoq, mevalar, samimiylik, xushmuomalalik, yoqimli musiqa.

#### *Suhbat matni*

#### Bayramlar

Bayram – muhim tarixiy voqea, hodisa sifatida shodlik, rasmiy tantana o‘tkazish uchun belgilangan muborak kun. Bunday muborak kunlar xalq tomonidan quvonch, shodlik, tantana, o‘yin-kulgi bilan tantanavor nishonlanadi.

Bayramlarda xalqning qadimiy udumlari, tarixi, madaniyati o‘zining yorqin ifodasini topadi va kishilarning diniy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy yutuqlari namoyish etiladi. Bu quvonchli kunlarda kishilar bir-birlarini tabriklaydilar, yaxshi niyatlar izhor etadilar, muvaffaqiyatlar tilaydilar.

Bayramlar ichida Navro‘z va Yangi yilni bolalar ham, kattalar ham intizorlik bilan kutadilar. Bu bayramlarga imkon qadar jiddiy tayyorgarlik ko‘riladi.

Bayramlar kishilar o‘rtasida mehr-muhabbat, oqibat, bir-biriga g‘amxo‘rlik, o‘zaro hurmat-e‘tiborni kuchaytirishda muhim ahamiyatga egadir.

### *Lug‘at*

udum – обычай, обряд унаследованный от предков

urf – обычай, правило, обыкновение

muborak – благославенный

mehr-muhabbat – любовь, милосердие

intizorlik – томительное ожидание

### *Tarjima mashqi*

#### Гостеприимство

Гостеприимство – одна из характерных черт народа Узбекистана. Умение принять гостя ценится у узбеков выше богатства самого стола или достатка семьи. Не принять гостя – значит опозорить семью, род, махаллю, селение.

Уважаемых гостей хозяева встречают у ворот, здороваются. Здороваются за руку, как правило, только с мужчинами. Женщин принято приветствовать легким поклоном, прижав правую руку к сердцу.

Затем гостей приглашают в дом, сажают на самое почетное место за стол – дастархан. Глава семьи сам усаживает гостей, причем для самых уважаемых людей отводятся места вдали от входа.

Вначале на стол подают сладости, выпечку, сухофрукты и орешки, фрукты и овощи, затем идут закуски, и лишь в конце – обязательный плов или другое праздничное блюдо. Чай гостям разливает хозяин дома. Традиционным элементом гостеприимства здесь является малое количество наливаемого чая – чем почетнее гость, тем меньше в его чашке напиток.

### *Maqollarni yod oling*

Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan.

Mehmon izzatda, mezbbon xizmatda.

Supurilmagan uyga mehmon kelar.

Kelish izmi mehmonda, ketish izmi mezbonda.  
Uying keng bo'lguncha, ko'ngling keng bo'lsin.  
Mehmonning ketishini so'rama, kelishini so'ra.

🔑 *Grammatik ma'lumot.* O'zbek tilida so'z yasalishi.

O'zbek tilida so'zlar bir necha usul bilan yasaladi:

1. Affiksatsiya usuli (morfologik, sintetik usul) mustaqil ma'noli morfemaga, so'zning o'zak-negiziga so'z yasovchi qo'shimchalarni (affikslarni) qo'shish orqali yangi so'z yasashdir. So'zning o'zak-negiziga yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan hosil bo'lgan yangi so'z *yasama* so'z deyiladi. Ot, sifat, fe'l, ravish yasovchi qo'shimchalar so'z yasovchi hisoblanadi. Affiksatsiya so'z yasashda unumli usuldur: *chiroy+li – chiroyli; mulk+dor – mulkdor; qahramon+ona – qahramonona*;

*Gulchi, gulla, guldon* so'zlarining yasalish asosi bir xil. Bir asosdan hosil bo'lgan so'zlar so'z yasalish uyasini tashkil etadi.

O'zbek tilida so'z yasalish jarayonida so'z yasalish asosiga yasovchi qismning qo'shilishi natijasida yasashga asos qismning tovush tarkibida ba'zan o'zgarish ro'y beradi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

- *sust, past* singari so'zlarga *-ay* yasovchi vositasi qo'shilganda yasashga asos qismda mavjud bo'lgan oxirgi *t* undoshi tushib qoladi: *susay, pasay*;

- *qizil, sariq* kabi ikki bo'g'inli so'zlardan *-ar, -ay* yasovchi vositalari yordamida yangi so'z yasalganda, yasashga asos qism bo'lgan *qizilning -il* qismi va *sariqning* ikkinchi bo'g'inidagi *i* unlisi tushib qoladi: *qizil+ar–qizar, sariq+ay–sarg'ay*;

- *so'ra, sayla, quvna, to'qi, o'qi* kabi ikkinchi bo'g'ini *a* bilan tugagan so'zlarga *-k, -v* yasovchi qo'shimchalari qo'shilganda yasashga asos qism oxiridagi *a – o* unlisiga, *i* unlisi *u* unlisiga aylanadi: *so'ra+q–so'roq, sayla+v–saylov, quvna+q–quvnoq, to'qi+v–to'quv, o'qi+v–oq'uv*;

- *o'yin, qiyin* kabi ikki bo'g'inli so'zlarga *-a* yasovchi qo'shimchasi qo'shilganda, yasashga asos qismning ikkinchi bo'ginidagi *i* unlisi tushib qoladi: *o'yin+a–o'yna, qiyin+a–qiyna*;

- *son, yosh, ong* kabi so'zlarga fe'l yasovchi *-a* yoki *-la* qo'shimchasi qo'shilganda, asos qismda tovushda o'zgarishi ro'y beradi: *sana, yasha, angla*.

2. Kompozitsiya usuli - soʻzlarni qoʻshish usuli. Bunda sintaktik usul orqali qoʻshma soʻzlar hosil qilinadi. Birdan ortiq mustaqil maʼnoli morfemaning (mustaqil soʻzning) birikib, yaxlit bir lugʻaviy maʼnoni ifodalashi qoʻshma soʻz deyiladi: *oqqush, btshiktervatar, atirgul, asalari, oshqozon, tomorqa, qizilishton, boʻrikalla, karnaygul*.

3. Semantik usul - soʻz maʼnosining oʻzgarishi asosida yangi soʻz hosil boʻlishi: *toʻgarak-aylana, toʻgarak-mashgʻulot, uloq(hayvon) - uloq(sport turi), koʻk(rang)- koʻk(osmon), kun(sutkaning yarim qismi) – kun (quyosh)*.

Oʻzbek tilida affiksial morfemalar oʻzak morfemadan keyin qoʻshilish xususiyatiga ega. Shu jihatdan, old qoʻshimchalar oʻzbek tili tabiatiga xos emas. Oʻzbek tili asrlar davomida arab, fors-tojik hamda rus tillari bilan oʻzaro aloqada yashab keldi. Buning natijasida tilimizga oʻsha tillarga xos boʻlgan grammatik qoidalar ham oʻzlashdi. Baʼzi bir hollarda soʻz yasovchi qoʻshimcha oʻzakka old tomondan kelib qoʻshilishi mumkun (*nooʻrin*). Tilimizdagi *ser-(sersuv), no-(nomard), be-(begunoh), ba-(badavlat)* kabi old qoʻshimchalar fors-tojik tiliga xos boʻlib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼrifiy omillar taʼsirida oʻzbek tiliga oʻzlashib ketgan.

*Topshiriq.* Soʻz yasovchi qoʻshimchalar ishtirok etgan soʻzlarni ajratib yozing.

Gulla, boshla, savala, tortqila, bukla, gulchi, tovlamachi, yozishdi, supurgi, kuzgi, kuzatmoq, mehmonxona, sharshara, tushunmoq, anglamoq, quvnoq, kurak, terak, yumshoq, kundalik, issiq, qorin, tanlov, uyum, tilak, bayroq, oshxona, onamga, tushunmoq, kapalak, atirgul.

*Topshiriq.* Yasama feʼllarni toping, ularni asos va qoʻshimchalarga ajrating. Asosda sodir boʻlayotgan tovush oʻzgarishlarini belgilang.

Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalar orasida suv yaltiraydi. Ichkarida chaqaloq yigʻladi. Beshikning gʻichirlagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday, battar yigʻlay boshladi. Shokarim uxladimi, yoʻqmi, bilolmadi. Bir mahal bola yigʻladimi yo tashqarida shamolning guvillashi aralash dahshatli bir faryod qulogʻiga kirdimi, anglay olmay qoldi. (Oʻ. Hoshimov)

*Topshiriq.* “Oʻzbek milliy taomlari” kalit soʻziga klaster tuzing.



**✓ Test topshiriqlari**

1. Qaysi soʻz maʼnoli qismlarga ajratiladi?  
a) pirpirak                      b) koʻkrak                      s) kapalak                      d) malak
2. Qaysi qatorda yasama soʻz berilgan?  
a) bayroq                      b) qalpoq                      s) soʻroq                      d) saboq
3. Oʻzak morfemaga toʻgʻri taʼrif berilgan qatorni toping?  
a) soʻzning tub, lugʻaviy maʼno anglatuvchi qismi  
b) soʻzning grammatik maʼno anglatuvchi qismi  
s) soʻzning maʼnoli qismlari  
d) a va b
4. Qaysi qatordagi soʻzda soʻz yasovchi qoʻshimcha mavjud?  
a) yigʻish                      b) suvsamoq                      s) sargʻish                      d) koʻrsatmoq
5. I.A.Karimov oʻzining “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asarida milliy qadriyat sifatida nimalarni sanab oʻtadi?  
a) milliy urf-odatlar, milliy qoʻshiqlar, milliy oʻyinlar  
b) xalq dostonlari, qadimiy yodgorliklar, milliy urf - odatlar  
s) xalq dostonlari, milliy oʻyinlar, milliy liboslar  
d) milliy liboslar, milliy urf-odatlar, xalq dostonlari

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Milliy qadriyat tushunchasi asosida nimalar yotadi?
2. Oʻzbekistonda istiqlol davrida maʼnaviy merosimizni tiklash borasida qilingan ishlar natijalarini tahlil qiling.
3. Oʻzbek va rus xalqlarining milliy qadriyatlari oʻrtasida qanday oʻxshashliklar mavjud?
4. Oʻzbek tilida soʻzlar qanday usullar bilan yasaladi?
5. Soʻz yasalishida qaysi usul serunum hisoblanadi?

*Uyga vazifa.* “Bayram taassurotlari” mavzusida insho yozing.

#### 4-mavzu. Tarix va zamonamiz

*Ikki xil nom qolar tilda begumon,  
Biri yaxshiligu, biri - yomon.*

 *O'qish uchun material*

##### Tarix va zamonamiz

Ko'hna va navqiron zaminimiz qadimiy va boy tarixga ega. Zaminimiz tarixini chuqur o'rganish, unga to'g'ri baho berish, bugungi kunimiz qadrini to'laqonli anglash har birimizning muqaddas burchimizdir.

Biz xalqimiz tomonidan istiqlol yillarida bosib o'tilgan tarixiy yo'l, erishilgan ulkan yutuqlar, ularning mazmun va mohiyatini har tomonlama bilishimiz va chuqur anglashimiz lozim. Mustaqil O'zbekiston davlatining paydo bo'lishi xalqimizning tarixiy g'alabasi bo'lib, o'tgan chorak asr mobaynida davlatimiz rahbari, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarligida mamlakatimiz hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan xotin-qizlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila va jamiyatda mavqeini yuksaltirish, salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, reproduktiv salomatlikni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Xalqimiz ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish borasida olib borilgan siyosat va amalga oshirilgan ishlar insonning o'z salohiyatini erkin namoyon qilishi uchun zarur muhitni shakllantirdi.

Istiqlol davrida ma'naviy merosimizni tiklash borasida amalga oshirilgan ulug'vor ishlar, tariximizni o'rganish, ulug' allomalarimiz yaratgan adabiy-ilmiy asarlarining tarjima va nashr qilinishi, muqaddas qadamjolarni obodonlashtirish, diniy qadriyatlarning, xalq udumlarining yangidan tiklanishi, adabiyot, san'at sohasidagi yutuqlar - bularning barchasi jamiyatda ma'naviy-ruhiy ko'tarilishga olib keldi va islohotlarga qo'shimcha kuch bag'ishladi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston erishgan yutuqlardan eng asosiysi yurtdagi tinchlik va barqarorlikdir. Bugun biz erishgan yuksak marralar, ozod va obod Vatanimiz manzaralari, avvalo, istiqlol sharofatidandir.

## Abu Rayhon Beruniy

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy zamonasining qator fanlari: astrononiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabi fanlarni chuqur o'rgangan.

Beruniy shoh Ma'mun akademiyasida eng taniqli maslahatchi sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Beruniy avlodlarga katta meros qoldirdi. Uning turli ilm-fan sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, asarlari bizgacha yetib kelgan. Bulardan tashqari, olim astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmakologiya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan shug'ullanib, she'rlar yozdi.

Beruniy qomusiy olim sifatida dunyo madaniyati tarixida muhim o'rin egallaydi.

### *Suhbat matni*

#### Amir Temur – dunyo nigohida

Fransuz temurshunoslar yozgan asarlar javonida professor Marsel Brionning kitoblari alohida o'rin tutadi. Jumladan, uning biz aziz kitobxonlarga taqdim etgan "Menkim, sohibqiron – jahongir Temur" kitobi Amir Temur haqida yozilgan asarlar orasida mukammalligi bilan ajralib turadi. Mazkur kitob Sohibqironning dunyoga kelishidan to vafotiga qadar bo'lgan davrni qamrab olib, voqealar Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Ushbu asarning dovrug'i, dunyoga yoyilishining boisi, Jahongir bobomiz shaxsi, uning hayoti, faoliyati, siyosiy va harbiy sohalarida tutgan yo'liga oid boy, xima-xil ma'lumotlarni o'z ichiga olganidir.

Marsel Brion Yevropada dovrug'li insonlar hayoti va faoliyatiga oid ko'plab tarixiy asarlari bilan mashhur olimlardan. "Tamerlan" asarining birinchi tahririni M.Brion 1942-yili, to'ldirilgan va qayta ishlangan ushbu romanini 1963-yili Parijdagi Albin Mishelga qarashli "Wraitten in French" bosmaxonasida chop ettirdi. Shuni alohida ta'ridlash joizki, M.Broinning mazkur asari kitob holidan chop etilgandan so'ng, ilmiy doiralarda uning martabasi ancha oshgan.

Mazkur asarni fors tiliga o'g'irgan Zabiullohxon Mansuriyning ta'kidlashicha, Sohibqironning esdaliklar tarzidagi qo'lyozmasi ("Temur tuzuklari") 1610-yilga qadar Yaman hurmdori Ja'far poshsho

qo‘l ostida saqlangan. Uning vafotidan keyin noma‘lum bir xattot undan nusxa olish uchun Hindistonga olib ketadi. Bir ozdan so‘ng bu qo‘lyozma ingliz zobitining qo‘liga o‘tgan va Angliyaga olib ketilgan. Janob Devid ismli kishi orqali u Oksford univetsiteti professori Uayt tomonidan ingliz tiliga o‘girilgan va 1783-yili nashr qilingan. Asar fors tilidan Abdurashid Abd-ul-Jalil tomonidan rus tiliga o‘girilgan va «Я, Тимур – властитель вселенной» degan nom bilan Nyu-Yorkda 700 nusxada chop etilgan.

Jahon tarixida buyuk o‘rinni egallagan bir qator shaxslar qatorida Amir Temurning ham qo‘yilishi jahon tarixshunoslik ilmida rasm bo‘lgani aniq. Bugungi kunga qadar O‘zbekistonda ham Temuriylar davri tarixshunosligiga atab o‘nga yaqin doktorlik va nomzodlik ishlari yoqlandi, ilmiy va badiiy adabiyotlar chop etildi va chop etilmoqda.

### Amir Temur

Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay 1336-yil Kesh (hozirgi Shahrizabz) shahri yaqinidagi Xoja Ilg‘or qishlog‘i (hozirgi Yakkabog‘ tumani)da tavallud topgan. U – o‘rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi.

Amir Temurning onasi Takina xotun buxorolik. Otasi amir Tarag‘ay esa barlos urug‘ining oqsoqollaridan hamda Chig‘atoy ulusining beklaridan bo‘lgan.

Amir Temurning yoshligi Keshda o‘tgan. Yetti yoshga to‘lgach, otasi uni o‘qishga bergan. Amir Temur yoshlik chog‘laridanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o‘q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lgan. U mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo‘lib voyaga yetgan.

Amir Temur tabiatan og‘ir, bosiq, teran fikrli, idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo‘lgan. Amir Temur “ko‘ragon”, ya’ni “xonning kuyovi” unvonini Qozonxonning qizi Saroymulkxonimga uylangandan so‘ng oladi.

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari ham beqiyosdir. Tarixiy jahongirlar shahar va qishloqlarni vayronaga aylantirgan bo‘lsa, Amir Temur umr bo‘yi bunyodkorlik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgan. “Qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n

g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim ", – degan ekan Amir Temur.

*Topshiriq.* Matnni o'qing, matndagi fikrlarga munosabatingizni bildiring, qo'shimchalar qiling.

*Topshiriq.* Buyuk sohibqiron Amir Temur haqidagi hujjatli kadrlar asosida suratga olingan filmni tomosha qiling. Film yuzasidan fikrlaringizni bildiring.

### *Maqollarni yod oling*

Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas.

Vatanning vayronasi, umrning g'amxonasi.

Bulbul chamanni sevar, odam - Vatanni.

Vatan gadosi - kafan gadosi.

### *She'rni yod oling*

Men nechun sevaman O'zbekistonni?

Men nechun sevaman O'zbekistonni,

Tuproq'in ko'zinga aylab to'tiyo?

Nechun Vatan deya yeru osmonni,

Muqaddas atayman, atayman tanho.

Aslida, dunyoda tanho nima bor,

Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?

Yoki quyoshimi sevgimga sabab?

Axir quyoshli-ku butun Osiyo.

Men nechun sevaman O'zbekistonni?

Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,

Nechun ardoqlarkan tuprog'ini man,

O'paman: "Tuproq'ing bebaho, Vatan"

Aslida tuproqni odil tabiat

Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.

Nechun bu tuproq deb yig'ladi Furqat,

O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?

Xo'sh, nechun sevasan O'zbekistonni,

Sababini aytgin, desalar menga,

Shoirona, go'zal so'zlardan oldin

Men ta'zim qilaman ona xalqimga. (A. Oripov )

## 🌀 *Tarjima mashqi*

### Самарканд – жемчужина Востока

Самарканд является одним из древнейших городов мира. За 2750 лет своего существования он испытал многое: бурный рост и стихийный упадок, расцвет науки и культуры, полное разрушение и постепенное возрождение. Его история насыщена событиями, также как истории Рима, Вавилона, Александрии и Константинополя.

Сегодня город с полумиллионным населением является административным центром Самаркандской области. Но в сознании глобального сообщества Самарканд стал одним из памятников мировой истории, – в 2001 году город был включен в список Всемирного наследия ЮНЕСКО.

Город расположен на высоте 702 метра над уровнем моря. Климат здесь мягкий, относительно других регионов Узбекистана – прохладный. А большое количество естественных источников воды, которое и послужило появлению города, создает комфортные условия жизни в жаркие летние дни.

### Древняя Бухара

Возраст Бухары превышает 4000 лет. Возникновение города связано с различными легендами. В одной из легенд рассказывается, что сын царя Сиявуш прибыл в Бухару, женился на дочери царя Афрасиаба и построил там крепость Арк. В древности Бухара входила в состав одной из областей Средней Азии – Согда, где уже во времена Александра Македонского была развита градостроительная структура. Существуют различные версии происхождения названия города: по одной версии, слово «Бухара» означает «монастырь», по другой – «обитель знания». Недалеко от города располагалось античное поселение Варахша, известное своими настенными росписями, представлявшими сцены охоты на гепардов. Через Бухару пролегал Великий шёлковый путь. Здесь было более 60 каравансараев, где размещались купцы из Индии, Китая, Ирана и других стран. В древности Бухара и её округа была окружена большой оборонительной стеной.

## 🌀 *Grammatik ma'lumot. Tilning leksik qatlami.*

O'zbek tili leksikasi bir qancha manbalar asosida boyib boradi. Ularni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin:

- 1) o‘z ichki imkoniyatlari asosida;
- 2) boshqa tillardan so‘z olish asosida.

Bular ichki manba va tashqi manba sanaladi. Boshqa tillardan so‘z olish natijasida o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam farqlanadi. O‘zbekcha, turkiycha so‘zlar *o‘z qatlam*, boshqa tildan olingan so‘zlar *o‘zlashgan qatlam* atamasi bilan yuritiladi.

O‘z qatlamga o‘zbek tiliga oid bo‘lgan, shuningdek, turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar kiradi. O‘zbek tili lug‘at tarkibining asosiy qismini turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar tashkil etadi: *tosh, bosh, bola, qora, yaxshi, olti*

O‘zbek tilining bevosita o‘ziniki bo‘lgan qatlam tilning ichki imkoniyatlari asosida hosil bo‘lgan so‘zlardan iborat:

1) asli o‘zbekcha so‘zlarga shu tildagi so‘z yasovchi affikslar qo‘shilishi yordamida yasalgan so‘zlar: *terimchi, boshla, birlashma*;

2) boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlarga o‘zbekcha qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan so‘zlar:

a) arabcha so‘zlardan: *odillik, nurli*;

b) tojikcha so‘zlardan: *mardlik, go‘sh tli*;

s) ruscha so‘zlardan: *limonli, sportchi*;

3) boshqa tildan o‘zlashgan so‘zga o‘zlashgan qo‘shimchani qo‘shish natijasida hosil bo‘lgan va ichki imkoniyat asosida hosil qilingan so‘z hisoblanadi: *kitobxon, doimiy, adabiyotshunos*.

O‘z qatlam so‘zlari quyidagi xususiyatlarga ega:

– turkiy so‘zlar omonim xarakterda bo‘ladi: *soch-soch, tut-tut*;

– turkiy so‘zlarda tarixiy tovush o‘zgarishlari sezilib turadi: *yig‘och-og‘och, jil-yil, jilon-yilon-ilon*;

– tana a‘zolari nomlari, tub fe‘llar, son, olmoshlar o‘z qatlamga mansub bo‘ladi.

Boshqa tillardan o‘zbek tiliga kirib o‘zlashib qolgan so‘zlarga olinma so‘zlar deyiladi. Masalan: *radio, televizor, tramvay, kollej, sirk*.

So‘zlar bir tildan ikkinchi tilga xalqlar o‘rtasidagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy aloqalar natijasida o‘zlashadi. Arabcha, forsa - tojikcha, xitoycha, mo‘g‘ulcha, grekcha, ruscha so‘zlar o‘zlashgan qatlamni tashkil qiladi.

O‘zlashgan qatlam:

1. v, z, l, g tovushlari bilan boshlanadigan so‘zlar o‘zlashgan so‘zlar hisoblanadi: *lab, zar, gul, lola*;

2. f, h, ’ (tutuq belgisi) ishtirok etgan so‘zlar o‘zlashgan qatlamga mansub: *bahor, fikr*;

3. Bir bo'g'in takibida undoshlarning qator kelishi o'zlashgan qatlamga xos: *g'isht, go'sht*.
4. Qo'sh, qator unlilar yonma - yon kelgan so'zlar arab tilidan o'zlashgan so'zlardir: *soat, muallim, inshoot*.
5. Unli bilan tugaydigan so'zlar ko'pincha fors - tojikcha so'zlar hisoblanadi: *dono, fazo, samo, mangu*.
6. *-xo'r, -noma, -do'z, -xon, -noma, -shunos, -boz, -bon, -dor, no-, ser-* qo'shimchalari fors-tojikchadir.

**Topshiriq.** Quyida berilgan matnni o'qing. O'z va o'zlashgan qatlam so'zlarini ajrating, qaysi tilga oidligini ayting.

Qadimiy yodgorliklarga bo'lgan qiziqish ko'hna o'tmishga nisbatan shunchaki havas yoki ermak emas, balki, bu har birimizdagi oddiy insoniy tuyg'u – Vatanga mehr tuyg'usi bilan izohlanadi. Biz qadimiy obidalarni birinchi navbatda inson dahosi xalq tafakkuri qudratining namunasi sifatida qabul qilamiz. O'lis asrlar qa'ridan bizgacha yetib kelgan har bir mo'jiza – xoh me'morchilik, xoh musiqa, xoh adabiyot namunasi bo'lsin, barchasini inson dili va inson qo'li yaratgan. Shu sababdan ham ular xalq hayoti va ijodining ko'zdan yashirin botiniy qatlamlarini ochib beruvchi tarixiy shahodatnomalardir.

**Topshiriq.** Eskirgan so'zlarni aniqlab, ularga izoh bering, qaysi qatlamga oidligini ayting.

Amir Temur katta olimlarni, xususan, fiqhshunoslar, muhaddislar, muarrixlar, faylasuflar, munajjimlar, shuaro va musiqashunoslar, tabiblarni xush ko'rardi. Uning saroyiga ana shu ilmlarning juda ko'p namoyandalari to'plangan edi. Tarix kitoblari tufayli ko'plarining nomi saqlanib qolgan. (B. Ahmedov)

### **☑ Test topshiriqlari**

1. "Sarq durdonasi" deb e'tirof etilgan shahar qaysi javobda berilgan?  
a) Toshkent      b) Buxoro      s) Samarqand      d) Xiva
2. Samarqand shahri qachon YUNESKOning ro'yxatiga kirdi?  
a) 2001-yil      b) 2002-yil      s) 2006-yil      d) 2008-yil
3. "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" she'rida shoirning Vataniga bo'lgan muhabbati sababi nimada ekan?  
a) tuprog'ida      b) paxtasida      s) boyliklarida      d) xalqida
4. Qator undoshlarning kelishi qaysi tildan o'zlashgan so'zlarda uchraydi?



a) arab tilidan      b) fors tilidan      s) turk tilidan      d) rus tilidan

5. *Maorif, muallim, muammo, saodat* soʻzlari qaysi tildan oʻzlashgan?

a) arab tilidan      b) fors tilidan      s) turk tilidan      d) rus tilidan

**?** *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:*

1. Oʻzbekistonda istiqlol davrida maʼnaviy merosimizni tiklash borasida qanday ishlar qilindi?

2. Buyuk sohibqiron Amir Temur shaxsini oʻrgangan olimlardan kimlarni bilasiz?

3. Oʻzbekistonning qadimiy shaharlarini ziyorat qilganmisiz? Taassurotlaringiz haqida soʻzlab bering.

4. Oʻz va oʻzlashgan qatlamning oʻziga xos jihatlari haqida gapiring.

5. Oʻzbek tiliga boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarga misollar keltiring.

*Uyga vazifa.* “Qadimiy shaharlarga ziyorat” mavzusida dialog tuzing.

## 5-mavzu. Ulug' ajdodlarimiz

*Yaqin tutmog'ini ko'rdi-yu vojib,  
Vojib unvon bo'ldi YuSUF XOS HOJIB.*

 *O'qish uchun material*

Abu Ali ibn Sino

Ibn Sino (asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh) Buxoroning Afshona qishlog'ida hijriy 370 (980)-yilning safar oyida, amaldor oilasida tug'ildi. Ibn Sino iste'dodli, xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lganligi sababli o'z davrining ilmlarini tezda egallaydi. 13 yoshidan boshlang'ich matematika, mantiq, falsafa ilmlari bilan shug'ullana boshladi. Tibbiyot ilmini o'rganish bilan birgalikda u tabiblik qila boshladi. Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rganish bilan birga, qadimgi yunon tabiiy-ilmiy, falsafiy merosini, xususan Aristotel, Ptolomey, Gippokrat, Pifagorlarning asarlarini ham qunt bilan o'rgandi. 16-17 yoshida u mashhur tabib-hakim bo'lib tanildi. 1000 - yilda Ibn Sino Buxorodan chiqib ketdi va madaniyat markazlaridan biri Xorazmga boradi. U yerda Ma'mun saroyidagi olimlar safiga qo'shildi. Ya'ni o'z davrining akademiyasiga qabul qilindi.

Uning “Kitob al-qonun fit-tibb” (“Tib qonunlari”), “Kitob un-najot” (“Najot kitobi”), “Kitob ul-insof” (“Insof kitobi”) kabi asarlari, geometriya, astronomiya, o'simlik, mantiq, hayvonot olamiga oid risolalari so'nggi yillarda yozilgan. U 1037-yil 18-iyunda Isfaxon shahrida 57 yoshida vafot etdi.

Ibn Sinoning asarlari 460dan oshgan, lekin bizgacha faqat 160ta asari yetib kelgan.

Muso al-Xorazmiy

Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan.

Xorazmiy dunyo faniga katta hissa qo'shdi. U – algebra fanining asoschisi. “Algebra” so'zi uning “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala” nomli risolasidan olingan. Uning bu arifmetikaga oid risolasi hind raqamlariga asoslangan. Hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallar Yevropada keng tarqalgan. Olimning “al-Xorazmiy” nomi esa “algoritmi” shaklida fanda abadiy o'rnatilib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo'lib qoldi.

Xorazmiyning eng yirik astronomik asari uning “Zij”idir. Unda shaharlar, tog'lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik

joyning aniq koordinatalari keltirilgan. Uning bu asari o'rta asrdagi eng birinchi geografik asar bo'lib, keyingi davrlarda geografiya fanining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanib, g'arb va sharq tillariga tarjima qilingan. Hozirda uning nomiga turli mamlakatlarda (O'zbekiston, Turkmaniston, Eron va boshq.) mukofot va medallar ta'sis etilgan.

### 🌀 *Lug'at*

hijriy — год по мусульманскому летосчислению  
iste'dod — способность, талант, дарование, дар  
tabib — лекарь  
mutafakkir — мыслитель  
qunt — прилежно, усердно

### 🌀 *Tarjima mashqi*

#### Абу Райхан Беруни

Абу Райхан Беруни вошел в историю науки как ученый-энциклопедист. Ему принадлежит более 150 произведений, посвященных почти всем отраслям науки того времени.

В научном наследии Беруни большое место занимает выработанный им научный метод изучения и познания природы.

Кроме этого, почти в каждом его произведении содержатся мысли о воспитании, обучении, морали и нравственности. Огромное место в своих трудах уделял Беруни таким проблемам нравственности как честь и достоинство, добро и зло, справедливость и совесть.

Беруни горячо любил свой народ, его культуру, с большим уважением относился ко всем народам, независимо от их национальностей и религиозных убеждений. Он был великим гуманистом своего времени, призывал к мирной жизни, дружеским отношениям между людьми, что он считал «драгоценнейшим даром жизни». В дружбе народов Беруни видел основу человеческого счастья и общественного прогресса.

#### Абу Наср Фараби

Известный среднеазиатский философ, внесший большой вклад в мировую культуру, ученый-энциклопедист Абу Наср Фараби родился в 873 г. в семье военнослужащего из тюркских племен в городе Фараб на берегу Сырдарьи. Там он получил начальное образование. Затем обучался в Шаше (Ташкенте), Бухаре,

Самарканде. Позже для продолжения своего образования он отправляется в Багдад – культурный центр Арабского халифата.

С именем Фараби связан целый ряд научных достижений средних веков и развитие прогрессивной общественно-философской мысли Ближнего и Среднего Востока. Он знал 70 языков, изучил и комментировал труды древнегреческих философов и широко представил их восточному миру. В странах Востока его называли “Аристотелем Востока”.

🔗 *Grammatik ma'lumot.* Atamalar va ularning vujudga kelishi

Tilda shunday soʻzlar borki, ular maʼlum bir fan (masalan, *tilshunoslikka oid tovush, fonema, ega, kesim, aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol, gap* va h.), texnika (*kalit, koʻtargich, qisqich, gayka, shayba, bolt* va h.), sport (*toʻp, toʻr, darvoza, himoya, hujum, kurash, yonbosh, chala, halol* va h.), madaniyat (*sahna, musiqa, qoʻshiq, lapar, raqs, ijro, soz, nutq* va h.)ga oid tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday soʻzlar atamalar (terminlar) deb yuritiladi. Ularni oʻrganuvchi soha esa atamashunoslik (terminologiya) deb ataladi.

Termin – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi soʻz yoki soʻz birikmasi. Sistem xarakterga egalik, oʻz terminologik maydonida bir maʼnolilikka moyillik, his-tuygʻuni ifodalamaslik, uslubiy betaraflik kabilar terminga xos xususiyatlardir.

Hozirgi kunda “termin” soʻzi bilan bir qatorda “atama”, “istiloh” soʻzlari ham ayni maʼnoda qoʻllanmoqda. Lekin ular termin soʻzining hozirgi maʼnosini toʻliq ifoda eta olmaydi. Atama soʻzi keng maʼnoda boʻlib, geografik obyektlar, atoqli nomlarga nisbatan qoʻllanadi.

“Istiloh” soʻzini esa “termin” maʼnosida tarixiy mavzulardagi matnlar (mas., adabiyot tarixi, Sharq falsafasi va b.)da bimalol qoʻllash mumkin.

*Topshiriq.* Matnni oʻqing, unda ishlatilgan atamalarga diqqat qiling.

Mikrobiologiyaning rivojlanishi tufayli sanoatda turli antibiotiklar, aminokislotalar, stearid garmonlar va enzimlar ishlab chiqarish imkoniyati tugʻildi.

Hozirgi vaqtda sintetik yuvuvchi vositalarda gidromentlar ishlatilmoqda. Ular suvda erimaydigan murakkab organik moddalarni katalizator sifatida parchalaydi, natijada hosil boʻlgan «mayda» molekulalar suvda yaxshi eriydi.

Mamlakatimizda yaqindan beri tarkibiga enzim qoʻshilgan yuvuvchi vositalarning yangi xillari ishlab chiqarilmoqda. «Sino»

pastasi va «Oka» kir yuvish kukuni turli xil gazlamalar va sun'iy-sintetik tolalardan to'qilgan kiyimlarni yuvish uchun mo'ljallangan.

*Topshiriq.* Uch guruhga bo'linib: 1-guruh biologiya, 2-guruh matematika, 3-guruh tilshunoslik faniga oid atamalarni yozib izohlang.

### **✓ Test topshiriqlari**

1. Termin deb...

- a) oilada, ko'cha-ko'yda kishilarning fikr almashish jarayonida qo'llaniladigan nutq uslubiga aytiladi
- b) fikrni, maqsadni yaqqol, aniq qilib berishda ma'nosi aniqlashgan so'zlarga aytiladi
- s) ishlatilish doirasi nihoyatda cheklangan, aynan bir tushunchanigina ifodalab kelgan so'zlarga aytiladi
- d) b va s

2. O'zbek tilida terminlar necha yo'l bilan hosil bo'ladi?

- a) 2                      b) 3                      s) 4                      d) 5

3. Termin so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- a) chegara belgisi    b) tinish belgisi    s) imlo qoidasi    d) talaffuz qoidasi

4. O'zbekistonda fan va texnika sohasidagi eng yaxshi asarlar uchun beriladigan Davlat mukofoti qanday nom bilan ataladi?

- a) Mirzo Ulug'bek        b) Amir Temur        s) Beruniy        d) Navoiy

5. Qomusiy olimlarning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?

- a) bir necha fanlarni mukammal o'rganib, ular rivojiga qo'shgan hissalarida
- b) ma'lum bir sohani mukammal egallab, uning rivojiga qo'shgan hissalarida
- s) dunyo madaniyati rivojiga qo'shgan hissalarida
- d) ma'lum bir xalq tarixini o'rganishga qo'shgan hissalarida

### **? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

- 1. Terminlarning muhim xususiyati nimadan iborat?
- 2. O'zbek tilida terminlar qanday yo'llar bilan hosil qilinadi?
- 3. Terminologiya so'zining keng va tor ma'noda qo'llanilishini qanday asoslaysiz?
- 4. Xorazmiyning eng yirik astronomik asarining nomini ayting
- 5. Siz yana qaysi qomusiy olimlarni bilasiz?

*Uyga vazifa.* "Ajdodlar sabog'i" mavzusida referat tayyorlang.

## 6 – mavzu. Vatan va vatanparvarlik

*Yolg'izlik –odamzod nasliga balo,  
Yolg'izlikda dard ham ozaymas aslo.*

 *O'qish uchun material*

*“Agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tanu  
bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa,  
o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi”.*

Islom Karimov

### Vatan tuyg'usi

Tinchlik qaror topgan yurtda xotirjamlik hukm suradi, jamiyatda har tomonlama yuksalish va rivojlanish ro'y beradi. Odamlarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan ishonch va sadoqatlari, mehr-muruvvatlarining samimiy bo'lishi ham asosan yurt tinchligining samarasidir. Yurtimizdagi xotirjamlik va barqarorlik tufayli xonadonlarda to'yu tomoshalar, bayramu shodiyonalar bir-biriga ulanib ketmoqda. Bu ne'matlarga chin ma'noda shukrona qilish va ularning qadriga yetish kerak.

Agar notinchlik hukm surayotgan yurtlarga nazar tashlasak, yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikka ming bora shukur qilamiz. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 600 ga yaqin terrorchi tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi islom niqobi ostida faoliyat olib bormoqda.

Aslida mazkur terrorchilik harakatlarining islom diniga hech qanday aloqasi yo'q. Chunki tinchlik, insonparvarlik va rahm-shafqat dini bo'lgan islom hech qachon zo'ravonlikni, birovlar joniga qasd qilishni, adolatsizlikni targ'ib qilmaydi.

Islom dini kishilarni tinchlikni asrash va barqarorlikni ta'minlash yo'lida iymon, insof, adolat, hamjihatlik va birdamlik bilan harakat qilishga, fitna va o'zaro adovatga barham berishga chaqiradi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, vatanparvarlik islom dinining mohiyatini tashkil etadi.

“Vatanparvar – o'z vatani kamoloti yo'lida, o'z xalqiga muhabbati tufayli moli, kuch-g'ayrati tugul, jonini ham ayamaydigan, xalqi va vatanining ozodligi, farovonligi uchun borini fido qiluvchi insondir”, – degan ekan mutafakkirlardan biri.

Vatanni sevish, vatanparvar bo'lish, undagi bor narsalarni ardoqlab, sog'inib yashash insoniyat tabiatida mavjud bo'lgan nozik his-tuyg'udir.

Vatan himoyasi barchamizning muqaddas burchimiz!

### Shiroq

O'rta Osiyo xalqlari qadim zamonlardan o'zlari tug'ilib o'sgan yurtni tashqi dushmanlardan mardonavor himoya qilganlar. Bu janglarda qo'shni qabilalar: skiflar, massagetlar, so'g'dlar, saklarning qo'rqmas yigitlari mardlik va jasorat ko'rsatganlar. Tarixda ba'zan bir kishining butun qo'shinga bas kelgan hollari ham bo'lgan. Bunga oddiy cho'pon yigit Shiroqning ko'rsatgan qahramonligi misoldir. Shiroq o'z podshohi huzuriga kelib, Eron qo'shinini bir o'zi hiyla bilan halok etishini aytadi. Buning evaziga o'zining oilasi, bolalari, avlodiga g'amxo'rlik qilishlari to'g'risida va'dalarini oladi...

Shiroq o'zining quloq, burunlarini kesib, butun a'zoyi badaniga ozor yetkazadi. O'zini rosa qiynab, azoblangan holatga keltirgach, Eron qo'shinlari joylashgan tomonga ketadi. Hamma yog'i qonga belangan Shiroq Eron shohi Doroga arz qilib, uni qabiladoshlari shunday ahvolga solganliklarini aytadi. U saklardan o'ch olish maqsadida Doro qo'shinini saklar yashiringan joyga boshlab borishga ahd qilganligini ma'lum qiladi. Unga ishongan Doro qo'shini bir haftalik oziq-ovqat, suv olib yo'lga tushadi. Uzoq yo'l yurilgach, Doro qo'shinining oziq-ovqatlari, suv va otlarga beradigan yemishlari tugaydi. Atrof esa suvsiz quruq, qum va hech narsa o'smagan sahro edi.

Shunday qilib, cho'pon Shiroqning bir o'zi vatandoshlarini saqlab qoladi va bosqinchi Eron qo'shinining ochlik, suvsizlikdan qirilib ketishiga sababchi bo'ladi.

### *Tarjima mashqi*

#### Mardlik

Mardlik – bu insonning oliy fazilati bo'lib, unda botirlik, qahramonlik, sadoqat, vafo mujassamdir. Mardlik fazilatiga ega bo'lgan insonlar har qanday vaziyatda ham odamlar uchun jonini berishdan toymaydilar. Ular vafoli va sadoqatli bo'ladilar. Odamlarga hamkorlik qiladilar.

Mard kishi bir so'zli, jasoratli, o'ktam bo'ladi. O'z orzu-niyatlarini amalga oshirishda faqat iqtidoriga, bilim, kuch-g'ayratiga ishonadi. Mard kishi o'z obro'-e'tiborini, nomini va sha'nini hamisha ulug' qo'yadi.

Mard kishi yurtning qalqoni va xalqning suyanchig'i bo'ladi. O'g'il-qizlarini voyaga yetkazadi, ularning o'zi yetolmagan

armonlari, amalga oshmagan ishlarini ro'yobga chiqarishini orzu qiladi.

Mardlik kishi burchida, vijdonida, qadr-qimmatida, farzand tarbiyasida, insonparvarlikda, sevgi-sadoqatda, yaxshi ishlarda namoyon bo'ladi.

✍ *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling mardlik, botirlik, sadoqat, vafo, hamkorlik, vijdon, qadr-qimmat, insonparvarlik, mehnatsevarlik*

Topshiriq. Jadvalni namunadagidek davom ettiring.

“Qahramon” so'ziga tuzilgan *kategoriyali jadval*

| Shaxs tushunchalari               | O'rin-joy tushunchalari          | Mavhum tushunchalar                  | Fazilat-xislat tushunchalari                | Harakat-holat tushunchalari                   |
|-----------------------------------|----------------------------------|--------------------------------------|---------------------------------------------|-----------------------------------------------|
| askar<br>ajdod<br>xalq<br>farzand | jang<br>maydoni<br>Vatan<br>Yurt | abadiy<br>ayriliq<br>vijdon<br>ibrat | jasoratli<br>jonkuyar<br>zabardast<br>botir | ardoqlash<br>bag'ishlamoq<br>himoya<br>qilmoq |

📖 *Maqollarni o'qing va ularning ma'nosini izohlang*

|                                   |                             |
|-----------------------------------|-----------------------------|
| Uyiga sig'magan eliga sig'mas.    | Vatanning vayronasi,        |
| Podsho zolim bo'lsa, yurt to'zar, | Umrning g'amxonasi.         |
| Podsho odil bo'lsa, yurt o'zar.   | Xalqqa suyansang, to'lasan, |
| Vatan gadosi — kafan gadosi.      | Xalqdan chiqsang, so'lasan. |

✍ *Grammatik ma'lumot. Ijtimoiy-siyosiy leksika.*

Ijtimoiy-siyosiy leksika ijtimoiy hayotimizning barcha tomonlarini qamrab olib, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritishga xizmat qiladi. *Taraqqiyot, siyosat, jamiyat, nizo, mustaqillik, demokratiya, shaxs* kabi ko'plab so'zlar ijtimoiy-siyosiy leksikani tashkil etadi. Bunday leksika o'zlashgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-siyosiy leksika asosan, ommabop uslubdagi matnlarda uchraydi. Ommabop uslub - matbuot, radio, televideniye xos bo'lgan tildir. Bu uslub rasmiy va dolzarb xabarlar, axborotlar, e'lonlar, reportaj, bosh maqolalardan iborat bo'ladi. Ularda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlar orqali ifodalanadi. Har bir xabarga ta'sirli,



xabarning asosiy mohiyatini ifodalovchi sarlavhalar qo'yiladi-ki, bu hol o'quvchining diqqatini jalb qiladi.

Ommabop uslub kundalik ijtimoiy hayot ko'zgusidir. Ommabop uslubni shakllantiruvchi vositalar ijtimoiy-siyosiy atama va birikmalardan iborat bo'ladi: *fuqarolik burchi, iqtisodiy tejamkorlik, siyosiy vaziyat, siyosiy va ijtimoiy kuchlar, iqtisodiy vaziyat, hukumat tangligi* va b.

*Topshiriq.* Quyidagi ijtimoiy-siyosiy leksikaga xos atamalardan gaplar tuzing

Fuqarolik burchi, iqtisodiy tejamkorlik, siyosiy vaziyat, siyosiy va ijtimoiy kuchlar, hukumat tangligi.

*Topshiriq.* Matndagi ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid so'zlarni ajratib oling va tahlil qiling.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi qaroriga binoan mamlakatimizda Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etildi. 1992-yili O'zbekistonda turli millat va elatlarning 10 ta milliy madaniy markazi faoliyat yuritgan bo'lsa, bugun ular 137 taga yetdi. "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida 2017-yil 24-yanvar kuni Respublika baynalmilal madaniyat markazining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Tadbirga milliy madaniy markazlar rahbarlari va faollari, parlament va hukumat a'zolari, davlat va jamoat tashkilotlari, O'zbekistonda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev milliy madaniy markazlar faollariga Vatanimizning yuksak mukofotlarini topshirdi. Respublika baynalmilal madaniyat markazining 25 yilligiga bag'ishlangan katta bayram dasturida san'at ustalari va milliy madaniy markazlar badiiy jamoalari ijrosida Vatan, istiqloq, tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar yangradi.

### **✓ Test topshiriqlari**

1. Ijtimoiy-siyosiy leksika asosan qanday so'zlarni o'z ichiga oladi?

- |                         |                         |
|-------------------------|-------------------------|
| a) sof turkiy so'zlarni | b) o'zlashgan so'zlarni |
| s) tarixiy so'zlarni    | d) neologizmlarni       |

2. Ijtimoiy-siyosiy atama va birikmalar qaysi uslubni shakllantiruvchi vositalar hisoblanadi?

- a) badiiy uslubni                                      b) ilmiy uslubni  
s) ommabop uslubni                                  d) rasmiy-idoraviy uslubni
3. Ijtimoiy-siyosiy leksikaga xos soʻzlarni toping?
- a) badiiy, ilmiy, ommaviy                            b) goʻzallik, tabassum, muhabbat  
s) tovush, fonema, allofon                         d) siyosat, jamiyat, mafkura
4. “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni qachon ta’ sis etilgan?
- a) 1994 – yil                      b) 1995 – yil                      s) 1996 – yil                      d) 2001 – yil
5. “O‘zbekiston Qahramoni” unvoniga birinchi bo‘lib sazovor bo‘lgan shoir kim?
- a) Erkin Vohidov                                        b) Muhammad Yusuf  
s) Ozod Sharafiddinov                                d) Abdulla Oripov

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Vatanparvar inson qanday bo'lishi kerak?
2. Siz o'zingizni vatanparvar deb hisoblaysizmi?
3. O'zbek milliy qahramonlaridan yana kimlarni bilasiz?
4. Vatan sarhadlari himoyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid so'zlardan ko'proq qaysi uslubda foydalaniladi?

**Uyqa vazifa.** “Vatan sarhadlari himoyasi” mavzusida insho yozing.

## 7-mavzu. Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik

*Inson dema uni, de-yilqi, hayvon,  
Zamon o‘tib, dono bo‘lmasa inson.*

### O‘qish uchun material

Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik

Yurtimiz tarixi, xalqimizning boy ma‘naviy merosi haqida tushunchaga ega bo‘lish, undan bugungi avlodni xabardor etishda muzeylarning o‘rni katta.

Toshkentda 29 ta muzey bo‘lib, ularda 113127 eksponat saqlanadi; har yili muzeylarga o‘rtacha 1,5 mln.ga yaqin kishi kiradi. Toshkentdagi yirik davlat muzeylari: O‘zbekiston Davlat san‘at muzeyi, O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, O‘zbekiston amaliy san‘ati muzeyi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari markaziy muzeyi, O‘zbekiston tasviriy san‘at galereyasi, O‘zbek liboslari galereyasi va boshqalar.

Muzeylarda ilmiy asarlar, qo‘llanmalar va kataloglar nashr etiladi. O‘zbekiston xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasi, planetariy muzey tipidagi muassasalar qatoriga kiradi. Toshkent korxonalari, muassasalari va o‘quv yurtlarida tashkil qilingan muzeylar davlat muzeyi tarmoqlarini to‘ldiradi. Muzeylar yo‘nalishiga mos tarixiy eksponatlarni to‘plash, ularni o‘rganish va saqlanishini ta‘minlash, ilmiy tekshirish ishlarini olib borish, ekspozitsiyalar tayyorlash va ko‘rgazmalar tashkil etish, noshirlik ishlari, xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik muzeylar faoliyatining asosini tashkil etadi.

Shu bois, mamlakatimizda mazkur muassasalar faoliyatini takomillashtirish, ularning zamon talablari darajasida ish olib borishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

Soha muzeylari

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi ko‘p asrlik o‘zbek adabiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan nodir qo‘lyozmalar, turli hujjatlar, rasmlar, xotiralar, fotosuratlarini to‘plovchi, saqlovchi va ko‘rgazmali materiallar tarzida namoyish etuvchi noyob madaniy-ma‘rifiy va ilmiy maskandir. Muzey dastlab 1939-yil buyuk Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan Davlat qo‘mitasi qoshidagi ko‘rgazma shaklida barpo etilgan. 1947-yili ko‘rgazma zaminida adabiyot muzeyi tashkil topgan. Adabiyot muzeyi ko‘rgazma zallarida 17000dan ortiq

tasviriy va o'ymakorlik san'at asarlari, portretlar, noyob arxeologik yodgorliklar, xalq amaliy san'ati namunalari naoyish qilinmoqda. Adabiyot muzeyi binosining o'zi ham (1933-1936- yillar) noyob arxitektura yodgorligi hisoblanadi. Muzey Xalqaro Muzeylar Kengashi IKOM tashkiloti a'zosi.

### Geologiya muzeyi

Geologiya muzeyining ko'rgazmalar zallarida dunyo ahamiyatiga molik bo'lgan Respublikamizning noyob geologik merosi ekspozitsiyalari namoyish etiladi. Muzey geologik obyektlarda mujassam ilmiy axborotni imkon qadar eng yuqori darajada taqdim etish va yoritib berish vazifasini bajaradi.

Geologiya muzeyi nafaqat fanning dalili sifatida, balki bilim olish va malaka oshirish dargohi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Bu yerda Respublikaning barcha geologik bilim yurtlaridan, oliy o'quv yurtlaridan, kollej va maktablardan asosiy bilim bazasini o'rganib ketishadi, hamda mineralogiya, petrografiya, paleontologiya va boshqa geologik yo'nalishlarda ma'ruzalar o'tkaziladi. Mamlakat geologiya tarmog'ining yutuqlarini va geologiyaga doir bilimlarini aholi orasida ommalashtirishda faol ishtirok etadi.

Bundan tashqari, muzey turli chet el tashkilotlaridan, kompaniyalardan kelgan chet ellik olimlarga muzeyni tanishtirish ekskursiyalarini tashkillashtiradi.

Muzey zallaridan eksponatlar va boshqa ko'rgazma jihozlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Ko'rgazma materiallarining namoyish etilishi 3 tilda, ya'ni davlat tili, rus va ingliz tillarida olib boriladi. Muzeyga keluvchilarning har biri muzeydagi tarixiy obidalarni, tabiiy boyliklarning noyob turlarini ko'rib, o'zida yana bir karra yurtimizga nisbatan g'urur tuyg'usini his etadi.

### O'zbekiston Davlat san'at muzeyi

O'zbekiston Davlat san'at muzeyi 1938-yi 19-aprelda tashkil etilgan. Muzeyning asosiy vazifasi O'zbekistonning tasviriy san'ati bilan tanishtirish hisoblanadi. Bu yerda tasviriy san'atning tan olingan ustalari ijodi bilan bir qatorda, zamonaviy ijodkorlarning ishlari ham taqdim etilgan. Ekspozitsiyalar tez-tez yangilanib turiladi.

### "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi

"Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2001-yil 1-may sanasi "Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash" to'g'risidagi Farmoni asosida

“Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuida barpo etilgan. Muzey 2002-yil 31-avgustda mamlakatda ilk bor nishonlangan “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni”da tantanali ravishda ochilgan.

Yodgorlik majmui va muzey barpo etilgan joy XX asrning 20-yillaridan to ikkinchi jahon urushi boshlanguniga qadar sovet davlatining jazo organlari uchun qatlgoh vazifasini o‘tagan. Toshkent shahrida otilgan qatag‘on qurbonlari shu yerdagi uchta qatlgohga dafn etilganlar. Yodgorlik majmui ana shu sobiq uch qatlgoh hududlarini o‘zaro birlashtirib turadi. Agar ramziy sag‘ana yodgorlik majmuining memorial markazi hisoblansa, muzey binosi uning ma’rifiy markazi bo‘lib xizmat qiladi.

### Tarjima mashqi

Музеи – мост между прошлым и будущим

Музеи играют большую роль в получении знаний об истории нашей страны, ознакомлении молодого поколения с богатым духовным наследием народа.

В Узбекистане созданы и создаются все необходимые условия и возможности для совершенствования деятельности этих учреждений и их работы на уровне современных требований. Важным руководством к действию в этом направлении служат Закон Республики Узбекистан “О музеях” и Указ Первого Президента нашей страны “О коренном улучшении и совершенствовании деятельности музеев” от 12 января 1998 года.

\*\*\*

В Самаркандской области в настоящее время действуют восемь музеев, в которых хранятся более 211 тысяч предметов и исторических документов – свидетельствующие о многовековой истории, культуры, богатого наследия наших предков. Объединяет все эти музеи, а также находящиеся на территории области, шесть исторических памятников и два святых места поклонения. В последние годы для Государственного музея истории культуры Узбекистана в Самарканде выделены 3 новых здания, оснащенных на современном уровне. Проведены ремонтные работы и оснащены в соответствии с современными требованиями областной краеведческий музей, музей “Афрасиаб”, музейный комплекс Мирзо - Улугбека. В музее “Афрасиаб” в котором накоплены редкие экспонаты, в 2014 году была проведена презентация реставрации настенных рисунков Афрасиаба при

участии послов зарубежных государств в нашей стране. Подготовлен видеофильм в формате 3D о настенных рисунках Афрасиаба. Три года назад была разработана виртуальная форма музейного комплекса Мирзо-Улугбека и размещена на его веб-сайте.

### *Suhbat matni*

#### Dunyoning mashhur muzeylariga sayohat

##### Luvr muzeyi

Parijdagi Luvr muzeyi dunyoning eng katta va ko‘p tashrif buyuriladigan san’at muzeylaridan biridir. Muzey 1793-yilda ochilgan bo‘lib, Luvr qasri qirol saroyida joylashgan. Luvr qasrining asosiy qismida 1989-yilda mashhur shisha piramida qurilgan va hozirda muzeyga asosiy kirish zali hisoblanadi. Undagi eksponatlar turli xil davlatlar — qadimiy Misr, Yunoniston va Rim, O‘rta asr Yevropasi, Napoleon Fransiyasidan keltirilgan. Eng mashhur eksponatlardan biri, ko‘pchilikning e’tiborini tortgan Leonardo da Vinchining Mona Lisa asaridir.

##### Misr muzeyi

Qadimgi Misr davriga oid 120 mingdan ortiq noyob yodgorliklarni o‘zida mujassamlashtirgan, Qohiradagi Misr muzeyi dunyoning eng yaxshi muzeylaridan biri sanaladi. Muzey ikkita qism — yer osti va birinchi qavatdan tashkil topgan. yer osti qismida qadimiy misrliklar foydalangan papirus va tangalarning ko‘plab to‘plamlari saqlanadi. Birinchi qavatda esa qadimgi Misrning oxirgi ikkita sulolasiga oid eksponatlar va Qirollar vodiysidan olingan buyumlarni ko‘rish mumkin. Eng noyob yodgorliklar sirasiga Tutankhamon qabridan olingan buyumlar va saroy mumiyolari xonasida joylashgan Firavnlr davridagi 27 ta qirolning mumiyolari kiradi.

##### Vatikan muzeylari

VI asrda Rim Papasi Yuliy II tomonidan tashkil qilingan, Rimdagi Vatikan shahri ichida joylashgan Vatikan muzeylarini dunyoning eng noyob muzeylari qatoriga kiritish mumkin. Muzeylar asosan diniy zinapoyalar, Rafael xonalari va nafis bezatilgan ibodatxonadan iborat. Rim Papasi Yuliy II homiyligida 1508-1512-yillarda Mikelanjelo ibodatxona shiftlarini bezatgan. Bugungi kunda uzoq muhokamalardan keyin, ushbu shift Mikelanjeloning rassomchilikdagi eng katta yutug‘i ekanligi tan olindi.

### Metropoliten san'at muzeyi

Metropoliten(poytaxt) san'at muzeyi Nyu York shahridagi Markaziy parkning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Met nomi bilan ham mashhurdir. Ikkita qavatda joylashgan yuzlab xonalar o'z ichiga butun dunyo bo'ylab san'atning mavjud sohalaridagi 2 mln.dan ortiq eksponatlarni jamlagan. Muzeydagi doimiy ko'rgazmalardan tashqari, u yerda yil davomida katta sayohat tomoshalari ham o'tkaziladi.

### Britaniya muzeyi

1753-yilda asos solingan Londondagi Britaniya muzeyi insoniyat tarixi va madaniyatini aks ettiradi. Muzeyda saqlanayotgan eksponatlar soni 7 mln.dan ortiq bo'lib, unda dunyoning ko'plab mintaqalari madaniyati boshlanishidan hozirgi kungacha bo'lgan davrni aks ettiruvchi manbalar saqlanib kelinmoqda. Eng sara buyumlar qatoriga Rosetta toshi, ieroglifning shartli belgilarini o'qish uchun kalit va Misr tashqarisidagi katta mumiyolar kolleksiyasi kiradi. Britaniya muzeyi Londondagi eng diqqatga sazovor joylardan biridir.

### Ermitaj

Dunyodagi eng mashhur muzeylar deganda, barchaning ko'z o'ngiga Ermitaj muzeyi kelsa, ajab emas. Buyuk Yekaterina tomonidan 1764-yilda tashkil etilgan Sankt Peterburgdagi Ermitaj muzeyida dunyoning ko'plab mintaqalaridan yig'ilgan 3 mln.dan ortiq san'at va madaniyatga doir noyob buyumlar saqlanadi. Sayyohlarning diqqat e'tiborini qozongan ushbu muzeyni mashhur rassomlarning san'at asarlari bilan dunyoning eng yaxshi muzeylari ro'yxatiga kiritish mumkin. Kolleksiya dan sobiq Rossiya imperatorlarining saroyi hisoblangan Qishgi saroydagi oltita tarixiy bino ham o'rin egallagan.

### Lug'at

o'tmish – прошлое

kelajak – будущее, грядущее

amaliy - практический, действенный

mumiyo – мумия

*Topshiriq.* Toshkentning mashhur muzeylaridan biriga tashrif buyuring va taassurotlaringizni yozma bayon qiling.

### Grammatik ma'lumot. Sohaviy terminlar va ularning qo'llanishi

Har bir sohada o'zining ishlatilishi doirasiga ko'ra cheklangan, asosan, birgina tushunchani ifodalaydigan so'zlar bo'ladi. Bunday

soʻzlar, xususan fan-texnika, sanʼat, siyosat, til va adabiyot, tibbiyot kabi turli sohalarda uchraydi.

Masalan, tibbiyot sohasida *operatsiya, tanometr, termometr*; tilshunoslikda *fonema, morfologiya, kesim, kelishik*; musiqa sanʼatida *maqom, kuy, gamma, major* va h.k.

Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi, boyiydi. Maʼlum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina oʻsha tilda maxsus terminlar vujudga keladi.

Terminologiyasi maʼlum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar tartibga solib turiladi. Tartibga solish maʼlum terminologik meʼyorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lugʻatlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

*Topshiriq.* Oʻz sohangizga oid terminlarni yozing va ularning maʼnosini izohlang.

*Topshiriq.* Quyidagi soʻz va soʻz birikmalaridan gap tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

Hamkorlik, noshirlik ishlari, koʻrgazma, xalqaro tashkilotlar, planetariy, eksponatlar, koʻrgazmalar, oʻtmish va kelajak.

*Topshiriq.* Berilgan matndagi sohaviy terminlarga xos soʻzlarni aniqlang.

Istalgan qoʻshiluvchining, tengsizlikning bir qismidan ikkinchi qismiga shu qoʻshiluvchining ishorasini qarama-qarshiga almashtirgan holda koʻchiriladi.

Agar tengsizlikning ikkala qismi ayni bir musbat songa koʻpaytirilsa, u holda tengsizlik ishorasi oʻzgarmaydi. Agar tengsizlikning ikkala qismi ayni bir manfiy songa koʻpaytirilsa, u holda tengsizlik ishorasi qarama-qarshisiga oʻzgaradi.

### **☑ Test topshiriqlari**

1. Sistem xarakterga egalik, bir maʼnolilikka moyillik, his-tuygʻuni ifodalamaslik qanday soʻzlarga xos?

- |                           |                         |
|---------------------------|-------------------------|
| a) parafrazalarga         | b) polisemantik soʻzlar |
| s) monosemantik soʻzlarga | d) terminlarga          |

2. Atama soʻzi qanday soʻzlarga nisbatan qoʻllanadi?

- a) geografik obyektlar, atoqli nomlarga    b) tarixiy mavzudagi soʻzlarga



- s) so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlarga      d) badiiy uslubga xos so‘zlarga
3. Toshkentda nechta muzey mavjud?
- a) 29 ta                      b) 39 ta                      s) 16 ta                      d) 33 ta
4. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning “Muzeylar faoliyatini takomillashtirish va tubdan yangilash” haqidagi qarori qachon qabul qilindi?
- a) 1993-yilda              b) 1999-yilda              s) 1991-yilda              d) 1992-yilda
5. Shahrimizdagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi qachon ochilgan?
- a) 2002-yil 31-avgustda              b) 2005-yil 9-mayda
- s) 1996-yil 1-mayda              d) 1991-yil 31-avgustda

**?** *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:*

1. O‘tmish, kelajak, tarix, ma’naviy meros tushunchalarining ma’nosini izohlab bera olasizmi?
2. Turli soha muzeylarini birlashtirib turuvchi jihatlari nimalardan iborat?
3. Millatning ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida muzeylarning roli qanday?
4. Sohaviy terminlarning o‘ziga xos tomonlarini sanab bering.
5. Davlatimiz tomonidan muzeylar faoliyatini takomillashtirish borasida qanday qaror qabul qilingan?

*Uyga vazifa.* “Muzey taassurotlari” mavzusida insho yozing.

## 8-mavzu. Kelajak bilimli yoshlar qo'lida

*Tizzangda bor ekan, yigitlik kuchin –  
Izzating borida sarfla el  
uchun.*

 *O'qish uchun material*

### Kelajak bilimli yoshlar qo'lida

Bugungi kunning yoshlari har tomonlamma barkamol, salohiyatli, ajdodlarga munosib avlod bo'lib kamol topishlari uchun chuqur bilimga ega bo'lishlari, jismonan sog'lom, ruhan tetik bo'lishlari lozim. Chunki kelajak yoshlar qo'lida. Yoshlarni Vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim vazifalarimizdan biri.

Agar inson ma'naviyatli, ma'rifatli bo'lsa, demak u oq va qorani, yaxshi-yomonni, haq va nohaqni, halolu haromni ajrata oladi. O'zi ham to'g'ri yo'ldan yurib, o'zgalarni ham shu yo'lga chorlaydi. Insonning kimligi, qanday muhitda tarbiya ko'rgani odobida aks etadi. Shuning uchun, avvalo, ularning odobiga e'tibor qarataylik. Bolalarimiz yosh umrini turli xil klublarda, ko'ngilochar barlarda o'tkazmay, darsxonalarda, sport mashg'ulotlarida, kutubxonalarda mashg'ul bo'lsalar, kelajakda komil inson bo'lib kamol topadilar. Ular bizning yuzimiz, mehnatimiz samarasidir.

### 30-iyun – O'zbekistonda Yoshlar kuni

“Kamolot” YIHning IV qurultoyida ishtirok etgan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatda O'zbekiston yoshlar ittifoqini tashkil etish taklifini bildirdi. Shu bilan bir qatorda, davlat rahbari ittifoq faoliyati bilan bog'liq bir qator takliflarni ham aytib o'tdi. Jumladan, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgan kun – 30-iyun sanasini O'zbekistonda *Yoshlar kuni* deb e'lon qilish taklifi davlat rahbari tomonidan bildirildi.

Prezident o'z nutqida yana bir muhim loyiha – 2020-yil 1-dekabrgacha har bir tuman va shaharda O'zbekiston yoshlar ittifoqiga qarashli, barcha qulayliklarga ega bo'lgan kutubxona va kitob do'konini ham o'z ichiga olgan kichik Yoshlar markazlarini barpo etish loyihasi haqida so'zladi. Bundan tashqari, Shavkat Mirziyoyev mamlakatda yoshlarga harbiy ta'lim-tarbiya beradigan kursantlar maktablariga “Temurbeklar maktabi” deb nom berish, turli soha va tarmoqlarda katta natijalarga erishib kelayotgan yigitlar uchun “Mard o'g'lonlar” degan nom bilan Davlat mukofotini ta'sis etish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda, o'qishda, mehnatda, jamoat ishlarida har tomonlamma faol bo'lgan yigit-qizlarni taqdirlash

maqsadida “Kelajak bunyodkori” medalini ta’sis etish takliflarini bildirdi.

**“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunidan**

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 37-son, 426-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda)*

Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 -yil 12- avgustda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2016- yil 24- avgustda ma’qullangan

\*\*\*

**4-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari**

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

ochiqlik va shaffoflik;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi;

yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi;

yoshlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmasligi.

**5-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari**

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;  
yoshlarning hayoti va sog‘ligini saqlash;

yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish;

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash;

yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;  
yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;  
yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;  
yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;  
yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

*Topshiriq.* Matnni o'qing, matn yuzasidan o'z fikrlaringizni bayon qiling.

#### Yoshlarga o'n besh nasihat

Yaxshi vatanparvar bo'lish, hayotda muvaffaqiyat qozonish, jisman va ruhan mukammal bo'lish uchun mehnatni sev, ish odami bo'l.

Yalqovlikdan uzoqlash, g'ayratli bo'l, vujudingni harakatga bag'ishla, tinma olg'a bos!

Ehtiyot bo'l, hamma ishingda tartib va intizomga rioya qil.

Senga jamiyat tomonidan topshirilgan vazifani bekamu ko'st ado qil.

Sharafing, nomusing va hayotingni qo'riqla, boshqalarning ham sharaf va nomuslarini hurmat qil.

Haqiqatni sev, yurish-turshingda sodda va tabiiy yo'lni tut.

Samimiy, pok qalbli va haqiqatgo'y bo'l.

Muloyim, lutfli, marhamatli va do'stparvar bo'l.

Qanoatli, hammaga mehribon bo'l. Hurmatga sazovor bo'lgan kishilar va narsalarga ehtirom qilishni unutma.

Mardlik, jasorat va shijoatni o'zingga shior qilib ol.

Sharaf va nomusingga dog' tushirish ehtimoli bo'lgan turli kayf-safodan kech.

#### 🌀 *Lug'at*

ajdodlar – предки

ehtirom – уважение, почтение, почет, честь

shijoat – храбрость, смелость, отвага

samara – плод, результат

vijdon – совесть

### Do'stlik haqida

Men do'stlik haqida juda ko'p eshitganman. Mening do'stlarim hammadan yaxshi, hammaning do'stlaridan ko'ra mehribonroq. O'ylaymanki, do'stlik bu bebaho ne'mat. Do'stlarimni yaxshi va yomon kunimda yonimda turuvchi eng yaqin sirdoshlarim bo'lganlari uchun ham hurmat qilaman va shu bilan bir qatorda ularning do'stligimiz yo'lida qilgan mehnatlarini qadrlayman. Biz do'stlarimiz bilan tez-tez ko'rishib turamiz va ularning yutuqlari haqida suhbatlashamiz. Men ular bilan faxrlanaman.

Mening eng quvnoq, qiziqarli davrlarim maktab davrlarida bo'lib o'tgan. Esimda, har kuni dugonalarim bilan turli-tuman sho'xliklar qilar edik. Lekin Dilnozaning Hamid otadan xafa bo'lgani esimdand chiqmaydi. Bir kuni Dilnoza, Feruza, Nilufar va men ko'chamiz yonidagi anhor yoqasida quvlashmachoq o'ynayotgan edik. O'shanda Hamid otaning sharpasi uzoqdan ko'rindi. Dilnoza odatdagidek uning qo'lidagi og'ir yukni ko'tarish uchun yugurgilab ketdi. U doim Hamid otaga yordamlashar, keyin esa uning og'irini yengil qilgani va doim Hamid ota unga "barakallo" deb aytgani haqida to'lib, toshib gapirar edi. Bugun ham shu hol takrorlansa kerak deb o'ylagan edik, lekin Dilnoza xafa bo'lib, ko'zida to'la yosh bilan keldi. Uning aytishicha, Hamid ota unga "qilgan ishing savob, lekin boshqalarga aytib g'ururlansang, minnat bo'ladi", debdi. Biz uning so'zlarini eshitib, jimgina uning yuziga termuldik.

### *Maqollarni yod oling*

|                                    |                                                   |
|------------------------------------|---------------------------------------------------|
| Savolni javobsiz qoldirma,         | Do'stsiz kishi bor, dushmansiz                    |
| Do'stni — e'tiborsiz.              | kishi yo'q.                                       |
| Ulug'lik yoshda emas, boshda.      | Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmas.                  |
| Do'stlik - barcha boylikdan afzal. | Yaxshilarga yondashsang,<br>maqsadingga yetarsan. |

### *Grammatik ma'lumot. O'zbek tilida sinonimiya.*

Tilimizda bir ma'noni bir necha so'zlar yoki affikslar yordamida ifodalash mumkin. Masalan, inson bosh qismining old tomoni *oraz*, *uzor*, *ruxsor*, *chehra*, *yuz*, *bet*, *aft*, *bashara*, *nusxa*, *turq* singari sozlar orqali ifodalanadi. Shuningdek, tilimizda *tilchi* - *tilshunos*, *dardchil* - *dardmand*, *o'rinsiz* - *noo'rin* kabi qo'shimchalar yordamida bir

ma'noni ikki xil shaklda yuzaga chiqarish imkoniyati ham uchrab turadi.

Bir umumiy ma'noni ifodalovchi so'z yoki qo'shimchalarga sinonimlar deyiladi. O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'z va qo'shimchalar sinonimlar uyasi yoki sinonimlar qatori deyiladi.

So'z maqomidagi sinonimlar lug'aviy (leksik) sinonimlar, qo'shimcha maqomidagi sinonimlar esa affiks sinonimlar sanaladi.

Lug'aviy sinonimlar bir umumiy ma'noni bildirsa ham, lekin ularning ma'no darajasi, ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma'lum uslubga xoslanishi bilan bir-biridan farqlanadi. Nutqiy jarayonda so'zlovchi maqsadiga muvofiq ravishda sinonimlar qatoridagi so'zlardan birini tanlaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan sinonimlar qatorida yuz so'zidan chap tomondagi to'rtta so'zda (*oraz, uzor, ruxsor, chehra*) ijobiy baho va uchtrasida(*oraz, uzor, ruxsor*) badiiy uslubga xoslanish belgisi bo'lsa, o'ng tomonidan beshta so'zda (*bet, aft, bashara, nusxa, turq*) salbiy baho munosabati mavjud va bu salbiy baho ularda darajalanib, kuchayib boradi (*bet* ga nisbatan *aft* da salbiy baho kuchliroq, *turq* da esa hammasidan kuchliroqdir. Demak, bu beshta so'zda salbiy baho kuchayib boradi).

Har qanday uslubiy xoslanish va so'zlovchining bahosidan xoli bo'lgan sinonimlar qatori a'zosi dominanta (uslubiy xoslanish va baho bildirishga ko'ra neytral) sanaladi. Demak, yuqoridagi sinonimlar qatorida yuz dominanta sanaladi.

Sinonimlar qatoridan nutq jarayonida o'rinli foydalanish so'zlovchining maqsadini aniq, ravon va ta'sirchan ifodalashda katta ahamiyatga ega.

Sinonimlar asosan boshqa tillardan so'z o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi. *sevgi*(o'zb.) - *muhabbat*(arab.); *kuch*(o'zb.) - *qudrat* (arab); *buyruq*(o'zb.) - *amr* (arab).

**Topshiriq.** Berilgan so'zlarning sinonimlarini toping.

Sabr, chehra, kasal, baxt, kuldi, quvondi, do'st, ozod, ko'rkam, o'smoq  
yurt, taom

**Topshiriq.** Quyidagi so'zlar ishtirokida so'z birikmalari tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

Iqtidor, yoshlar, tetik, ma'naviyatli, halol, odob, ma'rifat

### **✓** Test topshiriqlari

1. Faqat sinonim soʻzlardan iborat boʻlgan qatorni toping.

- a) sabr, toqat, chidam                      b) yuz, aft, tish  
s) kasal, bemor, yovuz                      d) doʻst, ogʻayni, dushman

2. Qaysi sinonimik qatorda asosiy soʻz birinchi berilgan?

- a) xoʻngradi, yigʻladi                      b) saodat, baxt  
s) jilmaydi, kuldi                      d) kasal, bemor

3. Butunjahon yoshlar kuni sifatida belgilangan sana koʻrsatilgan javobni toping.

- a) 13-avgust              b) 14-avgust              s) 15-avgust              d) 12-avgust

4. Oʻzbekistonda yoshlar kuni qachon nishonlanadi?

- a) 30-iyun kuni              b) 29-iyun kuni              s) 30-iyul kuni              d) 29-iyul kuni

5. Oʻzbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida" Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan?

- a) 2018- yil 4-iyun                      b) 2016-yil 15-sentabr  
s) 2017-yil 21-dekabr                      d) 2016-yil 14-sentabr

### **?** Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sizningcha bugungi yoshlar qanday boʻlmogʻi lozim?

2. "Ustadan shogird oʻzar" hikmatli soʻzlarini izohlab bering

3. Respublikamizda "Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida" Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni doirasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

4. Yoshlar ittifoqini tashkil etishga nimalar turtki boʻldi?

5. Sizning hayotingizda Yoshlar ittifoqining oʻrni qay darajada deb hisoblaysiz?

*Uyga vazifa.* "Oʻzbekiston kelajagi bilimli yoshlar qoʻlida" mavzusida insho yozing.

## 9-mavzu. Zamonaviy dunyoda ta'lim

*Nom yoymoq, istasa kimki jahonda,  
Musofirni ezgu tutsin har onda.*

 *O'qish uchun material*

### Oliy ta'lim

“Oliy ta'lim” atamasi zaminida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo'llagan va o'z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi. Oliy ta'lim oliy o'quv yurtlari tomonidan xalq xo'jaligi, fan va ma'daniyatning turli sohalari bo'yicha oliy malakali mutaxassis bo'lishni istagan va tegishli talablarni bajargan o'rta maxsus yoki kasb-hunar ta'limini olgan kishilarga ilmiy-nazariy bilim berish hamda muayyan ko'nikmalarni shakllantirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Oliy ta'lim jarayonida talabalarga oliy ma'lumot beriladi. Oliy ta'lim tushunchasi muayyan ixtisoslik bo'yicha mutaxassis oldida turgan nazariy va amaliy muammolarni mustaqil darajada hal qilish imkonini beruvchi bilim va malakalar yig'indisini anglatadi. Oliy ta'lim muassasalari yuridik maqomga ega. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining quyidagi ko'inishlari bor:

- universitet — oliy ta'lim dasturini bajarishda talabalarga egallayotgan sohasi bo'yicha yoki keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun keng qamrovli bilim berishga e'tibor qaratiladi;
- akademiya — oliy ta'lim dasturini bajarishda oliy ta'lim berish bilan bir qatorda keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun aniq bir yo'nalishga tayyorlaydi;
- institut — barcha oliy ta'lim muassasalari kabi oliy ta'lim dasturini bajaradi, bilim berishda bir yo'nalishga qaratilgan bilim beriladi.

### Zamonaviy dunyoda ta'lim

Hozirgi kunda ta'lim tizimida jahon tajribasini o'rganish va tatbiq qilish bizdagi ta'lim tizimini jahon standartlari darajasiga olib chiqish uchun zarur. Ta'lim sohasi global dunyoning tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o'z tuzilishi va faoliyat mazmunini o'zgartirishi zaruriyatdir. Bu borada dunyoning yetakchi davlatlari ta'lim tizimi tajribasini o'rganish, ularni tahlil qilish va tatbiq etish lozim.



*Garvard Universiteti* – AQSHdagi eng qadimiy universitetlardan biri, dunyodagi eng yirik moliyaviy imkoniyatlarga va rivojlanish fondiga ega ta'lim muassasasi. Bu oily dargohda 40 dan ziyod Nobel mukofoti sohiblari, shuningdek, ko'plab siyosatchilar (masalan, Teodor Ruzvelt va Barak Obama) va omadli ishbiarmonlar (masalan, Bill Geyts va Mark Sukerberg) bilim olganlar.

*Massachusetts Texnologiya Institut i*– aniq fanlar va texnologiyalar sohasida jahonda yetakchi mavqega ega bo'lgan bilim yurti. Institutda tabiiy fanlar va muhandislik ishi bo'yicha eng zamonaviy ilmiy tadqiqotlar o'tkazib kelinadi. Ushbu ilm dargohi siz va bizning hayotimizni o'zgartira olgan kashfiyotlarga mualliflik qilgan 80 nafar Nobel mukofoti sohiblarini, shuningdek, ko'plab olimlar, muhandislar va jamoat arboblari yetishtira olgan.

*Kembridj Universiteti* – Yevropadagi eng qadimiy ilm maskanlaridan biri. Ushbu universitetga 1209 -yilda asos solingan bo'lib, ko'plab fan yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ulkan tajriba to'plagan. Jahonda eng ko'p, ya'ni 88 nafar Nobel mukofoti sohiblari aynan shu ta'lim maskanida bilim olgan.

*Oksford Universiteti* – Yevropaning eng qadimiy universitetlaridan biri hamda Britaniya ta'lim tizimining haqiqiy faxri. Bu yerda o'qishni dunyodagi minglab yoshlar xohlashadi. Uning bitiruvchilari safida Lyus Kerrol, Djon Tolkin, Margaret Tetcher va Toni Bleyerni ko'rish mumkin. Bu o'quv dargohi o'zining ming yillik an'analarini asrab-avaylaydi hamda ta'lim berishning yuksak mavqeyini egallab keladi.

*London Universiteti* – Londonda ochilgan dastlabki o'quv muassasasi. Ko'plab fan sohalaridagi eng zamonaviy ilmiy tadqiqotlar aynan shu universitetda o'tkaziladi. Ushbu bilim yurtida o'z vaqtida Aleksandr Bell (telefon ixtirochisi), Djon Fleming (elektron lampa ixtirochisi), Frensis Krik (DNK molekulasi tuzilishi tadqiqotchisi)lar ta'lim olganlar.

*Topshiriq.* Dunyoning mashhur universitetlaridan biri haqida taqdimot tayyorlang.

### O'zbekistonda oliy ta'lim

O'zbekiston mustaqillika erishgandan keyin oliy ta'lim tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (1997) ga muvofiq, oliy ta'lim o'rta maxsus yoki kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki: bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Oliy o‘quv yurtlarida darslarga qatnashish majburiy. O‘quv yili yakuniy baholash bilan tamomlanadigan 2 semestrda iborat. O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlarida ta’lim 2 bosqichli bo‘lib, kamida 4 yillik bakalavriat va kamida 2 yillik magistraturadan iborat. Bakalavriat bosqichida talaba o‘qigan asosiy kurslardan davlat attestatsiyasidan o‘tadi va malakaviy bitiruv ishi yozadi. Magistratura bosqichida esa magistrlik dissertatsiyasini tayyorlab, himoya qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda ekstern (mashg‘ulotlarga qatnamay, individual tayyorgarlik asosida) yo‘l bilan o‘qish ham ko‘zda tutilgan.

Oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat bosqichini bitirganlarga mutaxassislik, magistratura bosqichini tugallaganlarga ixtisoslik beriladi. Oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilariga (kunduzgi, kechki, sirtqiligidan qat’iy nazar) ixtisosligi bo‘yicha bir xil kuchga ega yagona namunadagi diplom beriladi. Asosiy fanlarning 75% dan ortig‘ini “a’lo” baholarga o‘qigan talabalar imtiyozli diplomga ega bo‘ladilar.

### *Lug‘at*

|               |                                  |
|---------------|----------------------------------|
| ta’lim sohasi | – сфера образования              |
| hamkorlik     | – сотрудничество, сотрудничество |
| tadqiqot      | – исследование                   |
| mutaxassislik | – специальность                  |
| oliy ta’lim   | – высшее образование             |

### *Diqqatingizni jamlang!*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 5 - iyunda «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi № PQ-3775 sonli qarori qabul qilindi. Prezidentimizning mazkur qarorida Respublikamiz hududida yangi ta’lim muassasalarining ochilishi, kadrlar tayyorlash bo‘yicha yangi zamonaviy yo‘nalishlar va mutaxassisliklarning, sirtqi va kechki bo‘limlarning ochilishi; oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarining ko‘payishi haqidagi masalalar aytilgan. Qarorda ta’lim sifatining pasayib ketganligiga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, OTMda ta’lim sifatini oshirish, OTMning mamlakatda ro‘y berayotgan tub islohotlar jarayonidagi ishtirokini ta’minlash, 2017/2021-yillarda O‘zR rivojlanishining beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar

strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida qator vazifalar belgilandi.

### *Suhbat matni*

#### Ilm tantanasi

Odamzod paydo bo'libdiki, dunyoni bilishga harakat qiladi. Momaqaldiraq chaqmoqlari-yu, yer tebranishlari, fasllar aylanishi-yu, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari uzoq asrlardan buyon insoniyat ongini band etib keldi. Tabiat sirlarining ochilishi insonga bitmas-tuganmas qudrat va kuch baxsh etdi, yangi jumboqlar sari ilhomlantirdi.

Odamzod ahli ikki karra ikki to'rt ekanligini bilishdan, kosmik kemalarni kashf etishgacha bo'lgan uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Bunday aql karvoni yo'lida qanchadan-qancha ilm shaydolari azob chekmadilar, qanchadan-qancha insoniyatning asl farzandlari qurbon bo'lmadilar. Ammo ularning umri, hayoti va kashfiyotlari kelajak avlodlarning yo'lini yoritib turgan abadiy so'nmas mash'al bo'lib qoldi. Haqiqat uchun qurbon bo'lish, ilm tantanasi uchun jon fido etish kishilik jamiyati erishgan buyuk ma'naviy qudratning zavol bilmas haykali, buyuklik timsolidir.

Aqlning o'lchovi, ilmning poyoni yo'q. Ammo insoniyat ilmi, dunyo haqidagi haqiqatlar katta ijtimoiy kurashlar, to'qnashuvlar asosida qo'lga kiritiladi.

 *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling*  
*kishilik jamiyati, ma'naviy qudrat, so'nmas mash'al, aql karvoni, ilm shaydolari, taraqqiyot qonuniyatlari, tabiat sirlari, jumboq*

### *Tarjima mashqi*

#### ЮНЕСКО

ЮНЕСКО – это Организация Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры (UNESCO, United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization). Это межправительственная организация, специализированное учреждение ООН. Устав ЮНЕСКО был принят на Лондонской конференции в ноябре 1946 года после сдачи на хранение актов о его принятии двадцатью подписавшими его государствами. В настоящее время членами Организации является 191 государство. Местопребывание – Париж. Основная цель ЮНЕСКО — содействие укреплению мира и безопасности путём расширения

сотрудничества народов в области образования, науки и культуры в интересах обеспечения всеобщего уважения, справедливости, соблюдения законности и прав человека, а также основных свобод, провозглашённых в Уставе Организации Объединённых Наций, для всех народов без различия расы, пола, языка или религии.

#### 🔗 *Grammatik ma'lumot.* Til va terminologiya

Terminologiya keng ma'noda birinchidan, leksikaning bir sohasi – muayyan, fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog'ining san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlari majmuidir; ikkinchidan, tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi sohasidir.

Terminologiya tor ma'noda ma'lum bir sohaga oid maxsus leksika. Masalan, fizika terminologiyasi, mashinasozlik terminologiyasi kabi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash va boshqalar. Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamliligidir. Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida *yarimo'tkazgich - chalo'tkazgich - nimo'tkazgich* terminlari qo'llanmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qish-o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi.

Terminlarni mumkin qadar milliyalashtirish, tilimizning ichki imkoniyatlaridan atamalar yaratishda unumli foydalanish, shu bilan birga, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnik taraqqiyotimizga doir yangi tushunchalarni ifodalovchi chet tilidan kirib kelgan atamalarni ham zarur hollarda qabul qilish hozirgi atamashunosligimizning bosh tamoyili sanaladi. Shuning uchun ham xalq orasida keng iste'molda bo'lgan *radio, aeroport, institut, avtobus, telefon, samolyot* kabi atamalar tilimizda saqlab qolindi. Shuningdek, iqtisodiy hayotimizda buyuk burilishlar bo'lganligi sababli, ana shu reallikni ifodalovchi qator chet tilidan kirgan atamalar tayyor holda qabul qilindi: *birja, diler, aksiya, audit, auditor* kabi. Ana shu yo'llar bilan atamalar izga solinmoqda.

*Topshiriq.* Turli sohaga oid atamalardan misollar keltiring va ularni guruhlarga ajrating.

*Topshiriq.* O‘z sohangizga oid terminlarni yozing va ularning ma’nosini izohlang.

**✓ Test topshiriqlari**

1. Qaysi javobda atamalar ta’rifi berilgan?

- a) aytilishi va yozilishi bir xil, ammo ma’nosi har xil so‘zlar
- b) shakli har xil, ammo ma’nosi bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlar
- s) qarama-qarshi ma’noli so‘zlar
- d) ilm-fan, texnika, san’at, kasb-hunarga oid so‘zlar

2. Atamalar berilgan qatorni toping

- a) narvon, shoti, sarlavha
- b) o‘lpon, botmon
- s) jarida, firqa, ulus
- d) kub, kvadrat, integral

3. Qaysi gapda *achchiq* so‘zi o‘z ma’nosida qo‘llangan?

- a) Bu achchiq haqiqat edi
- b) Achchiq-chuchuk tayyorlang, qizim
- s) Achchig‘ing chiqmasin, bolam
- d) Qalampir taomni achchiq qilib yubordi

4. Ilmiy atamalar berilgan qatorni toping

- a) grammatika, maxraj, nizom
- b) dehqon, ishchi, kamqonlik, osh
- s) xodim, parda, ketmon, kitob
- d) hayvon, yirtqich, ot, qalam

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi № PQ-3775 sonli qarori qachon qabul qilindi?

- a) 2018 -yil 5-iyunda
- b) 2018-yil 4-iyunda
- s) 2017-yil 27-martda
- d) 2017-yil 22-yanvarda

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Jahondagi yetakchi oliy ta’lim muassasalari haqida nimalarni bilasiz?

2. Hozirgi kunda ta’lim tizimida jahon tajribasini o‘rganish biz uchun nimaga kerak?

3. Atama qanday hosil qilinadi?

4. Atamalarning umumxalq so‘zidan qanday farqi bor?

5. Mutaxassisligingizga oid qanday atamalarni bilasiz?

*Uyga vazifa.* O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarining nomlarini qisqartma otlar shaklida yozing.

## 10-mavzu. Kitob mutolaasi

*Odamning asili bil: ikki turlik,  
Biri-bek, biri-nek, ya'ni bilimlik.*

 *O'qish uchun material*

Kitob – bilimlar xazinasini

Kitob! Undan qudratliroq bilim va hayot maktabi yo'q. U insonni ulug'laydi, buyuk kashfiyotlarga yo'l ochadi. Kitob o'qib-o'rganmagan, bu bebaho xazinadan foydalanmagan kishini topish qiyin. Ammo bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanmayotganlar ham bor. Ko'p kitob o'qish, o'qiganda ham uni tushunib o'qishda hikmat katta. Ayni kunda kitob mutolaasi kerakmi, yo'qmi, degan savolni qo'yish xuddi tashna odamga suv ichasanmi, degan savolni berishga o'xshaydi. Zero, o'qish, ilm olishga intilish azal-azaldan xalqimiz fitratida mavjud. Bugun kitob mutolaasi, kitoblarni chop etish, ularni tarqatish tizimini takomillashtirish va eng muhimi, kitob chiqarish va kitobxonlikning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi quvonarli hol.

Kitob – bilim manbai, undan yaxshi do'st yo'q. Shuning uchun kitobni asrab-avaylaylik, uning ziyosidan boshqalarni ham bahramand etaylik.

Kitob tarixi haqida

Kitob bir necha ming yillar avval paydo bo'lgan, bu davrda u turli xil ko'rishishlarni olgan. Bobilliklar, ossuriyaliklar va boshqa qadimgi xalqlar kitobni loydan tayyorlashgan. Buning uchun yumshoq loydan tayyorlangan plitalarga uchli yog'och bilan maxsus belgilar tushirilgan. So'ngra uni oftobda quritishgan yoki olovda pishirishgan. Kitoblar, hatto, kutubxonalar mana shunday maxsus loy plitalardan tashkil topgan.

Xitoyda esa, dastlab kitobni yupqa bambuk plastinkalarga yozishgan, keyinchalik esa o'z kitoblarini mo'yqalam (cho'tkacha) va tush bilan ipakka, milodiy II asrdan boshlab qog'ozga yozishgan.

Qadimgi Misrda kitob matnlarini tosh plitalarga o'yib yozishgan. Keyinroq papirus ixtiro qilindi. Jips qilib bostirilgan qamish plastinkalarni bir necha o'n metrgacha uzunlikdagi lenta shaklida yelimlaganlar. Ularni o'rog'liq holda saqlaganlar. Misr papiruslaridan deyarli ikki ming yil davomida Yunoniston va qadimgi Rimda yozish uchun yaxshi material sifatida foydalanishgan.

Miloddan avvalgi II asrda Pergan podsholigidagi ustalar yozuv uchun hayvon terisidan yangi material - pergament tayyorladilar. Yunoniston va qadimgi Rimda papirus va pergament juda qimmatbaho material bo'lganligi uchun xomaki matn va xatlarni uchi o'tkir tayoqcha bilan ustiga mum surtilgan taxtachaga yozganlar.

XIII asrdan boshlab Yevropada qog'oz asosiy yozuv materialiga aylandi.

 *Berilgan so'z va iboralarining ma'nosini bilib oling*  
*bambuk plastinkalar, yozuv materiali, papirus, pergament,*  
*mo'yqalam, kitob tarixi, xomaki matn*

 *Maqollarni yod oling*

Kitob – bilim manbai.

Kitobdan yaxshi do'st yo'q.

Kitob – aql qayrog'i.

Ko'p o'qigan ko'p bilar.

Bilagi zo'r birni yiqar,

Bilimi zo'r mingni.

 *Suhbat matni*

Men Abdulla Qodiriyga qayin ini bo'laman, ya'ni u kishining zavjalari Rahbarniso mening opam bo'ladilar.

“O'tkan kunlar” nashr etilishi bilan men uni darrov o'qib chiqdim. Bir kuni Abdulla pochchamiz uyimizga mehmonga keldilar. Ziyofat chog'ida so'radilar:

— Xo'sh, mulla Asomiddin, “O'tkan kunlar”ni o'qidingizmi?

— Ha, o'qidim, – dedim g'ururlanib.

— Necha marta o'qidingiz?

— Bir marta.

— Hm-m. Bu kitobni bir marta emas, besh marta o'qish kerak. Shunda siz muomalani, odobni, hayotni, tarixni, tilni o'rganasiz, – degandilar. (Asomiddin Rasulmuhammad o'g'li)

\*\*\*

O'qishlar har xil bo'ladi: birov ermak uchun o'qiydi, birov hordiq chiqarish uchun, birov o'qiyotgan kitobini ilmiy tahlil qilish uchun, birov bo'lak mashg'ulot bo'lmaganidan vaqt o'tkazish uchun, birov asardagi voqeaga, qahramonning taqdiriga qiziqib o'qiydi. Shuning uchun atrofingizga qarasangiz, har xil kitobxonni ko'rasiz: kimdir tramvayda, metroda kitobga tikilgan, kimdir navbatga turganida, sumkasidan xatcho'p solingan kitobni olib ochadi, birov xiyobonda,

qosh qorayib qolgan bo'lsa ham, kitob varag'idan ko'z uzmaydi...  
(A. Muxtor)

Muammoli savol: “Kitob ta’lim va tarbiya olishdagi eng asosiy omillardan birimi?”

| Ha                                                                                           | Yo‘q                                                                                                                                   |
|----------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Kitob bilim olishda katta manba hisoblanadi                                                  | Birgina kitob emas, kitobdan boshqa omillar ham ko‘p. Masalan, kompyuter, internet tizimi va h. k.                                     |
| Tarixni o‘rganish va ma’naviyatni oshirishda kitobning roli beqiyosdir                       | Kitobdan nazariy bilim olishdan ko‘ra, amaliyotda ta’lim va tarbiya olish osonroqdir.                                                  |
| Kitob insonning eng samimiy do‘stidir, u umri davomida kitobdan har mavzuga javob topa oladi | Siyqasi chiqqan kitoblarni o‘qigandan ko‘ra teatr, kino, ko‘rgazmalarga borgan yaxshiroq. U yerda ko‘proq ta’lim-tarbiya olish mumkin. |


 *Tarjima mashqi*

Книги в нашей жизни

Все всегда начиналось с книги. Сначала нам нравилось держать её в руках, перелистывать страницы, рассматривать картинки и ощущать тайну, которую скрывали тогда ещё незнакомые письма. А потом книга по-настоящему раскрывалась перед нами, и черные значки на белом фоне обретали смысл и превращались в нашем сознании в причудливые картины. Для кого-то книги всегда остаются верными спутниками жизни, а кто-то волей или не волей утрачивает с ними связь. Мы не знаем, насколько далеко зайдет научно-технический прогресс, и окончательно ли любовь к чтению погаснет но мы знаем точно – чтение книг делает нас лучше.

Siz hayotda nimalarga qiziqasiz? “Nima uchun?” sxemasi





### 🔗 *Grammatik ma'lumot.* Erkin va turg'un birikmalar

Ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat darajasida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror (turg'un) birikmalar deyiladi. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kiriladi.
2. Ma'no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Barqaror birikmalardan o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko'rki hisoblanadi. Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi paremiologiya (lot. parema - "barqaror", logos - "ta'limot"), barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa paremiografiya (lot. parema - "barqaror", grafho - "yozmoq") sanaladi.

Barqaror birikmalarga quyidagilar kiradi:

1. Frazelogizmlar (iboralar).
2. Maqol va matallar.
3. Hikmatli so'zlar (aforizmlar).

*Frazelogizmlar.* Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalar frazeologizmlar (iboralar) dir.

*Maqol.* Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollardir.

*Matal.* Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, to‘g‘ri ma‘noda qo‘llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar matallardir.

*Hikmatli so‘zlar (aforizmlar).* Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib ma‘lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalar hikmatli so‘zlar (aforizmlar) dir.

 *Diqqatingizni jamlang!*

Mashhur aforizmlardan namunalar

“Nimadir senga yoqmasa, uni o‘zgartir. Modomiki, uni o‘zgartira olmas ekansan, unga nisbatan munosabatingni o‘zgartir.” – Meri Engelbrayt

\*\*\*

“Ma‘nosiz umrdan, ma‘noli o‘lim afzal.” – Korason Akino

\*\*\*

“Xudo meni o‘zgartirish qo‘limdan kelmaydigan narsalarni qabul qilishim uchun samimiylilik bilan, o‘zgartirishim mumkin bo‘lgan narsalarni o‘zgartirishim uchun jasurlik bilan, ularni ajrata olishim uchun esa aql bilan siylagan.” – Reyngold Nibur

\*\*\*

“Ko‘pchilik odamlar anglash uchun emas, javob qaytarish niyatida tinglaydilar.” – Stiven Kovi

\*\*\*

“Ko‘pincha kambag‘allik deganda ochlik yoki uysizlikni tushunamiz. Aslida keraksiz bo‘lib, muhabbat va g‘amxo‘rlikka zoriqish chinakam yo‘qsillikdir. Har kim bu baloga qarshi kurashni o‘z oilasidan boshlamog‘i lozim.” – Tereza Ona

\*\*\*

“Kecha – o‘tmish, erta – mavhum, hozir atalmish bugun esa – Xudoning mukofotidir.” – Bil Kine

*Topshiriq.* Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan harflardan mosini qo‘yib maqollarni ko‘chiring va ularda ilgari surilgan g‘oya haqida fikrlashing.

Yurt boshiga ish tu...sa, er yigit ...ozir bo‘lar.

Xalq bor yerda ...aqlik bor.

El boqsa, bax...ing kular, el bo...masa, ta...ting qular.

Xalq...a suyansang, bo'l...san, xalqdan ch...qsang, so'larsan.

*Topshiriq.* Berilgan iboralarning ma'nolarini izohlang va gaplar tuzing.

Otni qamchilamoq, otning qashqasiday, oshig'i olchi, popugi pasaymoq, yuzi yorug' bo'ldi, to'ydan oldin nog'ora chalmoq, tuyaning dumi yerga tekkanda, tuyaning ustida ham it qopadi, to'nini teskari kiyib olmoq.

### **✓ Test topshiriqlari**

1. Frazelogizmlar, maqollar, aforizmlar qanday birikmalar hisoblanadi?

- a) barqaror birikmalar                      b) so'z birikmalari
- s) tasviriy ifodalar                              d) fonetik birliklar

2. Maqolni davom ettiring: *O'z uying –*

- a) o'z to'shaging                                  b) jonajon uying
- s) o'lan to'shaging                                d) qush inida ko'rganini qiladi

3. Quyidagi birliklardan qaysilari ham erkin, ham turg'un birikma sanaladi?

- a) ko'ngli ko'tarildi, esi chiqib ketdi, toqatlari toq bo'ldi ;
- b) ko'ziga issiq ko'rindi, ko'zi to'rt bo'ldi, lom-lim demadi;
- s) bag'ri tosh, aqli kirgan, joni halqumiga tiqilgan;
- d) boshiga yetmoq, qulog'iga quymoq, o'z yog'iga qovurilmoq.

4. Turg'un birikmalar bo'lgan iboralarni o'z ichiga jamlagan filologik lug'at turi berilgan qatorni toping.

- a) "O'zbek tili frazeologizmlarining izohli lug'ati"
- b) "O'zbek tilining toponimik lug'ati"
- s) "O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati"
- d) "O'zbek tilining etimologik lug'ati"

5. Quyidagi iboraning to'g'ri tarjimasini berilgan qatorni aniqlang

*Hu nyxa hu nepa*

- a) Qushday yengil bo'ling                      b) Aytganingiz kelsin
- s) O'takasi yorildi                                  d) Omadingizni bersin

### **? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qadimda xalqlar yozuv materiali sifatida nimalardan foydalanishgan?

2. Siz qanday asarlarni sevib o'qiysiz? Asar mualliflari haqida ma'lumot bering.
3. Nutq go'zalligini ta'minlashda barqaror birikmalarning o'rnini qanday?
4. Kitob mutolaasi insonga nima beradi?
5. Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi qanday ataladi?

*Uyga vazifa.* O'qilgan kitoblaringiz ro'yxatini tuzing va ularga qisqacha tavsif bering.

## 11-mavzu. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

*Uquv-idrok qora tunningga chiroq,  
Bilim nuri bilan yonar yaxshiroq.*

 *O‘qish uchun material*

### Bilimlar maskani

Kutubxona – bu kitoblarni to‘plamini saqlanadigan, bosma va ayrim qo‘lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta‘minlovchi, muntazam ravishda bosma asarlar to‘plash, saqlash, targ‘ib qilish va kitobxonlarga yetkazish, shuningdek, axborot-bibliografiya ishlari bilan shug‘ullanuvchi, ommaning madaniy saviyasini oshirishda eng faol bo‘lgan, barcha savodxon va ijodkorlar uchun madaniy-ma‘rifiy va ilmiy muassasadir. Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish kutubxonaning asosiy faoliyati bo‘lib, qolgan barcha faoliyatlar(kitob fondini butlash va uni tashkil etish, fond mazmunini yoritish, uni kitobxonlarga yetkazish kabilar) asosiy faoliyat uchun xizmat qiladi.

Kutubxonalar yozma yodgorliklarni saqlovchi xazina sifatida juda qadimda paydo bo‘lgan. Qadimgi davrdagi kutubxonalardan eng mashhuri *Aleksandriya (Iskandariya) kutubxonasidir*.

O‘zbekiston hududida mil.av.1-ming yillikning so‘nggi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo‘lgan. O‘zbekiston xalqlarining qadimiy yozma yodgorliklari saqlanmagan. Beruniyning xabar berishicha, kitob xazinalari va ularni saqlovchilar turli istilolar davri(7-9-asrlar)da yo‘q qilib yuborilgan. 9-10-asrlarda O‘rta Osiyoda fan va madaniyat rivojlandi. Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch va boshqa yirik shaharlar hukmdorlari saroylarida kutubxonalar barpo etildi. Ayniqsa, Buxoroda ko‘p kutubxonalar mavjud bo‘lganligi haqida ma‘lumotlar bor. Ulardan eng mashhuri, eng boy va yirigi Somoniylarga tegishli sulolaviy kutubxonadir.

O‘zbekiston Respublikasida kutubxonalarning ommaviy, ilmiy va maxsus turlari bor. Saqlanayotgan adabiyotlar tarkibiga qarab kutubxonalarni universal, ko‘p sohali va soha kutubxonalariga ajratish mumkin. Kutubxonalar o‘z navbatida, faoliyati, mintaqaviy darajasiga, mansubligiga qarab yana turlarga bo‘linadi (milliy kutubxona, davlat kutubxonasi, viloyat, o‘smirlar, qishloq xo‘jaligi kutubxonalari va b.)

O‘zbekistonda 17 mingga yaqin ommaviy, ilmiy va maxsus kutubxonalar mavjud. Ularning umumiy fondi 140 mln. nusxadan ortiq.

## Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

Vatanimizdagi eng katta kutubxona Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasidir. Bu kutubxona 1870-yilda tashkil etilgan. Kutubxonada dunyoning ko‘pgina tillaridagi besh milliondan ortiq kitob mavjud. Bundan tashqari bu kutubxonada O‘zbekiston, O‘rta Osiyo tarixi, ilm-fani, adabiyoti, madaniyatiga oid bir necha minglab noyob qo‘lyozmalar saqlanmoqda.....

*Topshiriq.* Manbalarga tayangan holda yurtimizdagi eng katta kutubxona haqidagi matnni davom ettiring.

### Sevimli maskan

Bizning fakultetimizda kutubxona bor. U ikkinchi qavatda joylashgan. Kutubxonada mutaxassisligimizga oid turli mualliflarning kitoblari jamlangan. Bundan tashqari falsafa, ma‘naviyat asoslari kabi fanlarga oid kitoblar, badiiy adabiyotlar ham bor. Kutubxona xodimlari bizga kerakli kitoblarni tezda topib beradilar. Kutubxonada qiroatxona ham bor. Ba‘zan talabalar shu yerda dars tayyorlaydilar. Men deyarli har hafta fakultet kutubxonasiga borib, qiroatxonada dars tayyorlayman. U yer doim ozoda va jim-jit.

Mirzo Uluqbek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti rektorati binosida universitet kutubxonasi joylashgan. U yerda barcha fanlarga oid turli yillarda nashr etilgan ko‘plab kitoblar jamlangan. Kitob javonlaridan ilmiy jurnallar, gazetalar ham o‘rin olgan. Juda katta, yorug‘ va shinam qiroatxonada turli fakultet talabalari darslarga tayyorlanishadi, referat uchun material to‘plashadi. Xushmuomala va chaqqon kutubxonachilar kerakli kitoblarni tezda topib berishadi. Bu yer talabalarning eng sevimli maskaniga aylangan.

✍ *Berilgan so‘z va iboralarning ma‘nosini bilib oling*  
*qiroatxona, kitob javonlari, kutubxona xodimi, noyob qo‘lyozmalar,*  
*ilmiy-ommabop, ilm-ma‘rifat maskani, savodxon, ma‘naviyat*  
*asoslari*

### 🗨 *Suhbat matni*

#### Virtual kutubxona

Virtual so‘zining ma‘nosi, bu tasavvur qilishdir. Virtual kutubxona bu odatdagi kutubxonaning abstrakt ko‘rinishidir. Bu kutubxonada kitoblar, jurnallar va ro‘znomalar kitob javonlarida emas, balki kompyuter xotirasida joylashgan bo‘ladi. Bu kompyuterlarda yoki

kompyuter maxsus qurilmalarida raqamli formatda saqlanadigan ma'lumotlar to'plami: bosma, audio, video va multimedia ma'lumotlaridir. Ma'lumotlar hajmiga qarab serverlar bitta yoki tarmoq bilan bog'langan bir necha kompyuterlardan iborat bo'ladi. Elektron kutubxonada kutubxonachi bo'lmaydi, shuning uchun zarur kitob yoki ma'lumotni kompyuter xotirasidan siz o'zingiz qidirib topasiz.

## Tarjima mashqi

### Библиотека

Книги играют важную роль в жизни человека. Из книг мы черпаем все знания, накопленные за многие века. В библиотеке можно найти книги различных направлений, начиная от детских сказок и заканчивая серьезной научной литературой. В каждом городе есть центральные и районные библиотеки, они бывают детскими, юношескими, академическими.

На сегодняшний момент существуют электронные книги, они удобны и легки в использовании. Практически любую литературу можно найти в Интернете.

### Бумага и книга

Бумага и чернила попали в Европу гораздо раньше, чем техника печати. Бумагу научились делать сначала в Китае, Японии и Корее, еще в 751 г. несколько китайских мастеров, владевших секретом производства бумаги, были пленены и отправлены в Самарканд (Средняя Азия), где поведали о своих методах и изготовлении бумаги. С этим процессом со временем познакомился арабский мир, а затем и Европа, где бумага постепенно вытеснила пергамент. Первую бумагу делали из отходов – старых тряпок, веревок; с помощью водяного колеса их волокна преобразовывали в бумагу. В одном из итальянских городов, первым начавшем производить бумагу, – Фабриано – ее делают до сих пор, хотя быстрый поток у подножия горного хребта уже давно не вращает водяные колеса. Когда бумагу научились делать в Европе, пришла пора для начала книгопечатания.

*Topshiriq.* Mavzuni mustahkamlash uchun savollar tuzing.

✍ *Grammatik ma'lumot.* Frazеologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari.

Frazеologik birlik – tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan, ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalardir. Masalan: *tomdan tarasha tushganday, oyog'ini qo'liga olmoq, sichqonning ini ming tanga* va b.

Frazеologizmlar gap tarkibida yaxlit holda bitta so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasida keladi, nutqni ta'sirchan, jozibali qiladi.

Frazеologizmning semantik tuzilishi (ma'no imkoniyatlari) frazeologik ma'no va qo'shimcha ma'no bo'yoqdorligi (ottenka)dan iborat bo'ladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi. Frazеologik ma'no obrazlilik bilan leksik ma'nodan farq qiladi.

Frazеologizmlar mohiyat e'tibori bilan asosan so'zlashuv va badiiy nutqqa xosdir. Ulardagi boshqa uslubga xos chegaralanishlar esa ma'lum muddat keyin yuzaga keladi. Masalan, birgina *o'lmoq* ma'nosini anglatadigan yuzga yaqin frazeologizmlar sinonimik qatorining paydo bo'lishi ularning vazifaviy chegaralanish imkoniyatini tug'diradi. Masalan, bu tizimga kiradigan *olamdan o'tmoq, dunyodan o'tmoq, omonatini topshirmoq, qulog'i ostida qolmoq, jon bermoq* shakllari so'zlashuv uslubida ishlatilsa, *vafot etmoq, hayotdan ko'z yummoq, dunyodan ko'z yummoq, hayot bilan vidolashmoq* kabilar ilmiy, ommabop va rasmiy uslublarda uchraydi. *Alloh rahmatiga yo'l tutmoq, shahodat sharobini ichmoq, rixlat qilmoq* singarilar esa badiiy matnga tegishlidir.

*Topshiriq.* Berilgan iboralarning ma'nolarini izohlang va gaplar tuzing.

Ko'zi moshdek ochilmoq, sabr kosasi to'lmoq, ko'ngli joyiga tushmoq, boshi ko'kka etmoq, yerga urmoq, yuragi g'ash bo'lmoq, ko'zi to'rt bo'lmoq.



*Topshiriq.* Iboralar izohidagi xatoliklarga e'tibor qarating. Ular ishtirokida og'zaki gaplar tuzing.

Kavushini to'g'rilab qo'ymoq (qo'rqmoq), kapalagi uchib ketmoq (boplamoq), og'zi qulog'ida (maqtamoq), ko'klarga ko'tarmoq (xursand), qovog'idan qor yog'moq (oson), xamirdan qil sug'urganday (xafa).

**☑ Test topshiriqlari**

1. *Qo'li egri* iborasiga ma'nodosh so'z qaysi?

a) qo'li qiyshiq      b) yolg'onchi      s) o'g'ri      d) mug'ombir

2. Qaysi javobda *kuchli* so'ziga sinonim bo'lgan frazeologik birlik keltirilgan?

a) Oyog'idan o't chaqnaydi

b) Xursandligidan og'zi qulog'iga yetdi

s) Tog'ni ursa talqon qiladi

d) Tekkanga tegadi, tegmaganga kesak otadi

3. Qaysi gapda oy so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan?

a) Qorong'i osmonda to'lin oy charaqladi      b) Navro'z mart oyida nishonlanadi

s) Oy yer yuzini necha marta aylanadi?      d) Oy yuzingni ko'rsatgin, dilbar

4. *Qovog'idan qor yog'moq* iborasining ma'nosini toping?

a) oson      b) xafa      s) xursand      d) ma'yus

5. Quyidagi iboraning to'g'ri tarjimasini toping. *Сидеть на шее*

a) Yelkamning chuquri ko'rsin      b) Jonini qo'yarga joy topolmadi

s) Oyog'ini qo'liga olmoq      d) O'ligini ortmoq

*Uyga vazifa.* Universitet kutubxonasi haqida matn tuzing.

## 12-mavzu. Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltiruvchi manba

*So‘zni o‘ylab so‘zla, yasha qayg‘usiz,  
Bekor berma vaqtni, chekmaysan afsus.*

 *O‘qish uchun material*

### Adabiyot – so‘z san’ati

Badiiy adabiyotning inson hayotida juda katta o‘rin tutishining muhim bir sababi undagi tasvir imkoniyatlarining g‘oyat keng ekanligidir. Dunyodagi hech bir san’at turi badiiy adabiyotning o‘rnini bosa olmagan holda adabiyot bir qator san’atlarga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ko‘plab san’at turlari hayotning, inson kechmishlarining muayyan bir turg‘un holatinigina aks ettira oladi, badiiy adabiyot esa ma’lum obraz hayotining hozirini qanday tasvirlay olsa, uning o‘tmishini ham, kelajagini ham shu taxlit batafsil va teran ifoda eta oladi. To‘g‘ri, kino, teatr singari san’at turlarida ham bunday imkoniyat bor. Lekin shuni unutmaslik kerakki, har qanday film yoki spektakl asosida badiiy so‘z turadi. Rassomlik, haykaltaroshlik, raqs va hokazo san’at turlarida timsolning birgina holati ifoda etiladi, xolos. Badiiy adabiyot esa timsolni har jihatdan keng ko‘lamda va teran tasvirlash imkoniyatiga ega.

### Navoiy dahosiga ehtirom

Alisher Navoiy xalqimiz ma’naviy dunyosining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan buyuk siymolardan biridir. Bugungi kunda yoshlar qalbida milliy g‘urur, o‘zlikni anglash, go‘zallik va nafosatga shaydolik tuyg‘ularini kamol toptirishda Navoiy asarlari muhim manba bo‘la oladi. Zero, ulug‘ san’atkor asarlari mohiyatiga singdirilgan insonparvarlik, xalqparvarlik, adolat, haqiqat, shukronalik, sabr-qanoat, kelajakka umidvorlik singari g‘oyalar barcha davrlarda ham insoniyat ma’naviy kamoloti uchun muhimdir.

Inson qalbining quvonchu qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi va bu yetuk mutafakkir bizning bobokalonimiz ekanligidan faxrlanishimiz zarur. Ona tiliga muhabbat, milliy g‘urur singari tuyg‘ular ham bizning ong-u shuurimizga dastavval Alisher Navoiy asarlari bilan kirib keladi.

Xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni Navoiyning bebaho merosidan bahramand etsak, madaniy yuksalishimizda, jamiyatda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik kuchli ma’naviy qurolga ega bo‘lamiz.

🔗 *Berilgan soʻz va iboralarning maʼnosini bilib oling*  
*shaydolik tuygʻulari, insoniy fazilatlar, bebaho merosi, madaniy*  
*yuksalish, maʼnaviy qurol, milliy gʻurur, shukronalik*

### Erkin Vohidov

Erkin Vohidov hozirgi zamon oʻzbek sheʼriyatining yirik vakilidir. Shoir 1936- yilda Fargʻona viloyati Oltiariq tumanidagi qishloqda oʻqituvchi oilasida dunyoga keldi. Otasi tarix oʻqituvchisi, bilimdon, dilkash, onasi ham savodli, oʻtkir zehnlil ayol edi.

Erkin Vohidovda sheʼriyatga havas-ishtiyoq juda erta uygʻondi. Yettinchi sinfda oʻqiyotgan vaqtidayoq “Mushtum”da birinchi sheʼri bosildi va 1961-yilda, 25 yoshida “Tong nafasi” nomli ilk toʻplami nashr etildi. Shu vaqtdan boshlab Oybek, Gʻafur Gʻulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzodalar eʼtiboriga tushdi va nomi el orasida tobora keng yoyila boshladi. “Yoshlik devoni”, “Muhabbat”, “Ruhlar isyoni” kabi sheʼriy kitoblari, dostonlari va “Oltin devor”, “Istanbul fojiasi” kabi asarlari kitobxonlarning muhabbatiga sazovor boʻldi. Uning kitoblari Yoshlar mukofoti, Hamid Olimjon nomli mukofot, Xamza nomli Oʻzbekiston davlat mukofotlarini oldi, shoirga “Xalq shoiri” degan unvon berildi, qator orden va medallar bilan taqdirlandi. Erkin Vohidov ijodi bugungi oʻzbek adabiyotida noyob hodisadir. Uning sheʼriyati xalq qalbiga chuqur kirib bordi. Bunga sabab shoirning ijodga, sheʼriyatga katta muhabbat va chuqur eʼtiqod bilan yondashib, uni insonning baxt-saodati uchun kurash vositasiga aylantirishidir. Shoir shunday degan edi: “Xalqni maqtagan shoir ulugʻ emas, uning oʻzligini oʻziga koʻrsatib bera olgan, ayovsiz gapni ayta olgan shoir ulugʻ”. Erkin Vohidov 1999- yilda “Oʻzbekiston Qahramoni” degan yuksak unvonga sazovor boʻldi.

### 🌀 *Lugʻat*

|             |   |                       |
|-------------|---|-----------------------|
| ijod        | – | творчество            |
| asar        | – | произведение          |
| taassurot   | – | впечатление           |
| manba       | – | источник              |
| tasvirlamoq | – | изображать, описывать |



### *Suhbat matni*

Tasavvur qiling: siz tasviriy san'at muzeyiga kirdingiz. Polotnolardagi ranglarni, odamlarning qiyofasini ko'zingiz bilan ko'rib, hayajonga tushasiz.

Tasavvur qiling: siz magnitofonda musiqa tinglayapsiz. Cholg'u ohanglari, xonandaning ovozi qulog'ingiz bilan eshitib, hayajonga tushasiz...

Endi tasavvur qiling: siz kitob o'qiyapsiz. Oq qog'ozda qora chiziqlar – harflardan bo'lak hech qanaqa rang yo'q. Hech kim kuy ham chalmaydi. Ammo asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z o'ngingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi. Qulog'ingiz ostida ajib ohanglar jaranglay boshlaydi. O'zingiz bilmagan holda qattiq hayajonga tushasiz... Hech shubhasiz, badiiy adabiyot – dunyodagi sakkizinchi mo'jiza! (O'.Hoshimov)

\*\*\*

Istiqlol epkinlari iste'dod chashmalarining ko'zini ochayotir. Vatanning kun sayin obod bo'layotgani, yangi yo'llar, muhtasham inshootlar barpo etilayotgani yurtodoshlarimiz qalbiga faxr-iftixor baxsh etmoqda. Iste'dodli shoirlar: Suvon Soqiy, Ismoil To'xtamishev, Rustam Musurmon, Sharofat Ashurova, Rustam Ochil va boshqa ijodkorlar yangi-yangi she'rlari bilan kitobxonlar qalbiga kirib bormoqdalar. (U.Normatov)



### *Tarjima mashqi*

Алишер Навои

Основатель узбекской поэзии, великий поэт, мыслитель, государственный деятель Алишер Навои родился 9 февраля 1441 года в городе Герате. Литературное и научное наследие поэта можно разделить на 4 цикла:

1. Диваны.
2. Дастаны.
3. Поэтическое наследие на персидском языке.
4. Научно-филологические, прозаические и исторические произведения.

Созданные на узбекском языке поэтическое наследие Алишера Навои в основном представлено в диване «Хазойин ул-маоний».

Шедевр творчества поэта - «Хамса» состоит из пяти дастанов. Это «Хайрат ул-аброр» («Смятение праведных»),

«Фархад и Ширин», «Лейли и Меджнун», «Сабъаи сайёр» («Семь планет»), «Садди Искандари» («Стена Искандера»). Его произведения на персидском языке собраны в «Девони Фоний». Алишер Навои написал научно-филологическое произведение «Мухокамат ул-лугатайн», посвящённое сравнительной грамматике узбекского и персидского языков. Этим он показал красоту и богатство узбекского языка.

### Захириддин Мухаммад Бабура

Известный узбекский поэт, большой ценитель и покровитель науки, искусства и литературы Захириддин Мухаммад Бабура за свою короткую жизнь оставил богатое литературное и научное наследие. Его перу принадлежат знаменитое «Бабурнаме», снискавшее мировую признательность, оригинальные и прекрасные лирические произведения, содержательные трактаты по музыке, военному искусству.

Поэтическое наследие Бабура многогранно и богато. В его стихотворениях реалистически отражены исторические события эпохи, его личная жизнь, окружающая среда, отношения к человеку, к религии, к обычаям и нравам времени. Можно сказать, что стихи Бабура - автобиография поэта, в которых поэтическим языком, трогательно излагаются глубокие чувства, мастерски рассказывается о переживаниях, порожденных в результате столкновения с жизненными обстоятельствами.

✎ *Grammatik ma'lumot. Nutq uslublari. Badiiy nutq uslubi, uning xususiyatlari.*

Til birliklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni nutq sanaladi. Hayotning turli sohalari, jarayonlarida turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, nutqning quyidagi uslublari o'zaro farqlanadi: *so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy uslub.*

*Badiiy uslub.* Badiiy uslub kishi hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, o'quvchi yoki tinglovchiga hissiy-estetik ta'sir etishga yo'naltirilganligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi.

Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan va ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi yoki o'zi yangilarini yaratishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o'ziga xos so'z va iboralar ham ijod etadilar. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi. Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni badiiy idrok etish ko'lami, ijod usuli, poetik mahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra badiiy nutq uslubi nisbatan keng imkoniyatlarga ega o'ta qamrovli va boy nutq ko'rinishidir. Barcha turdagi san'at va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi.

Badiiy uslub so'z san'atiga, timsoliy fikrlash sohasiga oid va funksional jihatdan chegaralangan emas. Uning mazmun doirasini nihoyatda keng va u timsollar, badiiy to'qima, yozuvchi fantaziyasi natijasida yuzaga keladi. Badiiy uslubda proza, poeziya va dramaturgiyaga oid asarlar yaratiladi. Badiiy uslub timsol, ijod va shaxs munosabatida yuzaga keladi. Badiiy uslubda umumxalq tili va adabiy tilning barcha qatlamiga mansub so'z va iboralar keng va faol ishlatiladi.

Bu uslub doirasida til vositalarini qo'llashning ma'lum me'yorlari ham amal qiladiki, fonetik, grammatik, leksik va frazeologik xususiyatlar tarzida ko'zga tashlanadigan ana shu me'yorlar uni boshqa vazifaviy uslublardan chegaralash imkonini beradi.

Badiiy adabiyot tilidagi fonetik o'zgarishlar asosan matnda tovushlarning qisqargan va orttirilgan (*So'rma mendan, kim dilor o / Do'stmi yo janona deb.* E.Vohidov; *Ne balolig' kun edikim.* *Oshino bo'ldim sango.* Alisher Navoiy; *Shabboda men seni ko'rmayman, / Qo'linga tutmayman.* Zulfiya), ona tilimizning tarixiy taraqqiyot va she'riyat qoidalariga mos tarzda z ning y ga (*So'yla quyosh nimalar bo'lgan, / Sen chiqqanda birinchi marta.* H.Olimjon), q ning g' ga (*Quyosh orqasidan –behisob chirog' / Nuriga kiradi mamlakat shu chog'.* Zulfiya) o'tgan ko'rinishlarida me'yorlashgan.

Shuningdek, badiiy uslubda, xususan poetik nutqda hozirgi adabiy orfografik me'yor talablariga muvofiq kelmaydigan *qaro, yamon, yaro, oshno, talosh* singari so'zlar ham ishlatilaveradi.

Badiiy adabiyotda dialektizmlarning ishlatilishi adabiy til me'yoriga muvofiq kelmaydi. Lekin ular badiiy uslub talablariga mos keladi.

Badiiy uslubda adabiy til boyliklaridan foydalanibgina qolinmasdan, undagi ko'plab birliklarning tilda me'yorlashuviga, adabiy tilning boyib, rivojlanib bori-shiga doimiy ravishda ta'sir o'tkazib turadi.

Badiiy adabiyotning komil insonni tarbiyalash, uning ma'naviy olamini boyitishdan tashqari, so'z san'ati sifatida, savodxonlikni ta'minlash, nutq madaniyati va mahoratini oshirishdagi roli ham beqiyosdir.

*Topshiriq.* O'qing. Matnning qaysi uslubga mansubligini ayting va matn yuzasidan savollar tuzing.

Yomg'irdan keyin osmonda paydo bo'ladigan kamalak jahondagi jamiki ranglarni yettita ipga tortib turganga o'xshaydi. O'sha yetti ipni kim yoyib yuborsa, u olamni anvoyi gullarga burkaydiganday.

Odam bolasi borki, u shu ranglardan birini o'ziniki qilib oladi, butun taqdirini, tarjimayi holini, orzu-umidlarini va, nihoyat, olamni shu rang orqali ko'radi. Shu narsa ayonki, tabiat ham shu rang ta'siriga tushib qoladi.

Masalan, men gunafsha rangni yaxshi ko'raman. Shu rangga ko'zim tushishi bilan butun umrim ko'z oldimga keladi. Yayrab ketaman. Bunga sabab, yoshligimda gunafsha rang qog'ozdan varrak yasab uchirardim. Shunisi qiziqarli ediki, ko'm-ko'k bahor osmoni bolalar uchirgan anvoyi rang varraklarga to'lib ketardi. Ular orasida mening gunafsha rang varragim alohida ajralib turardi. (S. Ahmad)

*Topshiriq.* Muhammad Yusufning hayoti va ijodi haqidagi hujjatli lavhalar asosida suratga olingan filmni tomosha qiling. Film yuzasidan fikrlaringizni bildiring.

### ☒ *Test topshiriqlari*

1. Berilgan gap nutq uslublarining qaysi biriga xos?

*Istadim sayr aylamoqni men g'azal bo'stonida.*

a) badiiy                      b) ilmiy                      s) publitsistik                      d) rasmiy

2. Obrazlilik va estetik ta'sir etish qaysi nutq uslubining muhim belgisi?

a) badiiy                      b) rasmiy  
s) ilmiy                      d) so'zlashuv

3. "Tarixing bitmakka, xalqim, mingta ..... kerak"

(E. Vohidov) Nuqtalar o'rnida qaysi adib nomi bo'lishi kerak?

a) Farg'oniy                      b) Nodira                      s) Firdavsiy                      d) Beruniy

4. Boburning ushbu ta'rifı kim haqida?

“Turkiy til bila to she'r aytibturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas.”

a) Jomiy                      b) Navoiy                      s) Lutfiy                      d) Xondamir

5. O'zbek tili uslublari qaysi javobda to'liq keltirilgan?

a) ilmiy uslub, badiiy uslub, publitsistik uslub, so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub

b) kitobiy uslub, matbuot uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, badiiy uslub

s) ilmiy uslub, og'zaki uslub, badiiy uslub, rasmiy uslub, so'zlashuv uslubi

d) rasmiy uslub, so'zlashuv uslubi, yozma uslub, ilmiy uslub, badiiy uslub

**?** *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:*

1. Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlaridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

2. Hozirgi o'zbek adabiyotining zabardast shoirlaridan yana kimlarni bilasiz?

3. Obrazlilik va estetik ta'sir etish qaysi nutq uslubining muhim belgisi?

4. Adabiy tilga to'g'ri ta'rif bera olasizmi?

5. Badiiy adabiyot inson ruhiyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

*Uyga vazifa.* Adabiyot haqidagi hikmatli so'zlardan namunalar yozing.



### 13-mavzu. Ommaviy axborot vositalari

*Ishongan kishiga so‘z aytmog kerak,  
Ishonchli so‘zini chin etmog kerak.*

 *O‘qish uchun material*

#### Ommaviy axborot vositalari

Ommaviy axborot vositalari (OAV) – bu har bir kishiga maxsus texnika vositalari orqali xilma-xil, ochiq, rasmiy ma’lumotlarni yetkazib berish muassasalari. Ular davriy matbuot, televideniye, radio, kino, ovoz yozish, internet va boshqa turdagi muassasa, vositalardan tarkib topadilar.

Jamiyatda rivojlangan, demokratik prinsiplar asosida tashkil etilgan, siyosiy voqea-hodisalarni xolis yoritib bera oladigan OAVning mavjudligi demokratik davlat taraqqiyotining, samarali boshqaruvning kafolatidir. Agar axborot vositalari jamiyat siyosiy tizimida ana shu vazifani chin sadoqat, prinsipiiallik bilan bajara olmasa, demokratiyaga katta putur etkaziladi, u hukmron guruh, qatlamlarning yashirin o‘yin, hiyla-nayranglari uchun xizmat qiladi, qadrsizlanadi.

Ommaviy axborot vositalari har doim jamiyat taraqqiyotining ko‘zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vositalardan biri bo‘lib kelgan.

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari, jumladan matbuotga e’tibor nihoyatda oshdi. Matbuotning davr talabiga javob berishi, dolzarb muammolarni aks ettirishi, ularning yechimini ko‘rsatishi, ommani operativ axborot bilan ta’minlashi, o‘z zimmasidagi vazifalarni munosib bajarishi, umuman, “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga ko‘tarilishi ko‘p jihatdan jurnalistlarning kasbiy mahoratiga, til materiallaridan o‘rinli va oqilona foydalana olish qobiliyatlariga bog‘liq.

Ommaviy axborot vositalari orasida radio va televideniyeining o‘ziga xos o‘rni bor. Ular kishilarni axborot bilan ta’minlashdan tashqari til madaniyati va ma’naviyatini egallashda, nutq madaniyati va mahoratini oshirishda eng muhim ko‘rgazmali vosita sanaladi.

Jurnalist – asosiy faoliyati jurnalistika bilan shug‘ullanish bo‘lgan, muhim faktlar, voqealar, odamlar, hodisalar haqidagi axborotni yig‘ish, qayta ishlash va uni auditoriyaga yetkazish orqali ommaviy axborot vositalarini axborot bilan to‘ldiruvchi shaxs. Jurnalistlar, asosan, publitsistik faoliyatga yo‘nalgan bo‘lib, ular o‘z oldiga ma’lum ijtimoiy fikrni shakllantirish, shuningdek, davlat hokimiyatining u yoki bu qaror va harakatlariga tahrirlovchi sifatida ta’sir qilish va nashr, radio yoki

telekanal ta'sischi'lari belgilagan chegaralar doirasida jamiyat va davlat o'rtasidagi vositachi bo'lishni maqsad qiladilar.

Muxbir (arab. – xabar beruvchi, xabarchi) –

- 1) tahririyat tarkibida jurnalist sifatida xizmat qiluvchi xodim;
- 2) bevosita tahririyatda ishlamaydigan, ammo ommaviy axborot vositalarida muntazam ijodiy hamkorlik qiluvchi shaxs;
- 3) boshqa ommaviy axborot vositalarida chiqish uyushtiruvchi gazeta, jurnal, nashriyot, radio, televideniye tahririyatlarida faoliyat olib boruvchi xodim.

Jurnalist – muxbir, reportyor (axborot-yangiliklar xizmati xodimi) va sharhlovchiga teleoperator, produser va boshqa texnik xodimlari yordam berishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari fotografi (suratkashi) reportyor yoki muxbir bilan birgalikda ishlashi yoki mustaqil ravishda o'z nashri uchun fotoreportajlar tayyorlashi mumkin. Bu jarayonda u fotojurnalistga aylanishi mumkin.

 *Lug'at*

|             |                   |
|-------------|-------------------|
| muxbir      | – корреспондент   |
| tahririyat  | – редакция        |
| nashr       | – издание         |
| yangiliklar | – новости         |
| maqola      | – статья, заметка |

 *Suhbat matni*

### Sevimli gazetam

Har kuni uni varaqlayman. Darsdan qaytgach, u bilan birpas mashg'ul bo'laman. U orqali tengdoshlarim hayoti va qiziqishlari, dunyoda ro'y berayotgan voqealar, ajoyib xabarlar bilan tanishaman. Shuning uchun uni qiziqib o'qiyman. Bu "Turkiston" gazetasi. U mening sevimli gazetam. Har yili unga obuna bo'laman. Bu gazetada tengdoshlarimning hayoti, o'qishi va qiziqishlariga oid ko'p maqolalar bosiladi. Bunday maqolalarni o'qishni juda yoqtiraman. Yaqinda buxorolik do'stim o'qiydigan kollejda o'tkazilgan "Mohir qo'llar" tanlovi natijalari to'g'risidagi maqolani o'qib qoldim. Nodir ismli bu do'stim ganjdan ajoyib maket yasab, tanlov g'olibi bo'libdi. Darrov unga elektron pochta orqali tabrik yozdim. Ana shunaqa, gazeta juda kerakli narsa. Ayniqsa, gazetaning to'rtinchi sahifasida dunyo yoshlarining qiziqarli faoliyatlari haqida ixcham xabarlar ko'p bo'ladi. Madaniyat va sport xabarlarini ham shu

gazetadan o'qib olaman. Xullas, bu gazeta men uchun qadrli bo'lib qolgan.

## *Tarjima mashqi*

### Средства массовой информации

Настоящее время принято называть информационным веком, ведь сегодня информация – это одна из самых главных ценностей. И ее создание и распространение – дело рук средств массовой информации.

Как мы уже отметили роль СМИ в жизни общества неоценима. Сегодня мы можем очень быстро получать информацию о происходящем. Без СМИ сложно представить какую-либо сферу жизни. СМИ играют важную роль в формировании общественного мнения. По статистике люди больше верят увиденному и услышанному. СМИ охватывает огромные объёмы информации – практически все сферы деятельности человека.

Различные средства массовой коммуникации и развлечения: газеты, журналы прочие печатные издания, телевидение, радио и кино. Обычно на первое место выдвигаются развлекательные программы СМИ: именно они позволяют привлечь инвестиции, приносят доход и обеспечивают (и сохраняют) аудиторию.

### Журналистика

Журналистика – один из видов человеческой духовной культуры. Журналистика существует наряду с такими понятиями как театр, кино, литература и т.д., однако в отличие от них она является более живым, более народным, более особенным. Продукт журналистики воспринимается массовой аудиторией, и по силе своего влияния она не сравнима с видами культуры. Термин «журналистика» употребляется очень часто в разных сферах и аудиториях. Любой человек, по мере возможности, читает газеты, смотрит телевизор, слушает радио.

Журналистская информация должна быть социально-значимой, а также современной, новой. Именно такая информация воздействует на мышление, духовный мир человека и вызывает определенные реакции.

Самая главная задача журналистики – создать и донести информацию в массы. Она может быть разной, но должна быть обще-интересной, современной, прогрессивно содержательной.

Журналистика создает историю современности. Она функционирует вместе с обществом. Это творческая профессия.

✍ *Grammatik ma'lumot.* Publitsistik uslub va uning xususiyatlari. Publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari uslubidir. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir qilish, soddalik, tushunarlik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir. Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lish, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega.

Publitsistik uslub siyosiy-ijtimoiy doiradagi munosabatlar uchun xizmat qiladi. Bu uslubning yozma turiga publitsistik maqolalar, feleton, murojaatnoma, xatlar, chaqiriqlar kirsalar, og'zaki turiga notiqlik kiradi. Bunda, albatta, radio va televideniening o'ziga xos o'rni bor. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ'ibot uslubi bo'lganligi uchun ham unda siyosiy faollik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi.

Shunga ko'ra publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar ham, badiiy uslubga xos belgilar ham o'zaro uyg'unlashadi. Bu uslubda hayotiy voqea va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo'shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiy xulosalar chiqariladi hamda muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqtirish orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatiladi.

Publitsistik uslubga amal qilinadigan manbalar orasida, ayniqsa, matbuot, ya'ni gazeta va jurnallarning alohida o'rni bor. Chunki gazeta va jurnallarning materiallari adabiy tilning o'ziga xos ko'zgusi hisoblanadi. Berilgan rasmiy va dolzarb xabarlar, axborotlar, e'lonlar, bosh maqolalardagi fikrlar kichik hajmdagi ommabop jumlar orqali ifodalanadi va har bir xabar, ma'lumotga ta'sirli, uning asosiy mohiyatini ifodalovchi sarlavhalar qo'yiladi-ki, bu hol o'quvchining diqqatini jalb qilishga xizmat qiladi. Gazeta tilining adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilingan holda yozilishi, gazetani barcha yoshdagi insonlarning mutolaa qilishi uning savodxonlik, nutq madaniyati va mahoratini egallashda o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

Publitsistik uslubning asosiy xususiyatlaridan yana biri tilning yangi so'z va iboralar bilan boyib borishiga sabab bo'ladi. Jamiyat rivoji, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zaro aloqalar tufayli boshqa tillardan kirib kelgan so'z va birikmalarning ommalashishiga,

o‘zlashishiga ham sabab bo‘ladi.

*Topshiriq.* O‘qing. Matnning qaysi uslubga mansubligini ayting va matn yuzasidan savollar tuzing.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ko‘rsatilganidek, harbiy xizmatni o‘tish har bir yigitning burchi hisoblanadi. Har bir yigit o‘z Vatanini qo‘riqlashni oliy baxt, deb biladi. O‘zbekistonga xizmat qilishni o‘zining sharaflari burchi deb hisoblaydi. O‘z so‘zining ustidan chiqmagan, o‘z burchini bajarmagan kishilar xalq orasida hurmat topmaydilar.

*Topshiriq.* O‘qing. Matnning qaysi uslubga mansubligini ayting va matn yuzasidan savollar tuzing.

Kishida odob bo‘lsa, ilm ham bo‘lishi lozim. Odob shunday tojki, u aqlli, farosatli odamlar boshini bezaydi. Odobli odam tabibga o‘xshaydi, chunki u bilan suhbatlashish ko‘ngildagi g‘amni quvadi. Ilm bir daraxt, odob esa uning mevasidir. Odob ulug‘lik va yuksaklik qasrining narvonidir, shuning uchun u orqali barcha maqsad va manzillarga yetish mumkin. Qaysi yerda ilm-u ma‘rifat kuchli bo‘lsa, o‘sha yer baxt maskanidir. (“Sharq hikmatlaridan”)

### *Test topshiriqlari*

1. Ommaviy axborot vositalari uslubi qanday uslub sanaladi?

- a) badiiy uslub
- b) ilmiy uslub
- s) publitsistik uslub
- d) rasmiy uslub

2. Voqea -hodisalar haqida aniq, dalillarga asoslangan, tezkor ma‘lumotlar beruvchi nutq uslubi –

- a) rasmiy-idoraviy uslub
- b) badiiy uslub
- s) ilmiy uslub
- d) publitsistik uslub

3. Qaysi qatorda adabiy tilga to‘g‘ri ta’rif berilganini aniqlang

- a) Qadimgi turkiy til adabiy til deb ataladi
- b) Ilmiy asar tili adabiy til hisoblanadi
- s) Badiiy asar tilini adabiy til deb ataymiz
- d) Umumxalq tilining sayqallangan, ma‘lum me‘yorga solingan shaklidir.

4. Quyidagilardan qaysi xususiyat publitsistik uslubga xos?

- 1) kinoya, piching, qochirmalarga boy bo‘lishi;
- 2) axborot berish va ta’sir qilish;
- 3) obrazlilik;
- 4) soddalik, tushunarlilik, ta’sirchanlik;

5) adabiy til me'yoriga qat'iy amal qilish.

a) 1,2,5                      b) 2,3,4                      s) 2,4,5                      d) 1,3,5

5. Maqolaning qaysi turida dolzarb xabarlar, yangiliklar haqida axborot beriladi?

a) ilmiy maqolada              b) uslubiy maqolada              s) publitsistik maqolada  
d) a, s

**?** *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:*

1. Ommaviy axborot vositalarida nutqning mantiqiyligi buzilgan misollarni keltira olasizmi?
2. Publitsistik uslubga xos xususiyatlar qaysilar?
3. Ommaviy axborot vositalari uslubi qanday uslub sanaladi?
4. Tilshunoslikning uslubshunoslik bo'limida nimalar o'rganiladi?
5. Sevimli gazeta(jurnal)ingiz haqida gapirib bering.

*Uyga vazifa.* "XXI asrda axborotning o'rni" mavzusida esse yozing.

## 14-mavzu. Internet hayotimizda

*Uyatsiz kimsadan andisha yiroq,  
Uyatsizdan yiroq yurgan yaxshiroq.*

 *O'qish uchun material*

### Internet

*Internet* – [lot-. Inter – aro va net (work) – tarmoq] – katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butunjahon kompyuter tizimi. Unda geografik o'rni, zamon va makondan qat'iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o'zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi. Qaydnomalar tizimi bilan boshqariladigan barcha hosila tarmoqlar hamkorlikda iste'molchilarga ma'lumotni saqlash, e'lon qilish, jo'natish, qabul qilish, izlash va ma'lum bo'lgan barcha variantlar (matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida va boshqa ko'rinishlar)da ma'lumotlar almashinishga imkon yaratadi.

Internet tizimi XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. 80-yillar o'rtalarida internetni jamoat va tijorat tarmoqlariga ulash natijasida internet tizimi ham kengaydi, ham sifat jihatidan rivojlandi. 90-yillarda internet tizimini boshqarish borasida tub o'zgarishlar yuz berdi.

Internet standartlar tizimi hisoblanadi. U o'z faoliyatida o'zini - o'zi boshqarish falsafasiga rioya qilib faoliyat yuritadi. Hozirgacha uni boshqarib turadigan yagona tashkilot yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Intrnet" ning xalqaro axborot tizimlariga kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2001) O'zbekistonning bu borada xalqaro miqyosda o'z mavqeiga ega bo'lishiga xizmat qiladi. O'zbekistonda ma'lumotlarni uzatish milliy tarmog'i O'zPAK Davlat kompaniyasi va O'zNET tarmog'idan iborat.

O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida xalqaro internet tarmog'iga ulanish O'z PAK Davlat kompaniyasining xalqaro kanallari orqali ta'minlanadi. O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Internet tizimida O'zbekistonning yuzlab saytlari faoliyat yuritmoqda.

 *Lug'at*

tarmoq – сеть, отрасль

haqiqat – правда, истина

kashfiyot – открытие, изобретение

axborot texnologiyalari – информационные технологии

ilm – наука, знание

## Kompyuterlar

Kompyuterlar avlodlari dastlab XVIII asrda kashf etilgan. Uning asosini elektron lampalar tashkil qilgan. Uning hajmi juda katta bo'lgan. U faqat qo'shish va ayirish amallarini bajargan.

Keyingi hisoblash mashinalari tranzistorlar asosida qurilgan bo'lib, hajmi birmuncha kichraytirilgan, tezkorligi birinchi avlodga nisbatan bir necha marta oshgan. Bu avlod mashinalarida qo'shish va ayirish amallaridan tashqari, bo'lish amali ham bajarilgan. Tranzistorga asoslangan hisoblash mashinalari qattiq disklar asosida ishlagan.

Uchinchi avlod kompyuterlari 50–60-yillarda paydo bo'lib, ular integral sxemalarga asoslanib qurilgan.

To'rtinchi avlod kompyuterlari KISlarga asoslangan va nihoyatda tezkor va katta xotira hajmiga ega bo'lgan.

Hozirgi zamonaviy beshinchi avlod kompyuterlari fototoklarga asoslangan bo'lib, nihoyatda katta imkoniyatlarga ega.

🌀 *Tarjima mashqi*

## Компьютер

На сегодняшний день самой популярной техникой для дома и офиса является персональный компьютер. Его можно использовать и для отдыха, и для работы. С его помощью можно просматривать видео, работать с документами, обрабатывать фото и видео-файлы, играть в игры и использовать в качестве развлекательного центра. Но самый главный плюс техники даже не в этом.

Компьютер – это всегда престижно, удобно и без него многие просто не могут обходиться. А уж о том, какое значение имеют компьютеры на производстве, в научной отрасли и быту, и говорить не приходится.

С чем бы мы не сталкивались в повседневной жизни, все работает на базе компьютера. Банковские системы, торговые сети, сфера образования, науки и развития технологий, медицина, промышленность, да и любая другая сфера, так или иначе касающаяся нашей жизни, для обеспечения своей работоспособности использует компьютер.

🌀 *Grammatik ma'lumot. Og'zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari.*

Og'zaki so'zlashuv uslubi grammatik qurilishi sodda, qisqa, mazmunan ta'sirchan bo'ladi. Bunda xalq maqollari, masallar, rivoyat va ertaklar, latifa va qo'shiqlar, so'z o'yinlari-pichinglar, hazil-mutoyibalar, askiya va qochirimlar muhim manba sanaladi.



Soʻzlashuv nutqida ona tilidagi bor imkoniyatlardan foydalanilsa ham, har bir soha, kasb, guruh kishilarining nutqida oʻziga xoslik seziladi: olimlarning suhbat bilan ishchi, xizmatchi, dehqonning soʻzlashuvida farq boʻladi. Hatto erkag-u ayollar soʻzlashuvi oʻrtasida ham baʼzi farqli jihatlar kuzatiladi. Ayollar suhbatiga: *voy oʻlay, voy shoʻrim, voy oʻlmasam, girgitton boʻlay, aylanay, oʻrgilay* kabi iboralar xos boʻladi.

Jonli nutq jarayonida uslubiy boʻyoq iboralaridan keng foydalaniladi, bu nutqda „xom“ ibora va gaplar, behayo soʻzlar ham uchraydi. Baʼzan bunday qatlamlar badiiy asarlardan ham oʻrin oladi. Soʻzlashuv uslubi yozma nutqqa koʻchganda maʼlum bir fonetik, leksik, grammatik qonuniyatlarga asoslanadi. Yozma nutq adabiy til meʼyorlari asosida tuzilgan nutqdir.

Bugungi kunda kundalik hayotimizda nutq uslubining yana bir shakli namoyon boʻlmoqda. Bu uslub ogʻzaki-yozma uslub deb yuritiladi. Bu uslub asosan yoshlarning telefon, smartfonlardagi sms yozishmalari, telegramm, feysbuk, chat kabi tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan muloqotlari tilida uchraydi. Ogʻzaki-yozma uslubning yoshlar orasida ommalashuviga bu uslubdagi soʻz va jumalarning nihoyatda qisqartirib berilishi, turli xil shakllar va belgilarning keng koʻlamda ishlatilishi va, asosiysi, adabiy til meʼyorlariga amal qilinmasligi hamda imlo qoidalaridan holi ekanligi sabab boʻlmoqda. Bundan tashqari, bu uslubda sheva unsurlari, tilning noodatiy qatlamiga kiruvchi varvar soʻzlar, vulgar soʻzlar, jargon hamda argoga taalluqli soʻzlardan keng koʻlamda foydalaniladi. Masalan: *qaley, ok.misan, che gap, man ok.man*

**Topshiriq.** Oʻqing. Matnning qaysi uslubga mansubligini ayting.

Olimlar kompyuterni inson miyasidan andoza olib yaratgan. Oʻylaydi. Hisob-kitob qiladi. Muammoni yechadi. Xulosa chiqaradi. Eslab qoladi. Faqat kompyuterning insondan bitta ustunliga bor: keraksiz axborotni xohlagan paytda xotirasidan oʻchirib tashlashi mumkin. Odam esa yomon xotiralarni miyasidan oʻchirib tashlola olmay aziyat chekadi... (Oʻ. Hoshimov)

**Topshiriq.** Oʻqing. Quyidagi hikmatli fikrlarning maʼnosini izohlang.

1. Ilm maskanlarida faqatgina fikr erkinligi, chinakam ijod va izlanish hukmron boʻlmogʻi zarur.

2. Ilmga intilish yo‘qolsa, fan taraqqiy etmaydi, ilm - fan rivojlanmasa, jamiyatning kelajagini tasavvur etib bo‘lmaydi.
3. Ilm-ma‘rifatga qiziqishi sust millatning kelajagi ham bo‘lmaydi.
4. Ba‘zan bittagina ilmiy kashfiyot mamlakatni butun dunyoga mashhur qiladi.

**✓ Test topshiriqlari**

1. Berilgan gap nutq uslublarining qaysi biriga xos?  
*Adabiy nutqning muayyan sohadagi muloqot uchun moslashtirilgan, bir qator o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadigan ko‘rinishlari — uslublari mavjud.*

- a) badiiy            b) ilmiy            s) publitsistik            d) rasmiy

2. Berilgan gap nutq uslublarining qaysi biriga xos?  
*Bugun O‘zMUning Madaniyat saroyida “Yoshlik bahori” festivalining yakunlovchi bosqichi bo‘lib o‘tdi.*

- a) badiiy            b) ilmiy            s) publitsistik            d) rasmiy

3. Voqea -hodisalar haqida aniq, dalillarga asoslangan, tezkor ma‘lumotlar beruvchi nutq uslubi –

- a) rasmiy-idoraviy uslub            b) badiiy uslub  
 s) ilmiy uslub            d) publitsistik uslub

4. Qaysi qatorda adabiy tilga to‘g‘ri ta’rif berilganini aniqlang

- a) Qadimgi turkiy til adabiy til deb ataladi  
 b) Ilmiy asar tili adabiy til hisoblanadi  
 s) Badiiy asar tilini adabiy til deb ataymiz  
 d) Umumxalq tilining sayqallangan, ma‘lum me‘yorga solingan shaklidir.

5. Berilgan gap nutq uslublarining qaysi biriga xos?

*Xalq ertangi kuni yaxshiroq bo‘lishini istasa, birlashmog‘i, uyushmog‘i va haqiqat uchun kurashmog‘i kerak.*

- a) badiiy            b) ilmiy            s) publitsistik            d) rasmiy

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Internetdan foydalanish madaniyatiga egamisiz?
2. Ham og‘zaki, ham yozma savodxonlikka erishish uchun nimalar qilish kerak?
3. XXI asr axborot tezligi asri tushunchasini siz qanday izohlaysiz?
4. Obrazlilik va estetik ta’sir etish qaysi nutq uslubining muhim belgisi?
5. Hozirda internetni boshqaruvchi tashkilot bormi?

*Uyga vazifa.* Ta'lim jarayonida eng ko'p foydalaniladigan internet saytlari ro'yxatini tuzing.

## 15-mavzu. O'zbekiston va jahon

*Otim bo'lsin desang el aro ezgu,  
Yomonga yondoshma, buning yo'li –shu.*

 *O'qish uchun material*

### Istiqlol

Mustaqillik azaldan insoniyatning orzu-umidlari, armon va iztiroblarini o'zida mujassam etadi. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. Eng avvalo, shuni aytish kerakki, mustaqillik tenglik sari qo'yilgan birinchi qadamdir. Chunki tenglik bo'lmagan joyda kimdir kimgadir tobe bo'ladi. Mutelik bor joyda o'zgalar hisobiga yashash kabi illatlar paydo bo'ladi. Tenglik so'zining qudrati shundaki, u odamlarning o'zaro munosabatlaridan tortib, mamlakatlararo munosabatlargacha hamma narsani me'yor-mezonga soladi.

Istiqlol – o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o'zaro munosabatlarida ham, jahon davlatlari o'rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ana shu umumiy mezonlar asosida yashash demakdir.

Mustaqillik – jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarni erkin tafakkurga suyangan holda yashash salohiyati, jahonga yuz tutish, eng rivojlangan mamlakatlar qatorida bo'lish imkoniyatidir. Biz yoshlar mamlakatimiz mustaqilligini himoya qilishimiz, yaxshi o'qib, malakali mutaxassislar bo'lishimiz, yurtimizning yanada gullab-yashnashi uchun harakat qilmog'imiz lozim.

### O'zbekiston jahon hamjamiyatida

O'zbekiston jahonga yuz tutdi. Uning mustaqilligini 170 dan ortiq davlatlar tan oldi, o'nlab mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi o'nlab nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

O'zbekiston erishayotgan yutuqlar dunyo hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilayotganini nufuzli xalqaro tashkilotlarning xulosalarida ko'rish mumkin. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e'lon qilingan reytingda keyingi yillarda iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan davlatlar orasida mamlakatimiz beshinchi o'rinni egalladi. Endilikda O'zbekiston siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi barqaror, suveren, demokratik respublikadir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko‘magida AQSHning Kolumbiya universiteti tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy tadqiqotlar asosida e‘lon qilindi. “Butunjahon baxt indeksi”da Vatanimiz 158 ta mamlakat o‘rtasida 44-pog‘onani, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari orasida 1-o‘rinni egallagan. Bunday natijalar bilan har bir yurtdoshimiz haqli ravishda faxrlansa arziydi.

So‘nggi yillarda qator rivojlangan davlatlarning ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlari, taraqqiyot bosqichlari haqidagi xolis maqolalar yoritilmoqda, ko‘rsatuvlar, hujjatli filmlar namoyish etilmoqda. Fransiyaning “Franse 2” yetakchi telekanali O‘zbekistonning afsonaviy shaharlari Samarqand va Buxoro haqidagi maxsus reportajlarni o‘zining 10 million nafardan ziyod tomoshabinlari e‘tiboriga havola qildi.

🔔 *Yodingizda tuting!*

#### Muhim sanalar va voqealar

- 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.
- 1990-yil 24-martda ittifoqdosh respublikalar ichida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimi ta‘sis etildi.
- 1990-yilda yurtimizda Navro‘z bayrami qayta tiklandi.
- Ramazon va Qurbon hayitlari bayram va dam olish kuni deb e‘lon qilindi.
- O‘zbekiston 170 ga yaqin davlat bilan diplomatik aloqalar o‘rnatdi.
- Poytaxtimizda 40 dan ziyod davlatning elchixonalari, ko‘plab nufuzli xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari ishlab turibdi.
- Mamlakatimiz BMT, MDH, SHHT singari xalqaro tuzilmalar doirasida jahon hamjamiyati va mintaqada davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy hamkorlikni amalga oshirmoqda.
- 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

*Topshiriq.* Yuqorida berilgan ro‘yxatni davom ettiring. O‘z tanlagan mutaxassisligingiz doirasidagi muhim sanalar va voqealarga e‘tibor qarating.

🔔 *Berilgan so‘z va iboralarning ma‘nosini bilib oling*

*hamkorlik, bozor munosabatlari, bunyodkorlik, jahon hamjamiyati, elchixona, taraqqiyot bosqichlari, vakolatxona mustamlakachilik, hurriyat*

## Узбекистан

Республика Узбекистан расположена в Центральной Азии. На территории современного Узбекистана цивилизация развивалась с древних времён. Этот край имеет богатую историю, уходящую своими корнями в глубь тысячелетий.

Народы Узбекистана дали миру крупных учёных, знаменитых поэтов и писателей, которые оставили великое наследие человечеству. В мире нет человека, который бы не слышал о великом писателе, поэте и учёном Алишере Навои. Огромно наследие великого философа, врача и поэта Абу Али Ибн Сины, получившего широкую известность в Европе под именем Авиценны.

\*\*\*

Узбекистан с самым большим населением среди стран Центральной Азии обладает богатыми природными ресурсами. Страна находится на третьем месте в мире по экспорту хлопка, добывает большое количество газа и золота, а также является признанным в своём регионе производителем в химической промышленности и машиностроении.

Узбекистан первым среди республик бывшего Союза, ввёл пост президента. 29 декабря 1991 года впервые в истории Узбекистана состоялись всенародные выборы Президента республики на альтернативной основе. На этот пост подавляющим большинством голосов был избран Ислам Абдуганиевич Каримов. 2 марта 1992 года Узбекистан был принят в ООН в качестве полноправного субъекта международного права. Высшим государственным представительным органом является Олий Мажлис Республики Узбекистан, осуществляющий законодательную власть. Олий Мажлис Республики Узбекистан состоит из двух палат — законодательная палата (нижняя палата) и Сенат (верхняя палата).

## 🌀 *Lugʻat*

*Davlat* – oʻz fuqarolarining ijtimoiy siyosiy huquqlarini himoya qiluvchi, bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashilotlar tizimiga ega boʻlgan mustaqil mamlakat.

*Konstitutsiya* – davlatning yuksak yuridik kuchga ega bo‘lgan asosiy qonuni; barcha joriy qonunlarning asosi.

*Prezident* – respublika boshqaruvi shaklidagi ko‘pchilik mamlakatlarda ma’lum muddatga saylab qo‘yiladigan davlat boshlig‘i.

*Parlament* – demokratik mamlakatlarda butunlay yoki asosan saylov asosida tuziladigan oliy vakillik va qonunchilik organi.

✍ *Grammatik ma’lumot.* Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari.

Rasmiy diplomatik uslub jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubidir.

Bu uslub adabiy tilning yozma shakliga xos bo‘lib, muayyan nutqiy qolip, qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo‘lgan nutq uslubi sanaladi. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli qolipdagi muhim hujjatlar, xalqaro bitim va shartnomalar, ish qog‘ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar shu uslubda yoziladi. Bu uslub davlat arboblari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxona, muassasa larning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlarda o‘z aksini topadi.

Rasmiy uslub yozma shaklda ro‘yobga chiqadi, bunda adabiy til me’yorlariga rioya qilinadi. U har qanday tasviriy vositalar, obrazlilikdan xoli bo‘lgani holda, har qaysi hujjat turining o‘ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularining sintaktik tuzilishi qat’iy qoliplarga bo‘ysunadi.

Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy qoliplar, kasbga oid so‘zlar, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo‘llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta’minlaydi.

Hujjatlar matnining darak-axborot xarakterida bo‘lishini, so‘zlarning bir ma’noda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo‘lmasligini, fe’lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo‘shma gap turlarining keng qo‘llanilishini talab qiladi. Til materiallari hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

*Topshiriq.* Hujjat namunalaridan birini tanlab olib, unda aks etgan hujjat mazmunining bayon etilish usuliga e’tibor bering. Asosiy so‘z va iboralar, tayyor nutq qoliplarini izohlang.

*Topshiriq.* Quyidagi nutqiy qoliplar ishtirokida gaplar tuzing.

Qabul qilishingizni so‘rayman, ozod etishingizni so‘rayman, sizga ma’lum qilamanki, buyruqqa asosan, betobligim tufayli, ruxsat berishingizni so‘rayman.

**☑ Test topshiriqlari**

1. Rasmiy uslubda gaplar qanday shaklda bo‘ladi?

- a) murakkab, majhul shaklda                      b) aniq, ixcham va sodda shaklda
- s) kengaytirilgan shaklda                      d) qoliplanmagan shaklda

2. Rasmiy-idoraviy uslubda tilning qanday vazifasi amalga oshiriladi?

- a) axborot uzatish va da’vat etish, buyurish vazifasi
- b) axborot qabul qilish va targ‘ibot qilish vazifasi
- s) tilning kommunikativ vazifasi
- d) axborot uzatish va targ‘ib qilish vazifasi

3. Qaysi hujjatda ma’lum bir davr mobaynidagi faoliyat natijalari aks ettiriladi?

- a) ma’lumotnoma                      b) hisobot
- s) bildirgi                      d) majlis bayoni.

4. Muayyan nutqiy qolip, qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo‘lgan nutq uslubi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- a) so‘zlashuv uslubi                      b) ilmiy uslub
- s) publitsistik uslub                      d) rasmiy uslub

5. Adabiy til uslublarining qaysi biri inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi?

- a) publitsistik uslub                      b) ilmiy uslub
- s) badiiy uslub                      d) so‘zlashuv uslubi

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. O‘zbekiston a’zolik qilayotgan xalqaro tashkilotlardan qaysilarini bilasiz?

2. Jamiyatda huquqiy madaniyatga ega bo‘lish va unga amal qilish insonlarga nima beradi?

3. Rasmiy diplomatik nutq uslubining o‘ziga xos tomonlari nimada?

4. Rasmiy uslubda tilning qanday vazifasi amalga oshiriladi?

5. O‘zbekiston Respublikasi tarixiga oid yana qaysi muhim sanalarni bilasiz?

*Uyga vazifa:* O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayitgan xalqaro tashkilotlarning qisqartma nomlari ro‘yxatini tuzing.



## 16-mavzu. XXI asrda innovatsiyalar

*Qaysi ishda ustun esa zakovat,  
Begumon, o'sha ish gurkirar faqat.*

 *O'qish uchun material*

### XXI asrda innovatsiyalar

Inson yaralibdiki, hayotiga qandaydir yangilik kiritishga intiladi. Innovatsiya (ing. innovation) – yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o'zgartirish demakdir.

Bugungi global taraqqiyot sharoitida axborot texnologiyalari ahamiyatini oshirishning yanada zamonaviy, innovatsion usullarini izlab topish, axborotlashtirish jarayoniga har tomonlama ko'maklashish, ularni hayotga keng joriy etish davlat faoliyatining muhim strategik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Barcha sohalarda, xususan, ta'lim sohasida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal qo'llash, mazkur tarmoqni zamon talablariga mos ravishda, xorij tajribalaridan foydalangan holda rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Biz uchun g'oyat quvonchli tomoni shundaki, ta'lim sohasidagi innovatsiyalar ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston innovatsiyalar reytingi ro'yxatida 75,38 ball bilan dunyoda ikkinchi o'rinni egallab turibdi. Birinchi o'rinni 75,70 ball bilan Irlandiya band etgan. Daniya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Belgiya singari bir guruh rivojlangan Yevropa va boshqa qit'a mamlakatlari ushbu ro'yxatning keyingi o'rinlaridan joy olgan.

Xulosa qilib aytganda, XX asrga qadar turli kashfiyotlar, yangiliklar yillar, ba'zan asrlar davomida amalga oshirilgan bo'lsa, XXI asrga kelib ma'lum sohalardagi yangiliklar qisqa muddatlarda hayotga tatbiq etilayotganligi asrimizning tom ma'noda, innovatsiyalar asri ekanligini tasdiqlaydi.

Yurtimizning yetuk mutaxassislari bilan bir qatorda yosh olimlar tomonidan ta'lim va boshqa sohalarni bir pog'ona yuqoriga ko'tarish yo'lida qilinayotgan ishlar O'zbekiston yoshlari jahon yoshlari bilan bimalol bellashishga tayyor ekanliklariga ishora qiladi.

 *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling  
hayotiy zarurat, global taraqqiyot, ta'lim tizimini takomillashtirish,  
ta'lim samaradorligini oshirish, zamon talablari*

## *Suhbat matni*

### Fotografiyaning ixtiro qilinishi

XIX asrda amalga oshirilgan ko'plab ajoyib ixtirolar ichida, shubhasiz, fotografiya eng asosiylaridan biri hisoblanadi. O'sha davrlarda odamlarni «lahzani to'xtatish» degan nom bilan hayratga solgan ushbu ixtiro haqiqatan ham tarixdagi eng buyuk ixtirolar sirasiga kiradi. Biz hozir smartfonimiz, yoki, mashhur brendning yuqori sifatli raqamli foto-videokameralari yordamida istagan narsamizni osonlik bilan suratga tushira olamiz. Ijtimoiy tarmoqlardagi eng bo'lmag'ur selfimaniyalardan tortib, ilm-fan uchun beqiyos ahamiyatga ega fotosuratlargacha – hamma-hammasi birgina tugmachani yengil bosish orqali juda osongina amalga oshirilmoqda. Hozirda fotosurat olish uchun maxsus o'quv kurslaridan o'tish va uyda bir qancha maxsus jihozlardan iborat fotolaboratoriyaga ega bo'lish shart emas. Smartfon tugmasini yengil bosasiz va tamom! Fotosurat tayyor. Uni istasangiz internetga joylaysiz, istasangiz qog'ozga chop etib, albomga yopishtirasiz... xullas, hozirgi avlod uchun fotosurat olish – bir daqiqalaik ishga aylanganligi chin haqiqat.

## *Lug'at*

|         |                 |             |                |
|---------|-----------------|-------------|----------------|
| jamiyat | – общество      | bellashmoq  | – созтездаться |
| zarurat | – необходимость | tasdiqlamoq | – утверждать   |

## *Tarjima mashqi*

Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur. (Mahmudxo'ja Behbudiy)

Aql kirishi uchun aql tishi chiqishini kutib o'tirish shart emas. (O'tkir Hoshimov)

## *Grammatik ma'lumot.* Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo'ladi. Ilmiy tafakkur fikrlashning o'ziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchilik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me'yorning o'ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi.

Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola,

darslik, o'quv qo'llanmasi, o'quv-metodik qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlari, taqriz va referat singarilar uning ana shu janr ko'rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma'lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me'yoriga ko'ra umumiylikni tashkil etadi.

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to'g'risida aniq, asoslangan, izchil ma'lumot berishda qo'llanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy me'yorga qat'iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe'llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi. Ilmiy uslub bilimning turli sohalariga qarab, kimga mo'ljallanganligiga nisbatan o'zaro farqlanadi. Ilmiy uslubdagi kitoblar ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislargagina mo'ljallanishi yoki bunday ilmiy ma'lumotlar keng ommaga qaratilgan bo'lishi mumkin. Keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan, tasvir bayonida emotsionallik, obrazlilik mavjud bo'lgan uslub ilmiy-ommabop uslub sanaladi. Ko'pchilikka mo'ljallangan ma'ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko'rinishlaridir.

Ilmiy-ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi.

*Topshiriq.* Berilgan atamalarni soha bo'yicha guruhlariga ajratib yozing.

Nutq uslubi, zulzila, kasr sonlar, qimmatli qog'ozlar, turg'un birikmalar, hujayra, epiteta, xarita, televideniye, inqiroz, fotosintez, molekula, inflyatsiya, tovush, fonema, optika, organika, ekologiya, matritsa, metafora, umurtqalilar, oqsil, tasviriy ifoda, tenglama, kontur chizig'i, urg'u, ildizpoya, diagramma, urug'chilik, mezolit, hujayra, kasr, to'pgullar, fotosintez, konus, silindr.

*Topshiriq.* "So'z ustasi" o'yini asosida o'z sohangizga oid ilmiy atamalar zanjirini tuzing.

*Namuna:* fonetika – affiks – sintaksis – sinekdoxa – atama –  
.....

 *Test topshiriqlari*

1. Axborot berish va ta'sir qilish qaysi uslubning muhim xususiyati hisoblanadi?

- a) soʻzlashuv uslubi                      b) publitsistik uslub  
s) rasmiy uslub                      d) ilmiy uslub
2. *Ichi qora, haqqi yoʻq, mazza* kabi birliklar asosan qaysi uslubga xos?
- a) soʻzlashuv uslubga                      b) publitsistik uslubga  
s) badiiy uslubga                      d) rasmiy uslubga
3. Har bir fan sohasining oʻziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniqlash va ixcham shaklda bayon qiluvchi uslub qanday nomlanadi?
- a) publitsistik uslub                      b) badiiy uslub  
s) ilmiy uslub                      d) rasmiy uslub
4. Adabiy til uslublarining qaysi biri inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi?
- a) publitsistik uslub                      b) ilmiy uslub  
s) badiiy uslub                      d) soʻzlashuv uslubi
5. *Innovatsiya* soʻzining lugʻaviy maʼnosini toping.
- a) topqirlik          b) yangilik          s) yaratuvchilik          d) bilimdonlik

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. XXI asrning eng muhim innovatsiyalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning amaliy ahamiyati nimalarda aks etadi?
3. Innovatsiya so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
4. Ilmiy uslubning qanday o'ziga xos jihatlari mavjud?
5. Ilmiy uslubning qanday turlari bor?

*Uyga vazifa.* Tanlagan sohangizga oid yangi innovatsiyalar xususida ma'lumot tayyorlang.

## 17- mavzu. Davrimizning global muammolari

*Zakovat qoshida ko'k tushdi cho'kka,  
Bilim-la ko'zlagin uchishni ko'kka.*

 *O'qish uchun material*

### Global muammolar

Global muammolar – umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolari. Ular jumlasiga jahon termoyadro urushining oldini olish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta'minlash; rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutni bartaraf etish; ochlik, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish; rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez sur'atlar bilan ko'payayotganligini tartibga solish; atrof muhit halokatli tarzda ifloslanib borayotganligining oldini olish; insoniyatni kerakli resurslar – oziq-ovqat, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari bilan ta'minlash; fan va texnika taraqqiyotining salbiy oqibatlarga olib kelishiga yo'l qo'ymaslik kabi muammolar kiradi. Global muammolar, avvalo, jahonda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy, harbiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning umumbashariy ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga keldi.

Global muammolarni 4 guruhga ajratish mumkin:

- 1) xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan global muammolar – jahonda rivojlangan, rivojlanib kelayotgan va qoloq mamlakatlarning mavjudligi;
- 2) xalqaro iqtisodiy munosabatlarda paydo bo'lgan global muammolar – jahon xo'jalik tizimi vujudga kelib, unda asosan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ustunligi qaror topishi;
- 3) ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammolar – jahon aholisining muttasil ko'payib borishi natijasida Osiyo va Afrika mamlakatlarida oziq-ovqat, ichimlik suvi tanqisligi kuchayib, bu hol boshqa mamlakatlarda ham kuzatilayotgani, jahon aholisining muayyan qismi ocharchilikni boshdan kechirayotgani, savodsiz ekanligi, axborot-texnologiya va, umuman, fan-texnika inqilobi samaralaridan bahramand emasligi, butun insoniyatga xavf tug'diruvchi kasalliklar (mas, OITS) tez tarqalayotganligi shunday muammolar sirasiga kiradi;
- 4) inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi natijasida vujudga kelgan global muammolar – ular qatoriga dengiz va suv havzalarining bulg'anishi, o'rmon maydonlarining tobora qisqarishi, atmosfera ozon qatlamining yo'qolib borishi kabilar kiradi. Global

muammolarga qarshi kurashda jahon hamjamiyatini birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimov o'z asarlarida, turli xalqaro anjumanlarda so'zlagan nutqlarida Markaziy Osiyoda global muammolarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berdi, bu muammolarni hal qilish xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti ekanligiga ishora qiladi.

### *☞ Lug'at*

|                |                |                     |   |
|----------------|----------------|---------------------|---|
| ahamiyat       | – значение     | bartaraf etmoq      | – |
| bashar         | – человечество | предотвратить       |   |
| umumbashariy   | –              | global muammolar    | – |
| общечеловечный |                | глобальные проблемы |   |
| taraqqiyot     | – развитие     |                     |   |

### *☞ Tarjima mashqi*

#### Глобальное потепление

На сегодняшний день одной из основных экологических проблем считается - Глобальное потепление. О глобальном потеплении сейчас говорится и пишется очень много. Чуть ли ни каждый день появляются новые мнения. Каждая новость пугает все больше и больше.

Глобальное потепление- это повышение средней температуры Земли. Очень часто в качестве синонима глобального потепления употребляют словосочетание «Парниковый эффект». Парниковый эффект - это увеличение средней годовой температуры поверхности Земли.

Причиной этому всему является рост в атмосфере Земли концентрации парниковых газов. Эти газы выполняют роль пленки или стекла теплицы, они свободно пропускают солнечные лучи и задерживают тепло покидающее атмосферу планеты.

Какими же способами надо придерживаться, чтобы предотвратить глобальное потепление?

Для предотвращения глобального потепления человечеству нужно, во-первых, меньше загрязнять атмосферный воздух парниковыми газами, во-вторых, сажать больше растительности.

## Аральское море

Экологические проблемы - это не только проблемы данной местности, но и проблемы всего мира. Потому что в природе все взаимосвязано. Одной из таких проблем является проблема Аральского моря.

Аральское море расположено в Центральной Азии. Главной причиной этой проблемы является то, что изменения русла рек Сырдарья и Амударья для ирригации очень сильно уменьшило площадь Аральского моря.

Аральское море высыхало на протяжении 50 лет, вызвав для моря и всего региона множество экологических и экономических проблем.

Проблемой Арала занимается даже всемирная организация ЮНЕСКО, так как эта проблема глобальная.

✧ *Berilgan soʻz va iboralarning maʼnosini bilib oling.*  
*global muammolar, umumbashariy hayot, siyosiy munosabat, muttasil koʻpayish, xavfsizlik va barqarorlik, jahon jamoatchiligi*

✧ *Grammatik maʼlumot.* Maqola va uning turlari.

Maqola — publitsistik janr. Maqolada ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va ommaviy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilgʻor ish tajribalari ommalashtiriladi, xalq xoʻjaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi. Matbuotda bosh maqola, nazariy va targʻibot maqola, muammoli maqola keng qoʻllanadi. Bosh maqola (yoki tahririyat tomonidan yoziladigan maqola) tahririyatning eng masʼuliyatli maqolasi boʻlib, unda ichki va xalqaro hayotga doir muhim masalalarni oʻquvchilar ommasiga yetkazish vazifasi qoʻyiladi. Bunday maqola muayyan masala yuzasidan yoʻl-yoʻriq koʻrsatishi, mavjud kamchiliklarni ochib tashlashi, har bir ishning asosiy haqiqiy yoʻlini belgilab berishi lozim. Prezident farmonlari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan davlat va hukumat hujjatlari, qarorlari, qonunlari davrning dolzarb masalalari bosh maqolada ochib beriladi. Nazariy maqola va targʻibot maqolaning asosiy vazifasi mustaqillik, milliy gʻoya, istiqlool mafkurasining asoslari va prinsiplarini, ilmiy maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, oʻquvchining gʻoyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. Muammoli maqola

munozara va bahslashuv mazmunida bo'lib, unda biror masala yuzasidan muallif o'z qarashlarini o'rta tashlaydi.

Maqolalar uch tarkibiy qismdan iborat bo'ladi:

1. Kirish – bunda tanlangan mavzuning dolzarbligi belgilanadi.
2. Asosiy qism – muallif tomonidan rejalangan fikr bayon qilindi.
3. Xulosa – mavzu yuzasidan muallifning xulosalari, tavsiyalari beriladi.

Maqolalar ilmiy yoki publitsistik uslubda, adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilingan holatda yoziladi. Maqola yozishda maqolaning mavzusini belgilash va unga sarlavha tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning sarlavhasi qisqa, lekin e'tiborni jalb qiladigan va, albatta, maqolaning bosh mavzusini yoritib beradigan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, maqolalarda muallif haqida qisqacha ma'lumot va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi.

*Topshiriq.* O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan olingan moddalarni o'qib, ular asosida suhbat quring.

49-modda. Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar.

50-modda. Fuqarolar atrof tabiiy muhitiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

55-modda. Yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

*Topshiriq.* Maqollarni o'qing. Ularda ilgari surilgan g'oya to'g'risida so'zlab bering.

Ovqatni tuz mazali qiladi, odamni — so'z.

Til — aql o'lchovi.

Yaxshi so'z — yurakka malham, yomon so'z — yurakka g'am.

Tilingda bo'lsa boling, kulib turar iqboling.

### Test topshiriqlari

1. Maqolaning qaysi turida dolzarb xabarlar, biron bir yangilik haqidagi axborotlar yoritiladi?

- a) ilmiy maqolada      b) uslubiy maqolada      s) publitsistik maqolada  
d) a, s

2. T...r Nuqtalar o'rniga qaysi unlini qo'yib bo'lmaydi?

- a) o                      b) u                      s) e                      d) a



3. ..o‘rt. Qaysi undoshni nuqtalar o‘rniga qo‘yib bo‘lmaydi?  
a) g                      b) m                      s) b                      d) t
4. A...a Nuqtalar o‘rniga qaysi qo‘sh undoshni qo‘yib bo‘lmaydi?  
a) ll                      b) mm                      s) rr                      d) kk
5. ...alla Nuqtalar o‘rniga qaysi undoshni qo‘yib bo‘lmaydi?  
a) d                      b) m                      s) p                      d) s

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida qanday muammolarni global muammolar qatoriga kirgizdi?
2. Sizningcha qanday muammo global muammo hisoblanadi?
3. Nega Orol dengizi halokat yoqasiga kelib qoldi? Sizning fikringiz.
4. Global muammolarni bartaraf etishda nimalarga e’tibor berish lozim?
5. Maqolaning qaysi turida dolzarb xabarlar, biron bir yangilik haqidagi axborotlar yoritiladi?

*Uyga vazifa.* “XXI asrning global muammolari” mavzusida publitsistik maqola yozing.

## 18-mavzu. Tabiat va inson

*Bahor tanga davo havosi shirin,  
Chaman ichra bulbul navosi shirin.*

 *O‘qish uchun material*

### Tabiat va inson

Insonlar qadim zamonlardan beri tabiatni sevib ardoqlashga, o‘zlarini yashab turgan muhitning bir bo‘lagi sifatida his qilishga odatlanganlar. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan zardushtiylikning muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto”da ham yer, suv va unum ma‘budalari, tabiat bilan bog‘liq kultlar haqida ma‘lumot berilar ekan, ularning negizida tabiat va uning ne‘matlariga ehtirom hislari mavjudligi e‘tirof etiladi. O‘zbek xalqining og‘zaki ijod namunalarida, buyuk allomalarimizning asarlarida, har bir oilaning madaniy va ma‘naviy merosi zahirida ham ona tabiatga bo‘lgan mehr yotadi.

Ajdodlarimiz o‘zi yashab turgan hududni “ona yurt”, muhitni “ona tabiat” deb e‘zozlab kelganlar. Ular qanday iqlim, qanday tabiiy sharoitda yashamasinlar, shu joyga moslashib, tabiiy resurslar bo‘lmish – suv, havo, tuproq, quyosh nuri va haroratini, hayvonot olamini, tabiat in‘omlarini qadrlab kelganlar. Inson doimo tabiat bilan uyg‘unlikda yashagan.

Tabiat bilan inson o‘rtasidagi uygunlikni ta‘minlashda ekologik tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ekologik ta‘lim va tarbiya XXI asr shaxsini shakllantirish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. So‘nggi yillarda atrof-muhit, hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish, tabiiy boyliklarimizni saqlash va asrab-avaylash muammolariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Buni qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” (1992), “O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida” (1997), “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” (1993), “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”(1997), “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”(1996) va boshqa qonunlar asosida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Vatanni sevish tabiatni sevishdan boshlanadi, yoshlarda ona tabiatga nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg‘ysini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas.

## O'zbekistonning o'simlik dunyosi

Mamlakatimiz hududida to'rt mingdan ortiq o'simlik turi mavjud. Ularning ko'pchiligi yovvoyi, ayrimlari madaniy holda va ba'zilar madaniy o'simliklar orasida begona o't sifatida o'sadi.

O'zbekiston tabiati nihoyatda xilma-xil va go'zaldir. Baland tog'lar, lalmikor qir-adirlar, qumloq cho'llar, suv omborlari, daryolar, serhosil dalalar, ko'm-ko'k o'rmon va mevazor bog'lar O'zbekistonning ko'rkidir.

Cho'llarda suvsizlikka chidamli tikanli o'simliklar bilan bir qatorda, namni kam bug'lantiruvchi saksovul daraxtlari o'sadi.

Insoniyat hayoti o'simliklar olami bilan uzviy bog'liq, chunki o'simliklar insonni to'ydiradi, kiyintiradi, havoni tozalaydi, xo'jalik va qurilish material sifatida foydalaniladi, tuproqni eroziyadan saqlaydi, namlikni ushlab turadi, tuproqni oziqlantiradi. O'simliklarning eng ajoyib xislatlaridan biri – ularning shifobaxshligidir. O'simliklar bo'lmasa, hayotning o'zi ham bo'lmaydi. Shuning uchun ularni asrab-avaylash, o'sib, ko'payishiga yordam berishimiz lozim. Yashil olam insoniyatning eng yaqin do'sti ekanligini unutmaylik.

### Lug'at

|               |                        |
|---------------|------------------------|
| zardushtiylik | – зараостризм          |
| ma'buda       | – икона                |
| iqlim         | – климат               |
| lalmikor      | – богарный, неполивной |
| uzviy bog'liq | – тесно связано        |

### Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling

*zardushtiylik, e'zozlamoq, tabiat bilan uyg'unlik, ekologik ta'lim va tarbiya, tabiat in'omlari, shifobaxshlik, tuproqni oziqlantirmoq*

### Tarjima mashqi

#### Проблема Аральского моря

На глазах одного поколения происходит постепенное исчезновение второго по величине (после Каспийского моря) внутреннего водоёма страны.

Аральское море – саморегулирующаяся система, которая зависит от прихода и расхода воды. При уменьшении притока воды падает её уровень, уменьшается площадь акватории.

За последние двадцать лет из-за увеличения площади орошаемых земель и потерь при испарении уровень Аральского моря понизился почти вдвое.

В результате Арал разделяется на две самостоятельные акватории: глубоководную западную и значительно меньшую по площади мелководную северо-восточную – Большое и Малое море. Возможно, снижение уровня в Малом море прекратится примерно через пять лет.

Аральская катастрофа – тяжёлый урок нашим потомкам. Нужны срочные меры по спасению моря, по возвращению людям нормальной среды обитания.

#### Человек и природа

Человеческий организм во многом связан со всеми компонентами биосферы – растениями, насекомыми, микроорганизмами. Он входит в великий круговорот природы и следует её законам.

Конечно, человек отличается от всех животных, являясь составной частью особой, социальной среды – общества. А это означает, что он может не только приспосабливаться к природе за счёт своего биологического совершенства, но и изменять природу, занимаясь трудом.

На заре человеческого общества воздействия человека на биосферу были незначительны. Теперь это вмешательство приобретает огромные масштабы.

“Tabiat va inson” mavzusi bo‘yicha tuzilgan

“**Muammo**” texnologiyasi

Tabiatda mavjud muammolardan birini tanlab, uni yechishga qaratilgan

| Muammoning turi                | Muammoning kelib chiqish sabablari          | Muammoni yechishda sizning harakatlaringiz | Muammoni yechishdagi to‘siqlar                             |
|--------------------------------|---------------------------------------------|--------------------------------------------|------------------------------------------------------------|
| Toza ichimlik suvining kamligi | Suvni toza saqlashga e’tibor ning kamligi.. | Suvni saqlashga oid tadbirlarlar o’tkazish | Targ‘ibotchi va tashviqotchi kadrlar mahoratining pastligi |
|                                |                                             |                                            |                                                            |

## *She'rni ifodali o'qing*

### JAYRON

Qon yig'latdi qaysi bag'ritosh,  
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?  
Oyog'ingga qo'yib yotay bosh,  
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?  
Yurak qoning to'kilgan so'qmoq

—

Bag'ri alvon lolaqizg'aldoq,  
Senga toshlar otdi qay gumroh,  
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?  
Zor yig'lading buncha ham  
hayhot,  
Menda ham bor sendagi sayyod,

Ey beozor, ey mo'min jonzot,  
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?  
Bu dunyoning nokaslari bor,  
Ezgulikni ko'rolmaydilar.  
Meni ham qon qildilar ular,  
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?  
Labim bilan yarang silayman,  
Senga dardi shifo tilayman,  
Kel, tug'ishgan og'ang bo'lay  
man,  
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?

(Muhammad Yusuf)

## *Lug'at*

jayron — ohularning Suriya, Eron, Afg'oniston, Zakavkazye va  
O'rta Osiyoda tarqalgan bir turi  
sayyod — ovchi  
nokas — vijdoni, insofi yo'q, yaramas, qabih, pastkash  
tug'ishgan — bir ota-onadan tug'ilgan, yaqin qarindosh.

## *Diqqatingizni jamlang!*

1. She'rni o'qing. Odam, Tabiat, Olam o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishga harakat qiling.
2. «Yurak qoning to'kilgan so'qmoq, Bag'ri alvon lolaqizg'aldoq» misralari mazmunini qanday tushunasiz?
3. Shoir «Menda ham bor sendagi sayyod» deganda nimani nazarda tutgan bo'lishi mumkin?
4. Shoirning jayronga mehri jo'shqin ifodalangan o'rinlarni qayta o'qing, she'rni hayot bilan bog'lab bahs o'tkazing.

 *Grammatik ma'lumot.* Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.

Intervyu (ing. interview — uchrashuv) — publitsistika janri. Jurnalistning bir yoki bir necha shaxs bilan dolzarb masalalar yuzasidan suhbat. Intervyu ikki turga bo'linadi:

Intervyu -xabar, asosan, axborot yetkazish maqsadida o'tkaziladi;

Intervyu tahlilda — muhim voqea, hodisa va hujjatlar sharhlab beriladi. Intervyuda, suhbat tabiiy, samimiy, mazmunli, maroqli, muammoband chiqishi uchun har ikki tomonning bir-birini yaxshi bilishi, faolligi, topqirligi muhim. Odatda, tashabbus savol beruvchidan chiqadi. Dolzarb mavzuni belgilash, tagdor savollar berish, ko‘pchilikni qiziqtiradigan, o‘ylantiradigan og‘riqli masalalarga e‘tiborni qaratish ko‘p jihatdan unga bog‘liq. Intervyu hajmi nisbatan kichik, imkoniyati torroq bo‘lgani bois savol-javobda, publitsistik tadqiqotda juda uzoqqa, juda chuqur ketish bo‘lmasligi ayon, muhim masala qo‘yish, muammoning uchini chiqarish, muhim dalil, misollar keltirishning o‘zi katta gap.

*Topshiriq.* O‘zingiz yoqtirgan fan arbobi, shoir, yozuvchi yoki san’atkordan intervyu oling.

*Topshiriq.* Quyida berilgan so‘zlarning imlosiga diqqat qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Uzum, darvozabon, jahongashta, jigarband, donishmand, xushomadgo‘y, serdaromad, shod-xurram, hukumat, madaniyat, qahqaha, hasharot, muddao, olimpiada.

### *Test topshiriqlari*

1. Ommaviy axborot vositalari uslubi qanday uslub sanaladi?  
a) badiiy uslub      b) ilmiy uslub      s) publitsistik uslub  
d) rasmiy uslub
2. Muayyan nutqiy qolip, qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo‘lgan nutq uslubi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?  
a) so‘zlashuv uslubi      b) ilmiy uslub      s) publitsistik uslub  
d) rasmiy uslub
3. Quyidagilardan qaysi xususiyat publitsistik uslubga xos?  
1) kinoya, piching, qochirmalarga boy bo‘lishi;  
2) axborot berish va ta’sir qilish;  
3) obrazlilik;  
4) soddalik, tushunarlilik, ta’sirchanlik;  
5) adabiy til me’yoriga qat’iy amal qilish.  
a) 1,2,5      b) 2,3,4      s) 2,4,5      d) 1,3,5
4. Qaysi qatorda qo‘sh undoshlardan biri tushirilsa ham so‘z xato hisoblanmaydi?  
a) tilla, cho‘qqi      b) alla, chappa



## 19-mavzu. Inson va salomatlik

*Nazar solsang, yaxshi so‘z degan tabib:  
“Ovqatni oz yegan, yuradi kulib “*



### *O‘qish uchun material*

#### O‘zbekistonda tabobatning rivojlanishi

O‘zbek tabobati o‘zining boy merosi, tarixiga ega. IX asrning oxiri X asrning boshlarida yashab o‘tgan Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asari bilan butun dunyoni zabt etdi. Bu asardan XVII asrgacha Yevropada tibbiyot qo‘llanmasi sifatida foydalanib kelindi. XIV asrda Chaqminiy, XVI asrda Fahriddin Xo‘jandiy, Sultonali Xo‘jandiy, Yusuf Tabib kabilar Ibn Sino ta’limotini rivojlantirdilar.

XX asrning boshlarida Turkiston xalq dorilfununining tashkil etilishi mahalliy shifokor mutaxassislarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etdi.

1918-yilda O‘rta Osiyoda professor A.D.Grekov rahbarligida birinchi mikrobiologiya laboratoriyasi tashkil etildi. 1920-yilga kelib bu mikrolaboratoriya O‘lka bakteriologiya instituti deb ataldi.

Jarrohlik sohasida o‘tkir ko‘richak, o‘t toshi kasalligi, ichakdan qon ketishi, jigar serrozi, yarali kolit kabi kasalliklarni jarrohlik usulida davolash masalalari atroflicha o‘rganildi. 60-yillardan boshlab yurak porogini jarrohlik yo‘li bilan davolash usullari ishlab chiqildi.

Fizioterapiya va kurortologiyaga oid olib borilgan izlanishlar natijasida respublikamizda ko‘plab mahalliy mineral suv va sifobaxsh iqlimli joylar aniqlandi.

Hozir mustaqil O‘zbekiston hududida Toshkent Tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Toshkent farmatseftika instituti, Andijon, Buxoro tibbiyot institutlari va kollejlari, bir qator ilmiy tekshirish muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

### *🌀 Lug‘at*

|                  |                     |
|------------------|---------------------|
| o‘tkir ko‘richak | – острый аппендицит |
| qon ketishi      | – кровоизлияние     |
| yarali kolit     | – язвенный колит    |
| shofobaxsh       | – лечебный          |
| o‘t toshi        | – желчная камень    |



## Dorivor o'simliklar

O'zbekistonda juda ko'p dorivor o'simliklar o'sadi. Ularning 500 dan ortiq turi qadimdan turli kasalliklarni davolashda, ularning oldini olishda qo'llanib kelinadi. Ayni vaqtda ilmiy tibbiyotda ularning faqat 100 dan ortiq turidagina foydalanilmoqda.

O'simliklardan sof holda ajratib olingan kimyoviy birikmalar ba'zan tirik organizmga kuchli ta'sir qiluvchi zaharli biologik faol moddalar bo'lishi mumkin. Masalan, kuchala, parli isiriq, sariqgul, omonqora, afsonak, eshakmiya, qizilcha (efedra) va boshqalar zaharli o'simliklar hisoblanadi. Shu bilan birga bir qancha aslida ovqatga ishlatiladigan o'simliklardan shifobaxsh vosita sifatida foydalansa bo'ladi. Quyidagilarni bunga misol qilib keltirish mumkin: anor, anjir, behi, kashnich, shovul, garmdori, zig'ir, murch, turli xil moylar va boshqalar. Keyingi 4-5 yil ichida 10 ga yaqin yig'ma fitopreparatlar tibbiyot amaliyotida turli xil kasalliklarni davolashda ishlatilmoqda.

 *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling  
dorivor o'simliklar, kimyoviy birikmalar, biologik faol moddalar,  
fitopreparatlar*

 *Suhbat matni*

### Shifokor huzurida

Bir kuni ertalab tursam, boshim va tomog'im og'rib, issig'im chiqayapti. Men shifokor huzuriga bordim. Ozoda xonada oppoq xalat kiygan shifokor opa o'tirgan ekanlar. Men ularga salom berib, kirdim.

- Keling, o'tiring, qanday shikoyatingiz bor? – deb so'radilar.
- Boshim va tomog'im og'riyapti, – deb javob berdim.
- Issig'ingizni o'lchadingizmi? – deb so'radilar.
- O'lchadim, 37-38 daraja, – dedim men.

– Og'zingizni oching, tilingizni chiqaring. Yaxshi, og'zingizni yoping, – deb shifokor tomir va yurak urishimni eshitib, qon bosimimni o'lchab ko'rdilar.

– Tomog'ingizda yallig'lanish bor, shu sababdan issig'ingiz chiqqan. Harorat baland bo'lgani hisobiga boshingiz og'riyapti. Shunday deb, shifokor tomoq va bosh og'rig'ini qoldiruvchi dorilar yozib berdilar. Bundan tashqari, tomoqni chayib turish, ko'proq suyuqlik ichish va dam olishni maslahat berdilar. Men rahmat aytib, chiqib ketdim.

### Правильное питание

Здоровое питание - один из важнейших компонентов красоты и здоровья. Правильное питание поможет не только оставаться в прекрасной форме, но и позволит чувствовать себя более энергичным, легким и работоспособным.

Здоровое питание - это питание, обеспечивающее рост, нормальное развитие и жизнедеятельность человека, способствующее укреплению его здоровья и профилактике заболеваний. Соблюдение правил здорового питания в сочетании с регулярными физическими упражнениями сокращают риск хронических заболеваний и расстройств, таких как ожирение, сердечно-сосудистые заболевания, диабет, повышенное давление.

Для предотвращения этих заболеваний мы должны использовать в своем рационе разнообразную пищу. В дневном меню должны присутствовать компоненты из разных пищевых продуктов: фрукты, овощи, ягоды, грибы, зерновые и бобовые культуры, мясо, рыба, птица, молочные продукты, яйца, жиры, масла, зелень.

Правильное питание – главное условие здорового образа жизни человека. Здоровье человека имеет большую роль не только для самого человека, но и для общества.

### 🌀 *Grammatik ma'lumot.* Reportaj tayyorlash.

Reportaj - OAV sodir bo'layotgan voqea –hodisalardan olib beriladigan mahalliy mavzulardagi xabar, maqola.

Reportaj (ing. report—yetkazmoq, xabar qilmoq)—jurnalistikaning informatsion janr turi. Bu janrda jurnalist (reportyor) bevosita o'zi ishtirok etgan, shohidi bo'lgan, ko'rgan voqea hodisalar haqida zudlik bilan yorqin, atroflicha xabar beradi. Bunda, odatda, muallif voqealarni o'z tilidan bayon etadi.

Reportajda barcha informatsion janrlar (lavha, hisobot, suhbat va sh.k.) unsurlari qo'shilib ketadi, badiiy obrazlar, tarixiy dalillardan keng foydalaniladi.

Ommaviy axborot vositalari turiga (matbuot, radioeshittirish, teleko'rsatuv) qarab materiallarni reportaj orqali yoritishning ayrim o'ziga xos xususiyatlari bor.

## 🌀 Tarjima mashqi

*Topshiriq.* “Shifobaxsh o‘simliklar” mavzusini “BBB” (Bilaman, Bilib oldim, Bilmoqchiman) texnologiyasi asosida ko‘rib chiqing.

1. “Tib qonunlari” asaridan nechanchi asrgacha Yevropada tibbiyot qo‘llanmasi sifatida foydalanib kelindi?

- 115

- s) fransuzcha soʻz boʻlib “report” — “muloqot”, “munosabat”  
d) inglizcha soʻz boʻlib “report” — “suhbat”, “hisobot”

**?** *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:*

1. Siz sogʻlom turmush tarziga amal qilasizmi?
2. Qanday dorivor oʻsimliklarni bilasiz?
3. Inson salomatligida sportning oʻrni qay darajada?
4. Reportaj tayyorlashning ayrim oʻziga xos xususiyatlari haqida maʼlumot bering.
5. Radio orqali beriladigan reportaj bilan telekoʻrsatuvlardagi reportaj oʻrtasidagi farq haqida soʻzlang.

*Uyga vazifa.* “Jahon meditsinasi yutuqlari” mavzusida reportaj tayyorlang.

## 20-mavzu. Huquqiy madaniyat

*Bilim ul boylikkim, sarf bilan bitmas,  
O'g'ri urib ketmas, shoh qo'li yetmas.*

 *O'qish uchun material*

### O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

Har bir suveren davlatning bosh huquqiy asosi bu uning Konstitutsiyasidir. Konstitutsiyamizning yaratilishi o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tganligi bilan tavsiflanadi. Konstitutsiyamizning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov nomi bilan bog'liq. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qizg'in muhokamalar natijasida suveren demokratik davlatning Konstitutsiyasi sifatida 1992-yilning 8-dekabrida qabul qilindi. Konstitutsiyamiz muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 128 ta moddadan iborat.

Konstitutsiyamiz eng taraqqiy etgan mamlakatlar, xususan, AQSH, Turkiya, Fransiya, Germaniya, Shvedsiya, Italiya kabi G'arb davlatlari hamda ruhiyati va etnik jihatlardan bizga yaqin bo'lgan Yaponiya, Misr, Hindiston va boshqa sharq davlatlarining boy tajribasidan eng yuqori demokratik jihatlarini, insonparvarlik g'oyalari tarannum etuvchi xalqaro hujjatlarning talablarini o'zida jamlagan.

Konstitutsiyaning markazida inson, fuqaro, uning huquqlari va qonuniy manfaatlar turadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Endilikda inson, uning hayoti, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi".

 *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling*  
*huquqiy asos, demokratik jihatlar, insonparvarlik g'oyalari,*  
*xalqaro hujjat talablari, siyosiy hujjat, ichki va tashqi siyosat,*  
*inson sha'ni, qadr-qimmati, qonuniy manfaatlar*

 *Tarjima mashqi*

### Наш основной закон

Конституция Республики Узбекистан была принята 8 декабря 1992 года. В преамбуле (то есть во введении) к этому документу провозглашается приверженность народа Узбекистана правам человека и принципам государственного суверенитета, идеалам демократии и социальной справедливости, стремление к обес-

печению достойной жизни граждан республики. Таким образом, государство подтверждает, что соблюдение прав человека является обязательным в нашем обществе, что мы хотим, чтобы все люди были счастливы и защищены законом.

Это и есть основы жизни нашего общества. Высшая юридическая сила Основного закона Узбекистана и верховенство права также закреплены в статьях Конституции. Ни одно из положений Конституции не может толковаться в ущерб правам и интересам Республики Узбекистан.

 *Diqqatingizni jamlang!*

|                             |                                                                                                                        |
|-----------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Davlat                      | <i>Umumiy ishlarni hal qilishda ishtirok etish bo'yicha alohida majburiyat va huquqlarga ega bo'lgan kishi</i>         |
| Davlat ramzlari             | <i>Jamiyatning asosiy negizi</i>                                                                                       |
| Konstitutsiya               | <i>Xalq tomonidan saylangan vakil</i>                                                                                  |
| Qonun chiqaruvchi hokimiyat | <i>Qonunlarni ijro etish va kundalik umumiy ishlarni hal qilish asosiy vazifasi bo'lgan davlat hokimiyati tarmog'i</i> |
| Deputat                     | <i>Qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish bilan shug'ullanuvchi davlat hokimiyati tarmoqlaridan biri</i>            |
| Fuqaro                      | <i>Egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqi</i>                                                               |
| Oila                        | <i>Gerb, madhiya, bayroq</i>                                                                                           |
| Mulkdorlik huquqi           | <i>Umumiy ishlarni hal qilish uchun butun jamiyatni Uyushtirish</i>                                                    |
| Ijro etuvchi hokimiyat      | <i>Davlat tuzilishini mustahkamlab qo'yuvchi asosiy qonun</i>                                                          |

 *Grammatik ma'lumot.* Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari

Rasmiy-idoraviy uslub hujjatlilik xarakteri bilan ajralib turadi. Qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar, idora hujjatlari, e'lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar, xullas, barcha rasmiy ish

qog'ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi - axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi.

Rasmiy uslubga xos har qaysi hujjat turining o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi.

Bu uslubning og'zaki va yozma ko'rinishlari, binobarin, ushbu ko'rinishlarning o'z me'yorlari mavjud.

Jumladan, aniqlik. Ushbu uslubda shakllangan matnda noaniqlikka, izohtalab o'rinlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak.

Qolip. Ariza, qaror, bildirishnoma, ma'lumotnoma, shartnoma, tabriknoma singari turli xarakterdagi rasmiy hujjatlarning har birining o'ziga xos bayon etish qolipi bo'ladi. Ayni paytda, ularning har birining alohida so'z va turg'un birikmalari ham mavjud bo'ladi.

Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos so'zlar, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatilishi me'yor sanalmaydi va shu jihati bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi.

Rasmiy uslubning grammatik me'yori ham alohida xususiyatlarga ega. Masalan, ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p ishlatiladi. Noaniqliklarga yo'l qo'yilmaslik maqsadida ular olmoshlar bilan almashtirilmaydi.

Tayyor nutq formulalari (*shu asosida, shunga ko'ra, ma'lum qilamizki, ... ni e'tiborga olib, ... ga ko'ra, ... biz, quyida imzo chekuvchilar, ... ga asosan (muvofiq), ... uchun, ... dan kelib chiqib, ... sharti bilan, ... berilsin, ... taqdirlansin* kabi) hujjat matnining darak-axborot xarakterida bo'lishini, so'zlarning bir ma'noda ishlatilishini, fe'lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo'shma gap turlarining keng qo'llanilishini talab qiladi. Til material hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

Bu uslubda *qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi* kabi qoliplashgan so'zlar va so'z birikmalari keng qo'llaniladi. Bu uslub muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubidir. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli bo'ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi - axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi.

Rasmiy uslubga xos har qaysi hujjat turining o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi.

*Topshiriq.* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks etgan moddalarning bayon etilish usuliga e'tibor bering. Asosiy so'z va iboralarni izohlang.

63-modda. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

64-modda. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majbur.

65-modda. Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

*Topshiriq.* Rasmiy yozishmalar uslubiga doir hujjat namunalaridan bir nechtasini keltiring.

### **✓ Test topshiriqlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi markazida nima turadi?
  - a) inson, fuqaro, uning huquqlari va qonuniy manfaatlar
  - b) davlat, jamiyat va uning asoslari
  - s) siyosiy jarayonlar va siyosiy partiyalar
  - d) madaniy va ma'naviy boyliklar
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonuni qachon qabul qilingan?
  - a) 1929-yil                      b) 1940-yil                      s) 1993-yil                      d) 1995-yil
3. Davlat tili to'g'risidagi qonunning yangi tahriri qachon qabul qilingan?
  - a) 1995-yil 21-dekabr                      b) 1993-yil 3-sentabr
  - s) 1995-yil 24-avgust                      d) 1989-yil 21-oktabr
4. Rasmiy-idoraviy uslubda gaplar qanday shaklda bo'ladi?
  - a) murakkab, majhul shaklda                      b) aniq, ixcham va sodda shaklda
  - s) kengaytirilgan shaklda                      d) qoliplanmagan shaklda



5. Rasmiy-idoraviy uslubda tilning qanday vazifasi amalga oshiriladi?

- a) axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi
- b) axborot qabul qilish va targ'ibot qilish vazifasi
- s) tilning kommunikativ vazifasi
- d) axborot uzatish va targ'ib qilish vazifasi

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

- 1. Huquqiy madaniyat deganda nimani tushunasiz?
- 2. Huquqiy madaniyatni bilish va unga amal qilishning qanday foydali jihatlari bor?
- 3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi markazida nima turadi?
- 4. Rasmiy-idoraviy nutq uslubining o'ziga xos tomonlari nimada?
- 5. Rasmiy-idoraviy uslub qayerlarda qo'llaniladi?

*Uyga vazifa:* Umumxalq leksikasiga kirgan huquqiy terminlar lug'atini tuzing.

## 21-mavzu. O‘zbekistonda oliy ta’lim

*”Noloyiq odamga ish berma aslo’’,  
Juda yaxshi degan bilimdon dono.  
Otadan o‘g‘liga qolgani bu so‘z,  
Otalar so‘zini tut, nafi ham yuz-yuz.*

 *O‘qish uchun material*

### Kelajak poydevori

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatimizning ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

### O‘zbekistonda oliy ta’lim

“Oliy ta’lim” atamasi zaminida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo‘llagan va o‘z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi. Oliy ta’limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta’lim mutaxassisi talablariga o‘zi tanlagan yo‘nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir. O‘zbekistonda oliy ta’limning yuzaga kelishi jadid ziyolilariga borib taqaladi. 1918-yili Toshkentning eski shahar qismida Munavvarqori Abdurashidxonov, Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqalar tashabussi bilan Markaziy Osiyodagi birinchi milliy dorilfunun tashkil qilindi. Mana shu ta’lim maskani zamirida bugungi kunda Respublikamizda qator oliy ta’lim muassasalari faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimining boshqaruvi Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida oliy ta’limni boshqarish davlat vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta’limning boshqaruv organi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus Ta’lim Vazirligi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasining bevosita boshqaruvi rektor tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun Ilmiy kegash tashkil qilinadi.

Oliy ta'lim muassasasi tasdiqlangan ishchilar miqdori va byudjet chegarasida (davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lar), talabalarining miqdoridan kelib chiqqan holda belgilangan tartibda o'z strukturasini shakllantiradi.

#### *Lug'at*

|            |                     |
|------------|---------------------|
| iste'dod   | — талант            |
| ziyolilar  | — интеллигенты      |
| fidoyilik  | — самоотверженность |
| mutaxassis | — специалист        |

#### *Suhbat matni*

##### Talabalik – oltin davrim

Men bu yil O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirdim. Talabalik davri juda maroqli ekan. Ayniqsa, o'z sevgan kasbing mutaxassisligi bo'yicha ilm olsang, diling quvonarkan. Biz jurnalist kasbing nozik nuqtalarini, mashaqqatlarini, o'ziga xosligini qunt bilan o'rganyapmiz. Shu bilan birga O'zbekiston radio va televideniyesida, gazeta va jurnallar tahririyatida hamkorlik qilyapmiz. Darsdan tashqari vaqtlarda do'stlarim bilan Toshkentning go'zal joylarida sayr qilamiz. Yangi ko'rgazmalar, konsertlarni borib ko'ramiz. Bundan tashqari, fakultet yoki universitetda bo'lib o'tayotgan tadbirlarda qatnashamiz. Xullas, talabalik davrimiz juda sermazmun, xushchaqchaq, maroqli o'tmoqda.

#### *Tarjima mashqi*

Сегодня перед Узбекистаном стоят стратегические задачи, среди которых дальнейшее развитие системы образования как важнейшего фактора процветания страны, устойчивого роста экономики, обеспечения занятости населения.

В целях эффективного осуществления единой государственной политики по своевременному обеспечению отраслей экономики высококвалифицированными и конкурентоспособными на международном рынке труда специалистами, педагогическими и научными кадрами запланирована организация обучения по программам

магистратуры и PhD, повышения квалификации и стажировок в ведущих зарубежных вузах.

### *Maqollarni yod oling*

Ilm olish – ninada quduq qazish bilan teng.

Hunar o‘rganish uchun ham hunar kerak.

Ilmsiz inson – mevasiz daraxt.

Ilm – inson ziynati.

Kimki ilm bilan aqlini oshirishga urinsa, mol-u davlat o‘zi kelaveradi.

Ilm bo‘lmasa odamning hayvondan farqi bo‘lmas edi.

### *Diqqatingizni jamlang!*

Ilmli o‘g‘il - otadan ulug‘ – Образованный сын – почетнее отца.

Intilganga tole yor – Стараться будешь–счастья добудешь.

Oz-ozdan o‘rganib, dono bo‘lur – Кто учится понемногу, тот мудрым становится.

Takrorlash - bilimning onasi – Повторенье – мать ученья.

### *Grammatik ma’lumot.* Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlar

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma’lum soha doirasiga, ma’lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko‘rinishi nutq uslubi hisoblanadi. So‘zlar ma’lun nutq uslubiga xoslanish – xoslanmaslik belgisiga ko‘ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlarga bo‘linadi. Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo‘llanadigan so‘zlar uslubiy xoslangan so‘zlar, bunday xususiyatga ega bo‘lmagan so‘zlar uslubiy xoslanmagan yoki betaraf so‘zlar deyiladi.

*Tovush, urg‘u, bo‘g‘in, undalma, morfema, omonim, sinonim, uslubiyat* kabi qator so‘zlar uslubiy xoslangan so‘zlardir. Chunki bu so‘zlar, asosan, tilshunoslik fani doirasida qo‘llaniladi.

*Osmon, xalq, bayram, o‘quvchi, dars, tushlik, salomatlik, odam* kabi so‘zlar barcha nutq uslublari doirasida birdek qo‘llanish imkoniga egaligi sababli uslubiy betaraf so‘zlar qatoriga kiradi.

O‘zbek tili leksikologiyasidagi so‘zlar uslubiy qo‘llanishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

1) uslublararo (uslubiy) betaraf leksika;

## 2) uslubiy xoslangan leksika.

Nutq uslublarining barchasi uchun baravar ishlatiladigan va birorta uslubga xoslanmagan soʻzlar uslubiy betaraf leksika deyiladi. Masalan: osmon, yer, daryo, tosh, suv, non, osh, bosh, edi, keldi, gapirmoq, kulmoq, ichmoq, uxlamoq va boshqalar.

Uslubiy xoslangan leksika. Nutqni birorta yoki ayrim-ayrim turlari uchun ishlatiladigan soʻzlar uslubiy xoslangan leksika deyiladi. Masalan, fonetika, artikulyatsiya, urgʻu, sintaksema, leksema, teorema, vazn, radif, muxammas(ilmiiy), maqol, sarlavha, zarbdor, jangovor, ulkan(publitsistik), fuqaro, qoida, qonun, modda, qaror, ariza, bildirish, xabarnoma, (axborot), nigoh, visor, xandon, murgʻak, malak, pari, saman, munis, koshona, xirof, dilband, alhor (badiiy) uslublarga xoslangan. Uslubiy xoslangan leksika qoʻllanishiga koʻra ikki xil:

1) yozma nutq leksikasi;

2) ogʻzaki nutq leksikasi.

Yozma nutq leksikasiga kitobiy uslub yoki badiiy, rasmiy, publitsistik, ilmiy uslublar kiradi.

Ogʻzaki nutq leksikasiga oddiy soʻzlashuv uslubi kiradi va boshqalar.

*Topshiriq.* Oliy taʼlimga oid soʻzlar asosida “Soʻz ustasi” oʻyini texnologiyasini namunadagidek davom ettiring

Taʼlim – mutaxassislik – kafedra – amaliyot – talaba – auditoriya – analiz – zakovat – tizim – magistratura .....

*Topshiriq.* Matnni koʻchiring, matndagi uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan soʻzlarni toping, mazmunini izohlang.

Zamonaviy bilimga ega, odobli, ilmiy, barkamol va shijoatli farzandlar bizning kelajagimizdir. Isteʼdodli, bilimdon yoshlar oʻqish uchun chet ellarga yuborilmoqda. Ularda shijoat, yangilikka intilish bor. Jismoniy va maʼnaviy jihatdan yoshlarimizni yetuk qilib tarbiyalash shu kunning bosh vazifasidir. (*Gazetadan*)

### Test topshiriqlari

1. *Rivojlangan* soʻzi qaysi soʻz bilan birikma hosil qiladi?  
a) shuhrat                      b) oila                      s) mamlakat                      d) insonlar
2. *Qozon* soʻzi bilan juftlik hosil qiladigan soʻzni aniqlang?  
a) kabob                      b) sochiq                      c) qopqoq                      d) tovoq
3. *Kiyim* soʻzi bilan juft soʻz hosil qiladigan soʻzni aniqlang?

- a) kechak                      b) furush                      c) bosh                      d) do'kon
4. *Beshik* so'zi bilan qo'shma so'z hosil qiladigan so'zni aniqlang?  
a) solmoq                      b) olmoq                      c) tervatar                      d) tuzatar
5. *Bosh* so'zining o'z ma'nosida qo'llangan variantini aniqlang?  
a) ko'chaning boshi                      b) buloqning boshi  
s) odamning boshi                      d) ishning boshi

**?** *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:*

1. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Uslubiy xoslangan so'zlar qanday so'zlar?
3. O'zbek tili leksikologiyasidagi so'zlar uslubiy qo'llanishiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?
4. Uslubiy xoslangan leksika qo'llanishiga ko'ra necha xil bo'ladi?
5. Uslubiy xoslanmagan yoki betaraf so'zlar deb nimaga aytiladi?

*Uyga vazifa:* O'zbekistonda mavjud oliy ta'lim muassasalari haqida taqdimot tayyorlang.

## 22-mavzu. Ilm maskanimiz hayotidan

*Bilim kimyo misol, u turadi jam,  
Zakovat saroyi kabi o'zi ham.*

 *O'qish uchun material*

### O'zbekiston Milliy universiteti

O'zbek ziyolilari azaldan ilm-fanni rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratganlar. Yosh avlodning bilim olishi, yuksak intellektual salohiyat egalari bo'lishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishga intilganlar. Xususan, 1918-yilda Toshkentning eski shahar qismida Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy singari ma'rifatparvarlar tashabbusi bilan milliy dorulfunun tashkil qilingan. Universitetimiz dastlab Xalq universiteti degan nom bilan faoliyat ko'rsatgan. 1920-yildan Turkiston davlat universiteti, 1923-yildan esa O'rta Osiyo davlat universiteti, 1960-yildan 2000-yilgacha Toshkent Davlat Universiteti deb yuritilgan. 1995-yil 14-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan Toshkent Davlat Universitetiga Mirzo Ulug'bek nomi berildi.

Ma'lumki, universitetimiz nafaqat Respublikamizda, balki mintaqamizda ilk tashkil etilgan oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Universitet olimlari va o'qituvchilari jamoasining ilm-fan, ta'lim, ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi, ilmiy tadqiqot, ta'lim tizimini shakllantirishdagi alohida o'rni va xalqaro nufuzini e'tiborga olib, 2000-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Farmoniga muvofiq mazkur ilm maskaniga milliylik maqomi berildi va hozirgi kunda u Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti deb yuritiladi.

Bugungi kunda mazkur oliy dargohda 11 ta fakultet mavjud bo'lib, 45 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 100 dan ortiq magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Universitetda xalqaro talablarga mos fundamental tadqiqotlar olib borish, xorijiy mamlakatlardagi nufuzli fan va ta'lim markazlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

Universitetda tahsil olgan ziyolilardan Ozod Sharafiddinov, Avdulla Oripov va Erkin Vohidovlar "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoni sohiblaridir. Shuningdek, ko'plab professor-o'qituvchilarimiz "O'zbekiston Respublikasi fan arbobi" faxriy unvoni, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni, "Shuhrat" medali bilan mukofotlangan.

Iqtidorli talaba qizlarimizdan 36 nafari Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindorlaridir. O'tgan davr mobaynida iste'dodli talabalardan 19 nafari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 22 nafari Alisher Navoiy, 19 nafari Mirzo Ulug'bek, 2 nafari Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi sovrindorlari bo'lishdi.

Universitetda zamonaviy jihozlangan "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi, 11 ta fakultet va 8 ta talabalar turar joylarida ma'naviyat va ma'rifat xonalari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Umuman, mustaqillik davrida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talabalarning intellektual salohiyatini oshirish, yetuk mutaxassislar tayyorlash borasida ulkan natijalarga erishildi va erishilmoqda.



### *Suhbat matni*

Yurtimizdagi otaxon universitet – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti mamalakatimizdagi barcha sohalar uchun kadrlar tayyorlab beradi. Universitet tashabbusi bilan muntazam amalga oshirilib kelinayotgan loyihalarning ham barchasi amaliy ahamiyatga ega. Bevosita O'zMU rektori loyihasi asosida tashkil etilgan navbatdagi tashabbus ham barchani, ayniqsa, maktab va akademik litsey bitiruvchilarni mamnun qildi. Universitetning barcha fakultetlarida "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazildi. Unga umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litsey bitiruvchilari o'qituvchilar va ota-onalar hamrohligida tashrif buyurishdi. Mehmonlarga universitetdagi ta'lim jarayoni, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, dars jarayonlari va o'qitish tizimi haqida atroflicha ma'lumot berildi. Kasb tanlash arafasida turgan yoshlar, ular tahsil olayotgan ta'lim muassasasi ma'muriyati va ota-onalar kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Kreativ formatda tashkil etilgan "Ochiq eshiklar kuni"da o'quvchilar o'zlarini universitet talabalaridek his qilishdi, ma'ruzalarda ishtirok etishdi, amaliy mashg'ulotlarda qatnashishdi, O'zMU professor-o'qituvchilaridan saboq olishdi.



### *Lug'at*

salohiyat – интеллект  
ma'rifatparvarlar  
просвятители  
sohiblari – обладатели  
amaliy mashg'ulot –  
практическое занятие

–

ochiq eshiklar kuni – день  
открытых дверей  
mutaxassis – специалист,  
эксперт  
ta'lim muassasasi – учебное  
заведение



## *Tarjima mashqi*

Наука не может развиваться без споров и диспутов. Поэтому занятия в медресе будут построены и именно так – в дискуссиях, обсуждениях изучении всех мнений. (Мирзо Улугбек)

\*\*\*

Мы ставим перед собой цель – создать необходимые возможности и условия для того, чтобы наши дети росли не только физически и духовно здоровыми, но и всесоронне и гормонично развитыми людьми в полной мере отвечающими требованиям XXI века, в котором им предстоит жить и трудиться. (И.А.Каримов)

\*\*\*

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека является старейшим высшим учебным заведением Узбекистана. Прежние названия был Ташкентский Государственный университет (ТашГУ), до 1960 года носил название Средне-азиатский государственный университет (САГУ), до 1923 года носил название Туркестанский государственный университет (ТуркГУ). 28 января 2000 года специальным Указом Президента Республики Узбекистан Ташкентскому государственному университету придан статус "Национального университета Узбекистана".

Официальной датой создания университета считается 12 мая 1918 года.

 *Grammatik ma'lumot.* So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Shevaga xos so'zlar.

Kundalik hayotda oilada, ko'cha – ko'yda, ish joylarida va boshqa joylarda kishilarning bir-biri bilan erkin muloqotga kirishuvi va fikr almashish jarayonida qo'llanadigan nutq uslubi so'zlashuv uslubi deyiladi. So'zlashuv uslubi adabiy va oddiy so'zlashuv uslublarini o'z ichiga oladi.

Ma'lum adabiy til me'yorlariga bo'ysungan, tartibga solingan so'zlashuv uslubi adabiy so'zlashuv uslubidir. Adabiy tilning og'zaki shakli adabiy so'zlashuv uslubi orqali amal qiladi. Radioeshittirishlar, televideniye ko'rsatuvlari shunday uslubda olib boriladi.

Adabiy til me'yorlariga doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli oddiy so'zlashuv uslubi sanaladi. Oddiy so'zlashuv

uslubida nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga, bunga teskari bo'lgan nutqiy ortiqchalikka ham yo'l qo'yiladi.

So'zlashuv uslubining har ikki turi ko'pincha dialog shaklida ro'yobga chiqadi. Bu uslubda so'zlar odatda kinoya, piching, qochirmalarga boy bo'ladi. So'zlashuv uslubining yana bir o'ziga xos xususiyati erkinligidir. Jumlar qisqa va ta'sirli bo'lib, ko'pincha so'z – gaplar, to'liqsiz gaplar, maqol va matallar hamda iboralardan keng foydalaniladi.

Umumxalq tili ma'lum bir xalqning so'zlashuv tilidir. Bu til kengroq hajmda bo'lib, u sheva va lahjalar, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, jargonlar, ma'lum toifa (biror ijtimoiy guruh) ga oid so'zlarni ham o'z ichiga oladi. Bunda nutq erkin bo'lib, til qoidalariga asoslanilmaydi.

Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o'zida namoyon qilgan til shakli sheva hisoblanadi. Bir qancha shevalar yig'indisi lahja deyiladi. Sheva va lahjalar ma'lum bir hududda yashovchi aholining mahalliy so'zlashuv tilidir (masalan, Toshkent shevasi, Farg'ona shevasi kabi).

*Toshkent shevasi:* Bizankiga xolam bilan jiyanim kelishvotti. Ulani kutip charchavomman. Tezro kelissin, poylap ko'zim to'r bo'ldi. Hamma yoni tozaluvdim. Ula blan mazza qilovuza.

*Farg'ona shevasi:* Ari soqov holda ilondi oldiga boripti. Qaldirg'och aytipti: „Dunyodagi barcha yaxshi etlardan qurbaqani eti shirinakan, deyapti". Shunnan buyon ilonni yemishi qurbaqa eti bo'p qopti.

*Namangan shevasi:* Iloyo ayillaringizi baxtiga tuzu volung, yetkanday o'g'lingizdan xat keluttimi?

Ha, kelutti. Ikuchkun bo'ddi rasim yuboripti, popugi vor shapkaladan kiyvopti. Ha tuzu vosa bo'pti.

*Buxoro shevasi:* Memonla kelli choqi. Akam he qayerga ishlamayla.

Laylak munnan qo'rqib, uni cho'qqilap olli.

*Topshiriq.* Shevaga xos so'zlarni toping, ularga izoh bering.

«Qaysi sheva adabiy  
tilimizga mos kelar.

Xalq tilida qaysi biri  
juda-juda oz kelar?!»

«Qo'qonda «aqa-baqa»,

Bu qanaqa til o'zi?»

– Deb o'shqirardi Sotti.

– Hoy, Eshniyoz, ne uchun

«Pichoq»ni «pakki» deysan?

– Sen o'zing-chi Mirgulshan,

|                           |                             |
|---------------------------|-----------------------------|
| Toshkentda «votti-votti». | «Tomchi»ni «chakki» deysan. |
| Ne ajab Abdurahmon        | Tosh o‘rtaga qo‘yib der:    |
| «Bolish»ni «So‘ri» desa.  | – Mana shu oddiy paqir.     |
| Qurbonali baqrayib        | Agar shu chelak bo‘lsa      |
| «Qashqir»ni «bo‘ri» desa. | guvohlaringni chaqir.       |

*Topshiriq.* So‘zlashuv uslubi asosida “Men sevgan o‘quv maskan” mavzusida matn tuzing.

### **☑ Test topshiriqlari**

1. So‘zlashuv uslubi o‘z ichiga oladi:
  - a) oddiy va murakkab so‘zlashuv uslublarini
  - b) adabiy va oddiy so‘zlashuv uslublarini
  - s) adabiy va badiiy so‘zlashuv uslublarini
  - d) og‘zaki va badiiy so‘zlashuv uslublarini
2. So‘zlashuv uslubining har ikki turi ko‘pincha qaysi shaklda ro‘yobga chiqadi?
  - a) monolog                      b) dialog                      s) matn                      d) og‘zaki
3. Imo-ishora qaysi uslubga xos?
  - a) ilmiy uslubga                      s) badiiy uslubga
  - b) so‘zlashuv uslubiga                      d) rasmiy uslubga
4. ToshDU ga milliylik maqomi berilgan sanani ko‘rsating.
  - a) 1995-yil 14-sentabr                      s) 1918-yil 12-may
  - b) 2000-yil 28-yanvar                      d) 2008-yil 2-may
5. Ilmiy uslubga xos atamalar to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
  - a) tadqiqot, qoida, nazariya                      b) adabiyot, kashfiyot, hayot
  - s) tibbiyot, she‘riyat, ma‘naviyat                      d) talaba, zamon, ma‘lumot

### **? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. O‘zMU qachon tashkil topgan? Uning tarixi haqida nimalarni bilasiz?
  2. Universitetimizdan qanday mashhur kishilar yetishib chiqqan?
  3. Universitetimizning boshqa Oliy o‘quv yurtlari bilan bo‘lgan munosabatlari haqida ma‘lumotga egamisiz?
  4. So‘zlashuv uslubining boshqa nutq uslublaridan farqi nimada?
  5. Adabiy va oddiy so‘zlashuv uslubi deb nimaga aytiladi?
- Uyga vazifa:* “Universitetimiz 100 yoshda” mavzusida reportaj tayyorlash.

## 23-mavzu. Bo'lajak kasbim

*Zakiy bo'l, bilimni tanlay bil, toki*

*Xom ish ham bilimdan pishdi hattoki.*

 *O'qish uchun material*

### Kasb tanlash

Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan edi: «Hayotda siz uchun eng sevimli bo'lgan kasbni tanlang, shunda bir umr ishga bormaysiz, unda yashaysiz». Agar kishi o'z sevgan kasbida ishlayotgan bo'lsa, u hech qachon har kun ertalab o'zini ishga ketayapman, deb hisoblamaydi.

O'z sevgan kasbi bilan shug'ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag'bat hamda ma'naviy ozuqa beradi. O'zi yoqtirgan ishni qilayotgan kishi vaqt qanchalar tez o'tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi.

Bugun dunyo bo'ylab qanchadan-qancha kishilar zavod-fabrikalarda, idoralarda, avtomobillarda, ish maydonlarida ish vaqtining tezroq tugashini intizorlik bilan kutishadi. Bu toifadagi kishilarning hatti-harakatlaridan ma'lumki, o'zlari yoqtirgan mashg'ulotni o'z kasblari sifatida tanlashmagan. Ya'ni, ular o'zlariga yoqmaydigan kasb bilan shug'ullanuvchi kishilardir. Ammo hech bir kishi kasbidan zavqlana olmas ekan, o'zidan, o'zi bajarayotgan faoliyatidan qanoat olmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda, hayotda o'z kasbidan zavq olayotgan va muvaffaqiyat qozonagan insonlardan ibrat olish lozim. O'z kasbini sevgan, qilayotgan ishidan zavqlana olgan oddiy poyafzal ta'mirlovchisi bir tashkilotda yetuk mutaxassis sifatida ishlovchi, ammo o'z kasbini yomon ko'radigan, qilayotgan ishidan zavq topa olmaydigan insondan baxtlidir.

Bajarayotgan ishingizdan zavqlanishni o'rganing. Agar buning iloji bo'lmasa, kasbingizni imkon qadar o'zingiz zavqlanib ishlaydigan faoliyat turiga o'zgartirishga harakat qiling.

Unutmang, siz kasbingizda jon saqlashingiz emas, balki yashashingiz kerak. Shundagina qilayotgan ishingiz sizning haqiqiy sevimli kasbingizga aylanadi!

 *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling yetuk mutaxassis, zavqlanish, sevimli kasbni tanlash, xursandchilik, shijoat, rag'bat, ma'naviy ozuqa, qanoat qilmoq, yoqtirgan mashg'ulot*



## Suhbat matni

### Men tanlagan kasb

Men maktabda o'qib yurganimdayoq tarix faniga juda qiziqardim. Qadimiy davlatlar, shaharlar, xalqlar haqidagi mavzularni ishtiyoq bilan o'qir edim. Mana hozir O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakultetida o'qiyapman. Biz o'rganayotgan fanlar juda qiziqarli: arxeologiya, etnografiya, qadimgi dunyo tarixi va boshqalar. Kelajakda men yaxshi mutaxassis bo'lishni istayman. O'lkamiz tarixining ochilmagan sahifalarini o'rganishni orzu qilaman. Toshkent, Buxoro, Samarqand shaharlaridagi obidalarni o'rganishni, yer ostidagi madaniyat qoldiqlarini izlab topishni istayman.

Biz yaqinda qadimiy shaharlar: Samarqand, Buxoro, Xivada bo'ldik. Qadimiy obidalar, ularning tarixi bilan tanishdik. Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasi, Registondagi madrasalar, Imom Buxoroiy majmuasi, Buxorodagi masjid-madrasalar, Buxoro amiri saroyi, Xivadagi ajoyib tarixiy obidalar bizda katta taassurot qoldirdi. Men tarixchi bo'lmoqchi ekanligimdan xursandman, mana shunday go'zal, maftunkor obidalar bilan tanishib, yangi-yangi obidalar qazilmalarida ishtirok etishni orzu qilaman.

### Lug'at

ваша будущая профессия – sizning bo'lajak kasbingiz

профессия (основной род занятий, трудовой деятельности) – kasb (mashg'ulotlarning, mehnat faoliyatining asosiy turi)

выбирать (выбрать) профессию – kasbni tanlamoq (tanlab olish)

профессиональные качества – kasbiy fazilatlar, xislatlar

вы начинаете трудовую деятельность – Siz mehnat faoliyatini boshlayapsiz

деятельность (работа, занятие, труд) – faoliyat (ish, mashg'ulot,



### Maqollarni yod oling.

Tikkan chevar emas,

Bichgan — chevar.

Yuz tuman oltindan hunar yaxshi.

Yuz hunarni chala bilgandan, bir hunarni to'la bil.

Yamoqchining ishini suvoqchi bilmas.

Yaxshi bilsang ishingni, yaxshilar silar boshingni.

## *Tarjima mashqi*

Есть много профессий в мире, и все они являются по-своему интересными. Так что это очень трудно найти свое призвание в жизни. Выбор профессии зависит от способностей и целей в жизни. Мне очень нравится работать с детьми. Мои мама и бабушка тоже педагоги. Я с детства ежедневно наблюдаю за работой моей мамы. Вижу эту работу не только с внешней стороны, как другие ученики, но и изнутри. Да, это трудно. Да, это ежедневный кропотливый труд. Подготовка к урокам, проведение праздников... Но при всем этом моя мама ни разу не пожалела о выборе профессии.

## *Grammatik ma'lumot. Matn va uning ko'rinishlari*

Ma'lum bir shaxs tomonidan ayrim voqea-hodisa, narsa-buyumning izchil tasviri va tavsifi uchun tuzilgan gaplar sirasi matn deyiladi. Matnda ifodalangan axborotning hajm belgisiga ko'ra 2 xil bo'lib, ular: mikromatn va makromatndir.

Bir necha gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og'zaki nutq parchasi mikromatn deyiladi.

Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asarga makromatn deyiladi. Matn mazmun jihatidan 2 turga bo'linadi: ma'lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matn.

Ma'lumotnoma matnida bo'lib o'tgan voqea-hodisa yoki mavjud holat haqida oddiy axborot beriladi.

Ijodiy-tavsifiy matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxsning tasviri yoki xabar, ma'lumotning ijodiy-tavsifiy bayonidir. Ilmiy, publitistik va badiiy uslublar, shuningdek, insho ham ijodiy-tavsifiy matnning ko'rinishlaridir.

## Matn turlari

| Turlari                   | Tuzilishi                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | Qo'llanilishi                                                                                                                                                                                                               |
|---------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Dialogli matn             | Dialogli matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turli mazmundagi fikr-axborot almashinuvini ifodalaydi. Bunday matnda so'roq olmoshlari, yuklama, undov va kirish so'zlar; sodda, to'liqsiz va so'z-gaplar keng qo'llaniladi                                                                               | Bunday matnlar so'zlashuv va badiiy uslubga xos bo'lib, savol-javob, taklif, xabar-ma'lumot, da'vat, iltimos kabi muloqot mazmunini ifodalashga xizmat qiladi                                                               |
| Tavsifiy (monologli) matn | Tavsifiy matnda so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ifodalangan voqea-hodisa, narsa-shaxs tasviri, tavsifi yoki xabar, ma'lumot bayoni beriladi. Matnda belgi-xusisiyat ifodalovchi so'zlar, atama va modal so'zlar, fe'lining xoslangan shakllari, uyushiq hamda ajratilgan gap bo'laklari faol ishlatiladi | Tavsifiy matnlar ilmiy, publitsistik, badiiy, rasmiy-idoraviy uslubda qo'llaniladi. Ma'lum voqea-hodisa, narsa-shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni dalillar bilan ta'riflash, izohlash, asoslashga xizmat qiladi |

*Topshiriq.* Matnni o'qing va uni kengaytiring.

Salomlashish — qadimiy odat. Dunyodagi barcha madaniy xalqlar o'zaro insoniy muloqot — muomala-munosabatni salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq o'z urf-odatlarini bor. Hindlar qo'l kaftlarini birlashtirgancha, peshonalariga tirab, afg'onlar yuzlarini yuzlariga suykagancha kift urishtirib salomlashsa, inglizlar bosh kiyimini olib, yengil ta'zim qilishadi.

Biz, o'zbeklar, barcha islom dunyosi xalqlari singari bir-birimizni ko'rganimizda “assalomu alaykum” deya, qo'l olishib ko'rishamiz.

Xalqimizning o'ziga xos tabiatini, lutfkorligini, urf-odatlarini hammamizga jonday aziz, qadrdon bo'lib qolgan «Salom» so'zisiz tasavvur qilolmaymiz.

Odamning kimligini uning salomi belgilaydi. (*M. Sattor*)

*Topshiriq.* Matnni o'qing. Mazmunini ochuvchi savollar tuzing.

Brusselda qiziq tanlov bo'lib o'tdi. Unda G'arbiy Yevropa davlatlaridagi poliglotlar — ko'p tilni biluvchilar o'zaro kuch sinashdilar. Poliglotlar uchun eng kamida 9 ta tilni bilish (bunga lotin va esperanto tillari kirmagan) shart qilib qo'yildi.

Tanlov tashkilotchisi, Belgiyaning Xassalte shahridagi zamonaviy tillarni o'rganish markazining boshlig'i E. Xarmansning ta'kidlashicha, bu musobaqa sportchilarning ko'pkurashi shaklida uyushtirilgan. Hakamlikka esa baholanadigan til ona tilisi bo'lgan til sohiblari taklif qilingan.

Bu tanlovda Buyuk Britaniya vakili, o'rta maktab o'qituvchisi D. Xer g'olib chiqqan. U 23 ta tilda erkin gaplasha olar ekan.

### **☑ Test topshiriqlari**

1. Matn turlari —

- a) dialogli matn, tavsifiy (monologli) matn      b) mikromatn, makromatn  
s) insho matni va ijodiy matn      d) dialogli matn, badiiy matn

2. Matnning qaysi turi so'zlashuv va badiiy uslubga xos bo'lib, savol-javob, taklif, xabar-ma'lumot, da'vat, iltimos kabi muloqot mazmunini ifodalashga xizmat qiladi?

- a) dialogli matn      b) insho matni  
s) tavsifiy (monologli) matn      d) badiiy matn

3. Suhbatdoshlarning bevosita bir-biriga qaratilgan nutqi bu—

- a) dialog      b) monolog      s) dialekt      d) uslub

4. Qaysi gapdagi so'z uslubiy jihatdan xato qo'llangan?

- a) Do'stlikni ardoqlash kerak      b) Bolalik uy bozor, bolasiz uy mozor  
s) Eshik ochiq bo'lsa ham, so'rab kir      d) Yoqimli shamol esa boshladi

5. Qaysi gapda *achchiq* so'zi o'z ma'nosida qo'llangan?

- a) Bu achchiq haqiqat edi      b) Achchiq-chuchuk tayyorlang, qizim  
s) Achchig'ing chiqmasin, bolam      d) Qalampir taomni achchiq qilib yubordi

### **? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Kasb tanlashda nimalarga e'tibor berish lozim?

2. Kelajakda yetuk mutaxassis bo'lishda kasb tanlashning o'rnini qanday?

3. Matn nima? Uning turlariga misol keltiring.

4. Qanday matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turli mazmundagi fikr-axborot almashinuvini ifodalaydi?

5. Matnning qaysi turi so'zlashuv va badiiy uslubga xos bo'lib, savol-javob, taklif, xabar-ma'lumot, da'vat, iltimos kabi muloqot mazmunini ifodalashga xizmat qiladi?

*Uyga vazifa.* “Men tanlagan kasb” mavzusida matn yarating.



## 24-mavzu. Hayot mening tasavvurimda

*Kamyob emas kishi, kishilik kamyob,  
Odam noyob emas, rostgo'ylik noyob.*

 *O'qish uchun material*

Sog'lom oila – sog'lom jamiyat tayanchi

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari, sog'lom avlod masalasi, nikoh va oila munosabatlari borasidagi qarashlar tubdan o'zgardi. Chunki yangi avlod yaratuvchisi bo'lgan oila – yurt tayanchi, jamiyat rivojiga hissa qo'shuvchi muqaddas dargoh. Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir.

Oilada mehr-muhabbatning ustuvorligi barcha millatlarga xos fazilatdir. Biroq oila, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra har bir xalq, har bir millat uchun o'ziga xos xarakterli hissiyotlarga ham ega. Sharqda oila qurish va uning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta'minlash insonning o'z millati, avlod-ajdodlari, jamiyati oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek xalqi uchun oila eng muqaddas dargohdir.

Oila kichik bir jamiyat bo'lib, u katta bir jamiyatning barpo bo'lishi uchun asosdir. Shuning uchun oilalari mustahkam, barqaror, ma'naviy va iqtisodiy jihatdan yuksak davlatlar, mamlakatlarning ham kelajagi buyuk bo'ladi

 *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling*  
*sog'lom avlod, muqaddas burch, mustahkam oila, barqarorlik, farovonlik, yuksak davlat, kelajagi buyuk, muqaddas dargoh, avlod-ajdodlar, oila – yurt tayanchi*

 *Suhbat matni*

Hayot mohiyati haqida

Inson uchun eng qadrlı narsa nima? Hayot! Chunki bizning barcha quvonchlarimiz, bizning butun baxtimiz, bizning jamiki umidlarimiz faqat hayot bilan bog'liqdir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Shunday yashamoq kerakki, toki hayotga cheksiz talablar qo'yish mumkin bo'lsin.

A. BLOK

Inson jamiyat va davlatning ko'lamli manfaatlari uchun qanchalik foyda keltirsa, u shu qadar barkamoldir.

D. I.

MENDELEYEV

Yaxshi xulqli bo'lgil hamda sof ko'ngil,  
Odamlarga doim insofli bo'lgil.  
Bu mehnatxonada yaxshi-yu yomon  
Uchraydi, yaxshilik qilaver hamon.

A. JOMIY

Inson hayotining ma'nosi tinib-tinchimaslik va doimiy tashvishdan iboratligini tushungan odam kaltafahmlikdan qutulgan bo'ladi.

A. BLOK

Bir odam uchun emas, balki hamma odamlarning farog'atini ko'zlash hamisha muhim masala bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

L.N. TOLSTOY

### *Lug'at*

|                |   |                             |
|----------------|---|-----------------------------|
| mehr-muhabbat  | — | любовь                      |
| mazmun-mohiyat | — | содержание, смысл, сущность |
| hissiyot       | — | чувства, эмоция, ощущения   |
| farovonlik     | — | изобилие, достаток, благо   |
| barqarorlik    | — | стабильность                |
| yuksak davlat  | — | великое государство         |

### *Tarjima mashqi*

Жизнь прожить – не поле перейти

Жизнь очень сложная штука, много в ней испытаний, и тот, кто способен преодолеть их может считаться сильным человеком. Любые препятствия нужно принимать как испытания судьбы, видимо, так формируется характер человека, полноценная личность. Человек должен быть по жизни оптимистом.

Оптимист – это человек, который, сломав ногу, радуется как ребенок, что не свернул шею. Вообще, много ли нужно человеку для счастья.

Все по-разному отвечают на этот вопрос. Одни под словом счастье понимают богатство, материальные блага, другие - человеческие положительные качества, третьи – любовь. Перечислять можно бесконечно. Сколько людей, столько и мнений насчет человеческого счастья.

✎ *Grammatik ma'lumot.* Dialogik matnning ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

Dialog (yun. dialogos – gaplashish, suhbat) –

- 1) ikki yoki undan ortiq kishining nutqiy muloqoti, suhbat;
- 2) adabiy – badiiy matn komponenti, asardagi personajlarning nutqiy muloqoti berilgan o'rinlar. Hozirgi zamon prozasi rivoya, tavsif va dialogdan tarkib topadi; zamonaviy epik asarlarda dialog salmog'ining ortishi kuzatiladiki, bunga turlararo sintezlashuv, badiiy adabiyotning boshqa san'atlar bilan o'zaro aloqasi natijasi sifatida qarash mumkin;
- 3) falsafiy – publisistik mazmun yo'nalishidagi janr, unda qo'yilgan masala bir necha kishining suhbatida shaklida muhokama etiladi.

Dialog janriga antik davrning Suqrot, Aflotun singari mutafakkirlari asos solganlar. Keyinchalik o'rta asrlar, Uyg'onish davri va Yevropa ma'rifatchilik adabiyotida ham dialog janri ancha faol bo'lgan.

O'zbek adabiyotida dialogning ildizlari munozara janriga borib taqaladi. XX asr boshlari o'zbek adabiyotida dialog janri, unga xos unsurlardan ma'rifatchilik g'oyalarini ommalashtirishda samarali foydalanildi. Jumladan, Fitratning "Munozara", "Bedil" asarlarini dialog janri namunasi sanash mumkin.

Ikki kishi o'rtasidagi dialogik nutq, savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi tasdiq, yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani bildiradi. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rta tashlangan savol taklif, da'vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida so'roq, olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. Bunday matndagi gaplar asosan sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi. Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.

Garchi dialogik nutq til nuqtai nazaridan gap shakllarining to'liq bo'lmasligi, so'zlarning tushib qolishi yoki qisqarishi, inversiyaga

uchrash bilan boshqa nutq shakllaridan ajralib tursa-da, bu o'rinda ham muloqotning umumiy qoidasi va etikasini saqlab qolishga harakat qilinadi.

Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir. M:  
*Sobir uni ko'tarib otga mindiradi.*

– *Chu!*

– *Men hayday? – so'raydi Zulfiya.*

– *Qo'rqmaysanmi? Ot yomon, olib qochib ketadi.*

– *Meni ushla sen.*

*Sobir uning yelkasidan ushlab oladi.*

– *Ketdik. Voy, chopib ketayapti-ku!*

– *Ot bo'lgandan keyin chopadi-da. Qo'rqma, tezroq haydayver.*

*Zulfiya haqiqiy aravakashlarga o'xshatib:*

– *No-o-o! Jonivor, no-o-o! – dedi. Ot qattiqroq chop boshlaydi.*

– *Qani, men olay, – Sobir cholning qo'lidan chelakni oldi.*

– *O'h-ho'! Muncha muzdek?*

– *Quduqning suvi-da, – dedi Nazir ota g'urur bilan.*

– *Tag'in meshda olib keldim. Ko'p ichmang, o'g'lim, tomoq og'rig'i bo'lib qolasiz.*

**Topshiriq.** Matnni o'qing, dialogning qurilishiga e'tibor qarating.

... Alisher o'rtog'ining aytganini eshitmadi shekilli:

– Ov qilmoq, merganlik — ermak narsa, lekin eng zo'r zaruriyat maktabdir. Turmushning ko'p sirlarini maktab o'rgatadi. Suhbatning bunday keskin o'zgarganidan shoshib, bir on jim qolgan bolalarning kattarog'i:

– Kim o'rgatdi senga bu gaplarni? — deb so'radi Alisherga tik qarab.

– Bilaman-da, otam hamisha: "Olim odam xor bo'lmaydi", — deyдилar. (Oybek)

**Topshiriq.** "Fakultet kutubxonasida" mavzusida dialog tuzing.

Tayanch so'zlar: *kutubxonachi, o'quv zali (qiroatxona), kitoblar javoni, ilmiy va badiiy kitoblar, darslik va qo'llanmalar, osoyishtalik.*

### **Test topshiriqlari**

1. Dialog so'zining ma'nosi —

a) yun. dialogos — munosabat, muloqot      s) lot. dialogos — fikr almashish, xabar

b) yun. dialogos – gaplashish, suhbat      d) lot. dialogos – eshitish, gaplashish

2. Dialog bu –

- a) ikki yoki undan ortiq kishining nutqiy muloqoti, suhbat;
- b) adabiy – badiiy matn komponenti, asardagi personajlarning nutqiy muloqoti berilgan o‘rinlar;
- s) falsafiy – publisistik mazmun yo‘nalishidagi janr, unda qo‘yilgan masala bir necha kishining suhbatida;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri

3. Quyida berilgan hayot haqidagi falsafiy fikr kimning qalamiga mansub?

*Bir odam uchun emas, balki hamma odamlarning farog‘atini ko‘zlash hamisha muhim masala bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.*

- a) L.Tolstoy      s) A. Jomiy
- b) A. Blok      d) M. Behbudiy

4. Qaysi jihatlari bilan dialog monologdan farqlanadi?

- a) har bir fikr to‘g‘ridan-to‘g‘ri suhbatdoshga qaratilgan bo‘ladi
- b) sintaktik qurilishi monologik nutqqa qaraganda sodda tuziladi
- s) voqealar keng izohlanmaydi
- d) barcha javoblar to‘g‘ri

5. Dialogik matn qaysi uslublarga xos?

- a) so‘zlashuv uslubi va ilmiy uslubga      b) so‘zlashuv uslubi va badiiy uslubga
- s) so‘zlashuv uslubi va rasmiy uslubga      d) so‘zlashuv uslubi va publitsistik uslubga

**?** *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:*

1. Hayot falsafasi haqida qanday tasavvurga egasiz?
2. Sizningcha, hayot go‘zalligining siri nimada?
3. “Hayoti bejiz o‘tmabdi” degan fikrni izohlay olasizmi?
4. Dialog janri qaysi davr adabiyotida ancha faol bo‘lgan?
5. Dialogik matnning ma’no munosabatiga ko‘ra necha turi mavjud?

*Uyga vazifa.* “Hayot mening tasavvurimda” mavzusida kichik matn tuzing.

## 25-mavzu. Ustoz maktabi

*Kishilik tufayli kishi topar kom,  
Kishilik tufayli olar ehtirom.*

### O'qish uchun material

#### Sharaflı kasb

Dunyoda insonlar turli-tuman kasblarda faoliyat olib boradilar. Ammo, mana shu kasblar ichida shunday bir kasb borki, u ham sharaflı, ham mas'uliyatliligi, o'ta fidoiylikni talab qilishi bilan ajralib turadi. Bu ustozlik va murabbiylik kasbidir.

Barcha sohalarning ustalari, mutaxassisleri bir kasb egalari mehnati bilan shakllanadi. Har birimizga kimdir harf o'rgatib, savodimizni chiqargan. Bugun kim, qayerda, qanday vazifada ishlamasin, qachondir maktabda o'qigan, ustozlar tarbiyasini olgan. Ilk bor maktabga borgan kunni, qo'liga qalam berib, yozishni, o'qishni o'rgatgan o'qituvchisini eslamaydigan odam topilmasa kerak. Ustoz o'z kasbiga qalb qo'ri bilan kirishmasa, fidoiy bo'lmasa murabbiylik yo'lida hech qanday yutuqlarga erisha olmaydi.

Ilm maskanimizda o'z kasbining ustalari talabalarga ta'lim-tarbiya beradilar. Hozirda talabalarning odob-axloq, bilim saviyasini yanada yuqoriga ko'tarish, har bir talabaning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatiga yarasha qo'shimcha mashg'ulotlar olib borish borasida ustozlar tinmay izlanmoqdalar.

#### Birinchi o'qituvchim

Maktabga borgan birinchi kunimni juda yaxshi eslayman. O'sha kuni birinchi o'qituvchimiz qo'limizdan yetaklab sinfga olib kirdilar. Maktabga qadam qo'yganimizdan boshlab bizning murg'ak qalbimizda Vatanimizga nisbatan muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish kabi tuyg'ularni uyg'otdilar. Birinchi o'qituvchim menga ilk bor qalam tutishni, yozishni, o'qishni, maktabni sevishni, darslarga puxta tayyorlanishni, maqsadga erishish yo'lida harakat qilishni o'rgatdilar.

Ota-onalar farzandlarini boshlang'ich ta'lim olish uchun tajribali muallimlarga berishga harakat qiladilar. Men ham tajribali ustoz qo'lida ta'lim oldim va hozirgi kunda hamma havas bilan boquvchi O'zbekiston Milliy universitetining 1-kurs talabasiman.

Birinchi o'qituvchim, ilk ustozimni, hech ikkilanmay ikkinchi onam desam arziydi. Men ulardan minnatdorman.

## *Lugʻat*

|           |   |                                 |
|-----------|---|---------------------------------|
| tajribali | – | опытный, умудрённый опытом      |
| ilk bor   | – | впервые                         |
| muallim   | – | учитель, педагог, преподаватель |
| ziyo      | – | сияние, свет                    |
| taʻlim    | – | обучение, учёба, образование    |
| tarbiya   | – | воспитание                      |
| murabbiy  | – | наставник, педагог, воспитатель |

## *Yodingizda tuting!*

Donolar bisotidan

Haq yoʻlida kim sanga bir harf oʻqitmish ranj ila,  
Aylamak boʻlmas ado, oning haqqin yuz ganj ila.

Alisher Navoiy

Hayot yoʻlida birinchi masala – maktab masalasidir.

Fitrat

Jahonda boʻlmasa muallim agar,  
Hayot ham boʻlmasdi goʻzal bu qadar.

Abdurahmon Jomiy

Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir.

Abu Rayhon Beruniy

Uquv qayda boʻlsa, ulugʻlik boʻlur,  
Bilim qayda boʻlsa, buyuklik boʻlur.

Yusuf Xos Hojib

## *Sheʻrni yod oling*

Muallim

Siz yozgan raqamdan ochilgan dunyo,  
Siz oʻqitgan harfdan taralgan ziyo.  
Ilm-u fanda buyuk kashfiyot boʻlgan,  
Siz daftarga qoʻygan ilk aʻlo baho.  
Muallim!

Oʻquvchining qalbi – oq daftar, tiniq,  
Nimani yozsangiz, bir umr oʻchmas.  
Qoyaga oʻyilgan suratdek aniq,  
Shamol, qor va yomgʻir, boʻronda koʻchmas,  
Muallim!

Siz oʻrgatgan kuydan yangragay navo,  
Siz boʻyatgan rangdan koʻringay havo.

Olim odam bo'lgay tarbiyangizdan,  
Olamning dardiga topilgay davo.  
Muallim!  
Chigal muammolar tug'dirar hayot,  
Ta'lim-tarbiyada yagona najot.  
Qalam, qog'oz, kitob – ish qurolingiz,  
Nurli kelajakni qilasiz ijod.  
Muallim!

(Rustam Musurmon)

✍ *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling*  
*ustoz-shogird, ilm maskani, talabalarning odob-axloqi, bilim*  
*saviyasi, iqtidor, boshlang'ich ta'lim, iqtidor, imkoniyat, tinmay*  
*izlanmoq*

#### ✍ *Suhbat matni*

Ustozlar murg'akligimizdanoq qalbimizga ezgulik urug'larini sochadi, qo'limizdan tutib, ma'rifat saboqlarini beradi, mehr-muhabbat ulashadi. Biz erishayotgan ulkan yutuqlarimiz, qo'lga kiritayotgan g'alabalarimizda ularning hissasi katta. Shu sabab, ularni mudom sharaflagimiz, ardoqlagimiz keladi. Makedonskiy) Rumiyan "Nechun Arastuni (Aristotel) otangizdan ortiq izzat qilasiz?" deb so'radilar. Iskandar Rumiyan javob berdi: "Otam go'yoki meni osmondan yerga tushirdi. Ammo ustozim Arastu meni yerdan osmonga ko'tardi. Ya'ni, otam meni dunyoga kelmog'imga sabab bo'ldi. Ustozim ilm va odob o'rgatib, martaba va izzatimning ortmog'iga sabab bo'ldi". Ko'rinib turibdiki, dunyoni o'z ilmi ma'rifati bilan lol qilgan insonlar ham doim ustozini yuksak qadrlagan, izzat-hurmatini joyiga qo'ygan.

✍ *Grammatik ma'lumot.* Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.

Monologik matn haqida gapirilganda, monolog va monologik matnni farqlay bilish lozim.

Monolog (yunon. monos – yakka, logos – so'z) – yakka shaxsning ayni paytda javob berilishini talab qilmaydigan, o'zgalar replikalari bilan bo'linmagan nutqi. Monolog og'zaki shaklda (turli yig'inlardagi nutq, ma'ruza, hisobotlar) ham, yozma shaklda (publisistika, memuarlar va h.) ham keng qo'llanadi. Badiiy adabiyotda monologlardan turli maqsadlarda foydalaniladi. Ayniqsa, dramatik asarlarda monologlarning badiiy - estetik vazifalar doirasi



ancha keng. Monolog – dramatik personajning ruhiy holati, uning ongi-yu qalbida kechayotgan jarayonlarni tasvirlashning asosiy shakli. Ayni chog‘da, shartli ravishda tasvirlanuvchi bunday ruhiy jarayonlar voqealarga g‘oyaviy - hissiy munosabatni ifodalash, ayrim muhim tafsilotlarni berish, syujet rivojini asoslash kabi qator muhim funksiyalarni ham bajaradi. Monolog lirikaning ustuvor nutq shakli, lirik qahramon kechinmalari, asosan, uning monologi orqali ifodalanadi. Bu narsa ijroviy lirika namunalarida, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi, shuning uchun amaliyotda bunday she‘rlar monolog deb ham yuritiladi ( A.Oripov “Hamza”, X.Davron “Abulhay so‘zi”). Sifat jihatidan monologning turli ko‘rinishlari mavjud (badiiy nutq, ichki monolog).

Tavsifiy (monologik ) matn so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea - hodisa, narsa yoki shaxs tasviri , tavsifi yohud xabar, ma‘lumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi hisoblanadi. Ma‘lum voqea - hodisalarga, narsa va shaxsga oid fikr - mulohazaga bildirish, ularni badiiy vositalar yoki dalillar bilan ta‘riflash, izohlash, isbotlash tavsifiy matnga xos xususiyatlaridandir. Shuning uchun bunday matnda belgi-xususiyatni ifodolovchi so‘zlar, modal so‘zlar, fe‘lining funksional shakllari, ravishlar faol qo‘llaniladi. Tavsifiy matn yaratishda uyushiq bo‘laklar, ajratilgan gap bo‘laklari, atov gaplar, qo‘shma gap ko‘rinishlaridan keng foydalaniladi.

Tavsifiy matn ilmiy, publisistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir. Qo‘shma gaplar sinonimiyasidan badiiy tasvirda portret, tabiat manzarasini chizishda, shuningdek, inson ruhiy holati va his-tuyg‘ularini ifodalashda ko‘proq foydalaniladi.

*Topshiriq.* Quyida berilgan matnni o‘qing. Monologdagi lirik qahramon kechinmalari xususida fikr bildiring.

### Ona mehri

Ona! Bu so‘z hayot kabi abadiy. Ona borki, olam bor; ona borki, odam bor. Ona borki, Vatan bor. Zero, ona kabi muqaddas va tabarruk, aziz va mo‘tabar, beg‘araz va beminnat inson bu yorug‘ dunyoda topilmaydi. Atoqli yozuvchilarimizdan biri aytganidek: «Quyoshsiz gullar ochilmaydi, sevgisiz baxt, ayolsiz muhabbat yo‘q, onasiz qahramon ham, shoir ham tug‘ilmaydi.

Mehri cheksiz, butun dunyoni ko‘kragi bilan boqqan ayol — Onani sharaflaylik.”Dunyoda ona mehridan ortiqroq hech narsa yo‘q.

*Topshiriq.* A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan olingan Kumushbibi tasviriga oid parchani o‘qib, belgi-xususiyat bildiruvchi so‘zlarni ajratib ko‘chiring. Bu so‘zlar nimalarni tasvirlashga qaratilganligini aniqlang.

“...Uning qora zulfi par yostiqlarning turli tomoniga tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jingala kiprik ostidagi tim qora ko‘zlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lgan oydek g‘uborsiz oq yuzi bir oz qizillikka aylanganda kimdandir uyalgan kabi... Shu payt ko‘rpani qayirib ushlagan oq qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilgan qora xolini qashidi va boshini yostiqlardan olib o‘tirdi. Sariq atlas ko‘ylakning ustidan uning o‘rtacha ko‘kragi bir oz ko‘tarilib urmoqda edi. Turib o‘tirgach, boshini silkitdi-da, ijirg‘anib qo‘ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to‘zg‘igan soch tolalari o‘rab olib jonsiz suratga kirgizdi. Bu qiz suratida ko‘ringan malak qutidorning qizi - Kumushbibi edi!”

*Topshiriq.* “Talabalik – kelajagim poydevori” mavzusida monolog tuzing.

### *Test topshiriqlari*

1. Ma’lum voqea-hodisa, narsa-shaxslarga, oid fikr-mulohaza bildirish, ularni dalillar yoki badiiy vositalar bilan ta’riflash, izohlash, asoslashga matnning qaysi turi xizmat qiladi?

- a) tavsifiy(monologli) matn    b) insho matni    s) dialogli matn  
d) badiiy matn

2. Badiiy komponentlardan biri, asarda ishtirok etuvchi shaxslarning o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga qaratilgan nutqi nima deb ataladi?

- a) monolog    b) atov-gaplar    s) badiiyat    d) dialog

3. Adabiyotda nima personajlar ruhiy dunyosi, kechinmalarini ifodalashdagi muhim vositalardan biri sifatida qo‘llanadi?

- a) monolog    b) dialog    s) atov-gaplar    d) badiiyat

4. Matnning qaysi turi ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy va badiiy uslubda qo‘llanadi?

- a) tavsifiy(monologli) matn    b) dialogli matn  
s) badiiy matn    d) insho matni

5. *Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o‘qituvchilik va murabbiylikdir.* Ushbu aforizm muallifi kim?

a) Amir Temur  
s) I.A.Karimov

b) Abdulla Avloniy  
d) Sh.M.Mirziyoyev

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. O'qituvchilik kasbining mas'uliyati qanday?
2. "Ustoz – shogird" maktabi sizlarda qanday metodik ishlarni tashkil etmoqda?
3. Monolog matnining o'ziga xos jihatlari nimada?
4. Matnning qanday turlari bor?
5. Tavsifiy matn qanday xususiyatlarga ega?

*Uyga vazifa.* Badiiy asardan dramatik personajning ruhiy holatini tasvirlovchi monolog matni toping.

## 26-mavzu. Kasbim tarixi

*Kimki bo'lsa asli otadan toza,  
Eliga naf berar u beandoza.*

### O'qish uchun material

#### Kasblar tarixi

Har bir kasbning o'ziga yarasha sir-asrori bo'ladi. Dunyoda kasblar ko'p va xilma-xil. Qadim-qadimdan odamlar ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, kosibchilik kabi ishlar bilan shug'ullanib kelishgan. Jamiyat rivojlangan sari ortib borayotgan ehtiyoj va talabni qondirish uchun kasblar ham ko'payib bormoqda. Bugungi kunda jamiyatimizni to'quvchi, matbaachi, dizayner, tikuvchi, g'isht teruvchi, harf teruvchi, o'qituvchi, tarbiyachi, uchuvchi, xonanda, rassom, temirchi, yozuvchi, menejer va hokazo kasblarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Arxitektor (so'z asosi grek tilidan kelib chiqqan; lotin tilidan tectum - uy, pana) - arxitektura bilan shug'ullanuvchi kasb, ya'ni hashamatli binolarning qurilish konstruksiyasini inobatga olgan holda reja ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan.

Solnomalarda qayd etilishicha, birinchi arxitektorlar italiyalik: Pyetro Antonio Solari, Petrok Kichik, Aleviz Yangi kabilar bo'lgan. Bundan avvalroq esa «murol» hamda «xona ishlari ustasi» kasb atamasidan foydalanilgan. XX asrga kelib arxitektura kasbi batamom ikkiga bo'lingan: «hashamatli binolar loyihasi» (yirik bino hamda inshootlarni loyihalashtirish) hamda «shahar binokorligi», ya'ni yirik shahar tumanlari yoki yer yotqizish va turli funksional qurilmalar. XX asr oxirlariga kelib, shahar binokorligi ijtimoiy hamda umumiy nazariya to'qnashuvi natijasida «takomillashish» tizimi mustaqil tarbiya o'rnida ajralib chiqdi va o'z ichiga «shahar» nomli predmetni va shahar rivoji prinsiplarini oladi.

XX asr oxirlariga kelib «arxitektor» atamasining ma'nosi, aytarli darajada o'zgardi, ya'ni interyer dizayneri yoki landshaft dizayneri kabi kasblarni o'z ichiga olib, ushbu kasblar bilan umumlashdi.

Davolash ishi feldsheri - bu kasb paydo bo'lishi o'rta asrlarga borib taqaladi. O'sha davrda urush vaqtida jarohatlanganlarga tez yordam beruvchilarni shunday deb atashgan. Bugungi kunga kelib feldsher tuman va shahar shifoxonalarida shifokor yordamchisi yoki assistenti, viloyat medpunktlarida shifokor va mudir vazifasini bajaradi. Bu kasb avval Germaniyada paydo bo'lgan bo'lib, «feldscher» atamasi nemis tilidan so'zma so'z «jangovor sartarosh» deb tarjima qilinadi.

Hozirgi kungacha ushbu kasbning asosiy vazifasi saqlanib qolgan; malakali shifokor ko'rigigacha kasalga birinchi yordam ko'rsatib kasallik diagnozini qo'yish.

*Dizayner* - «dizayner» so'zi inglizcha «industrial design» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, loyihalashtirish, sanoat xomashyolarini ishlab chiqarish ma'nolarini anglatadi. Qadim zamonlardan inson o'z kelib chiqishini o'zgartirishga intilib kelgan. Buni o'z xonadonini shinamroq, ish joyini esa qulay qilib o'zgartirganligi misolida ko'rish mumkin. Bizni o'rab turgan barcha narsa qulay, foydali, tejamli va chiroyli bo'lishi barobarida sog'lig'imizni saqlab qolishi va ruhiy osoyishtalik sari yetaklashi lozim. Aynan bu kabi vazifalar bilan dizayner shug'ullanadi. XX asr fan va texnika asri deb tan olingan bo'lib, bu yillar texnika va fandagi yutuqlar, tejamkorlik va go'zallikka intilishga erishilgan, shularning natijasida yangi kasb - dizaynerlik shakllangan. Hozirgi kunda hech qaysi sohani bu kasbsiz tasavvur qilishning iloji yo'q.

✦ *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling*  
*kasb, orzu, matbaa xodimi, ulug'lamoq, kasb tanlash, intilmoq, sharaflili, ustoz, faxriy unvon.*

### 🌀 *Lug'at*

|             |   |                            |
|-------------|---|----------------------------|
| jarohat     | — | ранение, рана              |
| yutuq       | — | выигрыш, успех, достижение |
| tejamkorlik | — | бережливость, экономность  |
| raqobat     | — | конкуренция, соперничество |
| intilmoq    | — | стремиться, устремляться   |
| tasavvur    | — | представление, воображение |

### 🌀 *Tarjima mashqi*

Профессия (лат. *professio*; от *profiteor* — «объявляю своим делом») — род трудовой деятельности человека, обычно его источник существования. Требуется владения теоретическими знаниями и практическими навыками, приобретаемыми в ходе специальной подготовки или образования.

С развитием автоматизации потребность в тяжёлом ручном труде начала падать. Если раньше рабочие работали по 14 – 16 часов в сутки лишь для того, чтобы прокормить семью, то теперь они могут работать по 9 часов, а в самых развитых странах люди

могут работать 3 – 4 дня в неделю или вообще жить на пособие. У людей появилось больше свободного времени, которое они начали тратить на потребление информации, поэтому в ответ на спрос появилось предложение – начали развиваться средства массовой информации: телевидение, радио, а в конце XX века – и интернет.

✍ *Grammatik ma'lumot.* Soha lug'atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi.

Leksikografiya lot. *lexikos* – so'z, *grapho* – chizmoq, yozmoq so'zlaridan olingan bo'lib, lug'at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug'ullanuvchi tilshunosiikning bo'limidir.

Leksikografiya nazariyasining predmeti lug'at tuzish tamoyillari va usullaridir. Leksikografiya amaliyoti esa lug'at tuzuvchilarning ishini tashkil etish, so'zlarni kartochkalarga tushirish, sistemaga solish va saqlash singarilarni o'z ichiga oladi. Leksikografiya nazariyasida lug'at turlari, so'zlik tarkibi va so'z maqolasining tuzilishi asosiy o'rinni egallaydi.

Lug'atlar ikki turli bo'ladi:

- 1) ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar;
- 2) filologik (lingvistik) lug'atlar.

Bu ikki turdagi lug'atlar lug'at birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug'atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o'z ichiga olsa, ensiklopedik (qomusiy) lug'at; ma'lum bir tildagi so'zlarni o'z ichiga olsa, filologik (lingvistik) lug'at hisoblanadi.

Ensiklopedik (qomusiy) lug'atda turli xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ilmiy tushunchalar va boshqalar o'z ifodasini topadi. Umuman, ensiklopedik lug'atlar ma'lum bir xalqning madaniy-ma'naviy, ilmiy-amaliy, siyosiy-iqtisodiy hayotiga doir barcha tushunchalarni qamrab oladi va bu tushunchalar unda o'z izohini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"ni yaratish to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. Ana shu qaror asosida 2000-2006-yillarda 12 jildli "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" yaratildi.

Toshkent shahrida ensiklopedik lug'atlar va kitoblarni nashr etish bilan shug'ullanayotgan alohida muassasa – "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti faoliyat ko'rsatmoqda.

Tildagi so'zlarni izohlashga qaratilgan lug'atlar izohli lug'at, muayyan tildagi so'zlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga

qaratilgan lugʻatlar esa tarjima lugʻat sanaladi.

1981-yili Moskvadagi «Русский язык» nashriyotida nashr qilingan 2 jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”, 2006-2008-yillarda “Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan nashr qilingan va 80 ming soʻz hamda soʻz birikmasini oʻz ichiga olgan 5 jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”, 2001-yili Toshkentdagi “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati tomonidan nashr etilgan “Oʻzbek tili faol soʻzlarining izohli lugʻati” yoki oʻzbekcha-ruscha, inglizcha-ruscha-oʻzbekcha lugʻatlar bunga misol boʻla oladi.

Izohli lugʻatlar soʻzlarning tanlanishiga koʻra umumiy va tarmoq lugʻatlarga boʻlinadi. Tilning barcha soʻzlarini izohlashga qaratilgan lugʻatlar umumiy izohli lugʻatlar, maʼlum bir tarmoqqa doir soʻzlarnigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lugʻatlar tarmoq lugʻat hisoblanadi. (Masalan, kasb-hunarga doir lugʻatlar, maʼlum fan sohasi boʻyicha atamalar lugʻati va boshqalar.)

Har qanday lugʻat shu lugʻatning egasi boʻlgan xalqning katta madaniy va maʼnaviy boyligi sanaladi.

*Topshiriq.* Mavzu yuzasidan savollarga javob bering.

1. Leksikografiya nima va u nimalar haqida bahs yuritadi?
2. Lugʻat deganda nimani tushunasiz va u qanday turlarga boʻlinadi?
3. Izohli va tarjima lugʻatlarning bir-biridan farqi nimada?
4. Qanday izohli lugʻatlarni bilasiz?

*Topshiriq.* Maqollarni koʻchiring. Ularda ilgari surilgan gʻoya toʻgʻrisida soʻzlab bering.

Tigʻ yarasi tuzalar,

Ulugʻlik yoshda emas, boshda.

Dil yarasi tuzalmas.

Ustadan shogird oʻzar.

Toma-toma koʻl boʻlur,

Uydagi hisob bozorga toʻgʻri

Tommay qolsa, choʻl boʻlur.

kelmas.

Tosh bilan otganga osh bilan ot.

### *Test topshiriqlari*

1. Tilshunoslikning qaysi boʻlimi lugʻat va uning turlari, lugʻat yaratishning nazariy masalasini oʻrganadi?

a) leksikografiya    b) etnografiya    s) orfografiya    d) orfoepiya

2. Tilshunoslikning qaysi sohasi lugʻat tuzishning nazariy va amaliy masalalari bilan shugʻullanadi?

a) lugʻatshunoslik    b) atamashunoslik    s) orfoepiya    d) orfografiya

3. Turgʻun birikmalar boʻlgan iboralarni oʻz ichiga jamlagan filologik lugʻat turi berilgan qatorni toping.

a) “Oʻzbek tili frazeologizmlarining izohli lugʻati”

b) “Oʻzbek tilining toponimik lugʻati”

s) “Oʻzbek tili iboralarining oʻquv izohli lugʻati”

d) “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”

4. Oʻzbek tilida isteʼmolda boʻlgan oʻz va oʻzlashgan soʻzlarning maʼnosini umumiy tarzda izohlaydigan lugʻat turi berilgan qatorni toping.

a) “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”                      b) “Oʻzbek tilining orfoepik lugʻati”

s) “Oʻzbek tilining toponimik lugʻati”    d) “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”

5. Soʻzlarning oʻzak va qoʻshimchalarga qanday ajratishini koʻrsatuvchi filologik lugʻat berilgan qatorni koʻrsating.

a) “Oʻzbek tili morfem lugʻati”

b) “Oʻzbek tilining soʻz tarkibi oʻquv lugʻati”

s) “Oʻzbek tilining soʻz yasalishi oʻquv lugʻati”

d) “Oʻzbek tilining maʼnodosh soʻzlar oʻquv lugʻati”

### **? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Sizning fikringizcha, qaysi kasblar uzoq tarixga ega?

2. Kasb tanlashda uning tarixi ahamiyatga egami?

3. Leksikografiya tilshunosiikning qaysi masalalarini oʻrganuvchi boʻlim?

4. Oʻzbek tili frazeologizmining otasi kim?

5. Tilshunoslikning qaysi sohasi lugʻat tuzishning nazariy va amaliy masalalari bilan shugʻullanadi?

*Uyga vazifa.* Oʻz tanlagan kasbingiz tarixi haqida matn tuzing.



## 27-mavzu. Iqtidor va mehnat

*Bu umrni doim istab, topib bo'lmay,  
Yigitlik quvvati hech qaytib kelmas*

 *O'qish uchun material*

### Iqtidorli yoshlar

Insondagi qobiliyat, iqtidor, eng avvalo, inson aqlu zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlaydi. Shuning uchun ham psixologiyada ko'proq iqtidor va qobiliyat tushunchasi aql-zakovat tushunchasi bilan bog'lanib o'rganiladi.

Aslida iqtidor ilohiy in'om, u har kimga ham berilavermaydi, uni to'g'ri yo'naltira bilish kerak.

Qobiliyatli odamdan, avvalo, jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning o'z iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarish doimiy e'tibor qaratish, ayniqsa, adabiyotga, ma'naviyatga ulkan e'tibor qaratish, ijodkorlarga hurmat-ehtirom, o'sib kelayotgan yosh avlodga mehr va g'amxo'rlik ko'rsatish zarurligini alohida ta'kidladi. Iqtidorli insonlar turli sohalarda bo'lishi mumkin. Inson o'z iqtidori va qobiliyati, salohiyatiga ko'ra mehnat qiladi.

Mehnat kishilik jamiyati hayotining asosiy sharti, chunki u tufayli insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratiladi. Insonning maqsadli faoliyati tufayli mehnat predmetlari mahsulotga aylanadi. Mehnat tufayli inson tabiatdagi narsalarni o'zgartiribgina qolmaydi, balki o'zi ham kamol topadi, uning aqliy va jismoniy qobiliyatlari o'sadi. Mehnat jarayonida inson tabiat kuchlarini o'z maqsadiga bo'ysundiradi.

Mehnat o'zining mazmuni va xarakteri jihatidan aqliy, jismoniy, malakali (murakkab) va malakasiz (oddiy) mehnatga bo'linadi.

Aqliy mehnat – insonning tafakkur faoliyati (muhandis, shifokor, o'qituvchi).

Jismoniy mehnat – insonning jismoniy faoliyati (ishchi, dehqon).

Malakasiz mehnat maxsus tayyorgarlikni va qobiliyatni talab etmaydi (yuk tashuvchi, farrosh, qorovul).

Mehnat iqtidorning yuzaga chiqishida katta omil hisoblanadi.

Tarixdan ma'lumki, iqtidorli insonlar oddiy insonlardan ko'rinishlari bilan ajralib turishmaydi. Ammo iqtidorli inson yaratgan mahsulot xoh u kuy bo'lsin yoki surat u boshqalarning e'tiborini tortadi va o'ylanishga majbur qiladi.

✍ *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling*  
*iqtidorli yoshlar, ilm-fan, jismoniy mehnat, iste'dod va salohiyati, shijoat, ilohiy in'om, mashaqqatli mehnat, g'ayrat va intiluvchanlik*

### 🌀 *Lug'at*

|                  |                              |
|------------------|------------------------------|
| ilm-fan          | – наука                      |
| dori-darmonlar   | – лекарство                  |
| zararlantirmoq   | – повреждать, причинять вред |
| qarshi kurashmoq | – бороться против            |
| ilmiy ish        | – научная работа             |
| narxi qimmat     | – стоимость дорого           |
| dori vositalari  | – лекарственные средство     |

### 🌀 *Tarjima mashqi*

Всё, что тебя окружает, создано трудом человека. И сам ты, сегодняшний студент, завтра вступишь в ряды тех, кто трудится на благо народа. Тебе предстоит строить будущее. Постоянно работай над собой, помогай другим, стремись быть скромным, волевым, решительным и мужественным человеком. Будь требовательным к самому себе: умеи признавать свои ошибки, исправляй их, не обижайся на справедливую критику.

✍ *Grammatik ma'lumot. Matnga so'z va termin tanlash.*

Bir necha gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og'zaki nutq parchasi mikromatn hisoblanadi.

Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asarga makromatn deyiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida ishtirok etgan barcha mikromatnlar «o'g'irlik» umumiy mavzusi ostida birlashgan.

Matnning eng kichik birligi gap hisoblanib, ular matn tarkibida

ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi. Ular quyidagilardan iborat:

bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi ayrim so'zlar, takroriy bo'laklar, olmoshlar, sinonimlar.

*Karimjon a'lo o'qish va odobi bilan litseyda katta hurmatga ega. U jamoat ishlarida ham faol qatnashadi.*

Matn tarkibidagi ikkinchi gap boshida kelgan u olmoshi birinchi gap tarkibida kelgan Karimjon o'rnida kelib, ikkinchi gapni birinchi gapga mazmunan bog'lab keladi. Shuning uchun ham u olmoshi matn qismlarini bog'lovchi, ya'ni matn hosil qiluvchi vosita sanaladi.

Mikromatnni hosil qilishda takrorlar eng muhim vositadir, chunki u ham gaplarni bog'lovchi vosita hisoblanadi, ham uslubiy bo'yoqdorlik hosil qiladi.

*Topshiriq.* Matnni ko'chiring. So'z san'atidan foydalanib matnni davom ettiring.

Atrof jimjit. Xazonlarning shabadadan shitirlashi-yu, chala berkitilgan vodoprovod jo'mragidan oqayotgan suvning jildirashidan boshqa hech narsa eshitilmasdi. Hovli to'ridagi kichkina uy derazasidan ozgina joyga yorug' tushib turardi..... (S. Zunnunova)

*Topshiriq.* O'qing. Mikromatnni makromatnga aylantiring.

Ey farzand, aqlli, farosatli va ilm-u hunarli kishilar bilan do'st bo'l. Hunarsiz kishida xosiyat bo'lmaydi. Mehnatdan, ilm-u hunar o'rganishdan uzoqlashma. («Qobusnoma»dan)

### **✓ Test topshiriqlari**

1. O'zbek adabiy tiliga qaysi shevalar asos qilib olingan?

a) Toshkent-Farg'ona s) Toshkent-Andijon

b) Toshkent-Namangan d) Toshkent-Qo'qon

2. Tildagi so'zlarning kelib chiqish tarixini o'z ichiga olgan filologik lug'at qaysi javobda berilgan?

a) "O'zbek tilining etimologik lug'ati"

b) "O'zbek tilining toponimik lug'ati"

s) "O'zbek tilining eskirgan so'zlar o'quv izohli lug'ati"

d) "O'zbek tilining izohli lug'ati"

3. Tilshunoslikning qaysi bo'limi lug'at va uning turlari, lug'at yaratishning nazariy masalasini o'rganadi?

a) leksikografiya b) etnografiya s) orfografiya d) orfoepiya

4. Matn tuzishda nimalarga e'tibor beriladi?

- a) nutq uslubiga                      b) soʻz va terminlarni toʻgʻri tanlashga  
s) imlo meʼyorlariga                d) soʻz va terminlarni toʻgʻri tanlashga  
5. Matnga soʻz va termin tanlashda nimalarga eʼtibor beriladi?  
a) maʼnoga                              s) imlo meʼyorlariga, talaffuzga, maʼnoga  
b) talaffuzga                            d) imlo meʼyorlariga

**?** *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:*

1. Yurtimizda iqtidorli yoshlarga qanday eʼtibor berilmoqda?
2. Mehnat inson ruhini tetik va pok qiladi. Sizning fikringiz?
3. Matnning eng kichik birligi nima?
4. Yoshlikdagi shijoat, gʻayrat va intiluvchanlik keksalikdagi rohatning garovimi?
5. Mikromatnni hosil qilishda nima eng muhim vosita?

*Uyga vazifa.* Iqtidorli yoshlar haqida reportaj tayyorlang.

## 28-mavzu. Yetuk mutaxassis

*Dono maqto'v olar, nodon-chi- so 'kish,  
O'zing o'yla, senga ma'qul qaysi ish?*

 *O'qish uchun material*

### Yetuk mutaxassis

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga juda katta e'tibor qaratilib, ularga har sohada katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yoshlarning barkamol bo'lib ulg'ayishlari, shaxs sifatida shakllanishlari uchun kasbni to'g'ri tanlay bilishlari, shu sohaning yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishlari lozim.

O'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lish uchun, eng avvalo, yaxshi o'qish, bilim olish kerak. Berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'z maqsadi sari intilish kerak.

Bu o'rinda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Hozirda yoshlarimiz internet tarmog'idan keng foydalanib, kerakli ma'lumotlar olmoqdalar, elektron pochta xizmatlaridan foydalanmoqdalar, kerakli adabiyotlarni qidirib topmoqdalar va hokazo.

Ushbu resurslar yoshlarni bilimli bo'lishlarida, ularni vatanga sadoqatli, o'z tarixi, millatidan faxrlanadigan qilib tarbiyalashda, har sohadagi yangiliklardan, ixtirolardan xabardor bo'lishlari uchun, yangi bilimlar bilan yanada o'z tafakkurlarini oshirishlari uchun xizmat qilmog'i lozim.

O'z sohalarining yetuk mutaxassisi bo'lmish ustozlarni  
hurmatlash bayonida....

Har bir inson uchun o'z muallimini va ustozini e'zozlash, hurmat va ehtiromini ado qilishi shartdir. Negaki, bu zotlar har qanday inson ruhini tarbiyalaydi, ma'naviy boylik bilan to'ydiradi, har qanday ruhiy va maishiy kamchilik hamda illatlarni poklaydi, jaholat degan buyuk aybdan xoli va ozod qiladi.

Muallim va ustoz shunday zotki, u insoniyatni ilm bezagi bilan ziynatlaydi, ularga chiroyli va yoqimli fazilatlar bilan chiroy va oro beradi, tushuntirish bilan foydasiz narsalardan odamni xalos etadi, insonni haqiqiy komil inson darajasiga yetkazish bilan bilim xazinasini ularning qalblariga joylaydi.

Muallim va ustoz shunday zotki, u sening insonlik haq-huquqlaring nimadan iborat ekanini tushuntirib beradi, yaramas, yomon ishlardan qaytaradi va eng yaxshi ishlar va fazilatlar sari yo'l

ko'rsatadi. Ular sening yuksakliging va kamolga yetishingni o'ylashib, hamisha jon kuydirishadi, el ichida o'ylab, butun kuch va imkoniyatlaringni ishga solishadi.

Muallim va ustozning vaqtlari qimmatli ekanligini bilib, aytganlariga diqqat bilan quloq sol. Bordi-yu, biror narsani tushunmay qolsang, odob va muloyimlik bilan qayta so'rashing zarur. Muallim va ustozing nima so'rasalar kulib turib, odob va ikrom bilan chiroyli so'zlarni saralab javob ber. Ilm maskanidan tashqarida yoki ko'cha-ko'yda ularni ko'rib qolsang, ta'zim bajo qil, qo'lingni ko'ksingga qo'yib, salom ber.

(Abduqodir Nuriy al-Barzanjiy)

✎ *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling.*

*yetuk va malakali mutaxassislar, tajribali tarbiyachilar, chin yurakdan sevmiq, hissa qo'shmoq, ilm bezagi, yuksaklik, kamolga yetmoq*



*Suhbat matni*

Sohamiz ravnaqi  
Iristoy Qo'chqortoyev  
(1936-2000)

Filologiya fanlari doktori (1978), professor (1981), O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (2000) Iristoy Qo'chqortoyev o'zbek tili leksikologiyasi, uslubiyati, tilning umumiy-nazariy masalalari bilan bog'liq bir qator asarlarning muallifi. Uning «Ferdinand de-Sossyurning lingvistik konsepsiyasi» (1976), «So'z ma'nosi va uning valentligi» (1977) kabi kitoblari tilshunoslikning nazariy muammolarini yoritishga bag'ishlangan. Shuningdek, u oliy maktablarda til bilimini o'qitishni takomillashtirish bo'yicha ham ulkan ishlarni amalga oshirdi. Xususan, oliy o'quv yurtlarining o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun yozilgan «Badiiy nutq stilistikasi» (1975), «Turkiy filologiyaga kirish» (1976), «Tilshunoslikka kirish» (1976), «Umumiy tilshunoslik», «Lingvistik ta'limot tarixi» (1980) kabi o'quv qo'llanmalari tilshunoslik nazariyasi va turkiyshunoslikni yuqori pog'onaga ko'tarishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

☞ *Lug'at*

|               |                              |
|---------------|------------------------------|
| chin yurakdan | — от всей души, всем сердцем |
| faol          | — активный                   |
| tanlov        | — выбор, конкурс             |
| hakamlar      | — судьи, жюри                |

|                |   |                           |
|----------------|---|---------------------------|
| mashg'ulotlar  | – | занятия                   |
| baho bermoq    | – | аттестовать, оценивать    |
| izlanishlar    | – | искание, поиски           |
| hissa qo'shmoq | – | доля впрягать, вкладывать |

### *Tarjima mashqi*

“Bola boshidan”, – deydi dono xalqimiz. Jajji murg‘ak qalblarga ezgulik urug‘ini sochish, ularni sog‘lom, barkamol, yetuk inson etib tarbiyalashda maktabgacha ta‘lim muassasalari pedagog xodimlarining o‘rni beqiyosdir. Bolalarni chin yurakdan sevgan, ularning tilini bilgan odamgina haqiqiy murabbiy bo‘la oladi.

### *Grammatik ma'lumot. Matn tahlili va tahriri.*

Badiiy tahlil – matn tahlilining murakkab turlaridan bo‘lib, unda xilma-xil vazifalar bajariladi. Chunki bu tahlildan kuzatiladigan maqsad asarning xususiyatlarini o‘rganishdir.

Badiiy matnda kishilarning munosabatlar doirasida bir-biri bilan bog‘langan kishilar hayotining ma‘lum davridagi voqealari tasvirlanadi. Bu voqealarda davrning siyosiy ijtimoiy, madaniy va ahloqiy hayoti o‘z aksini topadi.

Matnning adabiy tahlilida quyidagi masalalarga alohida e‘tibor berilishi lozim:

1. Badiiy matn tahlilida tasvirlangan voqelik va shu voqelikka yozuvchining munosabati aniqlanadi. Masalan: Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida olijanob fazilatlarini ulug‘lash, adolat va xalqparvarlik, do‘stlik va qahramonlik, muhabbat erkinligi va unga sadoqati asarning g‘oyaviy mazmunini tashkil qiladi. Asarda Xisrav, Yosumon kabi yovuz kuchlar bilan Farhod, Shirin, Mehnbonular o‘rtasidagi kurash ko‘rsatiladi. Shoir Farhod, Mehnbonu, Shirinlarning barcha harakatlariga xayrixohlik bildiradi. Shohni adolatli bo‘lishiga undash g‘oyasini ilgari suradi.
2. Tahlilda asarning mazmuniga ham shakliga ham e‘tibor berish va mazmunning yetakchi rolini ta‘kidlab o‘tish zarur.
3. Asar tahlilida barchaobrazlar asarning umumiy mazmuni bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.
4. Asar syujeti va kompozitsiyasini o‘rganish ham adabiy tahlilning asosiy vazifasidir. Badiiy asardagi mavzu, obraz, til, kompozitsiya, muayyan g‘oyani ifodalaydi. Mavzu va g‘oyaning dolzarbligi va xalqchiligi, mazmun va shaklning o‘zaro mosligi, obrazning tipikligi va

haqqoniyligi syujet va kompozisiyaning pishiqligi, badiiy tilning tasviriyligi va ta'sirchanligi adabiy tahlil jarayonida aniqlanadi.

Matn tahlilida tahlilning yuqoridagi u yoki bu turidan foydalaniladi. Matnni sharhlash soʻz va soʻz shakllari badiiy tasvir vositlarining asar gʻoyaviy va estetik mazmunini oshirishdagi roli izohlanadi. Matnni sharxlashda lingvistik aspekt asosiy oʻrinni egallaydi. U anʻanaviy adabiy tahlilda ham yetakchi sanaladi, chunki u matnning estetik tuzilishi va badiiy tasvir vositlarini oʻrganishga koʻmaklashadi.

Badiiy matn murakkab va koʻp qatlamdir. Uni tahlil qilishdan maqsad-ijodkor oʻylagan maʼno va ichki kechinmalarni maksimum holda payqab olishdir.

*Topshiriq.* Hikmatlarni oʻqing va ularda ilgari surilgan gʻoyalar haqida fikr bildiring.

Bilim mehnat bilan, tilak gʻayrat bilan goʻzal.

Odamni katta gavda emas, aql yuksaltiradi.

Inson ilmu hunari va aql-idroki bilan har qanday qushdan balandroq parvoz qila oladi.

Bilimdonlikning siru asrori gʻayrat hamda matonat bilan oʻqish va oʻrganish, oʻzlashtirishdadir.

Bobolarning ulugʻvor ishlarini ijodiy rivojlantira olsang, sen baxtiyorsan.

*Topshiriq.* Matnni oʻqing va uni tahlil qiling.

Bu rasmda sharshara tasvirlangan. Togʻ, sharshara, bahor fasli, daraxtlar koʻkargan, gullar ochilgan. Togʻ tepasidan oqib tushayotgan suv baland xarsanglar ustidan pastga qarab shovillab oqmoqda. Suv zarrachalari havoda tarqalib, oftob nurlariga yoʻgʻrilib, ajoyib manzara kashf etmoqda. Sharshara atrofni koʻm-koʻk oʻt-oʻlanlar qoplagan. Osmon koʻm-koʻk. Havo musaffo. Rasmga qarab tursam, nazarimda qushlar sayrayotgandek. Rasm menga juda yoqdi. Oʻzimni rasmdagi oʻsha sharshara yonida dam olgandek his qildim. Uyga qaytgach, oʻsha sharsharani tez-tez eslaydigan boʻldim. Charchagan paytlarimda oʻsha zilol suvlarni, oftob nuri aks etgan suv zarrachalarini, tepadan pastga tushayotib toshga urilgan suvning allalovchi yoqimli ovozini koʻz oldimga keltiraman. Taajjubki, shu eslash jarayonida hordiq chiqarganday boʻlaman. Keyingi yil yozda, albatta, oʻsha sharsharani qidirib topish niyatidaman.



### ✓ Test topshiriqlari

1. Matnning eng kichik birligi -

- a) gap                      b) mikromatn                      s) makromatn                      d) soʻz birikmasi

2. Matn tuzilishiga koʻra necha xil boʻladi?

- a) sodda va murakkab matnlar                      s) adabiy va erkin matnlar  
b) murakkab va ijodiy tarkibli matnlar                      d) sodda va ijodiy matnlar

3. Qaysi gapda **etak** soʻzi koʻchma maʼnoda qoʻllangan?

- a) Qizning egnida burma etakli koʻylak edi  
b) Oyni etak bilan yopib boʻlmas  
s) Etak-etak gul terdim  
d) Hasharchilar dalaning etagida yigʻilishdi

4. Matn turlari —

- a) dialogli matn, tavsifiy (monologli) matn                      b) mikromatn, makromatn  
s) insho matni va ijodiy matn                      d) dialogli matn, badiiy matn

5. *Профессиональные качества* soʻz birikmasining toʻgʻri tarjimasini toping.

- a) kasbiy fazilatlar                      b) kasbiy xususiyatlar  
s) sohaviy sifatlar                      d) sohaviy fazilatlar

### ? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Oʻzbek tilshunosligiga ulkan hissa qoʻshgan tilshunos olimlardan kimlarni bilasiz?

2. Qaysi soha vakillari pok fazilatlar sari yoʻl koʻrsatadi?

3. Asar tahlilida obrazlar nimaga bogʻliq holda oʻrganiladi?

4. Istalgan matn tahlilida nimalarga eʼtibor berish lozim?

5. Badiiy matn tahlilida yozuvchining munosabati qanday aniqlanadi?

*Uyga vazifa.* Tanlagan kasbingizning yetuk mutaxassislari haqida maʼlumot toʻplang va referat yozing.

## 29-mavzu. Kasb bayrami

*Agar qilgan esang o'zing ezgulik,  
Evazi keladi senga mangulik .*

 *O'qish uchun material*

*Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab  
bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va  
murabbiylikdir.*

I.Karimov

### Kasb bayrami

Barcha sohalarning ustalari, mutaxassisleri bir kasb egalari mehnati bilan shakllanadi. Har birimizga kimdir harf o'rgatib, savodimizni chiqargan. Bugun kim, qayerda, qanday vazifada ishlamasin, qachondir maktabda o'qigan, ustozlar tarbiyasini olgan. Ilk bor maktabga borgan kunni, qo'liga qalam berib, yozishni, o'qishni o'rgatgan o'qituvchisini eslamaydigan odam topilmasa kerak.

Ustoz har bir o'quvchining qalbiga yo'l topadi, farzandidek yuragiga yaqin oladi. Ustoz o'z kasbiga qalb qo'ri bilan kirishmasa, murabbiylik yo'lida hech qanday yutuqlarga erisha olmaydi. Axir o'qishni, yozishni bilmaydigan murg'akkina bolaga bir harfni o'rgatish oson bo'lmasa kerak. Umrini shu sohaga bag'ishlagan o'qituvchilar hamma joyda bir xil - oddiy va kamtar. U kasbidan zerikmaydi. Aksincha, yillar o'tgani sayin ko'ngli ham boladek beg'ubor bo'lib boraveradi.

### Ustoz va murabbiylar kuni

Ustoz! Shu birgina so'z zaminida olam-olam ma'no va hurmat mujassam. O'qituvchi - sofdil, kamtarin, ma'naviy boy, ahloqan pok insondir. Ularning poyiga guldastalar sochsak, doimo hurmatlarini ado etib, ardoqlasak arziydi. Chunki ustozlar butun kuchlarini, aql-idroklarini, bilim va zehnlarni, qalb qo'ri-yu sehrlarini shogirdlariga baxshida etgan zahmatkashlardir. Ular bizlarga oq-qorani, yaxshi-yu yomonni tanitib, qo'llarimizga ilk bor qalam tutqazib, "Ota", "Ona", "Vatan", "Ezgulik", "Baxt", "Saodat" kabi so'zlarni yozishga o'rgatgan buyuk zotlardir. Donolarning aytishicha, elni ma'rifat asraydi. U elni taraqqiy ettirib, ezgu niyati, orzu-umidiga yetkazadi. Demak, ustozlarning zimmasida kelajagi buyuk davlat uchun komil, har tomonlama barkamol, ma'naviy va axloqiy pok vatanparvar, mehnatsevar insonlarni yetkazib berishdek, yuksak vazifa turibdi.

Istiqlol egalari bo'lmish yosh avlodni bilimli, savodxon,

ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazishda o'qituvchi-murabbiylarning hissasi benihoya kattadir. Ular berayotgan puxta bilim va ibratli tarbiya katta hayot ostonasida turgan o'g'il-qizlarning vatanparvar hamda hayotda chin inson bo'lishlari, Vatanimizga, xalqimizga fidoyi va halol xizmat qiladigan insonlar bo'lib yetishishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

### Temiryo'lhilar va yo'l qurulishi xodimlarining kasb bayrami

Temiryo'lhilar kuni - millionlab insonlarni o'z manziliga barcha qulayliklar ila bekamuko'st yetib olishlari uchun o'z umrini shu kasbga baxshida etgan, barcha temir yo'l ishchi xodimlarining kasb bayramidir!

Temiryo'l transporti har bir mamlakat uchun katta ahamiyat kasb etib, ular ilgari va bugun ham butun davlatni yagona tarmoqda bog'lovchi bosh qon tomiri hisoblanadi.

Temiryo'lning ishga tushishi barobarida ko'plab insonlar uzoq masofalarni tez va xavfsiz bosib o'tishiga imkoniyati yaratildi.

Mamlakatimiz Prezidentining Farmoniga muvofiq 2017- yil 6-avgust Temir -yo'lhilar kasb bayrami sifatida nishonlanishi kasb egalari uchun chinakam bayram tuhfasini bo'ldi.

Shu munosabat bilan barcha temiryo'lhilarni kasb bayrami bilan chin yurakdan muborakbod etamiz! Sizlarga kasbiy muvaffaqiyat va zafarlar tilaymiz! Har doim yo'llarimiz ravon va to'g'ri bo'lishini tilaymiz! Barcha hayrli ishlarimizning boshlanishida svetoforlarimizning chirog'i har doim yashil bo'lsin! Siz azizlarga sog'lik-omonlik, tinchlik -xotirjamlik, kasb-u koringizga baraka va chinakam oilaviy baxt tilaymiz!

### Prokuratura organlari xodimlarining kasb bayrami

2016-yil 6-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Deputatlar jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, fuqarolarning, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator qonun loyihalarini ko'rib chiqdilar. Ilgari parlament quyi palatasi majlisining kun tartibiga kiritilgan masalalar siyosiy partiyalar fraktsiyalari va O'zbekiston Ekologik harakati deputatlar

guruhining, Qonunchilik palatasi qo‘mitalarining majlislarida vazirliklar va idoralar, fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari ishtirokida dastlabki tarzda muhokama qilingan edi.

Parlament vakillari o‘z ishlarini "O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi qonun loyihasini muhokama qilishdan boshladilar. Prokuratura organlari xodimlarining kasb bayramini belgilash prokuratura organlari faoliyati samaradorligini oshirishga ishonch bildirishdi.

### *Lug‘at*

|                 |   |              |
|-----------------|---|--------------|
| kasbdosh        | — | коллега      |
| vijdonan        | — | совесть      |
| vazirlik        | — | министерство |
| muhokama qilmoq | — | обсудить     |
| tasdiqlamoq     | — | утверждать   |

 *Berilgan so‘z va iboralarning ma’nosini bilib oling*  
*kasb bayrami, chin yurakdan, muborakbod etmoq, ravon yo‘llar, bayram tuhfası, istiqlol egalari, shogirdlar, vatanparvar, mehnatsevar*

### *Tarjima mashqi.*

Deyarli barcha maxluqotda til bor. U issiq-sovuqni, ta’mmazani biluvchi, ovqatlanishda ishtirok etuvchi a’zo. Bulardan tashqari nutq tovushlarini hosil qiladi, ya’ni insonning so‘zlash qobiliyati til orqali amalga oshadi.

Yer yuzida qancha millat, elat, qabila bo‘lsa, shuncha til bor. Tilsiz xalq yo‘q. Xalqsiz esa til ham bo‘lmaydi. Ular ayirib qo‘yilsa, ikkisi ham o‘zligini yo‘qotadi. Yer yuzidagi barcha xalqlarning tillari, ularda millionlab odam gaplashadimi yoki atigi bir-ikki ming kishi so‘zlashadimi, bundan qat’iy nazar, o‘zlari uchun aziz va keraklidir.

 *Grammatik ma’lumot.* Matn mazmunining qisqacha bayoni (rezyume )

Rezyume fransuzcha “résumé” so‘zidan kelib chiqqan va sodda qilib aytganda “qisqacha izoh” ma’nosini bildiradi. Rezyume ikki o‘rinda qo‘llaniladi:

1. Iishga topshirayotgan inson to‘g‘risidagi qisqacha ma’lumot.

2. Nashr qilinadigan asar yoki himoyaga tavsiya etiladigan ishning g'oyatda qisqa mazmuni.

1. Rezyume hozirgi kunda ish qidirishda eng muhim hujjat hisoblanadi. O'zbek tilida bunday hujjat "tarjimayi hol" va "shaxsiy ma'lumotnoma" deb ham atalishi mumkin, lekin rezyumening shakli bu hujjatlardan biroz farqlidir. Rezyume, asosan, ish izlovchilar tomonidan ishga topshirayotganda yuboriladigan hujjat hisoblanadi, lekin u boshqa maqsadlarda ham ishlatilishi mumkin. Rezyumeda ish izlovchi shaxs haqida qisqacha ma'lumot yoziladi. Ish beruvchi eng birinchilardan bo'lib aynan rezyumega e'tibor qaratadi. Ya'ni ishga topshirgan insonni ko'rmasdan va bilmasdan turib rezyume orqali u bilan tanishadi. Shuning uchun, rezyume ishga topshiruvchi shaxs haqida bexato, aniq va eng asosiysi topshirilayotgan ishga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni qamrab olishi kerak. Yaxshi tuzilgan rezyume ishni qo'lga kiritishning birinchi va eng muhim poyqadami hisoblanadi. Agar rezyumeingiz orqali ish beruvchini ishontira olmasangiz, keyingi bosqichga o'tish imkoni bo'lmaydi!

Rezyumening asosiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy ma'lumot
  - a. Ism-sharif (talab qilinadi)
  - b. Murojaat manzillari: telefon, email, yashash joyi (talab qilinadi)
  - s. Jins (majburiy emas)
  - d. Millat (majburiy emas)
  - e. Tug'ilgan sana (majburiy emas)
2. Qisqacha mazmun va professional maqsad (ixtiyoriy)
  - a. Bir yoki ikki gap bilan qisqacha eng muhim jihatlarini sanab o'tish.
3. Ma'lumot
  - a. Ilmiy daraja/diplom, mutaxassislik, o'qigan yili (yoki daraja berilgan yil), o'quv yurtining nomi, manzili (shart)
  - b. Topshirilayotgan ishga taaluqli fanlar nomi va soati (shart emas)
  - s. Agar a'lo darajada bitirgan bo'lsa, shuni ham bildirib o'tish kerak
4. Tajriba
  - a. Ishlagan sana, lavozim, tashkilot nomi, manzili, qisqacha vazifalari va yutuqlari
  - b. Eng oxirgi ish joyidan boshlab yoziladi

2. Rezyume nashr qilinadigan asar yoki himoyaga tavsiya etiladigan dissertatsiyaning g'oyatda qisqa mazmuni bo'lib, odatda ishning oxirida boshqa tillarda, masalan, hozirda rus va ingliz tillarida beriladi.

Ana shu qisqa rezyume orqali asosiy matnni o'qimagan kishi ham tadqiqot haqida ayrim xulosalarga kelishi mumkin.

Namuna:

*Abdusaidov Abduvalining «Matbuot tili madaniyatining lisoniy muammolari» mavzuidagi 10.02.02 – o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertasiyasining qisqacha mazmuni*  
(REZYUMESI)

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari, jumladan matbuotga e'tibor nihoyatda oshdi. Matbuotning davr talabiga javob berishi, dolzarb muammolarni aks ettirishi, ularning yechimini ko'rsatishi, ommani operativ axborot bilan ta'minlashi, o'z zimmasidagi vazifalarni munosib bajarishi, umuman, «to'rtinchi hokimiyat» darajasiga ko'tarilishi jurnalistlarning tildan foydalanish mahoratiga ham bog'liq. Shuni hisobga olgan holda tadqiqotda matbuot tili madaniyatining lisoniy muammolari gazeta janrlarining tili va uslubi, mustaqillik yillaridagi leksik jarayon va adabiy normaga rioya etish holatlari bilan bog'liq holda nazariy hamda amaliy jihatdan ko'rib chiqilgan.

Ishning ilmiy yangiligi:

- gazeta tili ekspressiv-stilistik, normativlik nuqtai nazaridan janrlari bo'yicha alohida-alohida birinchi marta atroflicha tadqiq etilgan;

- gazeta tilini o'rganish sohasidagi muammolar, o'zbek adabiy tili taraqqiyotida matbuotning roli va matbuot tili madaniyatini yanada ko'tarish bilan bog'liq masalalar ilk bor umumlashtirilgan;

- umumxalq tilida qo'llanilgan frazeologik birliklar (FB) va ularning variantlari, frazeologik neologizmlar, okkazonal FBlarining xususiyatlari hamda ekspressivlikni ifodalashdagi roli gazeta materiallari asosida ilk bor to'la yoritilgan;

- gazeta sarlavhalari to'la va atroflicha umumlashgan tarzda tadqiq qilingan, gazeta ruknlari birinchi marta keng yoritilgan;

- Mustaqillik davri matbuotida adabiy normaga rioya qilish holatlari o'rganilgan.

Dissertasiya ishning umumiy tavsifi, kirish, 3 bo'limga ajratilgan 7 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatidan iborat.

Ishning mazmuni 9 ta alohida nashr va 31 ta ilmiy maqolada o'z aksini topgan.

*Topshiriq. O‘zingiz haqingizda rezyume tayyorlang.*

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Davlatimiz tomonidan e’tirof etilgan kasb bayramlari haqida ma’lumot bering.
2. Ota-onangizni ularning kasb bayramlari munosabati bilan tabriklaysizmi?
3. Rezyume ishga topshirayotgan inson to‘g‘risida qanday ma’lumotlarni beradi?
4. Rezyumening asosiy qismlari nimalardan iborat?
5. O‘z kasb bayramingizni qanday nishonlaysiz?

*Uyga vazifa. “ 1-oktabr – Ustoz va murabbiylar kuni” mavzusida matn tuzing.*

### 30-mavzu. Sharq akademiyalari

*Kishi mangu emas, ishidir mangu,  
Ezgulik jismida ismidir mangu.*

 *O'qish uchun material*

#### Sharq akademiyalari

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimizni tiklash, ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'rifiy, madaniy va ma'naviy merosini o'rganish, asrab-avaylash hamda keng targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyatining qayta yo'lga qo'yilishi ulug' ajdodlarimizning munosib vorislarini tarbiyalashdek ezgu maqsadga xizmat qilmoqda.

Oradan o'n asr o'tib, akademiyaning eshiklari qayta ochildi. Hozir bu yerda mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yanada yuksaltirish yo'lida salmoqli ishlar davom ettirilmoqda. Akademiya olimlari xorijdagi qator ilmiy muassasalar bilan faol hamkorlik qilmoqdalar. Jumladan, Fransiyaning Sorbonna universiteti va Fanlar akademiyasi, Misrning Ayn Shams universiteti, Koreya Respublikasining Kyon-Xi universiteti, Saudiya Arabistonining Podshoh Faysal ilmiy-tadqiqot markazi va boshqa nufuzli ilmiy dargohlar bilan aloqalar o'rnatilgan.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan qayta dunyo yuzini ko'rgan Xorazm Ma'mun akademiyasi ilm-fanni rivojlantirish, madaniy aloqalar va xalqlar o'rtasida do'stlik rishtalarini mustahkamlash kabi ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

#### Xorazm Ma'mun Akademiyasi

VIII asr oxiri IX asr boshlarida xalifalikning markazi Bag'dodda ilm-fan rivojlandi. Xalifa Xorun ar-Rashidning o'limidan so'ng (813-yil), uning o'g'li al-Ma'mun xalifa etib tayinlandi. U xalifa sifatida Bag'dodga ko'chgach (819-yil), u yerda Ilmiy markaz tashkil etib, unda barcha musulmon o'lkalardan olimlarni to'pladi. Bu Ilmiy markaz tarixda «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») nomi bilan mashhurdir. Bu yerda, asosan, riyoziyot, tibbiyot, ilmi-nujum, jo'g'rofiya, astrologiya va shunga o'xshash boshqa fanlar o'rgatilgan.

Xorazmshoh Ma'munning o'g'li Ali ibn Ma'mun taklifi bilan 1004-yilda Gurganchda (Qo'hna Urganch) «Dor ul-hikma va maorif» nomli ilmiy muassasa shakllanadi. Bu yerga ibn Iroq va Beruniyning takliflari bilan har tarafdin olimlar kela boshlaganlar. Bu yerda ilmning barcha sohalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Yunon tillaridan tarjimalar ham qilingan. XVIII asr fransuz ensiklopedistlari al-Ma'mun faoliyatini va Bag'doddagi «Bayt ul-hikma»ning faoliyatini



o'rganib chiqib, uni Afinadagi Platon Akademiyasiga juda o'xshatganlar va «Bayt ul-hikma»ni «*Al-Ma'mun Akademiyasi*» deb ataganlar. Gurganchdagi «Dorul-hikma» esa «Ikkinchi Akademiya» bo'lib qoldi. Ma'mun Akademiyasining faoliyati 1017-yilda Mahmud G'aznaviy bosqini tufayli tugatiladi.

Mustaqilligimiz sharofati tufayli birinchi Prezidentimizning tashabbusi bilan bu Akademiya qayta tiklandi. Hozirda Xorazm Ma'mun Akademiyasi tarkibida «Arxeologiya, tarix va falsafa», «Biologiya muammolari» va «Til va adabiyot» bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda.

### Mahmud az-Zamaxshariy

Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy 1075-yil 19-martda Xorazm viloyatining Zamaxshar qishlog'ida dunyoga keldi. O'g'lidagi ilmga bo'lgan zo'r ishtiyoq va havasni sezgan otasi uni madrasaga beradi. U madrasada o'qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlarni puxta egallaydi. Xattotlik san'atini mukammal o'rganadi.

Az-Zamaxshariy hayoti davomida Marv, Nishopur, Shom, Bag'dod, Hijoz va ikki marta Makkada bo'ladi. Bu yerlarda dunyo ilmining ulug' bilimdonlaridan turli fan sirlarini o'rganadi, ilmiy ishlarini davom ettiradi, arab tili grammatikasi, lug'ati, mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o'rganadi, geografiyaga doir ma'lumotlarni to'plash bilan shug'ullanadi. Az-Zamaxshariy 1144-yil 14-aprelda vafot etadi. Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'atshunosligi, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq ilmiy asarlar yaratgan. Bu asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. Uning «Al-Mufasssal» asari arab tili morfologiyasi va sintaksisini o'rganishda yirik qo'llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G'arbda ham katta shuhrat topgan asarlaridan hisoblanadi. Az-Zamaxshariy o'zining «Muqaddimat ul-adab» asarida ham o'sha davr arab tilining iste'molda bo'lgan barcha so'zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e'tibor qilgan. Bu asar fors, o'zbek, turk, fransuz, nemis tillariga tarjima qilingan.

Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi, ilm-fanning turli sohalariga oid o'lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan

“Ustoz ul-arab va-l-ajam” (“Arablar va g‘ayri arablar ustozlari”) “Faxru Xorazm” (“Xorazm faxri”) kabi sharaflilar nomlari bilan ataganlar.  
*Topshiriq.* Mavzuni mustahkamlash uchun savollar tuzing

📖 *Berilgan so‘z va iboralarning ma‘nosini bilib oling*  
*xalifa, riyoziyot, tibbiyot, ilmi-nujum, jo‘g‘rofiya, frazeologik birliklar,*  
*keng qamrovli, izohli lug‘at, etimologik lug‘at*

📖 *Diqqatingizni jamlang!*

Sharq tafakkuri xazinasidan  
Yerimiz, suvimiz, farzandimiz deb,  
Xotin, bola—chaqa, dilbandimiz deb,  
Birma—bir jonimiz etamiz fido,  
Vatanni dushmanga bermaymiz aslo.

Abulqosim Firdavsiy  
Dunyoning tilagi, samari ham biz,  
Aql ko‘zin qorasi — javhari ham biz.  
To‘garak jahonni uzuk deb bilsak,  
Shaksiz uning ko‘zi – gavhari ham biz.

Umar Xayyom  
Dushmanning ko‘rsatgan yo‘liga yurma,  
So‘ng pushaymon bo‘lib, tizzangga urma.  
Senga o‘qdek to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatgan on,  
Sen undan burilib, yurgil chap tomon.

Sa‘diy Sheroziy  
Mol, amal agarchi jonga yaqinroq,  
So‘z kamoli undan ming bor yaxshiroq.  
Barchasi jahondan yo‘qolajakdir,  
Dunyo turgunicha so‘z qolajakdir.

Abdurahmon Jomiy

📖 *Suhbat matni*

Ilm fidoyilari  
Shavkat Rahmatullayev

Shavkat Rahmatullayev o‘zbek tilshunosligida katta salmoqqa ega bo‘lgan, keng qamrovli sermahsul olim, filologiya fanlari doktori (1966), professor (1967). U 1926- yilda Toshkentda tug‘ildi. 1943-1947-yillarda hozirgi O‘zMU (sobiq ToshDU)ning filologiya fakultetida o‘qidi. 1952-yilda professor M.Nasilov rahbarligida

«Образли fe'l frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari» mavzusida nomzodlik, 1966-yilda «O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Sh.Rahmatullayev o'zbek frazeologiyasining sardoridir. U ayni sohaga oid qator asarlari bilan ushbu yo'nalishning ilmiy - nazariy va amaliy poydevorini qurib berdi, uni yuksaltirdi, shakllantirdi. Keng qamrovli olim o'zbek ilmiy tilshunosligining qator yo'nalishlari: leksikologiya, frazeologiya, semasiologiya, morfologiya, leksikografiya, etimologiya va boshqalar bo'yicha jiddiy tadqiqotlar yaratdi. Olim frazeologiya bo'yicha nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki turkiy tilshunoslikda ham yetakchi mutaxassislardan hisoblanadi. Shuningdek, u o'zbek tilshunosligida yirik leksikograf sifatida ham tan olingan bo'lib, ayniqsa, eng murakkab va mashaqqatli bo'lgan izohli lug'atlar yaratishda peshqadam hisoblanadi. Olimning katta xizmatlaridan yana biri shuki, u o'zbek tilshunosligida ilk bor tilimizdagi turkiy so'zlarni qamrab olgan etimologik lug'at yaratdi.

*Topshiriq.* Mavzuni mustahkamlash uchun savollar tuzing.

*Topshiriq.* Ilm haqidagi hikmatlarni yod oling.

Nodonga ilm o'rgatmoq umrni zoye o'tkazmoqdir.

Ilmsiz inson — mevasiz daraxt.

Bilim baxt keltirar.

Qog'ozga tushirilmagan ilm unutilib ketadi.

*Topshiriq .* So'zlarni imlo qoidalariga rioya qilib yozing (lug'at diktanti).

Mavsum, mavhum, madad, majlis, mard, mangu, maosh, masofa, miya, mahrum, marhum, mas'ul, matbuot, ma'rifat, maqbul, ma'qul, maqol, maqom, mayiz, mag'iz, mahkam, mahkum, moda, modda, muzokara, munozara, manba, minbar.

 *Tarjima mashqi*

Хива

Хива – древнейший город Средней Азии. Она была одним из её самых богатых торговых центров. В конце XVI века Хива стала столицей ханства и превратилась в жемчужину градостроительства. Стройные башни, цветные минареты, величественные мавзолеи, неповторимая красота узоров создавали

впечатление удивительного города из восточной сказки. Город состоял из двух частей: Ичан-кала – внутренний город и Дишан-кала – внешний город.

✍ *Grammatik ma'lumot.* Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

Referat – ilmiy uslubga xos bo'lgan matn. U oldindan tayyor matn asosida yaratiladi. Referat yozishdan maqsad – manba sifatida o'rganilayotgan matnning mazmunini qisqacha bayon qilishdir.

Referatda quyidagi savollarga javob beriladi:  
Nima haqida? Kimga va nima qiziqarli? Nima uchun bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi?

Referat so'zi lotincha “referre” negizidan olingan bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda “bildirish, xabar berish” degan ma'nolarni anglatadi. Referat qismlarining tuzilishi va uning ustida ishlash bosqichlari: odatiy tartibga ko'ra referat ustida ishlashning boshlang'ich qismini tanlangan mavzuning izohi ochib berishi lozim. Unda mavzuning dolzarbligi, ushbu mavzu yuzasidan hozirgacha fanga ma'lum bo'lgan va o'z tasdiqini topgan faktlar, natijalar; olimlarning uni o'rganish ustida olib borgan ishlari; adabiy manbalardan keltirilgan misollar, foydalanilgan materiallar; o'rganilayotgan mavzuning amaliy yoki ilmiy tasdiqini topgan masalalari o'z aksini topadi.

Referat quyidagi bo'limlaridan tashkil topadi:

1. Titul varag'i.
2. Reja.
3. Kirish qismi.
4. Asosiy qism.
5. Xulosa.
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Referatni tuzishda ma'lum qonun-qoidalariga amal qilinadi:

1. Referat A-4 standart formatdagi oq qog'ozga yoziladi va matn uning faqat bir tomonini egallaydi.
2. Titul varag'i – ishning mavzusi, muallif va ilmiy rahbarning ism-sharifi hamda o'quv muasasasining to'liq nomini o'zida aks ettirishi shart.
3. Referatda foydalanilgan manbalarning nomi aniq ko'rsatilishi lozim.
4. Bibliografiya odatda doimiy tartibda (ko'pincha alifbo tartibida) bo'ladi.

5. Referatga kiritilgan barcha qo‘shimchalar – grafik, chizma va rasmlar – qora pastada chizilishi shart.
6. Referatning umumiy hajmi 25 varaqdan oshmasligi lozim.

**☑ Test topshiriqlari**

1. O‘rta Osiyo tarixida birinchi akademiya qachon va qayerda tashkil topdi?
- a)1002-1003- yy. Xorazmda                      b)1004-1005-yy. Xorazmda  
s)1006-1007-yy. Buxoroda                      d)1007-1008-yy. Samarqandda
2. O‘rta Osiyo tarixidagi birinchi akademiyaning tashkil etilishida qaysi sulola muhim ahamiyatga ega?
- a) Ahmoniylar                      b) Temuriylar                      s) Ma‘muniylar  
d) Saljuqiylar
3. Ma‘mun Akademiyaning 1000 yilligi qachon nishonlandi?
- a) 2006-y.                      b)2005-y.                      s) 2006-y.                      d) 2007-y.
4. Az-Zamaxshariyning arab tili morfologiyasi va sintaksisiga oid asari berilgan javobni toping?
- a) “O‘zbek frazeologiyasining ba‘zi masalalari”                      b) “Muqaddimat ul-adab”  
s) “Muhokamat ul-lug‘atayn”                      d) “Al-Mufasssal”
5. Referat so‘zi qanday ma‘noni anglatadi?
- a) qisqacha izoh                      b) bildirish, xabar berish                      s) ilmiy tushunchalar  
d) izohlash

*Uyga vazifa.* Ma‘mun Akademiyasi faoliyati to‘g‘risida referat tayyorlang.

### 31-mavzu. Ilm sari yo‘l

*Mardlarning mard shu bo‘lar doimo,  
Olamni olsa ham kerilmas aslo.*

 *O‘qish uchun material*

#### Ilm va olam

Odamzod paydo bo‘libdiki, dunyoni bilishga harakat qiladi. Momaqalldiroq chaqmoqlari-yu, yer tebranishlari, fasllar aylanishi-yu, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari uzoq asrlardan buyon insoniyat ongini band etib keldi. Tabiat sirlarining ochilishi insonga bitmas-tuganmas qudrat va kuch bahsh etdi, yangi jumboqlar sari ilhomlantirdi, odamzod ahli ikki karra ikki to‘rt ekanligini bilishdan, to kosmik kemalarni kashf etishgacha bo‘lgan uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tdi. Bunday aql karvoni yo‘lida qanchadan-qancha ilm shaydolari azob chekmadilar, qanchadan-qancha insoniyatning asl farzandlari qurbon bo‘lmadilar. Ammo ularning umri, hayoti va kashfiyotlari kelajak avlodlarning yo‘lini yoritib turgan abadiy so‘nmas mash‘al bo‘lib qoldi. Haqiqat uchun qurbon bo‘lish, ilm tantanasi uchun jon fido etish kishilik jamiyati erishgan buyuk ma‘naviy qudratning zavol bilmas haykali, buyuklik timsolidir.

Ilm [bilim; fan; nazariya] – o‘qish-o‘rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko‘nikma, ma‘lumot.

Fan [mahorat; ilm, bilim] – tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o‘zi erishgan natijalar bilan atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi bilimlar tizimi.

Fan – dunyo haqidagi bilimlar sistemasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. U yangi bilimlarni egallash bilan bog‘liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli – olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o‘z ichiga oladi; inson bilimlarining ayrim sohalarini ifodalaydi. Fanning bevosita maqsadi o‘zining o‘rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta’riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir.

Soha – inson faoliyati, ilm-fan, madaniyat va shu kabilarning har bir tarmog‘i.

 *Lug‘at*

jumboq – секрет, тайна

to‘qnashuv – столкновение

voqelik – реальность

kashf etmoq – изобретать

## *Maqollarni yod oling*

Bilagi zo ‘r birni yiqar,

Bilimi zo ‘r mingni.

Bir yigitga qirq hunar ham oz.

Hunar o ‘rganish uchun ham hunar kerak.

## *Tarjima mashqi*

Agar inson ilm nuri bilan o‘z yo‘lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko‘chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma‘rifat bilan baquvvat bo‘ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo‘ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko‘rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san’atdir. Dunyoda qanday yovuzlik sodir bo‘lgan bo‘lsa, ularning hammasi nodonlik orqali kelib chiqqan. Eng zo‘r halokat nodonlik, insoniylikni bitiruvchi ham nodonlikdur.

 *Grammatik ma’lumot.* Taqriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

Taqriz (arab. — ijobiy baho) — adabiy tanqid janri, saylanma bayonning bir turi; yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko‘tarilgan muammolar, asarning *g‘oyaviy-badiiy* xususiyatlari, muallif ijodida, adabiyotda tutgan o‘rni haqida ma’lumot bo‘ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi. Taqrizchi o‘zining da’volarini turli dalillar asosida isbotlay boradi, asarga ilmiy izohlar beradi.

Taqriz yozish odobi xolislikni, haqiqatdan chetlashmaslikni talab etadi. Taqriz qilinayotgan asarning yutuq va kamchiliklari, nazariy va amaliy ahamiyati haqqoniy ko‘rsatilishi lozim. Asarga baho berishda muallifning shaxsiyati, obro‘si emas, balki uning (asarning) xususiyatlari, ahamiyati ko‘zda tutiladi.

Taqriz, asosan, keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zarurini tanlab olishga ko‘maklashadi. Ichki taqriz ham bo‘ladi. Masalan, nashriyotga kelgan badiiy, tanqidiy va ilmiy-ommabop asar ichki taqrizga beriladi, biroq bu taqriz matbuotda e‘lon qilinmaydi.

Taqriz badiiy asar haqida shunchaki ma’lumot beruvchi janr darajasidan adabiy hayotning muhim masalalarini ko‘taruvchi, kitobxonni hayot va adabiyot haqida o‘ylashga o‘rgatuvchi, uning estetik didini tarbiyalashga yordam beruvchi janrga aylanadi. Taqriz

xarakteriga ko'ra xilma xil bo'ladi. Masalan, kengaytirilgan annotatsiya tipidagi taqrizda asar haqida bibliografik ma'lumot beriladi. Tanqidiy yoki publitsistik maket taqrizlarida konkret asar munosabati bilan biron muhim masala haqida fikr yuritiladi. Esse (adabiy o'ylar) xarakteridagi taqrizda taqrizchi o'z fikr tuyg'ularini, asarni o'qish jarayonida hosil bo'lgan taassurotlarini lirik tarzda ifodalaydi. Nihoyat, muallif o'z asariga ham taqriz yozishi mumkin (avtotaqriz). Bunda muallifning asarga qarashlari bayon qilinadi yoki u biron munosabat bilan munozaraga kirishadi.

O'zbek adabiyotida taqriz XX asr boshlarida vaqtli matbuot bilan teng rivojlana boshlagan. Endilikda taqriz o'zbek adabiy tanqidchiligining eng muhim janrlaridan bo'lib qoldi. Oybek, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, G'afur G'ulom kabi yozuvchilar, O.Hoshimov, S.Husayn, Olim Sharafiddinov, V.Zohidov, I.Sultonov, H.Yoqubov, M.Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, U.Normatov, N. Xudoyberganov, I.Haqqulov va boshqa olimlar o'zbek adabiy hayotida chuqur iz qoldirgan taqrizlar yaratdilar.

Taqriz yozishda quyidagi sxemaga amal qilinadi:

1. Tezis (umumiy holati) va uni ochib berish.
2. Kitob (film, teatr)ning baholanishi.

Taqrizning boshlang'ich qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalaniladi:

Kitob (film, teatr)da hikoya qilinadi.

Kitob (film, teatr)da muammolar ko'tariladi.

Taqrizni baholash qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalaniladi:

Men ... hisoblayman – Я считаю...

Mening fikrimcha... – Помоему...

Mening nazarimda... – На мой взгляд...

... menga yoqdi. – Мне понравился (-лась)...

... menda katta taassurot uyg'otdi. – Большое впечатление на меня оказала...

Kitob (film, teatr) ...o'rgatadi. – Книга (фильм, театр) учит...

*Topshiriq.* Matnni o'qing, matn yuzasidan fikrlaringizni bayon eting.

Ilm martabasi martabalarning zo'ridir, degan gap shubhasiz to'g'ri. Qaysi yerda ilmu ma'rifat kuchli bo'lsa, o'sha yer baxt maskani hisoblanadi. Qaysi yerda nodonlik mavjud bo'lsa, u yer quruq yoki toshloq joy kabidir. Go'zal xulq bilan payvasta bo'lgan ilm odamlarni



baxtiyor qiladi, martabasini balandlatadi. Ilmdan maqsad ko'rkam va ezgu ishlarni amalga oshirishdir.

*Topshiriq.* O'zingiz sevib o'qigan biron bir asar (badiiy, ilmiy asar)ga taqriz yozing.

**✓ Test topshiriqlari**

1. Qo'shma so'zlarni belgilang

- |                           |                       |
|---------------------------|-----------------------|
| a) balandparvoz, soatsoz  | b) oshxona, bilakuzuk |
| s) jigar rang, mehnatkash | d) guldun, darvozabon |

2. Qaysi qatorda to'g'ri juftliklar berilgan?

- |                               |                          |
|-------------------------------|--------------------------|
| a) kuch-g'ayrat, aql- idrok   | b) o'y-xayol, baxt-taxt  |
| s) kecha-kunduz, egri-dushman | d) aql-idrok, g'am-nafas |

3. Qaysi qatordagi so'zda urg'u ma'no farqlamaydi?

- |         |           |          |             |
|---------|-----------|----------|-------------|
| a) olma | b) tortma | s) burma | d) to'plama |
|---------|-----------|----------|-------------|

4. *Sanog'ini* so'zida qanday fonetik o'zgarishlar kuzatiladi?

- |                    |                                       |
|--------------------|---------------------------------------|
| a) tovush ortishi  | b) tovush almashishi                  |
| s) tovush tushishi | d) tovush almashishi, tovush tushishi |

5. So'z birikmasi qaysi qatorda berilgan?

- |                     |                     |
|---------------------|---------------------|
| a) chiroyli manzara | b) manzara chiroyli |
| s) osmon musaffo    | d) Ra'no – a'lochi. |

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Ilmiy faoliyat deganda nimani tushunasiz?

2. Siz egallayotgan soha bo'yicha qanday ilmiy izlanishlar olib borilgan?

3. Nazariy bilimlarni chuqur egallash qanchalik muhim ahamiyatga ega?

4. Nazariyani amaliyotdan ayri holda tasavvur etib bo'ladimi?

5. Hujjatning qaysi turida hujjat nomi ko'rsatilmaydi?

*Uyga vazifa.* "Soha rivojida fanning o'rni" mavzusida matn tuzing.

### 32-mavzu. Kasb etikasi

*Ochiq yuz, shirin soʻz, mayinlik kerak,  
Feʼl - atvorda moslik, tayinlik kerak.*

 *Oʻqish uchun material*

#### Kasb etikasi

Axloq – insoniyat kamoloti sarchashmalaridan biri. Har bir odam u orqali oʻzining jamiyatdagi oʻrnini anglaydi, hayotining mazmunini belgilab oladi. Axloqiy munosabatlarni toʻgʻri yoʻlga qoʻymasdan turib, kasb axloqi madaniyatini shakllantirmasdan turib hech bir davlat koʻzlagan maqsadlariga erisha olmaydi. Shu bois ham bu hozirgi kunda davlatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kasb odobi (etikasi) bu insonlarning kasbiy faoliyatidan kelib chiqadigan oʻzaro munosabatlarining axloqiy xarakterini taʼminlaydigan qonuniyatlardan biridir. Kasb odobi – jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, shaʼn, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi oʻziga xos koʻrinishidir. Masalan, tibbiyot xodimi oʻz amaliyotidagi qiyinchiliklarga qaramasdan, tibbiyot etikasi doirasiga kasallikni oshkora qilmaslik; huquq vakillaridan kasb etikasida sodiqlik, hammaning qonun oldida teng ekanligiga rioya qilishi talab qilinadi. Xizmat koʻrsatish sohasida esa, avvalambor, muomala madaniyati, mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan diqqat-eʼtiborga bogʻliqdir.

Etika – inson faoliyatining urf-odatlariga mos kelishi yoki mos kelmasligi, xulq-atvor qoidalariga rioya qilishni oʻrgatadi. Insonning axloqiy sifatini tahlil qiladi, yaʼni uning bevosita faoliyatini kuzatadi. Kasbiy etika – har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni oʻrganadi va hayotga tatbiq etadi. Kasbiy etika qonun-qoidalari kabinetlarda emas, balki, ish jarayonida shakllanadi. Kasbiy-axloqiy etiket normalarini ishdagi ijodkorlikdan ajratib boʻlmaydi, ayniqsa pedagogik ish jarayonida. Shuning uchun kasbiy omilkorlik, oʻz ishini yaxshi bilish, qaysi kasbdan qatʼiy nazar axloqiy normalarning boshlanishidir. Xizmat koʻrsatish xodimlarining kasb etikasi va etiketi umuminsoniy axloq qonunlari, prinsiplari va normalarini, estetik qadriyatlarini aholiga xizmat koʻrsatish, muomala qilish hamda ularga axloqiy tarbiya berish, estetik madaniyatini shakllantirish yoʻllarini oʻrganadigan va oʻrgatadigan nazariy-falsafiy fandir. Kasb etikasi (yoki kasbiy axloq) bu odamlarning kasb

faoliyatidan kelib chiqadigan o‘zaro munosabatlarining axloqiy xarakterini ta’minlaydigan qonuniyatdir. Bunday qonuniyatlarning kelib chiqishi va rivojlanishi inson axloqiy yo‘nalishlaridan birini aks ettiradi, chunki ular shaxs qadrini va shaxslararo munosabatlarda odamiylikning yuzaga kelishiga yordam beradi.

### *Lug‘at*

axloq – нравственность

insoniyat – человечество

kamolot – совершенство

munosabat – отношение

ta’minlamoq – обеспечивать

nazariy-falsafiy – теоритическо-

философский

kasb etikasi – профессиональная

этика

### *Suhbat matni*

#### Odob – inson ziynati

Inson uchun chiroyli odob, xulq va yaxshi tarbiya oltindan, har qancha boylikdan ham qadrli, ustun va afzaldir. Chunki, boylik bilan ham topilmaydigan narsalar xushxulqlik, chiroyli muomala bilan topilishi mumkin. Boylik, asosan, insonning o‘ziga foyda bersa, chiroyli odob bilan kishi barchaga manfaat yetkazadi.

Boylik bilan berkitib bo‘lmaydigan ba’zi ayb-kamchiliklar chiroyli odob, xulq-atvor bilan yopilishi mumkin. Shu jihatdan odob-axloq boylikdan bir necha marta ustun turadi. Bu haqda Alisher Navoiy “Nazmul Javohir”da shunday yozadi:

Oltin-kumush etma davlat kunidin,

Kim, tortar adab ulusni mehnat kunidin.

Gar yo‘qtur adab, ne sud oltun unidin,

Elning adabi xushroq erur oltunidin.

Xalqda “Inson – shirin so‘zning gadosi” degan naql bor. Haqiqatan shirin so‘z inson qalbini yumshatadi, uni g‘azabdan muloyimlikka, qahrdan mehr sari torta boshlaydi. Shirin so‘z bilan qanchadan-qancha urishib qolganlar bir-birlarini kechiradilar. Shu birgina shirin so‘z tufayli yillab amalga oshmay yurgan ishlar bitadi. Shu birgina shirin so‘z tufayli ikki millat bir-biri bilan oshno tutiladi, dushmanlar o‘zaro og‘a-iniga aylanadilar. Demak, shirin so‘zning quvvati kuchli, shirin muomalasi bilan kishi ko‘pgina narsalarga erishar ekan.

## Tarjima mashqi

### Правила речевого этикета

О вежливости или невежливости, его речевого поведения судят, прежде всего, по тому, как соблюдает он принятые правила этикета, в том числе и правила речевого этикета.

Познакомьтесь с некоторыми правилами речевого этикета.

1. *Осторожно обращайся со словом!*
2. *Выслушай обращённое к тебе слово!*
3. *Тщательно продумай свою будущую речь!*
4. *Оцени уместность своей речи!*
5. *Вникни в содержание речи и попробуй понять говорящего!*
6. *Не искажай действительности в речи!*
7. *Распознай намерения и интересы собеседника!*
8. *Не нарушай темы беседы!*
9. *Уважай достоинство и самолюбие собеседника!*
10. *Не принимай решение, выслушав только одну сторону!*
11. *Не говори о том, что всем давно известно!*
12. *Не будь многословным!*
13. *Если сомневаешься в искренности своего собеседника, сопоставь его высказывания, обращённые к разным лицам!*
14. *Не повторяй одно и то же несколько раз!*
15. *Следи за своим тоном, мимикой, жестами!*

 *Grammatik ma'lumot.* Annotatsiya matni, tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Annotatsiya - badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir. Annotatsiya o'zining qisqaligi, hajm jihatidan nihoyatda kichikligi bilan bayonning boshqa turlaridan ajralib turadi. Annotatsiya kitob, maqola, qo'lyozma mundarijasini, g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini va boshqa jihatlarini ochib beradi. Annotatsiyani, masalan, kitobning o'zida, bibliografik ko'rsatkichlarda va kutubxona kataloglarida uchratish mumkin. Uning vazifasi o'quvchilarda muayyan kitob, maqola, qo'lyozma to'g'risida umumiy tasavvur tug'dirish va ularga adabiyotlar tanlashda yordam ko'rsatishdir. Batafsil yozilgan annotatsiya quyidagi savollarga javob bera olishi lozim:

Ishda nima haqida so'z boradi?

Muallif qanday savollarni o'rta qo'yadi?

Bu savollar qanday yoritib berilgan?

Ishning tuzilishi qanday?  
Ishni qanday baholash mumkin?  
Yozilgan ish kimlarga mo'ljallangan? v.h.

Namuna:

*S.A.Karimovning A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyotida  
2002-yilda chop etilgan «Til ta'limi va me'yor» nomli o'quv  
qo'llanmasiga yozilgan*

#### ANNOTATSIYA

*Mazkur o'quv qo'llanmasi V – 220100 va 5 – 220100 – filologiya  
(o'zbek tili va adabiyoti) – bakalavr yo'nalishida tahsil olayotgan 3-  
kurs talabalariga mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlariga  
muvofiq keladigan va tanlov fani sifatida o'tiladigan «Hozirgi o'zbek  
tilining me'yoriy muammolari» kursi dasturi asosida yozilgan.*

*Qo'llanmani yaratishda va me'yor hodisasining lingvistik  
tushuncha ekanligi, uning predmeti, maqsad va vazifalari, me'yor  
masalasining o'zbek tilshunosligida o'rganilish tarixi, adabiy tilga  
munosabati, umumiy va xususiy me'yorlar, me'yorlarning tildagi imlo,  
talaffuz, leksik-frazeologik, grammatik va uslubiy ko'rinishlari, me'yor  
va lug'atchilik, me'yor va nutq madaniyati masalalarini yoritishda  
mustaqillik davrida o'zbek tili va uni tadqiq etishda yuz bergan  
o'zgarishlar hamda erishilgan yutuqlarga tayanilgan.*

*H.Umurovning «Adabiyot nazariyasi»  
(Toshkent: Sharq, 2002) darsligining  
ANNOTATSIYASI*

*Respublika universitetlarining O'zbek filologiyasi yo'nalishi  
(fakultetlari)da «Adabiyot nazariyasi» bakalavriyatning 4-kursida  
o'rganiladi. Unda adabiyot, badiiy asar, ijodiy jarayonning muhim  
qonuniyatlari, adabiy tur va janr, ijodiy metod va uslub  
muammolarining mohiyati, so'z va so'z san'atining sehru jozibasi  
haqida zarur nazariy ta'limot beriladi.*

*Ushbu darslik Oliy o'quv yurtlarining filolog talaba-bakalavrlari,  
magistrlari, tadqiqotchilari, doktorantlari va adabiyotga qiziquvchi  
barcha ijodkorlarga mo'ljallangan.*

Topshiriq. Quyida berilgan maqollarning ma'nosini izohlang va  
ularni yod oling:  
Odob – oltindan qimmat.

Odob bozorda sotilmas.  
Shirin soʻz (qalbni) yumshatadi.  
Inson – shirin soʻzning gadosi.

*Topshiriq.* Siz egallayotgan sohaning o‘ziga xos etikasi haqida gapib bering.

☒ *Test topshiriqlari*

1. Berilgan gap nutq uslublarining qaysi biriga xos?  
*U kamtarin va samimiyligi, do'stlariga mehribonligi sababli hamkurslari hurmatiga sazovor bo'lgan. O'zini jamoat ishlarida faol, serg'ayrat inson sifatida ko'rsatdi.*  
a) badiiy                      b) ilmiy                      s) publitsistik                      d) rasmiy
2. Adabiy tilning qanday shakli bor?  
a) xalq shevalari va adabiy til                      b) og'zaki adabiy til va yozma adabiy til  
c) xalq shevalari va lahjalar                      s) xalq shevalari va lahjalar  
d) og'zaki adabiy til va xalq shevalari
3. Annotatsiyaga qo'yiladigan asosiy talab qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?  
a) badiiylilik                      b) ixchamlilik                      s) tarixiylilik                      d) ilmiylik
4. Asarning bibliografik tasnifi, mazmuni, unda ko'tariladigan muammolar, asarning g'oyavay-badiiy xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi adabiy tanqid janri -  
a) taqriz                      b) rezyume                      s) annotatsiya                      d) ma'lumotnom
5. *Личная инициатива* birikmasining to'g'ri tarjimasini toping.  
a) shaxsiy tashabbus                      b) shaxsiy faoliyat  
c) shaxsiy fikr                      s) shaxsiy masala                      d) shaxsiy masala

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

- 1.Kasb etikasi deganda nimani tushunasiz?
- 2.Kasb etikasiga rioya qilish soha egalari uchun qanchalik muhim?
- 3.Annotatsiya yozishda nimalarga e'tibor berish lozim?
- 4.Qanday matnlarga annotatsiya beriladi?
- 5.Annotatsiyada sohaviy leksikadan foydalaniladimi?

*Uyga vazifa.* Odob-axloq mavzusidagi kitoblardan biriga annotatsiya yozing.

### 33-mavzu. Nutq odobi

*Agarchi so‘zlarsan, bilib so‘zla so‘z,  
So‘zing ko‘rga ko‘zdir, ko‘rsin qora ko‘z.*

 *O‘qish uchun material*

#### Nutq odobi

Ritorika – notiqlik san’ati bo‘lib, kishidan chuqur bilim, yuksak madaniyat va maxsus ijrochilik salohiyatini talab qilgan. Miloddan avvalgi V-IV asrlarda Yunonistonda yuzaga kelib, miloddan avvalgi III-II asrlarda tizimli fan shaklini olgan. Ritorika inson muloqotining barcha axloqiy, hissiy, mantiqiy sohalarini qamrab oladi. Shuning uchun ritorika nafaqat tadbirkorlik maqsadlarining shakllanishida, balki odamlarning qarashlari, fikrlari, jamoalarning va jamiyat qarashlarining qaror topishida ishtirok etadi. Odamlar bilan muomala qilish san’ati ham har bir kishidan katta mahoratni talab qiladi. Har qanday lavozimga nomzod deb qaralayotgan odamda bunday fazilat bo‘lishi va bu fazilat har qanday sharoitda namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Siz mehmonxonada, restoranda, kutubxonada yoki laboratoriyada ishlashingizdan qat’iy nazar, eng muhimi –o‘z fikringizni aniq va ravshan ifoda eta olishingizdir. Bu esa sizning muvaffaqiyatingizga zamin yaratadi.

Telefonda so‘zlasish odobiga rioya qilasizmi?

Siz telefon orqali kishilar bilan muomala qilish odobini bilasizmi? Agar buni yaxshi bilmasangiz, suhbatdoshingizni ranjitgan bo‘lasiz. Telefon orqali muomalani o‘rganmoqchi bo‘lsangiz, quyidagilarni esda tuting:

- Gapni salom-alikdan boshlang. So‘ngra kerakli joyga tushdingizmi yoki yo‘qmi, aniqlab oling.
- Telefonda qisqa, lo‘nda gaplashishga harakat qiling.
- Suhbatdoshingizdan hol-ahvol so‘rab, maqsadga o‘ting.
- Asosiy gapingiz tugagandan so‘ng tanishingizning gapiga quloq soling, uni diqqat bilan tinglang.
- Sizni telefonda chaqirishsa, “Labbay” yoki “Eshitaman” deb javob bering.
- Telefonda so‘zlashayotganda baqirmang.
- Muloqot chog‘ida nutq odobi qoidalariga rioya qiling.
- Agar boshqa raqamga adashib tushib qolgan bo‘lsangiz, darrov uzr so‘rang.

- Sizga behosdan adashib tushgan bo‘lib, kechirim so‘rashsa, “marhamat, hechqisi yo‘q” deb javob bering.
- Xayrlashishni unutmang. Yaxshi tilak bildirib xayrlashing.

👉 *Yodingizda tuting!*

So‘z – qurol, maqsad esa ko‘ngil, ko‘ngil o‘rtanmasa, ehtirolarga to‘lmasa, so‘zda ta’sir bo‘lmaydi. Bitta so‘z olamni vayron qiladi, bitta so‘z qo‘rqoqni polvon qiladi. (Jaloliddin Rumi)

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko‘rsatmalarda sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va mazmundor so‘zlash, ezmalik, huda-behuda gaplarni qoralash, keksalar va ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to‘g‘ri, rost va dadil gapirishning yuksak ifodasini talqin etish va boshqalar haqida gap boradi. Shu o‘rinda, Kaykovusning shunday fikri bor: “Hamma qobiliyatlarning eng yaxshisi nutq qobiliyatidir. Nutqni juda yaxshi va san’atkorona o‘rganib ol, doimo gapga chechan bo‘lishga harakat qil. Nutqi shirin kishinnig mehribon kishilari ham ko‘p bo‘ladi”.

👉 *Suhbat matni*

### Odob ziynati

Odobni sershox daraxtga o‘xshatish mumkin. Har bir yoshning, har bir kasb-korning o‘z odobi bor. Inson bolasi go‘dakligidan boshlab ota-onasi, ustozlari, atrofini o‘rab turgan barcha birodarlaridan qanday yashashni, odob-axloq qoidalarini o‘rganib boradi. Xalqimizda “Odobli bola elga manzur”, “Inson odobi bilan go‘zal”, “Odobning avvali salom” kabi maqollar mavjud. Darhaqiqat, odob “Assalomu alaykum”dan boshlanadi. Hatto o‘zbek xalq ertaklarida ham yovuzlik ramzi hisoblangan ba’zi obrazlar tilida “Gar saloming bo‘lmasa, bitta yamlab yutardim” degan jummalarni uchratamiz. Bu so‘zni hamma vaqt, har qanday joyda bir xilda, to‘liq, sof talaffuzda qo‘llamoq kerak. Talaffuzning sofliqi, to‘g‘riligi, jummalarning o‘rinli tanlanishi, va, eng muhimi, sermazmun bo‘lishi nutqimizning ta’sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida O‘g‘li Gilonshohga aytgan pand-nasihatlar bilan tanishaylik. “Men dunyoda nima hosil qilgan bo‘lsam, sening oldingga qo‘ydim, toki o‘zingga bino qo‘ymagaysan, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat-ikrom ko‘rgizgaysan va insonga nomunosib hayvoniy-hirsiy ishlarni qilmagaysan, padaringga la’nat keltirmagaysan”.

👉 *Tarjima mashqi*

Jamiyat a’zolari o‘zaro munosabatlarda so‘zlashish odobiga qat’iy rioya qilishlari zarurligi ta’kidlanadi. Kishi aytadigan har bir



so‘zi (gapi)ni avval o‘ylab olishi, so‘ngra so‘zlashi lozim. O‘ylamay aytilgan so‘z kishini ko‘pchilik oldida uyalib qolishiga, juda yomon ahvolga tushishiga sabab bo‘lishi mumkin. «So‘zni ko‘ngilda pishqarmaguncha, tilga kelturma va har nekim ko‘ngilda bor tilga surma» (Navoiy). Variantlari: «O‘ylamaguncha so‘ylama», «Ko‘p o‘yla, oz so‘yla», «O‘n qatim o‘yla, bir qatim so‘yla», «Dilda pishir, tilda gapir», «O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir» va hokazo.

🔊 *Grammatik ma’lumot.* Me’yor tushunchasi.

Me’yor - jamiyat a’zolari tomonidan qabul qilingan, ma’qullangan va ularga tushunarli bo‘lgan til birliklarining nutq jarayonida qo‘llanish holati va imkoniyatidir. Me’yor – tilning yashash shaklidir. Nutq madaniyati to‘g‘risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so‘zlarning o‘rinli va o‘rinsiz ishlatilishi to‘g‘risida ham bahs boradi. Qo‘llangan til birligini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deyilganda, albatta, ma’um bir o‘lchovga asoslanamiz. Mana shu o‘lchov tilshunoslikda adabiy til me’yori deb yuritiladi.

Har bir lahjaning, so‘zlashuv tilining, adabiy tilning o‘z me’yorlari bo‘lganidek, nutqning alohida ko‘rinishlari bo‘lgan argolar, jargonlar ham o‘z me’yoriga ega. Xususiy me’yorlar quyidagicha ko‘rsatiladi:

1. Dialektal me’yor.
2. So‘zlashuv nutqi me’yori.
3. Argolar, jargonlar me’yori.
4. Adabiy til me’yori.

Demak, me’yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an’anaviylikka ega bo‘ladi. Tildan foydalanishdagi an’anaviy me’yorlarning davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir. Har qanday til me’yorlarini ikki guruhga – umumiy va xususiy me’yorlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Me’yorga nisbatan qo‘llaniladigan umumiylik va xususiylik til me’yorlarining faoliyat doirasi, qamrovi va ularning biri ikkinchisiga nisbatan olinganda anglashiladigan tushunchalardir. Shu ma’noda o‘zbek umumxalq tilidagi barcha me’yorlar yig‘indisini umumiy me’yor, adabiy, lahjaviy, turli ijtimoiy qatlamlar tiliga oid me’yorlarni xususiy me’yorlar sifatida qabul qilish mumkin.

*Topshiriq.* Ish jarayonidagi muomala madaniyati haqida kasbiy o‘yin ssenariysini tuzing va uni inssenirovka qiling. Bunda muomala madaniyatiga xos bo‘lgan so‘zlardan foydalaning.

Masalan: marhamat, rahmat, salomat bo‘ling,.....

*Topshiriq.* Nuqtalar o‘rniga x yoki h harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.

Ishta...a, ji...oz, jo...il, za...ar, za...matkash, ze...n, ba...odir, bio...imiya, mat...amat, masla...at, e...son, e...tiyotkorlik, sa...iy, so...il, giyo..., sayrgo..., ...rij, ...azil, ...arakat, guru..., ...attot.

**☑ Test topshiriqlari**

1. *“Hamma qobiliyatlarning eng yaxshisi nutq qobiliyatidir.....”.*

Ushbu fikr kim tomonidan aytilgan?

- a) Kaykovus                                      b) Yusuf Xos Hojib
- s) Alisher Navoiy                                d) Mahmud Qoshg‘ariy

2. Adabiy til me‘yorlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- a) grammatik, publitsistik, sintaktik, fonetik, imlo
- b) ilmiy, uslubiy, so‘z tanlash va qo‘llash
- s) badiiy, talaffuz, grammatik, uslubiy, imlo
- d) grammatik, uslubiy, so‘z tanlash va qo‘llash, imlo, talaffuz

3. Tilshunoslikda qo‘llanilgan til birligining ma‘lum bir o‘lchovga asoslanishi nima deyiladi?

- a) nutq uslubi                                      b) badiiy tasvir
- s) adabiy til me‘yori                              d) nutqiy qolip

4. Berilgan gap nutq uslublarining qaysi biriga xos?

*Yomg‘irdan keyin osmonda paydo bo‘ladigan kamalak jahondagi jamiki ranglarni yettita ipga tortib turganga o‘xshaydi.*

- a) badiiy                      b) ilmiy                      s) publitsistik                      d) rasmiy

5. Qaysi qatorda adabiy tilga to‘g‘ri ta’rif berilganini aniqlang

- a) qadimgi turkiy til adabiy til deb ataladi
- b) ilmiy asar tili adabiy til hisoblanadi
- s) badiiy asar tilini adabiy til deb ataymiz
- d) umumxalq tilining sayqallangan, ma‘lum me‘yorga solingan shaklidir.

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Adabiy tilning qanday shakllari mavjud?
2. Adabiy til me‘yorlari deganda nimani tushunasiz?
3. So‘zlashuv uslubida me‘yorning buzilishiga sabab nima?
4. Xususiy me‘yorlarga nimalar kiradi?
5. Jargon va argolarga ta’rif bering.

*Uyga vazifa:* “Mutaxassisning nutq madaniyati” mavzusida matn yarating.

### 34-mavzu. San'at va ma'naviyat

*Insonkim, so'z aytdi lison tufayli,  
Yaxshi so'z tufayli so'zi chiroyli*

 *O'qish uchun material.*

*O'zbekistonda adabiyot va san'at,  
madaniyat, ommaviy axborot vositalari,  
ma'naviyat va ma'rifat biznesga  
aylanmasligi shart va biz bunga hech qachon  
yo'l qo'ymaymiz.*

Shavkat Mirziyoyev

#### San'at va ma'naviyat

*Ma'naviyat* – ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch bo'lib, u tarixni anglash orqali hayotni anglash, inson fe'l-atvorini shakllantirish, milliy g'ururni uyg'otishga da'vat etishning asosidir. "Ma'naviyat-taqdirimizning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalblar vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak"- degan edi: I.A.Karimov. Darhaqiqat, ma'naviyat insonga shunchaki berilmaydi, ma'naviyat inson umri davomida paydo bo'lib, shakllanadi, kamol topadi. Inson ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyos. Shu bois xalqimiz azal-azaldan yoshlarning har jihatdan yetuk, barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun harakat qilganlar. Inson ma'naviyatini kamol toptirishda ta'lim-tarbiya bilan bir qatorda san'atning ham ahamiyati bor.

*San'at* ijtimoiy madaniyatning insonga estetik zavq beruvchi, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik, notiqlik kabi voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi sohasi hisoblanadi. O'zbek xalqi – san'atsevar xalq. Shuning uchun O'zbekistonda san'atning deyarli barcha turi mukammal rivojlangan.

Musiqa san'atida qadimgi davrlardan to bugungi kunimizgacha bebaho kuy-qo'shiqlar, cholg'u asboblari va musiqa nazariyasiga oid asarlar yaratilgan. Juda ko'p mahoratli sozlandalar, bastakorlar, hofizlar o'zbek san'ati dovrug'ini olamga taratishgan. Xususan, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov kabi o'zbek qo'shiqchilari jahonga mashhurdir. O'zbek milliy qo'shiqchiligi va sozandachiligi bugungi kunda ham rivojlanib, ravnaq topib bormoqda. O'zbekiston tasviriy san'ati ham o'zining qadimiy ildizlariga ega. XV-XVI asrlarda Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Qosimali kabi buyuk rassomlar asos solgan an'analar hozirgacha davom etib kelmoqda. O'zbek rassomlari Chingiz Axmarov, Abdulxaq Abdullayev,

Bahodir Jalolov, Ro'zi Choriyev kabi musavvirlarning asarlari dunyodagi ko'pgina nufuzli ko'rgazmalarda namoyish qilingan.

O'zbekistonda kino san'ati ham juda yuqori darajada rivoj topgan. Kinoning barcha turlari – badiiy film, hujjatli film, teleseriallar, multiplikatsiya, ilmiy-ommabop filmlar sanoatining shuhrati MDH mamlakatlarida mashhur. Har yili "O'zbekfilm" kinostudiyasida tarixiy, sarguzasht, detektiv, sevgi va hayot hamda mehr-vafo haqida o'nlab filmlar suratga olinadi. "Mahallada duv-duv gap", "O'tgan kunlar", "Kelinlar qo'zg'aloni" kabi filmlarni xalqimiz juda sevib tomosha qiladi.

O'zbek teatr san'ati ham o'z tarixi, rivojlanish bosqichlari, o'ziga xos an'analariga ega. Teatr san'ati darg'alari Abror Hidoyatov, Olim Xo'jaev, Soyib Xo'jaev, Sora Eshonto'rayeva, Shukur Burxonov, G'ani A'zamov kabilar o'zbek teatr san'atini yuqori pog'onaga ko'targanlar. Ular ishtirokidagi har bir spektakl tomoshabinlarga olam-olam ma'naviy ozuqa bergan.

O'zbekistonda, shuningdek, opera, balet, estrada, me'morchilik kabi san'at turlari ham rivojlangan.

### *Lug'at*

tasviriy san'at – изобразительное искусство

amaliy san'at – прикладное искусство

mahorat – мастерство

dunyoqarash – мировоззрение

### *Suhbat matni*

..... San'atkor kishilarga ta'sir etishi uchun uning o'zi izlanuvchan, asari ham izlanishdan iborat bo'lishi shart. Agar u hamma narsani topib-bilib olgan bo'lsa va pandnasiyatga berilsa yoki atayin maynavozchilik qilsa, u hech kimga ta'sir etolmaydi. Faqat izlangan taqdirdagina tomoshabin, tinglovchi, o'quvchi u bilan birga izlanib, yakdil bo'lib ketadi.

Men san'atkorman va mening butun hayotim go'zallikni izlashdan iborat. Agar siz menga shu go'zallikni ko'rsatganingizda edi, sizdan xuddi mana shu oliy baxtga meni ham sazovor qiling, deb tiz cho'kib yolvorgan bo'lardim. San'at asari deb atashadigan narsani yaratish uchun, kishi nima yaxshi, nima yomonligini aniq-ravshan, hech shubhasiz bilishi, ularni ajratib turadigan chegarani noziklik bilan ko'rib turishi va shu boisdan ham bor narsani emas, balki bo'lishi mumkin narsani yozishi kerak. (L. N. Tolstoy)

## Musiqaning qudrati

Rivoyat qilishlaricha, Olloh yaratgan o'n sakkiz ming olam ichida eng g'aroyibi bo'lgan inson dunyoga kelar ekan, unga jon musiqa orqali singdirilibdi. Shundan buyon inson o'z hayotini musiqasiz tasavvur eta olmaydi. Zero, kuy-qo'shiq kishiga cheksiz estetik zavq berishi barobarida uning qalbida ajib his-tuyg'u uyg'otadiki, u insonni doimo ezgulikka chorlaydi. Shu bois bo'lsa kerak, asrlar mobaynida ota-bobolarimiz farzand tarbiyasida musiqa ilmiga alohida e'tibor bilan yondashganlar. Zotan, musiqaga, kuy-qo'shiqqa yoshligidanoq oshno bo'lgan insonning hech qachon ko'nglida adovat bo'lmaydi, qo'lidan yovuzlik kelmaydi. Bugun bobolar tomonidan aytilgan ushbu fikrlarning naqadar haqiqat ekanligini respublikamizning turli musiqa dargohlarida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning fikr-o'ylari misolida ham bilib olishimiz mumkin.

\*\*\*

U choyxona yonidan o'tib borarkan, ichkaridan taralayotgan kuy tovushlarini eshitib, to'xtab qoldi.

Bolaning yuragi hapriqib ketdi. Uyi tarafga yugurdi. Bir bo'lak yog'och parchasini topib, uni pichoq bilan yo'ndi, tekisladi... Nihoyat, shakli dutorga o'xshagan bir nima yasadi. Keyin unga ot qilidan tor tortdi va tirnoq barmoqlari bilan asta chertib ko'rdi. Ojizgina vizillagan tovush eshitildi. Yana chertdi... Shu kuni ohang tug'ildi. Bola uchun yangi, ohangli bir olam paydo bo'ldi. (E. Usmonov)

## Tarjima mashqi

### Искусство

Искусство является творческим отражением, воспроизведением действительности в художественных образах.

Существуют различные виды искусства: архитектура, музыка, литература, театр, кинематограф, хореография, живопись, графика, скульптура, прикладное и декоративное искусство, которые, в свою очередь, в зависимости от формы произведения и его содержания делятся на жанры.

Средства отражения действительности в каждом виде искусства своеобразны. В литературе - это образное слово, в музыке - чувство, в живописи - краски, в скульптуре - камень и дерево и т.д.

Ряд искусств воспроизводит внешнюю форму действительности. Это скульптура, живопись и отчасти театр и

кинематограф. Музыка отражает чувства. Каждый вид искусства вносит что-то новое, своё в эстетическое воспитание человека. С помощью искусства выражается также смешное, сатирическое, и то, что вызывает в нас чувство отвращения и неприязни.

🔗 *Grammatik ma'lumot.* Umumxalq leksikasiga kirgan san'atshunoslik terminlari

San'at [mehnat; mahorat] – 1. Ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik kabi voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi sohasi. *Tasviriy san'at*. 2. Muayyan faoliyat sohasidagi yuksak mahorat, ustalik; iste'dod. *So'z san'ati*.

Tilda shunday so'zlar borki, ular ma'lum bir fan (masalan, tilshunoslikka oid *tovush, fon, fonema, ega, kesim, aniqlovchi, aniqlanmish, sifatlovhi, sifatlanmish, to'ldiruvchi, hol, gap, undalma* va h.), texnika (*kalit, ko'targich, qisqich, gayka, shayba, bolt* va h.), sport (*to'p, to'r, darvoza, himoya, hujum, kurash, yonbosh, chala, halol* va h.), madaniyat (*sahna, musiqa, qo'shiq, lapar, raqs, ijro, soz, nutq* va h.)ga oid tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday so'zlar atamalar (terminlar) deb yuritiladi. Ularni o'rganuvchi soha esa atamashunoslik (terminologiya) deb ataladi.

Atama so'zini Abdurauf Fitrat 1927-yilda nashr etilgan “Nahf” kitobida birinchi bo'lib qo'llagan bo'lsa-da, bu so'z XX asrning 90-yillariga kelibgina keng qo'llanila boshladi. Ilmiy adabiyotlarda, asosan, “termin” so'zi qo'llanishda bo'ldi.

Umumxalq leksikasida san'atshunoslik sohasiga oid terminlar ham talaygina. Bu terminlarning ba'zilari sof turkiy so'zlardan iborat bo'lsa, ayrimlari arab, fors - tojik, rus tili va u orqali boshqa Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlardir.

*Topshiriq.* Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani asosida suratga olingan badiiy filmni tomosha qiling. Film yuzasidan fikrlaringizni bildiring.

*Topshiriq.* Quyida aytilgan fikrga munosabat bildiring.

... Muxlislar senga gul berishsa, gul ko'rmagan odamga o'xshab hammasini quchoqlab olib ketma, oxirida sahnaga ta'zim qil va bir donagina gulni sahna uchun qoldirishni unutma. (Bahodir Yo'ldoshev)

### ☑ Test topshiriqlari

1. “Teatr – ibratxonadur” degan ibratli fikr kim tomonidan aytilgan?

- a) Abdulla Avloniy
- b) Abdulla Qodiriy
- s) Mahmudxo‘ja Behbudiy
- d) Cho‘lpon

2. Men dunyoni nima qildim,

O‘zing yorug‘ jahonim,

O‘zim xoqon,

O‘zim sulton,

Sen taxti sulaymonim... Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?

- a) A.Oripov
- b) H.Olimjon
- s) E.Vohidov
- d) Muhammad Yusuf

3. O‘zbek ma’rifatparvarlari berilgan qatorni ko‘rsating

a) Saida Zunnunova, Odil Yoqubov, Said Ahmad, Erkin Vohidov

b) Anvar Obidjon, Rauf Parpi, Shukur Xolmirzayev, Ne’mat Aminov

s) Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon

d) Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Sharof Rashidov, Hamid Olimjon

4. Berilgan gap nutq uslublarining qaysi biriga xos?

*Dam jahlim chiqadi, dam kulgim qistaydi.*

a) badiiy

b) ilmiy

s) publitsistik

d) rasmiy

5. E. Vohidovning qaysi komediyasi uzoq yillar o‘zbek teatri sahnasidan tushmay keldi?

a) “Temir xotin”

b) “Istanbul fojiasi”

s) “Oltin devor”

d) “Kelinlar qo‘zg‘oloni”

### ? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. San’at sohasiga oid qanday atamalarni qo‘llashda kamchilik bor deb hisoblaysiz?

2. O‘zbek teatr san’atida o‘chmas iz qoldirgan san’atkorlardan kimlarni bilasiz?

3. O‘zbek dublyaj san’atining yutug‘i nimada deb o‘ylaysiz?

4. O‘zbek musiqa san’atining darg‘alari sifatida kimlarni ayta olasiz?

5. “Teatr – ibratxonadur” degan ibratli fikrni izohlay olasizmi?

*Uyga vazifa.* “San’at - mening hayotimda” mavzusida esse yozing.

### 35-mavzu. Men sevgan asar

*Bu turkcha qo'shuqlar tuzattim senga,  
O'qisang, duo qil mening haqimga.*

 *O'qish uchun material*

#### Sakkizinchi mo'jiza

Tasavvur qiling: siz tasviriy san'at muzeyiga kirdingiz. Polotnolardagi ranglarni, odamlarni qiyofasini ko'zingiz bilan ko'rib, hayajonga tushasiz.

Tasavvur qiling: siz magnitofonda musiqa tinglayapsiz. Cholg'u ohanglari, xonandaning ovozini qulog'ingiz bilan eshitib, hayajonga tushasiz...

Endi tasavvur qiling: siz kitob o'qiyapsiz. Oq qog'ozda qora chiziqlar – harflardan bo'lak hech qanaqa rang yo'q. Hech kim kuy ham chalmaydi. Ammo asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z o'ngingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi. Qulog'ingiz ostida ajib ohanglar jaranglay boshlaydi. O'zingiz bilmagan holda qattiq hayajonga tushasiz...

Hech shubhasiz, badiiy adabiyot – dunyodagi sakkizinchi mo'jiza!

 *Lug'at*

tasavvur – kishining narsa, hodisa va sh.k. haqidagi tushunchasi  
tasvirlamoq – suratini, rasmini chizmoq, tasvir etmoq  
qiyofa – tashqi ko'rinish, tus  
xonanda – ashula, qo'shiq aytuvchi sanatkori, hofiz  
ohanglar – bir-biriga ulangan, uyg'unlashgan yoqimli tovushlar oqimi.

#### Men sevgan shoir

Men o'zbek shoirlari she'rlarini sevib o'qiyman. Ayniqsa, A. Navoiy g'azallari, Bobur ruboiylari, E.Vohidov, A. Oripov she'rlarini yaxshi ko'raman. Eng sevgan shoirim Erkin Vohidov.

Erkin Vohidov Farg'ona viloyatida o'qituvchilar oilasida tug'ilgan. Toshkent Davlat Universiteti filologiya fakultetini bitirib, turli nashriyotlarda muharrir bo'lib ishlagan. E.Vohidovning ko'plab she'riy to'plamlari nashrdan chiqqan. To'plamdagi ba'zi she'rlarni yod olganman. Jumladan: "Uzum", "Qaro qoshing", "O'zbekim" she'rlari menga zavq bag'ishlaydi. Shuningdek, men Shuhrat ijodi bilan ham qiziqaman. Uning "O'qituvchi qasidasi" she'rini o'qiganimda har doim birinchi ustozimni esga olaman...



## *She'rni yod oling*

### O'qituvchi qasidasi

Agar hayot bo'ston esa, bog'bon muallim,  
Agar hayot karvon esa, sarbon muallim.  
Agar hayot oltin bo'lsa, zargar muallim,  
Agar hayot dengiz bo'lsa, gavhar muallim.  
Agar hayot uzuk bo'lsa, ko'zi muallim.  
Agar hayot shoir bo'lsa, so'zi muallim.  
Chunki udir har insonga berguvchi ta'lim.  
Ta'lim so'zi jamisidan chiqmish muallim!  
Sharaf unga, obro' unga, unga tantana!  
Maqtovlarga muyassarsan, ey ulug' ona. (Shuhrat)

## *Suhbat matni*

### Men sevgan asar

Men o'zbek yozuvchilaridan Abdulla Qodiriy, Tohir Malik asarlarini sevib o'qiyman. Ayniqsa, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", Tohir Malikning "Shaytanat" asarlarini qayta-qayta o'qiyman.

"O'tgan kunlar" romani qahramonlari Otabek va Kumush men uchun chin sevgi timsoliga aylanganlar. Otabekning aqli, dunyoqarashi, chin sevgisi, jasurligi meni hayratga soladi. Kumushning go'zalligi, zeboligi, latofati, sevgisiga sodiqligi havasimni keltiradi. Shunday go'zal muhabbatning fojiali tugashi juda achinarli hol. Buning sababi o'sha davrdagi urf-odatlaridir. Asar meni tamomila o'ziga rom etgan.

## *Tarjima mashqi*

### Абдулла Арипов

Абдулла Арипов родился 21 марта 1941 года в кишлаке Некуз Касанского района Кашкадарьинской области. Окончив школу с золотой медалью, Абдулла Арипов в 1958 году поступил учиться на отделение журналистики филологического факультета Ташкентского Государственного университета. Спустя некоторое время, Абдулла Арипов становится членом Союза писателей Узбекистана. Закончив университет, А.Арипов работал в 1963-74 годах в различных издательствах, а потом в журналах "Шарк юлдузи", "Гульхан". После сборника "Звёздочка" А.Арипов опубликовал и другие книги стихов. Кроме стихотворений и поэм А.Арипов пробовал силы и в драматургии. Он написал драму "Сахибкиран". В этой драме, состоящей из пяти действий, автор

пытался показать великого Темура в качестве государственного деятеля, рассказать о его жизни и чувствах. Он раскрывает смысл его заслуг в развитии культуры, взаимоотношения с близкими людьми, обращения с жёнами и детьми.

#### Абдулла Каххар

Абдулла Каххар - один из крупных представителей узбекской литературы XX века. Абдулла Каххар родился 17 сентября 1907 года в городе Коканде в семье кузнеца. Абдулла в начале 20-х годов поступает в кокандский техникум. Первое стихотворение “При лунном затмении” было напечатано в 8-м номере журнала “Муштум” в 1924 году.

Одним из самых совершенных произведений, созданных в эту пору, является рассказ Абдуллы Каххара “Страх”. Сатирический талант Абдуллы Каххара ярко проявился в рассказах 30-х годов “Женщина, не пробовавшая изюма”, “Вопль души”, “Лицемер”, “Учитель словесности”, “Артист”, “Упрямец”, “Девушки”. В них писатель разоблачал общечеловеческие пороки. Наступление нового периода в творчестве Абдуллы Каххара в середине 30-х годов было знаменательно ещё и тем, что он опубликовал свой первый роман “Мираж”, считающийся в узбекской прозе второй вершиной после “Минувших дней” Абдуллы Кадыри. 1954 году новую комедию “Больные зубы”.

#### 🔗 *Grammatik ma'lumot. Badiiy tasvir vositalari*

Soʻzlovchi yoki yozuvchi oʻzi bayon qilayotgan fikrni tinglovchiga ixcham, aniq, taʼsirchan va tushunarli qilib yetkazib berishga harakat qilishi shart.

Koʻpincha biror narsa belgi xususiyatini tinglovchi yoki oʻquvchiga tushunarli, aniq qilib tasvirlab berish uchun uzundan-uzoq va birdan ortiq gaplarga murojaat qilishga toʻgʻri keladi. Shunday vaqtlarda soʻzlovchi yoki yozuvchi ayni shu fikrni bayon qilib berishda uzundan-uzoq gaplarni qatorlashtirishdan qochib, boshqa vositalardan foydalangan holda loʻnda va aniq qilib tushuntirishga erisha oladi. Bunday vositalarni tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ifoda – tasviriy vositalar deyiladi.

Ifodalilik, ekspressivlik va aniqlikni taʼminlash uchun biror narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga koʻchirish, oʻxshatish yoki soʻzlarni shu maqsadda umuman koʻchma maʼnoda ishlatish tropalar deyiladi.

Lug'aviy ma'noning asosiy taraqqiyot yo'llari (ko'chish usullari) quyidagicha: *metafora*, *metonimiya*, *sinekdoxa*, *funksiyadoshlik* (*vazifadoshlik*), *kinoya*.

Metafora ( grekcha “ko'chirish” ) – bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir. Metafora – “o'xshashlik” asosidagi ma'no ko'chishi: *oltin kuz*, *kumush choyshab*, *fan cho'qqilari*, *litsey qaldirg'ochlari*. *Po'lat qilichingni ko'rganman o'tda*. *Quyoshning oltin qalami nur taratar edi*.

Metaforalarga juda yaqin vosita – o'xshatishlar bo'lib, ular yordamida shaxs-predmetlar bir-biriga o'xshatiladi, qiyos qilinadi. Unda – *dek*, - *day*, *go'yo*, *yanglig'*, *singari xuddi* (v. b) kabi shakl va so'zlardan ham foydalaniladi: *Bahor kelinchakdek yasanib keldi*. *Ulug'bek – misoli oftob*. *G'oz singari qo'nar ko'llarda*.

Metonimiya grekcha “qayta nomlash” demakdir. Narsa va hodislar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida biri nomining ikkinchisiga ko'chishi metonimiya hisoblanadi: *Qishloq chetida samovar ochildi* (*samovar-choyxona*); *Osmonga tikildi million juft ko'zlar* (*ko'z-odam*); *Fuzuliyni oldim qo'linga* (*Fuzuliyni-kitobini*). *Osmon fanarini ham yoqdi shu onda*. *Zal oyoqqa turdi*. *Auditoriya sukutda*.

Sinekdoxa grekcha “birgalikda anglash” so'zidan olingan bo'lib, bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalashni bildiradi. Sinekdoxa – butunning nomi bilan qismni, qismning nomi bilan butunni atash. Masalan: *besht qo'l barobar emas* (*qo'l- “barmoq”*); *O'n qo'li hunar* (*qo'l- “barmoq”*). *Besh qo'lini og'ziga tiqdi* (*qo'l- “barmoq”*); *Shu bitta tuyoq bilan olti bolani boqdim* (*tuyoq – “sigir”*); *Tirnoqqa zor o'tdi* (*tirnoq – “farzand”*). *Besh qo'l barobar emas*. *Dunyoda o'zimizdan keyin qoldiradiga tuyog'imiz ... faqat shul Otabekdir, deb yozdi Yusufbek Hoji*.

Vazifadoshlik ( funksiyadoshlik) - vazifa asosida ma'no ko'chishi. Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosidagi ma'no ko'chishi deyiladi: *o'q*, *kotib*, *pero*, *qalam*, *qanot*, *chiroq* so'zlarida vazifaga ko'ra ma'no ko'chishi ro'y bergan.

Kinoya – qochiriq, kesatiq ma'nolarida aytilgan o'zgalar “gapi”, “so'zi”. Kinoya bilan aytilgan so'z teskari ma'noda tushuniladi: *Muxtor-“a'lochi” o'quvchi* (*ikkichi*). *“A'lo” natijadan so'ng “matematika” sinfdoshimni algebrani “suv qilib ichmoqqa” yo'lladi*. *Bizni “homiy” lardan himoya qilg'il, degan sharq xalqida piching* –

*duo bor. Xo'sh janobi oliylari, qaysi sho'rlik xalq Sizning "himoyangiz"ga qolmish intizor.*

*Topshiriq.* Yod olgan she'ringizda qanday tasviriyy vositalar qo'llanganini aniqlang va ularni izohlang.

**☑ Test topshiriqlari**

1. Asosan qaysi uslubda so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanmaydi?

a) badiiy uslubda    b) rasmiy uslubda    s) b, d    d) ilmiy uslubda

2. *Vatan – bu yurakning tubidagi gul.* Gapda qaysi usulda ma'no ko'chgan?

a) metonimiya    b) metafora    s) sinekdoxa    d) allegoriya

3. “Maysalar qiqirlar bexosdan, Gulbahor kelganin eshitib.” Ushbu she'riy parchada qanday ma'no ko'chish usuli qo'llangan?

a) metonimiya    b) sinekdoxa    s) jonlantirish    d) vazifadoshlik

4. “El oyoqqa turdi,” gapida kim yoki nima nazarda tutilgan.

a) shovqin    b) rahbariyat    s) odamlar    d) jimjitlik

5. Ushbu gapda ma'no ko'chishining qaysi ko'rinishi mavjud?

*Dasturxonga qarang.*

a) metonimiya    b) metafora    s) sinekdoxa    d) allegoriya

*Uyga vazifa.* “Meni maftun etgan asar” mavzusida esse yozing.

### 36-mavzu. Iqtisod va hayot

*Saodatli erur moli yo'q gadoy,  
Borga toqat qilsa, uning ko'ngli boy.*

 *O'qish uchun material*

#### Iqtisod va hayot

Iqtisod - jamiyatning hamma a'zolari uchun farovon hayot yaratish usul va vositalarini o'rganadigan va amalda qo'llaydigan soha. Iqtisodning yagona maqsadi – jamiyatning har bir a'zosi uchun yaxshi turmush tarzini yaratish. Ana shu asosiy maqsaddan boshqa ikkilamchi maqsadlar kelib chiqadi: iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ishlab chiqarishni rivojlantirish, barchani ish bilan ta'minlash va hokazo.

#### Iqtisodiyot

Iqtisodiyot — yunoncha "ekonom" va "oykos" so'zlari birlashmasidan kelib chiqqan bo'lib, "ekonomika" *qishloq xo'jalik asoslari haqida fan* degan ma'noni anglatadi. "Ekonomika" so'zi ommaviy o'zbek lug'atiga o'tilganda "iqtisodiyot" atamasiga o'zgaradi. Iqtisodiyot cheklanmagan ehtiyojlarni, cheklangan resurslardan samarali foydalanib boshqarishni o'rganuvchi fan. U:

– kishilar tomonidan mehnatni qo'llagan holda inson uchun zaruriy bo'lgan ne'matlar, hayot sharoitlari va vositalarini yaratish orqali tirikchilikni ta'minlash, ehtiyojlarni qondirishda foydalaniladigan xo'jalik vositalar, obyektlar, jarayonlar majmui. Ishlab chiqarish, ayriboshlash, taqsimot, iste'mol sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni qamraydi;

– muayyan mamlakatning milliy xalq xo'jaligi yoki uning bir tarmog'i (transport iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqalar;

– xo'jalikning u yoki bu tarmog'ini, mintaqa xo'jaligini, ishlab chiqarishni tashkil etish usullari va shakllarini, shuningdek, ishlab chiqarishni boshqarishni o'rganadigan iqtisodiyot fanlari (sanoat iqtisodiyoti, savdo iqtisodiyoti va boshq.)

#### Bozor iqtisodiyoti

G'arbda bozor iqtisodiyoti deganda, iqtisodiy yechimlar, asosan, markazlashmagan tarzda qabul qilinadigan iqtisodiyot tushuniladi. Bozor iqtisodiyotining faoliyat ko'rsatishi, asosan, bozor mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. G'arb adabiyotida bozorning ko'pgina ta'riflari mavjud. Lekin ularning hammasi shundan iboratki, bozor mustaqil ravishda qarorlar qabul qiluvchi alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, aloqalar shakli hisoblanadi.

Har doim ham bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin bozor bo'lmay, balki raqobatli bozor o'z faoliyatini ko'rsatadi. Uning faoliyat ko'rsatishi uchun dastavval mulkchilikning xilma-xil shakllarini (xususiyl, kooperativ, aksiyadorlik, davlat va boshqalarni) ro'yobga chiqarishini va bozor infrastrukturasini vujudga keltirishini talab etadi.

✦ *E'tibor bering!*

Товар. Bu so'z jonli va jonsiz mol ma'nosida o'zbek va boshqa turkiy tillarda qadimdan ishlatilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" (XI) asarida keltirilishicha, tovar o'g'uz lahjasida ishlatilgan va tovar shaklida bo'lgan. Turk va ozarbayjon tillarida dovar shaklida yuritiladigan bu "tovar" so'zi rus tiliga XII-XIII asrlarda o'zlashgan.

Товарищ. Rus tilidagi bu so'z asli turkiy "tovar" (mol-merek va ish, turkiycha "o'rtoq", "yaqin", "hamkor") so'zidan tashkil topgan va dastlab "savdo qiluvchi o'rtoq, savdodagi hamkor" ma'nolarini bildirgan. U XIV asrdan ishlatila boshlandi, keyinchalik ma'nosi kengaydi. *Товарищ* so'zi "hamkor, hamdam" ma'nolarida ham ishlatila boshlandi.

✦ *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling*  
*pul birligi, Yevropa Ittifoqi, iqtisodiy krizis, kapitalistik davlat, mustamlakachilik, strategiya, hamkorlik, bozor munosabatlari, pul-kredit siyosati, bunyodkorlik*

☞ *Tarjima mashqi*

#### Экономика

Сегодня Узбекистан - член организации Экономического Сотрудничества, Международного валютного фонда и других объединений. Государственный суверенитет молодой республики официально признали многие страны мира. Открыты посольства Франции, Германии, России, Турции, Индии и других стран. Установлены дипломатические отношения более чем с 67 зарубежными странами.

Стержнем внутренней политики является построение рыночной экономики, ориентированной на интересы человека. Только рынок позволяет гармонично сочетать интересы каждого человека, предприятий, отраслей регионов и государства в целом.

Узбекистан сегодня — это составная часть мирового пространства и глобального финансового — экономического рынка.

## Экономическая наука

Слово “экономика” в переводе с греческого означает “управление хозяйством”. Экономика –это особая профессия, определённая сфера трудовой деятельности, которая связана с основными направлениями развития хозяйства. Впервые в научном труде слово «экономика» появляется в IV в. до н. э. у Ксенофонта, который называет её «естественной наукой». В современной философии экономика рассматривается как система общественных отношений, рассмотренных с позиции понятия стоимости. Главная функция экономики состоит в том, чтобы постоянно создавать такие блага, которые необходимы для жизнедеятельности людей и без которых общество не сможет развиваться.

В экономической науке принято деление экономических процессов на следующие уровни:

Микроэкономический уровень - это отдельное домохозяйство, фирма, это экономика страны или региона.

Международный уровень - экономические отношения между странами.

Глобальный уровень - мировая экономика в целом.

🔗 *Grammatik ma'lumot.* Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlar.

Tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishi, dunyoning juda ko'p mamlakatlari bilan turli sohalarda hamkorlikning o'rnatilishi o'zbek tilida yangi-yangi terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Bu yangi terminlar sirasida iqtisodiy terminlarni ham kiritishimiz mumkin va bu terminlar tilimizda o'ziga xos o'rinni egallab kelmoqda.

Shuni aytish kerakki, tilda an'anaviy tarzda qadimdan saqlanib kelayotgan iqtisodiy atamalar bilan zamonaviy iqtisodiy terminlar o'rtasida juda katta farq bor Qadimgi iqtisodiy atamalarning miqdori ancha cheklangan bo'lsa, hozirgi yangi davr, ya'ni bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisod terminlariga ehtiyoj ortishi munosabati bilan iqtisodiy terminlar benihoya boyib bormoqda.

📖 *Diqqatingizni jamlang!*

*Daromad* [foyda, kirim] – savdo-sotiq, mehnat, ishlab chiqarish sohalaridan kelib tushadigan sof pul.

*Baho* [narx, qiymat] – biror narsaning pul bilan o‘lchanadigan qiymati; narx. *Inflatsiya* baholar o‘sishi, aholi turmush darajasining pasayib ketishi tufayli ham yuz beradi.

*Moddiy* – [jism, moddaga oid] - mol va puldan iborat. *Moddiy yordam*.

*Moliyaviy* – moliyaga oid. Pul mablag‘lari va ularni to‘plash, taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan. *Moliyaviy masala*.

*Mablag‘* [naqdina, tayyor pul] - biror narsa yaratish, qurish, o‘tkazish uchun sarflanadigan ma‘lum miqdordagi pul. *Aholi o‘z mablag‘larini pul shaklida tutib turishga bo‘lgan xohishini yo‘qotadi va ularni moddiy ne‘matlarga sarflaydi*.

*Inflatsiya* [lot. inflatio - shishish, ko‘tarilish; bo‘rtib chiqish] - muomaladagi qog‘oz pullar massasining taklif qilinayotgan real tovarlar hajmiga nisbatan haddan tashqari ortib ketishi va pulning qadrsizlanishi, buning natijasida tovar va xizmatlar bahosining ko‘tarilishi, pulning xarid qilish quvvatining pasayishi. *O‘rmalovchi inflatsiya*.

*Ishsizlik* – ishsiz holat, ish bilan ta‘minlanmaganlik. *Inflatsiya mehnatkashlar ahvolining yomonlashuviga olib keladi, ularning hayot darajasini pasaytiradi, ishsizlikni ko‘paytiradi*.

*Kredit* [lot. creditum - qarz< credere - ishonmoq] –foyda qaytarish sharti bilan, vaqtincha foydalanish uchun pul yoki moddiy mablag‘lar berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi; shaxs yoki muassasaning o‘ziga tegishli pullarni hisoblab qo‘yiladigan schyoti; qarz, mablag‘, chiqarilgan pul. *Kredit olmoq*.

*Giperinflatsiya* – shiddat bilan rivojlanuvchi va iqtisodiy halokat, inqiroz xavfini tug‘diruvchi inflatsiya. *Inflatsiyaning yana bir turi – giperinflatsiyadir*.

*Pul* [pul, aqcha] – oldi-sotdi yoki to‘lov muomalalarida narx, baho, qiymat o‘lchovi bo‘lgan metall yoki qog‘oz belgi; aqcha. Pul bo‘lsa, changalda sho‘rva.

*Lokal* [lot. localis - mahalliy] – mahalliy, muayyan joyga xos yoki uning chegarasidan chiqmaydigan. *Lokal inflatsiya – bir mamlakat doirasida inflatsiyadir*.

*Naqd* [qo‘lda bor, mavjud pul] – 1. Pulini darhol to‘lash sharti bilan bo‘lgan yoki bo‘ladigan savdo muomalasi. *Naqdga olmoq*.

*Topshiriq*. Iqtisodiyotga oid so‘z va terminlarning qo‘shib yozilishiga e‘tibor bering va mashqni davom ettiring.



Bojxona, arznoma, shartnoma, talabnoma, kamxarj, umumdavlat, o‘rinbosar, so‘zboshi.....

*Topshiriq.* Quyida berilgan maqollardagi iqtisodiyotga oid so‘zlarning ma‘nosi va qo‘llanishiga e‘tibor bering.

Qimmatda bir hikmat bor,

Arzonda bir illat bor.

Asl aynimas, oltin zanglamas.

Boshing ikki bo‘lmaguncha,

Moling ikki bo‘lmas.

Arzonning sho‘rvasi tatimas.

### **✓ Test topshiriqlari**

1. Atamalar berilgan qatorni toping

a) narvon, shoti, sarlavha

b) o‘lpon, botmon

s) jarida, firqa, ulus

d) kub, kvadrat, integral

2. Qaysi javobda atamalar ta‘rifi berilgan?

a) aytilishi va yozilishi bir xil, ammo ma‘nosi har xil so‘zlar

b) shakli har xil, ammo ma‘nosi bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlar

s) qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar

d) ilm-fan, texnika, san‘at, kasb-hunarga oid so‘zlar

3. Qaysi hujjatda shartnomaning bajarilishiga e‘tiroz bildiriladi?

a) shartnoma

b) axborot xat

s) yo‘llanma xat

d) da‘vo xat

4. Biror narsa yaratish, qurish, o‘tkazish uchun sarflanadigan ma‘lum miqdordagi pul bu -

a) soliq

b) mablag‘

s) daromad

d) kredit

5. *Innovatsiya* so‘zining lug‘aviy ma‘nosini toping.

a) topqirlik

b) yangilik

s) yaratuvchilik

d) bilimdonlik

### **? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz berayotgan yangiliklardan xabardormisiz?

2. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan qanday qo‘shma

korxonalarni bilasiz? 3. Termin umumiste‘moldagi so‘zlardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

4. Iqtisodiy bilimlarni o‘rganishning ahamiyati nimada?

5. Iqtisodiy so‘z va terminlarni tartibga solish qanday amalga oshiriladi?

*Uyga vazifa.* Iqtisodiyotga oid qiziqarli ma‘lumotlarni topib yozish.

### 37- mavzu. Ish yuritish tili va uslubi

#### *O'qish uchun material*

Hujjat – ish yuritishning asosi. O'zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda eng avvalo o'zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma'lum darajada tasavvur etish zarur.



#### Hujjatchilik tarixi

O'zining qadimiy va boy tarixiy an'analariga ega bo'lgan o'zbek davlatchiligi, o'z ish yuritish tarixiga ega. Davlatchilikning boshlang'ich shakllarida, hali yozuv bo'lmagan paytlarda, ma'lum odat tusiga kirgan og'zaki huquqiy me'yorlar asosida ish olib borilgan. Ular yordamida davlatlararo va mamlakat ichidagi, shaxslararo va oilaviy munosabatlar, jinoyatga qarab jazo belgilash, tartib va intizom masalalari yo'lga qo'yilgan. Yozuv paydo bo'lgandan keyingi davrlar mahsuli hisoblanadigan qonun, farmon va farmoyishlar hamda boshqa mazmundagi hujjatlarning amaldagi ko'rinishlari ham aynan ana shu hujjatlarning davomidir. O'zbek davlatchiligining ma'lum bir bosqichi arablar istilosi bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan musulmon huquqi bilan bog'liq bo'lib, u Qur'oni Karim va hadislar shaklidagi urf-odatlarini izga soluvchi hujjatlar majmuini qamrab oladi. Ular uzoq yillar davomida jamiyatni boshqarish va tartibga solishning asosiy ma'naviy-huquqiy hujjatlari bo'lib kelgan. Huquq doirasida amal qiluvchi asosiy hujjatlardan biri – yer egaligi bilan bog'liq bo'lgan *vaqfnomalar* sanaladi. *Vasiqa* ham qadimda keng tarqalgan hujjat turlaridan biri bo'lib, mulkka bo'lgan egalikni bildirib, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy asosga qo'yuvchi hujjat sanalgan va qozilar tomonidan tasdiqlangan. Amir Temur davrida ham soliqqa oid ish yuritish ana shu ko'rsatmalarga asoslangan.

O'rta asrlarda ish yuritish huquqiy maqomga ega bo'ldi, davlat mahkamasida munshaot tizimi shakllandi va qator hujjat turlari paydo bo'ldi. O'zbek tilining rasmiy-idoraviy til sifatida qo'llanishi qoraxoniylar hukmronligi davrida boshlandi.

XX asrdan so'ng o'zbek xonlari va amirlari saroylarida yozilgan turli xil hujjatlar o'ziga xos mazmuni, muayyan tartibi va nutqiy qolipi bilan ajralib turdi.

 *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling*  
*munshaot, yorliq, patta, noma, chopar, munshiy, farmoni oliy, mirzaboshi, devonbegi, mahkama, nutqiy qolip*



## Yodingizda tuting!

*Hujjat* – (arab “guvohnoma, isbot, dalil”) axborot qayd etilgan hamda uni vaqt va makonda uzatish imkonini beruvchi moddiy obyekt.

*Normativ* (me’yoriy) *hujjat* deb faoliyatning har xil turlari yoki ularning natijalariga doir qoidalar, umumiy tamoyillar va xususiyatlarni belgilab beruvchi *hujjat*ga aytiladi.

*Hujjat aylanishi*– *hujjatlarning* muassasada ularning yaratilishi yoki qabul qilinishidan boshlab ijrosi yakunlangunga yoki jo‘natilgunga qadar harakatlanishi demakdir.

*Elektron hujjat* – elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va hujjatni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan axborot.

Hujjatlarni to‘g‘ri va bexato yozish savodxonlik va yozma nutq madaniyati ko‘rsatkichidir. Yozma nutqning rasmiy uslubida, asosan, quyidagi munosabatlar doirasidagi hujjatlar tuziladi:

1. Huquqiy munosabatlarga oid: qonun, fuqarolik va jinoyat aktlari, nizom, shartnoma va boshqalar.
2. Idoraviy-ma‘muriy shaklga oid: dalolatnoma, buyruq va farmoyishlar, turli ish qog‘ozlari (ariza, tavsiyanoma, tilxat, ma‘lumotnoma kabi).
3. Diplomatik munosabatlarga doir: bayonot, nota, bitim, memorandum va boshqalar.

*Topshiriq.* Quyidagilar ishtirokida gaplar tuzing.

|                    |   |                        |
|--------------------|---|------------------------|
| guvohlik berish    | — | свидетельствовать      |
| hissiy             | — | эмоциональный          |
| hujjat aylanishi   | — | документооборот        |
| hujjatlashtirish   | — | документирование       |
| kirish hujjatlari  | — | входящая документация  |
| ko‘rsatkich        | — | показатель             |
| ish faoliyati      | — | трудовая деятельность  |
| mansabdor shaxs    | — | должностное лицо       |
| muassasa           | — | учреждение             |
| tadbirlar majmuasi | — | комплекс мероприятий   |
| tamoyil            | — | принцип                |
| tarixiy manba      | — | исторический источник  |
| tezkorlik          | — | оперативность          |
| tizimlashtirish    | — | систематизация         |
| chiqish hujjatlari | — | исходящая документация |

**?** *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:*

1. O‘zbek hujjatchiligi tarixidan nimalarni bilasiz?
2. Hujjat yuritish ishlarini o‘rganish nima uchun kerak?
3. Rasmiy-idoraviy nutq uslubining o‘ziga xos tomonlari nimada?

*Uyga vazifa .* Ish yuritish terminlarining lug‘atini tuzish.

Hujjatlar tarixi mavzusida matn tuzing.

### 38-mavzu. Hujjat turlari va xususiyatlari

#### O'qish uchun material

Har qanday hujjat muayyan axborotni u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi, demak, har qanday hujjatdagi birlamchi va asosiy unsur — bu tildir.

Hujjatlarning sof o'zbek tilidagi yagona andazalarini yaratish, ular bilan bog'liq atamalarning bir xilligiga erishish borasida ish olib borish lozim. Mukammal va oqilona tashkil etilgan hujjatchilik har qanday idoradagi ish yuritishning asosi hisoblanadi.

➤ Hujjatlar *mazmuniga ko'ra* ikki turli bo'ladi :

1. Sodda hujjatlar ( muayyan dir masalani o'z ichiga oladi)
2. Murakkab hujjatlar ( ikki yoki undan ortiq masalani o'z ichiga oladi).

➤ Ish yuritish hujjatlari *qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra* to'rt guruhga bo'linadi:

1. Tashkiliy hujjatlar (guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma va boshqalar)
2. Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish)
3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimai hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar)
4. Xizmat yozishmalari (taklifnoma, telegramma, xatlar).

➤ Hujjatlar *mazmun bayonining shakliga ko'ra* uch turli bo'ladi :

1. Xususiy hujjatlar
2. Namunaviy hujjatlar
3. Qolipli hujjatlar.

Xususiy hujjatlarga fuqarolardan kelib tushgan ariza va shikoyatlar, ularning asosida olib boriladigan xizmat yozishmalari misol bo'ladi. Ular aksariyat hollarda ayni bir vaziyat va holatni izohlab, tushuntirib berish maqsadida yoziladi.

Namunaviy hujjatlar sirasiga ish yuritish sohasiga oid hujjatlarning aksariyati, ya'ni har bir tashkilot va uning bo'linmalari uchun zaruriy bo'lgan bildirgi, xizmat ma'lumotnomasi, tavsifnoma, majlis bayoni kabi belgilangan tartibda tuziladigan hujjatlar kiradi.

Qolipli hujjatlarning ko'plab turlari mavjud, ular soha faoliyatini osonlashtiradi, vaqt va moddiy resurslarni tejashga imkon beradi, ish jarayonida qulaylikni oshiradi.

Rekvizit deb hujjatni rasmiylashtirishning majburiy elementiga aytiladi. Rekvizitlar hujjatda qat'iy tartibda joylashtiriladi. Bu

hujjatning huquqiy kuchini ta'minlaydi. Hujjat rekvizitlarining asosiy turlari quyidagilardir:

1. O'zbekiston Respublikasining gerbi.
2. Vazirlik yoki yuqori idoraning nomi.
3. Tashkilot yoki muassasa nomi.
4. Tarkibiy tarmoqning nomi.
5. Aloqa muassasasining shartli raqami (*indeksi*), tashkilot manzili, telefon raqami, faks raqami.
6. Elektron pochta manzili.
7. Matn sarlavhasi.
8. Sana.
9. Hujjatga beriladigan shartli raqam (*indeks*).
10. Kelgan hujjatning sanasi va shartli raqamiga havola.
11. Tuzilgan yoki nashr qilingan joyi.
12. Hujjat loyihasini tayyorlagan bo'linmaning shartli raqami.
13. Hujjatni oluvchi (*adresat*).
14. Tasdiqlash ustxati.
15. Munosabat belgisi (*rezolutsiya*).
16. Hujjat turining nomi.
17. Nazorat haqida qayd.
18. Matn.
19. Ilova mavjudligi haqida qayd.
20. Imzo.
21. Kelishuv ustxati.
22. Rozilik belgisi (*viza*).
23. Muhr.
24. Nusxaning tasdiqlanishi haqidagi qayd.
25. Ijrochining familiyasi va telefon raqami.
26. Hujjatning bajarilganligi va uni uning hujjatlar yig'majildiga yo'naltirilganligi haqidagi qayd.
27. Axborot ichki serverga joylashtirilganligi haqidagi qayd.
28. Hujjat kelib tushganligi haqida qayd.

Hujjat tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

1. Hujjatlarning aksariyati A4 formatdagi qog'ozda tayyorlanadi, umumiy tarzda qabul qilingan shaklda va ma'lum tartibda tuziladi.
2. Hujjatning yaxlit va uzluksiz matni uni tusunishni qiyinlashtiradi, shuning uchun matnni mazmun jihatdan abzas (xat boshi) larga bo'lish maqsadga muvofiq.

3. Ish hujjatlarida yakka shaxsga murojaat qilinganda “Siz” kishilik olmoshi bosh harf bilan yoziladi.

4. Sonlar ish hujjatlarida raqamlar bilan yoziladi. Pul bilan bog‘liq hujjatlarda (dalolatnoma, ishonchnoma, tilxat) – raqamlar va qavs ichida so‘zlar bilan ifodalanadi.

5. Tartib son arab raqami bilan ifodalanganda *-nchi (-inchi)* qo‘shimchasi o‘rnida chiziqcha qo‘yiladi: *2-kurs, 3-chorak*. Tartib sonni rim raqami yordamida ifodalashda chiziqcha qo‘yilmaydi, biroq o‘qilganda *-nchi (-inchi)* tarzida talaffuz qilinadi: *II kurs, III chorak*.

6. Tartib sonlar arab raqami bilan ifodalanib, sanani bildirsa, imlo qoidalariga ko‘ra chiziqcha qo‘yiladi: *2016-yil 6-sentabr*. Shuningdek, hujjatning sanasini 06.09.16. tarzida ifodalash ham mumkin.

7. Hujjatlarni imzolashda o‘rnatilgan qoidalarga rioya qilish lozim: avval hujjatni imzolaydigan mansabdor shaxsning lavozimi, maxsus unvoni, so‘ngra ismi va familiyasi yoziladi hamda imzo qo‘yiladi.

8. Hujjatlarda qisqartmalarni qo‘llash ularning hajmi qisqarishiga va ulardagi ma’lumotlarni qabul qilishni tezlashtirishga yordam beradi.

*Topshiriq.* “BBB” texnologiyasi yordamida mavzuni mustahkamlang.

*Topshiriq.* Berilgan nutqiy qoliplar hujjat guruhlarining qaysi turlarida qo‘llanishini aniqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*...lavozimga tayinlansin*

*...ga ruxsat berishingizni so‘rayman*

*buyruq ijrosini nazorat qilish ... zimmasiga yuklatilsin*

*fursatdan foydalanib, yana bir bor ...muborakbod etamiz*

*hurmat va ehtirom bilan*

*...ga tavsiya etiladi*

*... yilda ... ni tamomladim*

*... imzosini tasdiqlayman.*

 *Maqollarni yod oling*

Ilm bir xazina bo‘lsa, bu xazinaning kaliti savoddir.

Ilm kelinchakka o‘xshaydi, u hikmat va pinhonlikni yoqtiradi.

Ilm — inson ziynati.

Qog‘ozga tushirilmagan ilm unutilib ketadi.

*Uyga vazifa.* Quyidagilarni tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Выдать удостоверение, ответственность за хранение, предъявить документ, утеря личного удостоверения, реквизиты удостоверения, подпись руководителя.

## 39-mavzu. Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari

### *O'qish uchun material*

Har qanday tashkilotning faoliyati hujjatlarning turli ko'rinishlarida o'z aksini topadi. Tashkiliy hujjatlar o'zaro bog'liq hujjatlar majmui bo'lib, quyidagilarni qat'iy belgilab beradi:

- tashkilot, muassasa yoki korxonaning strukturasi (tuzilishi) va vazifalari;
- ularning ish faoliyatini qanday tashkil qilish;
- ularning rahbariyati hamda xodimlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.

Tashkiliy hujjatlarda, shuningdek, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalar ham aks etadi.

Tashkiliy hujjatlarning turlariga nizom, ustav, shartnoma, ta'sis shartnomasi, yo'riqnoma, lavozim yo'riqnomasi, shtat jadvali, mehnat tartiboti qoidalari, xizmat guvohnomasi, xizmat safari guvohnomasi va boshqalar kiradi.

Ikki va undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish yo'lidagi kelishuv shartnoma deyiladi. Shartnoma davlat yoki nodavlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, shuningdek, fuqarolar o'rtasida tuzilishi mumkin. Unda hujjatni imzolagan tomonlar bajarishi lozim bo'lgan shartlar va boshqa majburiyatlar ko'rsatiladi.

Nizom – tashkilot yoki uning tarkibiy bo'linmalari tuzilishi, huquqlari, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilishlari tartibotini belgilaydigan huquqiy hujjat. Nizomning asosiy zaruriy qismlari quyidagilardir:

1. Tasdiqlash ustxati.
  2. Muassasa (tarkibiy qism) nomi.
  3. Hujjat nomi (Nizom).
  4. Hujjat matni:
    - muassasa tuzilishining maqsad va vazifalari;
- asosiy vazifalari;
- muassasa tuzilishi (strukturasi);
  - muassasaning huquqlari;
  - muassasada ishni tashkil qilish tartiboti.



5. Sana va joy.

Yo'riqnoma qonun yoki boshqa normativ hujjatlarni tushuntirish maqsadida tuziladigan huquqiy hujjat bo'lib, davlat organlari tomonidan chiqariladi.

Yo'riqnomaning zaruriy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Tasdiqlash ustxati.
2. Yo'riqnoma tuzilgan vaqt (sanasi) va uning tartib raqami, shartli raqami (indeksi).
3. Hujjatning sarlavhasi, nomi (Yo'riqnoma).
4. Matn:
  - 1) kirish qismi;
  - 2) bo'limlar va kichik bo'limlar;
  - 3) yakuniy qism.
5. Yo'riqnoma tuzuvchining lavozimi, ismi, familiyasi, imzosi.

✍ *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar tuzing.*

✍ *Berilgan so'z va iboralarning ma'nosini bilib oling  
mablag', majburiyat, ma'muriyat, moddiy javobgarlik, nizom,  
yo'riqnoma, indeks*

*Topshiriq.* Quyidagi so'zlar va jumlar ishtirokida gaplar tuzing:  
topshirilsin, tasdiqlansin, bajarilsin, bo'shatilsin, tayinlansin; eshitildi,  
qaror qilindi, ko'rib chiqildi, ko'rsatib o'tildi

*Topshiriq.* Quyidagi nutqiy qoliplar ishtirokida gaplar tuzing.  
qabul qilishingizni so'rayman, ozod etishingizni so'rayman, ruxsat  
berishingizni so'rayman, buyruqqa asosan, betobligim tufayli

*Topshiriq.* Mehnat shartnomasidan tayanch so'zlarni ajratib yozing.

*Uyga vazifa.* Oliy ta'lim muassasasi Nizomi bilan tanishib chiqing.

## 40-mavzu. Farmoyish hujjatlari va ularning turlari

### O'qish uchun material

Farmoyish hujjatlari asosan tashkilot rahbarining buyruq, ko'rsatma, farmoyishlari asosida yuzaga keladi. Farmoyish hujjatlarida vazirlik, idora, tashkilot faoliyatiga oid ma'muriy va tashkiliy masalalarning yechilishi belgilab beriladi. Bunday hujjatlar tashkilot faoliyatini boshqaradi va muvofiqlashtiradi, boshqaruv organiga uning oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishni ta'minlash imkonini beradi.

Farmoyish hujjatlari boshqaruv tizimi bo'yicha yuqoridan quyiga: boshqaruvchi organdan boshqariladigan organga, tashkilot rahbaridan tarkibiy tuzilmalar va xodimlarga yo'llanadigan qarorlarni o'z ichiga oladi. Buyruq – muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo'llanadigan hujjat bo'lib, muassasa rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchi muavin tomonidan imzolanadi. Buyruqlarning ikki turi mavjud: asosiy faoliyatga oid va shaxsiy tarkibga oid buyruqlar. *Asosiy faoliyatga oid buyruqlar* ishni tashkil qilish, muassasa yoki uning bo'limlari faoliyatini tartibga solishda qo'llanadi. Ularda, odatda, yuqori tashkilotlardan kelgan ko'rsatmaviy hujjatlar xodimlarga yetkaziladi, ularning ijrosi yuzasidan aniq tadbir-choralar belgilanadi, mas'ul shaxslar va bajarish muddati tayinlanadi.

Buyruqning asosiy matni asoslovchi (kirish) va farmoyish qismlaridan tarkib topadi. Asoslovchi qismda buyruqdan maqsad, shart-sharoitlar, sabablar ko'rsatiladi, asos qilib olinayotgan buyruqqa havola qilinadi (nomi, raqami, sanasi yoziladi). *Kadrlarning shaxsiy tarkibiga oid buyruqlar* biror xodim ishga qabul qilinganda yoki bo'shatilganda, boshqa bo'limga o'tkazilganda, shuningdek muayyan xodimga nisbatan rag'batlantirish yoki intizomiy jazo choralari qo'llanganda, xodimga mehnat ta'tili berilganda va shu kabi hollarda beriladi. Bunday buyruqlarga tarkibiy tuzilma rahbarining taqdimnomasi, shaxsiy ariza hamda bildirgilar, xizmat tekshiruvi xulosalari va shu kabilar asos bo'ladi.

### **?** Yodingizda tuting!

Farmoyish – boshliq, uning o'rinbosarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjat. Odatda, farmoyishlarda harakat muddati cheklangan bo'lib, biror-bir bo'lim, ayrim mansabdor shaxslar va fuqarolarga taalluqli bo'ladi. Farmoyish matni, xuddi buyruqdagi kabi zaruriy qismlardan tarkib topadi, faqat uning asos

qismida “BUYURAMAN” so‘zi o‘rniga “TALAB QILAMAN”, “TAVSIYA QILAMAN”, “RUXSAT BERAMAN” kabi iboralar ishlatiladi. Ko‘rsatma – idoralarda axborot-metodik tushdagi masalalar, shuningdek buyruqlar, yo‘riqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog‘liq tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjat. Ko‘rsatmalarga birinchi rahbar, ularning o‘rinbosarlari imzo chekish huquqiga ega. Ko‘rsatma muassasaning xos ish qog‘oziga bosiladi. U ham buyruq kabi odatda, sarlavha bilan yoziladi, asos (kirish) va farmoyish qismlaridan tarkib topadi.

### **? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Farmoyish hujjatlari qanday vazifani bajaradi?
2. Farmoyish hujjatlarining uslubida qanday xususiyatlar mavjud?
3. Buyruq matni qanday qismlarga bo‘linadi?

### **Topshiriq.**

1. Quyidagi so‘zlarni zarur grammatik shakllarga qo‘yib, rasmiy uslubga xos gaplar tuzing.

eshitmoq, qaror qilmoq, ma’lumot bermoq, bo‘lim boshliqlari, tavsiya qilmoq, faol ishtirok etmoq, hurmatli, guruh rahbari, tashrif buyurmoq, qonunga binoan, ilova qilmoq, nazorat qilmoq, kasaba uyushmasi, javob yozmoq, navbatchilik qismi, taklif kiritmoq, ruxsat bermoq

2. Quyidagi hikmatli so‘zlarni o‘qib, mazmunini sharhlab bering.

*Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur.*  
(Mahmudxo‘ja Behbudiy)

*Aql kirishi uchun aql tishi chiqishini kutib o‘tirish shart emas.*  
(O‘tkir Hoshimov)

**Topshiriq.** Ish yuritish hujjatlari ro‘yxatini klaster shaklida tasniflang.

### **🌀 Tarjima mashqi**

Утвердить положение, организовать изучение приказа, обеспечить исполнение, усилить контроль и требовательность, возложить на инспектора Валиева, объявить выговор, принять все необходимые меры, представить на утверждение Учёного совета института, утвердить состав комиссии в следующем порядке, контроль за исполнением возложить на ... .

*Uyga vazifa.* Quyidagi Farmonning to‘liq matnini o‘qib, Farmoyish hujjatlarida qo‘llanadigan tayanch so‘zlarni yozib keling.

«Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF - 5106-sonli farmoni

... Mamlakatimizda mustaqillik yillarida yoshlarni ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va yangi yuksak sifat bosqichiga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O‘zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati negizida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun 30-iyun sanasi mamlakatimizda “Yoshlar kuni” sifatida nishonlanadi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog‘liq bir qator yangi va muhim vazifalar qo‘yildi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta’minlovchi, “Yoshlar – kelajak bunyodkori” shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaga aylanadi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli idoralar faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish, natijasi bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqining huquqiy va amaliy vakolatlari kengaytirildi, tegishli imkoniyat va imtiyozlar berildi.

.....O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida Yoshlar siyosati masalalari xizmati tashkil etilib, unga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo‘yicha Davlat maslahatchisi – O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi

rahbarlik qilishi belgilandi. Yoshlar siyosati masalalari xizmati O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi faoliyatini samarali tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunida belgilangan vazifalarning to‘laqonli ijrosini tashkil etish va nazorat qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining bu boradagi faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish, ularga g‘oyaviy-uslubiy yordam ko‘rsatishni tashkil etish, sohaga oid qonun hujjatlari va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshiradi. ....

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI**

**SH.MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri, 2017-yil 5-iyul

## 41-mavzu. Ma'lumot-axborot hujjatlari

### O'qish uchun material

Ma'lumot-axborot hujjatlari muayyan qarorlarni qabul qilishga undaydigan ma'lumotlarni yetkazadi. Ma'lumot-axborot hujjatlari idoraviy hujjatlarning katta guruhini tashkil qiladi. Ularning xususiyati shundaki, hujjatlar boshqaruv tizimida quyidan yuqoriga: xodimdan bo'lim rahbariga, bo'lim rahbaridan muassasa rahbariga, quyi tashkilotdan yuqori tashkilotga qarab harakatlanadi. Ma'lumot-axborot hujjatlariga ariza, bayonnoma, bildirgi, dalolatnoma, e'lon, faksogramma, hisobot, ishonchnoma, ma'lumotnoma, taklifnoma, tarjimayi hol, tavsifnoma, tavsiyanoma, tushuntirish xati va boshqalar kiradi.

*Tarjimayi hol*– ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati bayon qilingan hujjat. Tarjimayi hol bir xil andozada yozilishi shart emas. U muallif tomonidan mustaqil, erkin (ixtiyoriy) shaklda tuzilsa-da, biroq unda ayrim rekvizitlarning bo'lishi shart. Hujjat matni “men” so'zi bilan boshlanadi. Tarjimayi holda o'tgan va hozirgi zamon fe'llari ishlatiladi. Unda dastlab *Tarjimayi hol* deb yoziladi, keyin muallifning ismi, familiyasi va otasining ismi to'liq ko'rsatiladi, tug'ilgan yili, kuni, oyi va joyi ham aniq yoziladi. Otalar haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Shundan so'ng qayerlarda, nima ishlar qilinganligi to'g'risida batafsil, yilma-yil yoziladi, oilaviy ahvoli va turar joyi haqida ma'lumot beriladi. Oxirida yozilgan sana ko'rsatilib, imzo chekiladi.

*Bildirgi* – muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot.

*Tavsifnoma* – ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek, uning o'ziga xos xislati va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat. Unda shaxsning mehnat faoliyati qisqa bayon qilinib, jamoat ishlarida ishtiroki, mehnat jamoasidagi o'rnini, lavozim vazifalarini ado etish sifati, tashkilotchilik qobiliyati, axloqiy sifatleri va boshqa jihatlari ko'rsatib o'tiladi.

*Topshiriq* . So'zlarni o'z o'rniga qo'ying va gapni to'g'ri tuzing.

1. yoziladi, korxonalarda, shaxsiy tarkibiga oid, blankalarda, kadrlarning, buyruqlar, ko'p, maxsus.

2. huquqiy, boshqa, aks, muassasa, hujjatlar, mazmunan, huquqiy tashkilot, kabi, va maqomi, tashkilotlar, ettiradi, masalalarni, bilan, aloqalarning, tashkiliy, tomonlari, korxonalarning.

*Topshiriq.* Ma'lumot-axborot hujjatlarining turlarini klaster shaklida tasniflang.

*Topshiriq.* Ikki kichik guruhga bo'lining. Har bir guruh boshqa guruhga ham tanish bo'lgan shaxsning tarjimai holiga oid ba'zi ma'lumotlarni yozadi va boshqa guruhga o'qib beradi. Ushbu ma'lumotlar bo'yicha tarjimai hol kimga tegishli ekanligi aniqlanadi.

### *Tarjima mashqi*

Общественный, выдвижение на должность, заверяется, функциональные обязанности, награда, поощрение, морально-деловые качества, личная инициатива, основательно, эффективно, старательно, небрежность, недобросовестный, безответственно, работоспособность, выносливый, сохраняет присутствие духа, нагрузки, высокое чувство ответственности.

*Topshiriq.* Shaxsni tavsiflashda qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarini yozing. Ular ishtirokida do'stingiz faoliyatiga haqqoniy tavsif bering.

*Namuna:*

Mehnatsevar. U mehnatsevar, o'z kasbini yaxshi ko'radi.

### *Hujjat namunalari bilan ishlash*

Tarjimai hol

Men, Karimov Salim Oqilovich, 1970- yilda Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on (hozirgi Nurobod) tumaniga qarashli Ulus qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilganman. Otam – Karimov Oqil va onam – Karimova Zebo vafot etishgan. 1977-1987-yillarda Kattaqo'rg'on (keyinchalik Pastdarg'om) tumanidagi 100-o'rta maktabda o'qiganman, 1992-yilda Samarqand Davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetini tugatganman.

Mehnat faoliyatim ofitserlikdan boshlangan. 1992-1994- yillarda Sovet Armiyasi safida xizmatda, 1994-1995- yillarda Pastdarg'om tumanidagi №99-o'rta maktabda o'qituvchi, 1997-1999- yillarda Sovetobod (hozirgi Nurobod) tumanida ijroiya qo'mita tashkilotchi instruktori, 1999-2003-yillarda SamDU tahrir-nashriyot bo'limida

muharrir, katta muharrir, bo'lim boshlig'i, 2004-2007-yillarda Samarqand viloyati qo'mitasida instruktor, lektor, sektor mudiri vazifalarida ishladim.

2007-2009- yillarda SamDU qoshida doktoranturani o'tadim. 2009- yildan hozirgacha universitet o'zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri va professori vazifasida ishlab kelyapman.

O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolariga bag'ishlangan 2005- yilda nomzodlik, 2010- yilda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilganman. Shu paytga qadar 10 dan ortiq monografiya, o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalar matni, lug'atlar hamda 50 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalarim nashr etilgan.

Oilaliman, 3nafar farzandim bor.

Manzil...

S.Karimov.....

2012- yil 20- yanvar

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Ma'lumot-axborot hujjatlarining vazifalari nimalardan iborat?
2. Tarjimayi holda nimalarga e'tibor beriladi?
3. Bildirgi qanday hujjat hisoblanadi?
4. Tavsifnomaning o'ziga xos xususiyatlari nimada?

*Uyga vazifa.* Tarjimayi hol namunasini o'rganib, tarjimayi holingizni yozing.



## 42- mavzu. Ishonchnoma. Tilxat. Tushuntirish xati

### O'qish uchun material

*Ishonchnoma* – inson faoliyati jarayonida shunday paytlar bo'ladiki, alohida bir kishi, tashkilot yoki muassasa boshqa bir shaxs, tashkilot yoki muassasa bilan bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarini amalga oshirishda, oldi-berdi qilishda vositachilik qiladigan boshqa shaxslarning ko'magiga muhtoj bo'ladi. Ana shu vositachilikni qonun-qoidalar yordamida amalga oshirish maqsadida ularning qo'liga ishonch qog'ozi – ishonchnoma beriladi. Ishonchnomani olgan kishi boshqa bir shaxs, tashkilot yoki muassasa oldida uni berganlar nomidan ish ko'rish huquqiga ega bo'ladi.

Faoliyat qamrovidan kelib chiqib, ishonchnomalar ikki xil bo'ladi: xizmat doirasidagi ishonchnomalar va shaxsiy ishonchnomalar. Davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasida ish yuritishda foydalaniladigan ishonchnomalar xizmat doirasidagi, bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga biron bir vazifani bajarishga o'z nomidan vakil etib tayinlanganini tasdiqlovchi hujjat esa shaxsiy ishonchnoma ma'nosida qo'llanadi.

Xizmat doirasidagi ishonchnomaning faoliyat doirasi keng bo'lib, ular asosan boshqa joydan pul yoki moddiy buyumlar olib kelish maqsadida beriladi. Ular odatda maxsus blankalar – namunaviy shakllar bosilgan ish qog'ozida rasmiylashtiriladi. Ishonchnoma moliyaviy hujjat sanalgani tufayli uning namunadagi barcha o'rinlari aniq va savodli to'ldirilishi, tuzatishlar kiritilmagan bo'lishi lozim. Shaxsiy ishonchnomalar asosan xodimning o'zi borib olishi imkoni bo'lmagan paytlarda boshqa bir kishiga maoshi yoki nafaqasini olish uchun beriladi. Bunday ishonchnomalar o'ziga tegishli bo'lgan hujjatlarni olib kelish uchun berilishi ham mumkin.

Xizmat doirasidagi ishonchnomaga tashkilot rahbari va uning bosh hisobchisi tomonidan imzo chekilsa, shaxsiy ishonchnoma davlat notariusi yoki xodim ishlab turgan tashkilot, muassasa rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Ishonchnoma *Ishonchnoma* deb yozilgan so'z, ishonch bildiruvchining to'liq nomi, familiyasi va otasining ismi, lavozimi, ishonchnomaning mazmuni, amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifa va uning kim yoki qaysi tashkilot yoki muassasa bilan amalga oshirilishi, ishonch bildiruvchining imzosi va uni tasdiqlovchi muhr, berilgan vaqti va amal qilish muddati kabi zaruriy qismlardan iborat bo'ladi. Shaxsiy ishonchnomalar esa qo'lda

yozilishi hamda davlat notariusi va tashkilot rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi bilan ma'lum darajada xizmat doirasidagi ishonchnomalardan farq qiladi. «Ish yuritish» qo'llanmasining mualliflari ishonchnomaning mulkni boshqarish va mulk huquqini olish, uy-joy sotish va sotib olish, ish haqi, nafaqa va shaxsiy jamg'armadagi pullarni olish, avtotransportdan foydalanish va uni sotish huquqini beradigan turlari mavjud ekanligini qayd etishadi (Aminov M. va boshq. Ish yuritish. – T.:O'zME, 2000, 218-223-betlar). *Ishonchnoma* orqali muayyan muassasa yoki shaxs ikkinchi bir shaxsga o'z nomidan ish ko'rish uchun ishonch bildiradi. Ishonchnomalar yordamida: mol-mulkni boshqarish, pul va moddiy buyum, boyliklarini olish, sud idoralarida ish olib borish va boshqa ishlarni amalga oshirish mumkin. Ushbu ish-harakatlarni bajarishga vakolat kim tomonidan berilsa (muassasa tomonidan yoki ayrim shaxs tomonidan) shunga ko'ra ishonchnomalar rasmiy (xizmat) va shaxsiy turlarga bo'linadi.

*Tilxat* – pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoki boshqa biror narsa olinganligini, shuningdek, ma'lum bir majburiyatlarning bajarilishini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat. Tilxatlarning aksariyati qarzga pul olishda, mol-mulkni saqlashga topshirishda, oldi-sotdi ishlarini rasmiylashtirishda tuziladi. Yuridik jihatdan to'g'ri tuzilgan tilxatdan zarur hollarda sud jarayonida foydalanish mumkin. Tilxat qo'lda yoziladi, bir nusxada tayyorlanadi va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi. Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan ko'rsatiladi, qavs ichida esa so'zlar ham berilishi shart. Tilxat notarial idorada tasdiqlanmaydi, shu bois tilxatni tuzish jarayonida bir necha guvoh ishtirok etadi.

Tilxatning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tilxat).

2. Matn:

a) tilxat beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi;

b) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsani beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi (zaruriyat bo'lganda muassasa nomi);

d) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsaning nomi va ularning miqdori (zaruriyat bo'lganda bahosi);

e) olinayotgan buyumning texnik holati (agar u mashina, apparatlar va sh. k. bo'lsa).

3. Tilxat berilgan sana.

4. Tilxat muallifining imzosi.

5. Guvohlarning familiyasi, ismi, otasining ismi; yashash manzili va imzosi.

*Tushuntirish xati.* Xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa yoki bo'lim rahbariga yoxud yuqori tashkilotga yo'llanuvchi hujjat tushuntirish xati deb ataladi. Tushuntirish xati ichki va tashqi xususiyatga ega.

Ichki (shaxsiy) tushuntirish xatlari asosan xodim yoki tinglovchi tomonidan, ba'zan bo'linmalar rahbarlari tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Tashqi tushuntirish xati yuqori tashkilotga yuboriladi va ko'pincha biror asosiy hujjat (rejalar, hisobotlar, loyihalar) ga ilova tarzida bo'lib, mazkur hujjatni umuman yoki uning ba'zi o'rinlarini qisman izohlab, tushuntirib beradi. Bu xildagi tushuntirish xati, shuningdek muassasada bo'lib o'tgan voqea-hodisaga, rahbarning muayyan xatti-harakatiga, rejalashtirilgan ishlarning bajarilmay qolishiga ham izoh beradi yoki dalillaydi.

*Topshiriq.* Quyidagi nutqiy qoliplar ishtirokida gaplar tuzing.

... qabul qilishingizni so'rayman, ... ta'minlashingizni so'rayman, ... ozod etishingizni so'rayman, ... ruxsat berishingizni so'rayman, ... topshirig'ingizga binoan, ... buyruqqa asosan, betobligim tufayli, ... rejasiga muvofiq, ... muddatini uzaytirib berishingizni so'rayman.

*Topshiriq.* Matnni tartib bilan yozing. Natijada tilxat namunasi hosil bo'lsin.

Talabalar ilmiy-amaliy anjumani o'tkazilishi munosabati bilan ... Tilxat. Men, "Kimyo" fakulteti talabasi Aminov Rustam, ... Kitoblarni anjuman tugagandan so'ng keltirib topshirish majburiyatini zimmamga olaman. (imzo). ... institut kutubxonasidan... R.Aminov. Institut hayoti va faoliyatini yorituvchi burchak tashkil etish maqsadida... Institut professor-o'qituvchilari tomonidan chop etilgan 30 (o'ttiz) dona kitob oldim. (Ro'yxat ilova qilinadi).

### *Tarjima mashqi*

Доверяю, получить в кассе института, получить деньги (заработную плату), почтовый перевод на имя, подпись, подпись заверяю. Доверенность от имени юридического лица, доверенность на заключение договора, наименование и местонахождение организации, уполномочить сотрудника,

действовать на основании устава организации, заключать договоры, выполнять все необходимые действия.

\*\*\*

Я, Валиев Равшан Рустамович, проживающий по адресу: г. Ташкент, ул. Тинчлик, дом 5, кв. 57, паспорт АА 345678, получил 3000000 (три миллиона) сум от Хасанова Музаффара Азимовича, проживающего по адресу: г. Ташкент, ул. Тинчлик, дом 1, кв. 4. Сумма займа должна быть возвращена до 10 апреля 2016 года.

Число .....

Подпись.....

### **Hujjat namunalari bilan ishlash**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi  
O‘zbekiston Milliy universiteti  
O‘zbek filologiyasi fakulteti  
dekani N.Jabborovga  
2-kurs talabasi N. Komilovadan

### TUSHUNTIRISH XATI

2016 -yilning 13- yanvar kuni ertalab 87- avtobus kechikib kelganligi sababli 1-juftlik darsiga kela olmadim. Bu kamchilikni boshqa takrorlamaslikka harakat qilaman.

N. Komilova (imzo)

13.01.2016

**? Berilgan savolga FSMU jadvali yordamida javob bering:**

Talabaning tavsifnomasida uning ijobiy xislatlari bilan bir qatorda salbiy jihatlarini ham ko‘rsatish shart deb hisoblaysizmi?

*Uyga vazifa.* Qimmatbaho buyum olganligingiz haqida tilxat hamda darsga kelmaganligingiz sababini ko‘rsatuvchi tushuntirish xati matnini yozing.

### 43-mavzu. Dalolatnoma. Ma'lumotnoma

#### O'qish uchun material

*Dalolatnoma.* Hujjatning bu turi ilgari *akt* deb yuritilgan bo'lib, ish jarayonida xodim yoki tashkilot va uning bo'linmalari faoliyatida biron bir voqea-hodisaning yuz berganligini tasdiqlash maqsadida tuziladi hamda bir necha kishi, asosan shu ishga aloqador bo'lgan mas'ul xodimlar tomonidan imzolanadi. Agar u tekshirish natijalariga ko'ra tuzilsa, bir kishi – taftishchi yoki nazoratchi tomonidan imzolanishi ham mumkin. Dalolatnoma ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, ayniqsa moliya va hisob-kitob ishlarini yo'lga qo'yishda, umuman pul va materiallar hisob-kitobi bilan bog'liq holatlarda keng qo'llaniladi.

«Dalolatnomalar tegishli taftish o'tkazilgandan keyin, rahbarlik almashtirilayotganda, moddiy boyliklarni bir xususiy yoki yuridik shaxsdan ikkinchisiga o'tkazishda, qurib tugallangan inshootlarni qabul qilishdan oldin va keyin, mashina va uskunalarning yangi nusxalarini sinovdan o'tkazish chog'ida, qimmatbaho buyumlarni hisobdan o'tkazish yoki hisobdan chiqarishda, tovarlarni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olishda, baxtsiz hodisalar yoki tabiiy ofatlar oqibatlarini tekshirishda, sud-tergov ishlari va tibbiyot sohasida, xodimlarning moddiy, yashash jarayonlarini o'rganishda va boshqa hollarda tuziladi» (*Aminov M. Ish yuritish. – T.:O'zME, 2000, 186-bet*).

*Dalolatnoma* – muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron-bir bo'lib o'tgan (sodir bo'lgan) voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat. Dalolatnoma tuzishdan asosiy maqsad – sodir bo'lgan voqea-hodisalarni yoki mavjud holatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir.

Dalolatnomaning zaruriy qismlari:

1. Tashkilot, muassasa va tarkibiy bo'linmaning nomi.
2. Tuzilgan sanasi va joyi.
3. Tartib raqami va tasdiq belgisi (zarur hollarda).
4. Matn sarlavhasi.
5. Hujjat turi nomi (Dalolatnoma).
6. Hujjatni tuzish uchun asos (tashkilot rahbarining buyrug'i, idoraning qarori yoki ko'rsatmasi kabilar).
7. Komissiya tarkibi (raisi va a'zolar).
8. Ishtirok etuvchilar (guvohlar).

9. Dalolatnoma matni.
10. Ilovalar (har bir ilovaning necha betligi ko'rsatiladi).
11. Dalolatnomani tuzgan va ishtirok etgan shaxslarning imzolari.
12. Ijro haqidagi belgi.

Dalolatnomalar voqea-hodisalarni haqqoniy aks ettirish maqsadida bir necha shaxslar (tashkilot rahbarining buyrug'i bilan komissiyalar, doimiy komissiyalar) yoki maxsus vakolatli yakka shaxs (taftishchi, nazoratchi) tomonidan tuziladi. Keyingi holatda va, umuman, dalolatnoma yakka shaxs tomonidan tuzilganda, guvohlarning ishtirok etishi va imzosi bo'lishi shart.

*Ma'lumotnomada* bo'lgan voqea yoki mavjud holatlar bildirish-axborot berish mazmunida ifodalanadi. Ma'lumotnomalar, odatda, yuqori idora mansabdor, xususiy va yuridik shaxslar hamda oddiy kishilarning ko'rsatmasi, talabi yoki iltimosiga ko'ra tuziladi hamda biron-bir masalada iltimosni qondiradigan axborot va ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi.

Ma'lumotnoma o'z xususiyati va mazmuniga ko'ra ikki turga: xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnomaga bo'linadi.

**? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar tuzing.**

*Topshiriq.* Dalolatnomaning zaruriy qismlarini klaster shaklida tasniflang.

*Topshiriq.* Quyidagi so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing, fe'llarni hozirgi-kelasi zamon shaklida qo'llang.

Talaba hisoblanmoq, iqtisodchi, lavozimida ishlamoq, yashamoq, ijarada yashagan, tikuvchi, ushlanib qolmoq, taqdim etish uchun, muhandis, universitet ma'muriyatiga, asos, topshirish uchun, qabul qilinmoq, tibbiy ma'lumotnoma, dorishunos, ko'rsatish uchun, oylik maoshi, ijtimoiy ta'minot bo'limiga.

### **Hujjat namunalari bilan ishlash**

#### Ma'lumotnoma

Ushbu ma'lumotnoma Olimov Odil Oqilovichga uning haqiqatan ham Caid Ahmad ko'chasi 3-uyda yashashi va oilasida 4 farzandi borligi haqidagi ma'lumotni tasdiqlab berildi.

**“Muammo”** texnologiyasi

| Muammoning turi | Muammoning kelib chiqish sabablari | Muammoni yechishda sizning harakatlaringiz | Muammoni yechishdagi to‘siqlar |
|-----------------|------------------------------------|--------------------------------------------|--------------------------------|
|                 |                                    |                                            |                                |
|                 |                                    |                                            |                                |
|                 |                                    |                                            |                                |
|                 |                                    |                                            |                                |

***🌀 Tarjima mashqi***

Акт, копия, провести инвентаризацию, согласно приказу, материальное имущество, составлен, указать, взыскать с заработной платы.

Составить служебную справку, выдать личную справку, список документов прилагается, справка выдана по месту требования, согласно утверждённому плану, в соответствии с распоряжением руководства, дата выдачи, подпись должностного лица.

*Uyga vazifa.* Talabalar davomati xususida ma’lumotnoma tuzish.

#### 44-mavzu. Majlis bayoni. Hisobot

 O'qish uchun material

##### BAYONNOMA (majlis bayoni)

Majlis bayoni - bayonnomalarni rasmiylashtirish ham barcha rasmiy idoralar hayotidagi ish yuritishning muhim qismlaridan hisoblanadi. Chunki turli tashkilot va muassasalar jamoalari faoliyatiga oid ko'plab masalalar yig'ilishlarda, demokratik yo'l bilan hal bo'ladi va ularni hal qilishga oid qabul qilingan qarorlar hayotga tatbiq etilishi uchun belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Ana shu rasmiylashtirilgan hujjat bayonnoma sanaladi. Bayonnomada turli yig'ilish- lardagi chiqishlar va qarorlar rasmiy tilda batafsil yoziladi. Shu hujjat asosida jamoaning faoliyati olib boriladi va nazorat qilinadi.

Bayonnomada uni rasmiylashtirayotgan tashkilot va muassasaning nomi, *Bayonnoma* degan so'z, yig'ilish raqami, sanasi va joyi, qatnashuvchilar, kun tartibi, uning muhokamasi tafsiloti (asosiy ma'ruzachi va so'zga chiquvchilar), qabul qilingan qarorlar, majlisga raislik va kotiblik qilganlarning imzosi o'z aksini topgan bo'lishi lozim. Agar zarur bo'lsa, uning oxirida ilova ham berilishi mumkin. *Majlis bayoni*. Turli majlis, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, yig'ilish qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat majlis bayoni deb ataladi. Ushbu hujjat turli organlarning doimiy kotiblari tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi.

Majlis bayonining asosiy zaruriy qismlari:

- tashkilot nomi;
- hujjat nomi
- (majlis bayoni) va shartli raqami;
- majlis o'tkazilgan sana; majlis o'tkazilgan joy;
- tasdiqlash ustxati (agar hujjat tasdiqlanishi zarur bo'lsa);
- majlis raisi va kotibining familiyalari;
- qatnashuvchilar ro'yxati yoki soni;
- matn.

- 1) KUN TARTIBI, 2) ESHITILDI, 3) SO'ZGA CHIQQILAR, 4) QAROR QILINDI; ilovalar (agar bo'lsa); majlis raisi va kotibining imzolari.

Zarur hollarda majlis davomida qabul qilingan qarorlardan ko'chirmalar rasmiylashtiriladi. Buyruqdan ko'chirmada bo'lganidek, majlis bayonidan ko'chirma ham imzo bilan tasdiqlanadi. Bayondan ko'chirma quyidagi asosiy qismlardan iborat:



- tashkilot nomi;
- hujjat nomi (majlis bayonidan ko‘chirma);
- yig‘ilish o‘tkazilgan sana;
- shartli raqam;
- bayon tuzilgan joy;
- matn.

1) KUN TARTIBI; 2) ESHITILDI;3) QAROR QILINDI. Imzolar. Nusxa tasdiqlanganligi haqida belgi (muhr bilan).

*Hisobot.* Muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlaning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma’lumot beruvchi hujjat hisobot deb ataladi. Hisobotda keltirilgan ma’lumotlar aniq, ishonarli bo‘lishi kerak.

Hisobotda quyidagilarga e’tibor beriladi:

- topshirilgan ish mazmuni va ko‘lami;
- ishning qanday bajarilganligi;
- ishni bajarishda nimalarga e’tibor berilganligi;
- ishni bajarishda qanday kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi;
- kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llari.

Topshiriq bajarilmagan holatlarda hisobot so‘nggida topshiriqning bajarilmaganlik sababi ko‘rsatiladi va bu borada takliflar beriladi. Har qanday vazirlik, idora va uning qoshidagi tashkilot, muassasa va korxonalar faoliyatida rejalashtirilgan ish haqidagi hisobotlar amalda keng qo‘llanadi. Bunday hisobotlar ish smenasi, hafta, o‘n kunlik, oy, chorak, yarim yillik, yil yakunlari bo‘yicha tuziladi, ularni davriy hisobotlar deb atash ham mumkin. Hisobot shakl va mazmuniga ko‘ra bildirishnomaga o‘xshash bo‘lsa-da, bunda qanday ishlar rejalashtirilgani, ularning bajarilish darajasi, bu yo‘ldagi kamchiliklar va ularni bartaraf etishga oid takliflar kengroq beriladi. Ish yuritishda rejalashtirilgan ishlar, xizmat safari yakuni yuzasidan hisobotlar yozish keng tarqalgan. Hisobot matni 1- shaxs nomidan yoziladi va hisobot beruvchi tomonidan imzolanadi.

*Topshiriq.* Hikmatlarni o‘qing va ularda ilgari surilgan g‘oya haqida fikrlashing.

Bilim mehnat bilan, tilak g‘ayrat bilan go‘zal.

Odamni katta gavda emas, aql yuksaltiradi.

Inson ilm-u hunari va aql-idroki bilan har qanday qushdan baland parvoz qiladi.

Bilimdonlikning sir-u asrori g‘ayrat hamda matonat bilan o‘qish va o‘rganishdadir.

Bobolarning ulug‘vor ishlarini ijodiy rivojlantira olsang, sen baxtiyorsan.

*Topshiriq.* Majlis bayonining asosiy zaruriy qismlarini klaster shaklida tasniflang.

*Topshiriq.* Guruh rahbaringiz nomiga mutaxassisligingiz bo‘yicha amaliyot natijalari haqida hisobot yozing.

### **Hujjat namunalari bilan ishlash**

I. O‘zbekiston Milliy universiteti matematika fakulteti  
2- kurs «ART» guruhi talabalari yig‘ilishining  
1- BAYONNOMASI

05.09.2018

Toshkent shahri

Rais : I. Hasanov- guruh murabbiysi

Kotiba: M. Muslimova.

Qatnashdilar: 24 talaba.

#### **KUN TARTIBI:**

1. Guruh faollarini saylash masalasi. Guruh rahbari N. Yusupov.
2. Murabbiylar kuni munosabati bilan o‘tkaziladigan tadbirga tayyorgarlikning borishi to‘g‘risida S.Hakimov axboroti.

#### **1. Tinglandi:**

N.Yusupov guruh yetakchisini hamda boshqa faollarni saylash yuzasidan hamda guruh faollari oldida turgan vazifalar to‘g‘risida axborot berdi. Nomzodlar ko‘rib chiqildi.

#### **SO‘ZGA CHIQQILAR:**

A. Safarov, M. Ravshanov, T. Umarova.

#### **QAROR QILINDI:**

- 1) Guruh faollariga nomzodlar tasdiqlansin.
- 2) Guruh faollarining vazifalari belgilab berilsin.

#### **2. Tinglandi:**

S. Hakimov murabbiylar kuni munosabati bilan o‘tkaziladigan tadbirga tayyorgarlikning borishi to‘g‘risida axborot berdi.

#### **SO‘ZGA CHIQQILAR:**

U. Usmonov, O. Rasulova, K. Azizova.

### **QAROR QILINDI:**

- 1) S.Hakimovning murabbiylar kuni munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirga tayyorgarlikning borishi haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
- 2) Murabbiylar kuni munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirga tayyorgarlik kuchaytirilsin.

Rais: (imzo)

I. Hasanov.

Kotib: (imzo)

M. Muslimova.

II. Samarqand Davlat universiteti rektori prof. D.T.Rasulovga  
O'zbek filologiyasi fakulteti dekani dotsent T. I.  
Qurbonovning Toshkent shahrida o'tgan xizmat safari  
yuzasidan

#### **HISOBOTI**

Men, Qurbonov Tohir, Sizning topshirig'ingiz va rasmiylashtirilgan buyrug'ingizga asosan 2018- yilning 13-15- iyun kunlari Toshkent shahrida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida bo'ldim va qabul qilingan yangi DTSlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha yo'l-yo'riqlar oldim hamda amaliyotda foydalanish uchun bir necha qo'llanma va yo'riqnomalar keltirdim.

O'zbek filologiyasi fakulteti dekani T.Qurbonov 2018- yil 17- iyun

*Uyga vazifa.* Majlis bayonini tuzish va to'garak hisobotini yozish.

## 45-mavzu. Xizmat yozishmalari. Xatlar

### O'qish uchun material

Xizmat yozishmalari muassasa faoliyatiga oid turli masalalar bilan bog'liq bo'lgan talab, iltimos, taklif, kafolat mazmunida amalga oshiriladi. Ularga telefonogrammalar, faksogrammalar, taklifnomalar, xatlar, diplomatik yozishmalar, tijorat yozishmalari kiradi. Xizmat yozishmalarining eng ko'p tarqalgan turi xatlardir. Xat insonlar o'rtasidagi muloqot shakllaridan biri bo'lib, uning yuzaga kelishi yozuv va masofa bilan bog'liqdir. Ya'ni, u faqat yozuv yordamidagina shakllanadi va ma'lum masofada bo'lgan kishiga jo'natiladi. Unda xat muallifining fikr-mulohazalari va his-tuyg'ulari ifoda etiladi. Xatni jo'natish esa ma'lum vositalar yordamida amalga oshiriladi.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da ushbu so'zning 9 ta ma'nosi berilgan:

1. Uzoqdagi kishiga biror xabar berish yoki fikrlashish maqsadida, odatda pochta orqali yuboriladigan, biror matn yozilgan qog'oz, noma, maktub;
2. Xatda yozilgan maktub, xat matni;
3. Yozuv uchun ishlatiladigan grafik belgilar, harflar sistemasi, grafika;
4. Harflarni yozishdagi o'ziga xos uslub, ko'rinish, yozuv xili;
5. O'qish va yozish, savod, savodlilik;
6. Yozuvdagi har bir qator, satr yoki misra;
7. Chiziq, liniya;
8. Biror kimsa yoki narsani yozma ravishda sanab ko'rsatish, ro'yxatga olish, ro'yxat;
9. Rasmiy qog'oz, hujjat [5, 318-319-b.]. Bu o'rinda so'zning birinchi ma'nosi e'tiborga olinadi.

Yozuv bilan bog'liq ravishda o'z tarixiga ega bo'lgan va omma orasida keng tarqalgan xat bitish xalqimizning muomala madaniyati doirasida insonlarning bir-birlariga fikr ifoda etishning alohida usuli sanalgan va san'at darajasiga ko'tarilgan hamda, ayni paytda, badiiy ijodning bir turi sifatida qaralgan. Shuning uchun ham u badiiyat ilmida alohida bir janr sifatida o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar to'g'risida adabiyotshunos S.G'aniyeva quyidagi ma'lumotlarni beradi: «Abul Hasan al-Marg'iloniyning «Mahosinul-kalom», Muhammad bin Umar ar-Rodiyoniy (XI asr) ning «Tarjimonul balog'a», Rashididdin Vatvot (XII asr) ning «Hadoyiqus-sehr fi daqoyiq ush she'r», Shamsiddin Qays Roziyning «Al-mu'jam fi maosir ush ash'or ul Ajam», Tojud Xalaviy

nomi bilan mashhur bo'lgan Ali ibn Muhammad (XIV asr) ning «Daqoyiqush - she'r» kabi badiiyat masalalaridan bahs etuvchi asarlaridagi alohida boblar, Amir Xusrav Dehlaviy (XIV asr) ning «Mahzanul – insho», «Sahifai shohiy» nomli asarlari maxsus insho nazariyasiga bag'ishlangan edi». Munshaot, ya'ni nasr yoki nazmda maktublar bitish sharq poeziyasida san'at darajasiga ko'tarilgani uchun ham, u alohida she'riy janr sifatida e'tirof etilgan. Turkiy she'riyatda uning shakllanishiga juda katta hissa qo'shgan Alisher Navoiy birinchi bo'lib o'z maktublarini kitob shakliga keltirgan va uni «Munshaot» deb nomlagan. Turkiy tilda davlat ishlari va hujjatlarini yuritish va xatlar bitishning qat'iy tarafdori bo'lgan ulug' alloma ushbu asarida ularning fors-tojik tilida yozilganidan qolishmaydigan namunalarini keltiradi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda insoniy muomalaning xat usulidan foydalanish imkoniyatlari ham jiddiy ravishda kengaydi. Avvaliga ular ikki kishi o'rtasidagi yozishmalardangina iborat bo'lgan bo'lsa, endilikda xat bitish rasmiy uslub doirasida qaraladigan nutqiy jarayonning alohida bir ko'rinishiga – yozma turiga aylandi. Hozirgi kunda xatlar idoralar va muassasalar, tashkilotlar va korxonalar o'rtasidagi o'zaro faol aloqa vositasi, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishning qulay usuli sifatida xizmat qilmoqda. Shu ma'noda ularni ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin bo'ladi:

1. Shaxsiy-xususiy xatlar

2. Rasmiy xatlar.

Xatlar vazirlik, idora, tashkilot va muassasalar orasida xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Ular vositasida turli ko'rsatmalar, so'rovlar, javoblar, tushintirishlar, xabarlar, takliflar, iltimoslar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilinadi. Bu hujjatlar umumlashtirilgan holda xizmat xatlari deb yuritiladi.

Bajaradigan vazifasiga qarab xizmat xatlari quyidagi turlarga bo'linadi:

1) javob xatni talab qiluvchi xatlar (da'vo xat, so'rov xat, iltimos xat);

2) javob xatni talab qilmaydigan xatlar (ilova xat, tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat, farmoyish xat, taklif xat va boshqalar).

Xizmat xatlari ma'lum bir maqsadda yoziladi. Shuningdek, mazmunida bir necha (kafolat berish, iltimos, eslatish) ma'no ifodalanadigan xatlar ham bo'ladi.

Xizmat xatlari odatda xatlar uchun tayyorlangan blanklarga yoziladi. Blank bo'lmagan hollarda oddiy qog'ozga yoziladi. Xat oddiy qog'oz

varaqqa yozilsa, uning chap tomonidagi yuqori burchagiga xat jo'natayotgan muassasa nomi ko'rsatilgan to'rtburchak muhr qo'yiladi. Agar xat ikki va undan ortiq joyga yo'llansa, xat jo'natayotgan asosiy muassasa yoki rahbar xodimning nomidan so'ng boshqalari beriladi. Xizmat xatlarining matnini uch qismga bo'lish mumkin. Birinchi (kirish) qismda xat bilan murojaat qilishga asos yoki sabab ko'rsatiladi. Ikkinchi qismda xatda qo'yilayotgan masalani hal qilish zarurligi asoslab beriladi. Uchinchi (xulosa) qismda xat yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad bayon etiladi. Xizmat xatlarining matni imkon qadar qisqa bo'lishi, shu bilan birga aniq va ravshan tushunilishi kerak. Rasmiy xatlar matnida ko'chma ma'nodagi so'z va iboralarni imkon qadar qo'llamaslik tavsiya etiladi. Xizmat xatlarining asl nusxasi jo'natilib, kseronusxasi muassasaning o'zida saqlanadi.

Da'vo xatlari uch nusxada tayyorlanib, 1-nusxasi aybdorga, 2-nusxasi da'vogarga beriladi, 3-nusxasi esa sud idoralariga topshiriladi.

Xizmat xatlarining turiga qarab ularni rasmiylashtirishda ba'zi farqlar bo'ladi. Masalan, axborot va da'vo xatlariga ularning mazmunidan kelib chiqqan holda sarlavha qo'yiladi. Ilova xat, iltimos xat, ba'zi kafolat xatlarining matnida adresatga uning ismi va otasining ismi bilan murojaat qilinadi. Murojaat "hurmatli", "muhtaram" so'zlaridan boshlanadi, "Siz" kishilik olmoshi bosh harf bilan yoziladi. Xizmat xatlarining matnlarida ularning mazmuniga ko'ra turli jumlar ishlatiladi. Chunonchi, ilova xatida "yo'llaymiz", "yo'llanadi", iltimos va so'rov xatlarida "so'raymiz", "so'raydi", kafolat xatida "kafolat beradi", "o'z zimmasiga oladi", tasdiq xatida "tasdiqlaymiz", "oldik", eslatma xatda "eslatib o'tamiz", "yana bir bor iltimos qilamiz" kabi so'zlar qo'llanadi.

Xizmat xatlari muassasa rahbari tomonidan imzolanadi. Rahbar bo'lmagan hollarda shunday vakolatga ega bo'lgan shaxs, ya'ni uning vazifasini bajaruvchi yoki o'rinbosari, lavozimi aniq ko'rsatilgan holda imzo chekadi.

Xizmat xatlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ularning nomi (kafolat xati, ilova xat, so'rov xat va boshqalar) yozilmaydi.

### **? Mavzuni mustahkamlash uchun savollar tuzing**

Rasmiy xat shaxsiy xatdan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?

*Topshiriq.* “So‘z ustasi” o‘yini asosida hujjatchilikka oid atamalar zanjirini tuzing.

*Namuna:*

ariza – axborot –tasnif – .....

*Topshiriq.* Xizmat xatlarining turlarini klaster shaklida tasniflang.

*Topshiriq.*Quyidagi gaplarni davom ettiring.

1. Shu narsaning guvohi bo‘ldikki, ... .
2. Me‘yoriy hujjatlarni o‘rganish maqsadida ... .
3. Qayerda tartib-intizom bo‘lsa, ... .
4. Har bir hujjatlarning o‘ziga xos zaruriy ... .

*Topshiriq.* Matnda tushirib qoldirilgan qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘ying va daftaringizga ko‘chiring.

“Sharq ziyokori” kitob do‘koni  
direktori A.S.Jalilovga

Biz... institutimiz... ajratilgan umumiy qiymati... to‘lab olish sharti bilan “O‘zbekiston” nashriyoti... chop etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ... 10 (o‘n) nusxa jo‘natishingiz... so‘raymiz.

Rektor

Bosh hisobchi

(imzo) (F.I.SH.)

(imzo) (F.I.SH.)

*Uyga vazifa.* Quyidagi xat namunasini tahlil qiling va undan rasmiy xatdan farq qiluvchi leksik-grammatik vositalarni toping.

*Yusuf savdosida beqaror Zulayxo ismidan, Majnun ishqida yig‘lag‘an Layli otidan – sizga boshimdag‘i sochlarimning tuklaricha behad salom. Mendan – haddu-hisobsiz gunoh, sizdan kechirish. O‘tkan ishka salovat. Chunki shu ikki yil ichida kechirgan qora kunlarni eska olish manim uchun o‘sha kunlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari, ul kunlarni siz unuting, unutmang, men unutdim. Shuning uchun so‘zimni o‘zimning oxirg‘i, ham chin baxt islari hidlagan tariximdan boshlayman.*

*Siz – qochqoqsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozg‘andek bo‘lib qochqansiz, ikki yil bo‘yi Marg‘ilon kelib yurishlaringizni men o‘zimcha yeshdim, lekin topib yeshdim: sizning barcha mashaqqatlaringiz – dushmanlaringizdan o‘ch olish uchun bo‘lg‘anini angladim. Yo‘qsa, meni ko‘rar edingiz, ko‘rgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni ko‘rar edilar, to‘yar edilar... Men kabi baxtsiz, men*

*kabi g'ovg'asi ko'b sizni zeriktirib, jondan to'ydirg'an bo'lsa, ajab emaski, qocha boshlag'ansiz... Qochsangiz qochib ko'ringiz, ammo men bu kundan boshlab birovlarini quvushqa bel bog'ladim: otam bilan onam rafoqatlarida (rafoqat – hamrohlik, yo'ldoshlik, eshlik) xizimatingizga – cho'rilig'ingizga erta-indin yuraman, suyganingiz kundoshim oldida qadru qiymatimning nima bo'lishini ham bilaman...Siz oliyjanobsiz: eski qadrdonliq hurmatiga ko'ngil uchun kulib boqarsiz...Loaqal shugina bilan ham baxtsizni mas'uda qilarsiz. Ammo...suyganingiz – kenjangizning jekirishlaridan, qarg'anishlaridan behad qo'rqaman, o'zimda yo'q qo'rqaman. Shu yaqin oradag'i uning bilan bo'ladig'an mas'ud daqiqalaringizda xudo yo'lig'a va'da olingiz – meni og'ritmasin, raqibam keldi deb o'ylamasin. Nihoyati maqsadim ikki do'stka bir cho'rilik va shu munosabat bilan biravlarni ko'rib yurish...*

*Xatim oxiriga shuni ham aytib qo'yay: o'ch qaytib, men ham ko'chadan haydalmasam edi, degan xavf hamisha ko'nglimda. Agar xudo yarlaqab eshikingizda o'rinlashib olsam, u yog'ini o'zim bilar edim...*

*Erta-indin ko'zinga yil ko'rinur,  
Yo'l bosishliq ko'ngilga bir umr ko'rinur...  
3-chi hamal, Marg'ilon, Kumushingiz yozdi.*

### **Hujjat namunalari bilan ishlash**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Fizika fakulteti 4-kurs talabasi, 1991-yilda tug'ilgan Olim  
Shukurovga  
TAVSIFNOMA

Nazar Shukurov 1991-yil 23-aprelda Toshkent shahrida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgach, 2007-yilda O'zbekiston Milliy universiteti fizika fakultetining 1-kursiga o'qishga kirdi. Universitetda tahsil olish davrida u intizomli, ziyrak va zukko talaba sifatida o'zini ko'rsatdi. Bilimlarni qunt bilan o'rganishga harakat qiladi. Fizika, matematika, informatika va ingliz tili fanlariga alohida qiziqadi. U 2010-yilning aprel oyida talabalarning Xalqaro ilmiy konferensiyasida o'z ma'ruzasi bilan qatnashdi va konferensiyaning faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

Nazar Shukurov fakultetning jamoat ishlarida faol qatnashadi, fakultetning "Yosh fiziklar" devoriy gazetasiga muharrirlik qiladi.



U kamtarin va to'g'riso'zligi, mehribonligi tufayli kursdoshlari hurmatiga sazovor bo'lgan.

Tavsifnoma Olmazor tumani hokimiyatiga taqdim etish uchun berildi.

|                         |        |                |
|-------------------------|--------|----------------|
| Dekan:                  | (imzo) | O.R.Azizov     |
| Kasaba uyushmasi raisi: | (imzo) | A.R.Mirvaliyev |
| (muhr)                  |        | (sana)         |

## TAVSIYANOMA

Men Hakim Shamsiddinovni 1974-yildan beri yaqindan taniyman, 1984-yildan boshlab O‘z FA Til va adabiyot institutida birga ishlaymiz. Bu davr ichida u atamashunoslik sohasida yetuk mutaxassis sifatida tanildi, filologiya fanlari nomzodi bo‘ldi. Uning dissertatsiya ishi, bir qancha maqolalari ilmiy puxtaligi bilan ajralib turadi.

Hakim Shamsiddinov intizom va qat’iyatliliigi bilan jamoada obro‘ qozongan, totuv oilaning boshlig‘i. Institut ilmiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib kelmoqda.

Shu sababli men Hakim Shamsiddinovni “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyotida ilmiy muharrir lavozimiga tavsiya qilaman.

(sana)  
A.Madvaliyev

(imzo) Filologiya fanlari nomzodi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi  
O‘zbekiston Milliy universiteti  
Xorijiy filologiya fakulteti  
dekani I.A.Jurayevaga  
3-kurs talabasi Odil  
Salimovdan

## TUSHUNTIRISH XATI

Men 2018-yilning 21 - sentabridan 10-oktabrigacha bo‘lgan davrda onamning qattiq betoblighi tufayli 46 soat mashg‘ulotga qatnasha olmadim.

Ilova: Onamning kassalighi haqidagi shifokor ma‘lumotnomasi.

(sana)  
O.Salimov

(imzo)

Mirzo Ulug‘bek nomidagi  
O‘zbekiston Milliy universiteti  
Xorijiy filologiya fakulteti  
dekani I.A.Jurayevaga  
1-kurs talabasi Asad Valiyevdan

### TUSHUNTIRISH XATI

Surxondaryo viloyatida bir necha kun transport qatnovi uchun qulay ob-havo sharoiti bo‘lmaganligi sababli 2017-yilning 28-29-oktabr kunlariga belgilangan mashg‘ulotlarga yetib kela olmadim. Fanlar bo‘yicha o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirib olishga va‘da beraman.

(sana)

(imzo) A. Valiyev

---

### E‘LON

2018-yil 21-oktyabr kuni soat 16:00 da O‘zbekiston Milliy universiteti Madaniyat saroyida O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan “ *Til – millatning iftixori* “ deb nomlangan bayram tadbiri bo‘lib o‘tadi.

Tadbirda elimiz suygan shoirlar, san‘atkorlar hamda universitet talabalari ishtirok etadilar.

Barchangizni tadbirga taklif etamiz!

Tashkiliy qo‘mita

### TAKLIFNOMA

Muhtaram (a)\_\_\_\_\_

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti va O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasi Sizni ulug‘ adibimiz ABDULLA QODIRIY tavalludining 104 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy anjumanga taklif etadi.

Ilmiy anjuman shu yilning 12-yanvar kuni ertalab soat 10.00 da Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining majlislar zalida bo‘lib o‘tadi.

(Akademik Ibrohim Mo‘minov ko‘chasi, 9 - uy, 2 - qavat).

O'zbekiston Milliy universiteti  
Xorijiy filologiya fakulteti dekani  
I.A.Jurayevaga 2-kurs talabasi  
Sobir Mahmudovdan

### ARIZA

Kasalligim tufayli qishki imtihon va sinovlarni o'z vaqtida topshira olmadim. Shu sababli imtihon va sinovlarni topshirishga ruxsat berishingizni so'rayman.

Arizamga kasalligim haqidagi tibbiy ma'lumotnoma ilova qilindi.

(sana)

(imzo)

S.Mahmudov

O'zbekiston Milliy universiteti  
Kasaba uyushmasi qo'mitasiga  
Tarix fakulteti 2-kurs talabasi  
Komiljon Rahimovdan

### ARIZA

Stipendiya miqdorining kamligi va xususiy xonadonda ijarada yashayotganligimni e'tiborga olib, menga moddiy yordam ko'rsatishingizni so'rayman.

(sana)

(imzo) K.Rahimov

### ☒ Test topshiriqlari

1. Hujjatning qaysi turida ma'lum bir davr mobaynidagi faoliyat natijalari aks ettiriladi?

a) ma'lumotnoma

b) hisobot

s) bildirgi

d) majlis bayoni.

2. Tarjimayi hol qaysi uslubda yoziladi?

a) publitsistik uslub

b) badiiy uslubda

s) ilmiy uslubda

d) rasmiy uslubda

3. Axborot qayd etilgan hamda uni vaqt va makonda uzatish imkonini beruvchi moddiy obyekt bu-...

a) guvohnoma

b) dalil

s) hujjat

d) xat

4. Hujjatning qaysi turida hujjat nomi ko'rsatilmaydi?

a) majlis bayonidan ko'chirma

b) bildirgi

s) xat

d) hisobot

5. Majlis bayonida qaysi sana qo'yiladi?

- a) yig'ilish o'tkazilgan sana      b) hujjat rasmiylashtirilgan sana  
s) hujjat imzolangan sana      d) hujjat tasdiqlangan sana
6. Dalolatnomada qaysi sana qo'yiladi?  
a) hujjat tuzilgan sana      b) tekshiruv o'tkazilgan sana  
s) hujjat imzolangan sana      d) hujjat bilan tanishtirilgan sana
7. Hujjat tuzilgan joy qaysi hujjatda qo'yilmaydi?  
a) buyruqda      b) bildirgida      s) farmoyishda      d) majlis bayonida
8. Muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat —  
a) ma'lumotnoma      b) ariza      s) tavsifnoma      d) tarjimayi hol
9. Kafolat xati bu — ...  
a) biror narsaning muddati tugayotganligini ma'lum qiladigan hujjat  
b) tadbirga taklif qiladigan hujjat  
s) qimmatbaho buyumning yetkazilganligini tasdiqlovchi hujjat  
d) biror narsa yoki ish uchun haq to'lanishiga ishontiradigan hujjat
10. Xizmat xatlari odatda quyidagi jumla bilan tugaydi: ...  
a) Sizning iltimosingizga binoan  
b) hurmat bilan  
s) Sizning takliflaringiz ko'rib chiqildi  
d) ... munosabati bilan
11. Qaysi hujjatda shartnomaning bajarilishiga e'tiroz bildiriladi?  
a) shartnoma      b) axborot xati      s) yo'llanma xati      d) da'vo xati
12. Adresatga yuborilayotgan hujjatlar haqida xabar beruvchi xat turini ko'rsating.  
a) yo'llanma xati      b) eslatma xati      s) tasdiq xati      d) kafolat xati
13. Xizmat xatining muallifi — ...  
a) xatni jo'natadigan tashkilot      b) xatni tayyorlagan xodim  
s) xatni jo'natgan xodim      d) xatni imzolagan rahbar
14. Ish yuritish hujjatining xizmat yozishmalari gurihiga taalluqli bo'lmagan turini toping.  
a) telegramma      b) xatlar      s) tilxat      d) taklifnoma
15. Tarjimayi holda fe'llarning qaysi zamon shakli qo'llanadi?  
a) faqat hozirgi zamon      b) hozirgi va o'tgan zamon  
s) hozirgi va kelasi zamon      d) faqat o'tgan zamon
16. Qaysi hujjatda xodimning ijobiy va salbiy xislatlari ko'rsatiladi?  
a) bildirgi      b) tushuntirish xati      s) tavsifnoma      d) tarjimayi hol
17. Xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ba'zi bir jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa rahbariga yoki yuqori tashkilotga yo'llanuvchi hujjat —

- a) dalolatnoma      b) tushuntirish xati      s) bildirgi      d) tilxat
18. Muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bina bog'liq biron-bir sodir bo'lgan voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat-bu...
- a) tilxat      b) tushuntirish xati      s) bildirgi      d) dalolatnoma
19. Ado etmoq so'ziga sinonim so'zni toping.
- a) eplamoq      b) bajarmoq      s) tugatmoq      d) qatnashmoq
20. Rasmiylashtirish so'zining rus tilidagi muqobilini toping.
- a) полномочие      b) визировать      s) оформление      d) деловой
21. Dalolatnoma necha nusxada tuziladi?
- a) bir nusxada      b) ikki nusxada      s) uch nusxada      d) nusxa olinmaydi
22. Dalolatnoma so'zining rus tilidagi muqobilini toping.
- a) доверенность      b) акт      s) факт      d) иск
23. Ishonchnoma so'zining rus tilidagi muqobilini toping.
- a) доверенность      b) акт      s) факт      d) иск
24. Tavsiyanoma so'zining rus tilidagi muqobilini toping.
- a) характеристика      b) рекомендация      s) требование      d) иск
25. Da'vo so'zining rus tilidagi muqobilini toping.
- a) характеристика      b) рекомендация      s) требование      d) иск
26. Tashkiliy hujjatlar berilgan qatorni ko'rsating.
- a) buyruq, farmoyish, qaror, ko'rsatma, farmon
- b) hisobot, tilxat, ariza, tavsifnoma, e'lon
- s) guvohnoma, nizom, shartnoma, yo'riqnoma
- d) taklifnoma, telegramma, kafolat xati, iltimos xati

Mustaqil ish uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Buyuk Ipak yo'li va uning insoniyat tarixidagi o'rni.
2. To'maris va Shiroq haqidagi afsonalar.
3. Qomusiy olim Al Xorazmiy.
4. Ahmad al Farg'oniy va uning merosi.
5. Abu Nasr Forobiy va uning buyuk asarlari.
6. Ibn Sinoning "Tib qonunlari"
7. "Temur tuzuklari"
8. Mirzo Ulug'bek – olim va davlat arbobi
9. Alisher Navoiy – o'zbek adabiy tilining asoschisi
10. Jadidchilik harakati namoyandalari
11. Birlashgan Millatlar Tashkiloti
12. Milliy madaniy markazlar

13. O'zbekiston muzeylari
14. Dunyoning mashhur universitetlari
15. Terrorizm va uning insoniyatga tahdidi
16. Shanxay hamkorlik tashkilotining faoliyati
17. O'zbekiston Respublikasining hukumat portali.

## 1-ilova

### **GLOSSARIY (QISQACHA IZOHLI LUG'AT)**

**Abbreviatura** – qisqartma soʻzlar.

**Agglyutinativ tillar** — soʻz yasalishi va shakl yasalishi agglyutinatsiya yoʻli bilan boʻladigan tillar. Mas., *turkiy tillar*, *fin-ugor tillari*.

**Agglyutinatsiya** — 1. Soʻz yasalish yoki shakl yasalish asosi oʻzgarmagan holda yangi soʻz yoki soʻz shakli hosil boʻlishi. Bunda har bir affiks maʼlum bir maʼno, vazifa bilan qatnashadi: *ter-im-chi-lar-imiz-ga*. 2. Ikki soʻz (asos) ning bir soʻzga, bir soʻz shakliga aylanishidan iborat morfologik jarayon. Mas., *echkini emar>echki emar>echkemar*.

**Adabiy meʼyor** — til birliklarining adabiy til qoida-talablariga mos holda, namunali tarzda qoʻllanishini, tilning adabiyligini taʼminlovchi vositalarni belgilovchi meʼyor.

**Adabiy til** — umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, maʼlum meʼyorga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli.

**Alifbo** — yozuv shakllarining (harf va belgilarning) majmuyi, maʼlum tartibda joylashgan holati: oʻzbek alifbosi.

**Amaliy tilshunoslik** — tilshunoslikning lingvistik masalalarni (mas., mashina tarjimasini) hal etishni hisobga olgan holda amaliy yoʻl bilan oʻrganuvchi sohalari (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika) kabi.

**Antonimiya** — til birliklarining semantik jihatdan oʻzaro zid, qarama-qarshi boʻlish hodisasi: Leksik antonimiya. Affiksial antonimiya. Sintaktik antonimiya.

**Argo** — yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifaning (masalan, talabalar, sportchilar, oʻgʻrilar va b.) oʻziga xos, boshqalar tushunmaydigan lugʻaviy birliklardan iborat yasama tili.

**Arxaizm** — maʼlum davr uchun eskirgan, isteʼmoldan chiqqan boshlagan til birligi.

**Aforizm** — hikmatli soʻz.

**Affiks** — soʻzga zid qoʻyiladigan (leksik maʼnoga ega boʻlmagan), oʻzi qoʻshiladigan asosning lugʻaviy yoki grammatik maʼnolarining shakllanishiga xizmat qiladigan qoʻshimcha morfema. Mas., ish-chilar-imiz-ni. Affikslar fazifalariga koʻra ikki asosiy qismga boʻlinadi: 1) soʻz yasovchi affikslar; 2) forma (shakl) yasovchi affikslar. Affikslar soʻzning boshiga, oʻrtasiga yoki oxiriga qoʻshilishi mumkin. Soʻzning boshiga qoʻshiladigan affikslar prefix, oʻrtasiga qoʻshiluvchilari infiks, oxiriga qoʻshiladiganlari suffiks deyiladi. Oʻzbek tilidagi affikslar asosan soʻzning oxiriga, baʼzilari soʻz oldiga qoʻshiladi, yaʼni suffiks va prefiks holida boʻladi.

**Affiksatsiya** — 1. Umuman, asosga affiks qoʻshish, affiks yordamida soʻz yoki shakl yasalishi: *soʻroq(soʻra+q)*—soʻz yasalishi, *soʻradi(soʻra+di)* shakl yasalishi.

**Badiiy uslub** — funksional uslubning turlaridan boʻlib, u tilning kommunikativ va estetik vazifalarining birligi bilan, boshqa uslublarga xos unsurlardan keng foydalanishi, ekspressiv va tasviriy vositalarning keng qoʻllanishi, soʻzlarning obrazli, koʻchma-metoforik qoʻllanishi va sh. k. belgilari bilan ajralib turadi.

**Bogʻlangan qoʻshma gap** — tarkibidagi predikativ birliklar oʻzaro teng bogʻlovchilar yordamida birikkan (teng aloqali) qoʻshma gap: *Otdan tushib, jilovini Ortiqqa berdi-yu, oʻzi direktorni molxonalar tomonga boshlab ketdi* (P.Qodirov).

**Bogʻlovchisiz ergashgan qoʻshma gap** — tarkibiy qismlari (bosh va ergash gap) oʻzaro bogʻlovchi, bogʻlovchi vazifasini bajaradigan yordamchi soʻz bilan emas, balki boshqa vositalar, mas., feʼl shakllari, koʻmakchi va yuklamalar yordamida bogʻlanadigan qoʻshma gap: *Togʻlar orqasidagi bulutlar tarqalib, quyosh koʻrina boshladi* (Sh.Rahmon). *Yoshing ulgʻaygan sari, tajribang ham orta boradi* (A.Qahhor).

**Bogʻlovchisiz qoʻshma gap** — tarkibidagi predikativ birliklar oʻzaro bogʻlovchi yoki bogʻlovchi vazifasidagi soʻz yordamida emas, balki boshqa vositalar yordamida birikkan qoʻshma gap. Bunday qoʻshma gaplarda ohang muhim rol oʻynaydi. Bogʻlovchisiz qoʻshma gaplar bogʻlangan va ergashgan qoʻshma gaplarning bogʻlovchisiz qoʻllangan variant emas, balki qoʻshma gapning alohida turi: *Saodatxon eshikni ochib yubordi, uyga muzday kuz havosi kirdi* (S.Zunnunova).



**Vosita til** — millatlar, elatlar orasida aloqa vositasi boʻlib xizmat qiladigan til.

**Gap** — til qonunlari asosida grammatik va ohang jihatdan shakllangan, fikrni ifodalash uchun xizmat qiladigan nutq birligi.

**Glossariy** — biror asar, ayniqsa qadimgi asarlardagi eskirgan va kam qoʻllanadigan, tushunilishi qiyin boʻlgan soʻzlar izohlanadigan lugʻat.

**Dialektologiya** — tilshunoslikning dialekt, lahja va shevalarni oʻrganuvchi boʻlimi.

**Dialog** — suhbatdoshlarning bevosita bir-biriga qaratilgan nutqi. Nutqning bu turi oʻziga xos bir qator belgi-xususiyatlarga ega. Mas., uning sintaktik qurilishi nisbatan sodda boʻladi, har bir shaxsning gapi odatda qisqa boʻladi.

**Yozma nutq** — nutq tovushlarini maxsus grafik belgilar vositasida yozish bilan ifoda etiladigan nutq.

**Yozuv** — nutqni qogʻozda (yoki boshqa narsada) aks ettirish uchun xizmat qiladigan harfiy grafik shakllar tizimi, shu tizimga asoslanuvchi aloqa vositasi.

**Juft soʻz** — mustaqil leksik maʼnoli yoki leksik maʼnoga ega boʻlmagan ikki qismning teng bogʻlanishi asosida tashkil topib, umumlashtirish, jamlik kabi maʼnolarni ifodalovchi soʻz; soʻzning juft shakli. Juft soʻz qismlari oʻrtasidagi toʻxtam (pauza) qisqa boʻladi: *baxt-saodat*, *xat-xabar*, *yaxshi-yomon*, *bogʻ-rogʻ* kabi.

**Ilmiy uslub** — funksional uslubning bu turi terminologik va mavhum leksikaning, murakkab sintaktik tuzilmalarning qoʻllanishi, soʻzlarning asosan konkret, toʻgʻri maʼnoda qoʻllanishi, maxsus iboralarga egaligi va sh.k. bilan ajralib turadi. Ilmiy uslub oʻz ichida quyidagi mayda uslublarga boʻlinadi: ilmiy-texnik uslub, ilmiy-ish uslubi, ilmiy-ommabop uslub, ilmiy-publitsistik uslub.

**Kasb-hunar leksikasi** — maʼlum kasb-hunar kishilari guruhiga xos, shular nutqida ishlatiladigan leksika: *bigiz*, *sari*, *poshna*, *dastak*, *dazgil* soʻzlari kosiblikka oid soʻzlardir.

**Kontekst** — nutqiy matn.

**Kundalik leksika** — kundalik hayotga oid narsa-hodisalarni bildiruvchi soʻzlar: *uy*, *koʻcha*, *choy*, *ishlamoq*...

**Lahja** — mahalliy dialektning bir necha shevadan iborat guruhi. Sheva.

**Leksema** — tilning lugʻat tarkibiga xos birlik; til qurilishining lugʻaviy maʼno anglatuvchi unsuri.

**Leksika** — 1. Tilning lugʻat tarkibi: Oʻzbek tili leksikasi. 2. Lugʻat tarkibining qoʻllanish sohasi, uslubiy belgisi, kelib chiqishi kabi turli jihatlardan yondashib ajratiladigan guruhlar. Ogʻzaki nutq leksikasi. Ijtimoiy-siyosiy leksika. Oʻzlashma leksika. Ekspressiv leksika. Oybek asarlari leksikasi.

**Leksikologiya** — tilshunoslikning tilning lugʻat tarkibini oʻrganuvchi boʻlimi. Oʻrganish obyekti, vazifasi nuqtayi nazaridan leksikologiya uch turga boʻlinadi: 1) tarixiy leksikologiya; 2) tasviriy leksikologiya; 3) qiyosiy leksikologiya.

**Matal** — hayotiy voqelikni ixcham shaklda emotsional-ekspressiv baho bilan tasvirlovchi ifodalar. Matallar nutqda hukmning qismi vazifasida boʻlishi, hamma vaqt koʻchma maʼno anglatishi kabi xususiyatlari bilan maqollardan farqlanadi: *Tuyaning dumi yerga tekkanda.*

**Matn** — yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi: tekst.

**Mashina tarjimasi** — matn (tekst)ni berilgan dastur asosida electron mashinalar yordamida bir tildan ikkinchi tilga avtomatik tarjima qilish.

**Maqol** — chuqur maʼnoli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik-melodik xusu-siyatlarga ega boʻlgan folklor janri. Maqollarda xalqning koʻp yillik tajribalari, hayot hodisalarining maʼlum bahosi (unga munosabat) aks etadi: *Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar.*

**Milliy til** — millat boʻlib shakllangan jamoaning umumiy tili.

**Monolog** — soʻzlovchining oʻziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini eʼtiborda tutmaydigan nutq.

**Morfema** — tilning maʼnoli, boshqa maʼnoli qismlarga boʻlinmaydigan eng kichik birligi. Asosiy xususiyatiga koʻra, morfemalar ikki turga boʻlinadi: 1) leksik morfema; 2) affiksial morfema. Mas., ishchi soʻzida ikki morfema bor: ish va chi – affiksial morfema.

**Morfologiya** — 1. Soʻz shakllari haqidagi Grammatik taʼlimot. Morfologiya sintaksis bilan birga grammatikani tashkil etadi: Oʻzbek tili leksikologiyasi va morfologiyasi. 2. Tilning morfologik qurilishi: Oʻzbek tilining leksikasi va morfologiyasi.

**Nutq** — 1. Tilning amaliyot shakli, voqelanishi; soʻzlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa. 2. Nutqning kommunikatsiya maqsadi va

sharoitiga qarab leksik va grammatik vositalardan muvofiq'ini saylab ishlatish bilan xarakterlanuvchi turi: Rasmiy nutq. So'zlashuv nutqi. 3. Sintaktik ifodaning turi: Muallif nutqi. O'zga nutqi.

**Nutq tovushi** — nutq a'zolarining artikulyatsiya bilan hosil bo'luvchi eng kichik nutq birligi.

**Nutq uslublari** — til uslublarning nutqning muayyan ko'rinishlarida namoyon bo'lishi.

**Ovoz** — tovush paychalarining titrashi bilan bog'liq holda og'iz bo'shlig'ida hosil bo'ladigan tovush.

**Ona tili** — bolaning yoshlikdan atrofdagi kattalarga taqlid qilish yo'li bilan o'rganadigan tili

**Onomastika** — 1. Tilshunoslikning atoqli otlarni o'rganuvchi bo'limi. 2. Atoqli otlar majmui (tizimi).

**Og'zaki nutq** — tovush (talaffuz) bilan ifodalangan nutq.

**Paronimlar** — fonetik tarkibi boshqa-boshqa, talaffuzdagina o'xshash, yaqin bo'lib qoladigan so'zlar: *fakt* – *pakt*, *abzal* – *afzal*, *amr* – *amir* kabi.

**Piktografik yozuv** — nutq mazmuni rasm, shartli tasvir tarzidagi grafik shakllar asosida ifodalanadigan yozuv.

**Publitsistik uslub** — funksional uslubning bir turi bo'lib, u ijtimoiy-siyosiy so'z va iboralarning qo'llanishi bilan, janrlarning xilma-xilligi va buning natijasida til vositalaridan uslubiy foydalanishning rang-barangligi va shu kabi belgilari bilan xarakterlanadi. Publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda, vaqtli matbuotda, siyosiy chiqishlarda, majlislardagi nutqlar va sh.k.larda o'z ifodasini topadi.

**Purism** — tilning sofliğini saqlashga, chet tillardan so'z o'zlashtirishga qarshi chiqish.

**Rasmiy - ish uslubi** — funksional uslubning bir turi bo'lib, u rasmiy (ish-idoraga xos) leksika va frazeologiyaga egaligi, so'zlarning to'g'ri, nomlovchi ma'nosida qo'llanishi, bir qolipdagi iboralarning, amalmansab atamalarining keng ishlatilishi, ekspressiv nutq vositalarining deyarli yo'qligi kabi belgilari bilan ajralib turadi.

**Sinonimiya** — til birliklarining (so'zlar, iboralar va b.) bir xil denotativ ma'noga ega bo'lishi: Leksik sinonimiya. Frazeologik sinonimiya. Affiksial sinonimiya. Sintaktik sinonimiya.

**Sintaktik aloqa** — soʻz birikmasi hamda gap qismlarining oʻzaro bogʻlanishi. Sintaktik aloqaning ikki turi farqlanadi: 1) teng aloqa; 2) tobe aloqa.

**Stilistika** — uslubshunoslik. Uslubiyat.

**Sunʼiy til** — tabiiy(bor boʻlgan) tillar unsurlaridan xalqaro aloqa uchun yordamchi vosita sifatida yaratiladigan til: *Esperanto, interlingva, ido va b.*

**Soʻz** — leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan koʻrinishi. Oʻz tovush qobigʻiga ega boʻlgan, narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular oʻrtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan, turli grammatik maʼno va vazifalarda qoʻllanadigan eng kichik nutq birligi.

**Soʻzlashuv uslubi** — funksional uslubning bu turi oʻziga xos ish koʻrish sharoiti bilan, intonatsiya vositalari, mimika, imo-ishora kabilardan keng foydalanishi bilan, oddiy leksik va frazeologik birliklarning keng ishlatilishi va shu kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

**Tabiiy til** — haqiqiy maʼnodagi, yaʼni fikr alishuv quroli sifatida avloddan avlodga oʻtib kelayotgan til.

**Talaffuz** — nutq tovushlarining aytilishi: toʻgʻri talaffuz, adabiy talaffuz.

**Termin** — fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan soʻz yoki soʻz birikmasi; atama.

**Terminologik lugʻat**—maʼlum bir sohaga oid soʻz-terminlarni qayd etuvchi lugʻat

**Til oilasi** — oʻzaro oʻxshashliklari kelib chiqish asosining umumiyligi bilan izohlanadigan tillar guruhi: *Turkiy tillar oilasi.*

**Tovush almashinuvi** — morfema ifoda planidagi ayni bir tovushning turli holatlarda boshqa tovush bilan almashinuvi: *ong-angla, yurak-yuragi* kabi.

**Uslub** — til unsurlarining maʼlum vazifa bajarishiga bogʻliq holda birlashadigan, til birliklarining oʻzaro tanlanishi, birikishi va shu kabilar bilan ajralib turuvchi tizimlar: *Til uslublari. Funksional uslublari.*

**Uslubiyat** — til birliklarining uslubiy imkoniyat va xususiyatlari, funksional-uslubiy, emotsional-ekspressiv boʻyogʻi, shuningdek, nutqda til vositalarini maqsadga muvofiq tarzda tanlash va qoʻllash haqidagi taʼlimot.

**Fleksiya** — bir necha grammatik ma’noni bir yo‘la ifodalaydigan shakl yasovchi morfema (rus tilshunosligida “okonchaniye” deb yuritiladi). O‘zakning morfonologik o‘zgarishi.

**Flektiv til** — grammatik ma’nolar fleksiya yo‘li bilan ifodalanadigan tillar kiradi. Bunda birdan ortiq grammatik ma’no birgina grammatik ko‘rsatkich orqali ifodalanadi: rus tilidagi kniga so‘zi tarkibidagi –a qo‘shimchasi jinsni (jenskiy rod), bosh kelishikni, birlik sonni bildirib kelgan. Flektiv tillarga hind-yevropa, semit, xamit tillari kiradi.

**Frazeologik birlik** — tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga, gapga teng, semantic jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqga tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik. Turg‘un birikmalarning obrazli, ko‘chma ma’noga ega turi. Mas., *tomdan tarasha tushganday, oyog‘ini qo‘liga olmoq, sichqonning ini ming tanga* va b.

**Xalqaro til** — millatlararo aloqa vositasi sifatida tavsiya etiladigan sun’iy til.

**Sheva** — mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammatik umumiylikka ega bo‘lgan, bir yoki bir necha qishloqni o‘z ichiga oluvchi kichik bir qismi, guruhi.

**O‘lik til** — jonli iste’moldan chiqqan (tabiiy so‘zlashuv tili bo‘lmagan), yozma yodgorliklarda saqlangan til. Mas., *lotin tili*.

**Harfiy yozuv** — har bir grafik shakl bilan alohida nutq tovushi ko‘rsatiladigan yozuv.

**Hikmatli so‘z** — aniq va ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap: Oz demak - hikmatga bois, oz yemak ]- sihatga bois.

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI**

O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunni bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari (ilova qilinadi) tasdiqlansin.
2. Respublika vazirliklari, idoralari, homiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalami joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo‘llanma sifatida o‘zbek tilining imlo lug‘atini, kishi ismlari va joy nomlari lug‘atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralari ko‘rsinlar.
4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta’lim va fan hamda ijtimoiy masalalar va madaniyat bo‘limlariga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi

I. KARIMOV

Toshkent shahri,  
1995-yil 24-avgust

### **O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI HARFLAR IMLOSI**

Unlilar imlosi:

1. A a harfi: 1) aka, alanga, aloqa, og‘a; sentabr, noyabr kabi so‘zlarda old qator, keng, lablanmagan unlini ifodalash uchun yoziladi; 2) bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida, vaqt, vahm kabi so‘zlarda a aytiladi va yoziladi.

2. Oo harfi: 1) ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat kabi so‘zlarda orqa qator, keng, lablangan unlini ifodalash uchun yoziladi; 2) boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos kabi o‘zlashma so‘zlardagi o‘rta keng, lablangan unlini ifodalash uchun yoziladi;

3.1 i harfi: 1) ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq kabi soʻzlarda old qator, tor, lablanmagan unlini ifodalash uchun yoziladi; 2) oʻtin, oʻrik, boʻlim kabi oldingi boʻgʻinida o unlisi keladigan soʻzlaming keyingi boʻgʻinida i aytiladi va yoziladi. 4. U u harfi: 1) uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz; mafkura; koʻzgu, uyqu; aluminiy, yubiley kabi soʻzlarda orqa qator, tor, lablangan unlini ifodalash uchun yoziladi; 2) qovun, sovun, tovush, yovuz, qirgʻovul, chirmovuq kabi soʻzlaming oldingi boʻgʻinida o unlisi kelsa, keyingi yopiq boʻgʻin boshidagi v undoshidan keyin u aytiladi va yoziladi.

5. Oʻ oʻ harfi: oʻt, oʻq, oʻzbek, oʻsimlik, doʻppi; boʻtakoʻz, semizoʻt, gulkoʻrpa, nooʻrin kabi soʻzlarda orqa qator, oʻrta keng, lablangan unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. E e harfi ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr, atelye; eʻlon, neʻmat sheʻr kabi soʻzlarda old qator, oʻrta keng, lablanmagan unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi: 1) unlilar orasiga baʻzan y undoshi qoʻshib aytilsa ham , yozilmaydi: a) ia: material, milliard, radiator, tabiat, shariat kabi; b) io: biologiya, million, stadion, radio kabi; c) ai: mozaika, ukrain, said, maishat kabi; d) oi: alkaloid, ellipsoid, doim, shoir, oilakabi; e) ea: teatr, okean, laureat kabi; 2) ae, oe unlilari soʻz ichida kelganda ikkinchi unli y aytilsa ham, asliga muvofiq e yoziladi: aerostat, aeroport kabi. Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: manfaat, kauchuk, aorta, saodat, poema burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, rioya va boshqalar.

Undoshlar imlosi:

8. B b harfi: 1) bobo, bahor, bir, majbur, zarb kabi soʻzlarda jarangli, portlovchi, lab undoshini ifodalash uchun yoziladi; 2) kitob, yuzlab, kelib kabi soʻzlar oxirida p aytilsa ham , b yoziladi; 3) qibla, tobla kabi soʻzlarda baʻzan v aytilsa ham, b yoziladi.

9. P p harfi: paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop kabi soʻzlarda jarangsiz, portlovchi, lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. V v harfi: 1) ov, suv, kuyov, ovoz, savol, volida, vatan kabi soʻzlarda ovozdor, sirgʻaluvchi, lab undoshini ifodalash uchun yoziladi; 2) avtobus, avtomat kabi oʻzlashma soʻzlarda v baʻzan f aytilsa ham, v yoziladi.

11. F f harfi: 1) fan, feʻl, futbol, fizika, asfalt, juft, insof, isrof kabi soʻzlarda jarangsiz, sirgʻaluvchi, lab undoshini ifodalash uchun

yoziladi; 2) fasl, fayz, Fotima, fursat kabi soʻzlarda f tovushi baʼzan p aytilsa ham, asliga muvofiq f yoziladi.

12. M m harfi: moy, muborak, tomon, umum kabi soʻzlarda ovozdor, lab-lab, burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. D d harfi: 1) dala, odat, bunyod, modda, jiddiy kabi soʻzlarda jarangli, portlovchi, til oldi undoshni ifodalash uchun yoziladi; 2) obod, savod, marvarid, zavod, pud, sud; badqovoq, badxoʻr kabi soʻzlarda t aytilsa ham, d yoziladi.

14. T tharfi: tong, tun, butun, oʻtin, oʻt, kut kabi soʻzlarda til oldi, jarangsiz, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. Z z harfi: 1) zar, zamon, toza, oʻzbek, yoz, gʻoz kabi soʻzlarda til oldi, jarangli, siigʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi; 2) iztirob, izquvar, boʻzchi, tuzsiz kabi soʻzlarda jarangsiz undoshdan oldin s aytilsa ham, z yoziladi.

16. S s harfi: sogʻ, somon, oson, asos, olmos kabi soʻzlarda til oldi, jarangsiz, sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. Sh sh harflar birikmasi shahar, shisha, shodlik, ishq, pishiq, bosh, tosh kabi soʻzlarda til oldi, jarangsiz, sirgʻaluvchi, ikki toʻsiqli undoshni ifodalash uchun yoziladi. Sh harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga tutuq belgisi qoʻyiladi: Isʻhoq, asʻhob kabi.

18. J j harfi: 1) jon, jahon, juda, tijorat, rivoj, vaj kabi soʻzlarda til oldi, jarangli, ikki toʻsiqli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi; 2) jurnal, projektor; gijda, ajdar, tiraj kabi oʻzlashma soʻzlarda til oldi, jarangli, ikki toʻsiqli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. Ch ch harflar birikmasi: choy, chevar, chiroyli, chaman, achchiq, uchun, bichiqchi, kuch, kech kabi soʻzlarda til oldi, jarangsiz, ikki toʻsiqli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. R r harfi: rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor kabi soʻzlarda til oldi, ovozdor, titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. L l harfi: lola, loyiq, laʼl, iloj, mahal kabi soʻzlarda sirgʻaluvchi, ovozdor, yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. N n harfi: 1) non, nomus; ona, tana; bilan, tomon kabi soʻzlarda til oldi, ovozdor, burun undoshini ifodalash uchun yoziladi; 2) shanba, yondosh, jonbozlik, yonma-yon, koʻrinmaslik kabi soʻzlarda n tovushi baʼzan m aytilsa ham, n yoziladi.

23. G g harfi: gul, goʻzal; ega, gugurt; teg, eg kabi soʻzlarda til orqa, jarangli, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. K k harfi: koʻl, koʻylak; uka, moki; tok, bilak kabi soʻzlarda til orqa, jarangsiz, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.



25. Y y harfi: yo‘l, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy kabi so‘zlarda til o‘rta, sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. Ng ng harflar birikmasi: yangi, ko‘ngil, dengiz, singil, bordingiz; keling; tong, ming, teng kabi so‘zlarda til orqa, ovozdor, burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. Q q harfi: qizil, qim iz, qirq; haqiqiy, aql, oq, uq, sariq kabi so‘zlarda chuqur til orqa, jarangsiz, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. G‘ g‘ harfi: g‘oz, bag‘ir, tog‘ kabi so‘zlarda chuqur til opqa, jarangli, sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. X x harfi: xabar, xo‘roz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix kabi so‘zlarda chuqur til orqa, jarangsiz, sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. H h harfi: hosil, hamma, bahor isloh, nikoh kabi so‘zlarda jarangsiz, sirg‘aluvchi, bo‘g‘iz undoshni ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi: 1) baland, Samarqand, poyezd; bo‘st, artist, g‘isht kabi so‘zlarda d, t tovushlari ba‘zan aytilmasa ham, yoziladi; 2) metall, kilogramm, kilovatt, kongress kabi o‘zlashma so‘zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so‘zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo‘shilsa, so‘z oxiridagi bir harf yozilmaydi: metall + lar = metallar, kilogramm + mi = kilogrammi kabi.

32. ‘ tutuq belgisi: 1) a ‘io, ba‘zan, m a‘yus, ta‘zim; ra‘y, ta‘b; e‘ion, e ‘tibor, e ‘tiqod, m e‘mor, ne‘mat, she‘r, fe‘l, N u‘mon, shu‘la kabi o‘zlashma so‘zlarda unli dan keyin shu unli tovushning cho‘ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo‘yiladi; mo‘jiza, mo‘tadil, mo‘tabar kabi so‘zlarda o‘ unlisi cho‘ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo‘yilmaydi; 2) in‘om, san‘at, qat‘iy, mas‘ul kabi o‘zlashma so‘zlarda unlini o‘zidan oldingi undosh tovushdan ajratib ifodalash uchun qo‘yiladi.

### **Asos va qo‘shimchalar imlosi :**

33. Qo‘shimcha qo‘shilishi bilan so‘z oxiridagi unli o‘zgaradi: 1) a unlisi bilan tugagan fe‘llarga -v, -q, -qi qo‘shimchasi qo‘shilganda a unlisi o aytiladi va shunday yoziladi: sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz; so‘ra-so‘roq, bo‘ya-bo‘yoq; o‘yna-o‘ynoqi, sayra-sayroqi kabi; 2) i unlisi bilan tugagan ko‘pchilik fe‘llarga -v, -q qo‘shimchasi qo‘shilganda, bu unli u aytiladi va shunday yoziladi: o‘qi-o‘quvchi,

qazi-qazuvchi, sovi-sovuq kabi. Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga q qo'shimchasi qo'shilganda, bu unli i aytiladi va shunday yoziladi: og'ri - og'riq, qavi - qaviq kabi. Eslatma: 1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv qo'shiladi: ol - oluv, yoz - yozuv kabi; 2) undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: uz-uzuq, yut-yutuq kabi. Lekin uyushiq, burushiq, uchuriq (shuningdek, bulduriq) kabi so'zlarining uchinchi bo'g'inida i aytiladi va shunday yoziladi.

34. k, q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, bek, yo'q kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik q o'q qo'shimchasi qo'shilganda, k undoshi g undoshiga, q undoshi g' undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak - tilagi, yurak - yuragim, kubok - kubogi, bek - begi; tayoq — tayog'i, qoshiq - qoshig'i, yaxshiroq - yaxshirog'i, yo'q - yo'g'i kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarda egalik qo'shimchasi qo'shilganda k, q tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: ishtirok - ishtiroki, ocherk - ocherki, erk-erki, huququhuquqim, ravnaq-ravnaqi, yuq-yuqi kabi.

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi: 1) o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, qayir, ayir kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi -il qo'shimchasi qo'shilganda, ayrim sifatlarga fe'l yasovchi -ay qo'shimchasi qo'shilganda ikki, olti, yetti so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: o'rin-o'rnim, qorin - qornim, burun - burnim, o'g'il - o'g'li, ko'ngil - ko'ngli, yarim- yarmi; qayir-qayril, ulug'-ulg'ay, sariq - sarg'ay, ikki-ikkov, ikki-ikkala, yetti-yettov kabi; 2) u, bu, shu, o'sha olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -ga, -gacha, -cha qo'shimchalari qo'shilganda, n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: unda, bunday, shunday, o'shancha kabi; bu olmosh va ravishlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: buningiz, o'shanisi kabi; 3) o, o', u, e unilari bilan tugaydigan so'zlarga qo'shimchalar quyidagicha qo'shiladi: a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -si (yoki -lari) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: bobom, bobong, bobosi; bobomiz; orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzulari kabi b) parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda, bir y tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yimiz, obro'yingiz kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, avzo, obro', mavqe so'zlariga -yi shaklida; xudo,

mavzu soʻzlariga esa -si shaklida qoʻshiladi: avzoyi, mavzusi kabi. Dohiy, vodi y kabi y undoshi bilan tugagan soʻzlarga ham III shaxsda -si qoʻshiladi: Fargʻona vodiysi kabi; 4) men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qoʻshimchalari qoʻshilganda, qoʻshimchadagi n aytilmaydi va yozilmaydi: meni, meníng, meniki; seni, seniki kabi.

36. Quyidagi qoʻshimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi: 1) -bon, -boz qoʻshimchalari -von, -voz aytilsa ham, hamma vaqt -bon, -boz yoziladi: darvozabon, masxaraboz kabi. Lekin -vachcha qoʻshimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: amakivachcha, xolavachcha kabi. 2) oʻrin-payt kelishigi va chiqish kelishigi qoʻshimchasining, oʻtgan zamon yasovchisi va III shaxs koʻrsatkichi -di qoʻshimchasining boshidagi undosh baʼzan t aytilsa ham, d yoziladi: ishda, misdan, ketdi, kelmabdi kabi.

37. Quyidagi qoʻshimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi: 1) taqlid soʻzlardan feʼl yasovchi -ilia (chirilla, taqilla) qoʻshimchasi soʻz tarkibida v yoki u tovushi boʻlganda -ulla aytiladi va shunday yoziladi: shovulla, lovulla, gurulla kabi; 2) nisbat shaklini yasovchi -dirqoʻshimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir boʻgʻinli soʻzlarga (kel soʻzidan boshqa), shuningdek, z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qoʻshiladi: quvdí, egdí, kuldí, yondí; oʻtkazdí, tomizdí kabi. Qolgan barcha hollarda bu qoʻshimcha -tir aytiladi va shunday yoziladi: tikdí, kestí, uyaltí, chaqirtí kabi; 3) joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi -ga, chegara bildiruvchi -gacha, ravishdosh shaklini yasovchi -gach, -guncha, -gani, -gudek, sifat-dosh shaklini yasovchi -gan, buyruq maylining ikkinchi shaxs koʻrsatkichi -gin, shuningdek, —gina qoʻshimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi: a) k undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda, bu qoʻshimchalarning bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi: tokka, yoʻlakkacha, koʻnikkach, zerikkuncha, toʻkkani, kechikkudek, bukkán, ekkín, kichikkina kabi; b) q undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda, bu qoʻshimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qoʻrqqudek, achchiqqina kabi; d) qolgan barcha hollarda, soʻz qanday tovush bilan tugashidan va bu qoʻshimchalarning bosh tovushi k yoki q aytilishidan qatʼiy nazar, g yoziladi: bargga, pedagogga, bugʻga, sogʻga, ogʻgan, sigʻguncha kabi.

### **Qo'shib yozish:**

38. Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquwat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab kabi.

39. -(a)r (inkor shakli -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nm as kabi.

40. Takrortaqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: piipirak (pir-pir+ak), hayhayla (hayhay+la), gijgijla (gij-gij+la) kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan yasalgan narsa-buyum nomini bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: karnaygul, qo'ziqorin otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida hosil qilib, predmet nomini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: tog'olcha, cho'laylpiz, suvilon, qashqargul kabi. 45. Marosim, afsona kabilami bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochildasturxon kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: Yangiyo'l, Tortko'l, Mirzacho'l, Sirdayo, Kosonsoy, Yangiobod, Xalqobod kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: O'rta Osiyo, Kohna Urganch, O'rta Chirchiq kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z taijima qilish yo'li bilan hosil qilingan so'zlar qo'shib yoziladi: kinoteatr,

radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: SamDU, ToshDUning kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: O'z XDP MK (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi) kabi.

50. Bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: yo'o'q, nimaa, himm, uffff kabi. Chiziqcha bilan yozish 51. Juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n -o'n beshta (10-15), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bitalab), baland - baland, chopachopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlaigacha, hamma hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan kabi. Eslatma: 1) juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: baxt-saodatli, xayrxo'shlashmoq kabi; 2) juft so'z qismlari orasida -u (-yu) bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi: do'st-u dushman (do'st-dushman), kecha-yu kunduz (kechakunduz) kabi; 3) yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oldi, borasan-qo'lasan. uxlabman-qolibman kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-barobar kabi so'z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq so'zi qo'shib yoziladi).

53. So'zning -ma, ba- yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: ko'chama-ko'cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: ro'baro', darbadar kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tajjima qilish yo'li bilan olingan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: unter-ofitser, kilovatt-soat kabi.

55. -chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey) yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, boraylik-chi, sena, kutaman-a, bolaya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo'y-e, yashang-e, keldi-yey kabi. Ammo -mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, qina) yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi:

keldimi?, keliboq, o‘ziyoq, ko‘rganov, ko‘rdiyov, mengina, qo‘shiqqina kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi, -inchi qo‘shimchasi o‘miga chiziqcha (-) qo‘yiladi: 7-sinf, 5-«A» sinf o‘quvchisi, 3-, 7-, 8- sinf o‘quvchilari, 60- yillar, 1991- yilning 1-sentabri kabi. Tartib sonni ko‘rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XXI asr, IX sinf kabi.

### **Ajratib yozish:**

57. Qo‘shma fe‘lning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, ta’sir et, tamom bo‘ldi, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.

58. Ko‘makchi fe‘l va to‘liqsiz fe‘l mustaqil fe‘ldan ajratib yoziladi: aytib ber, olib ko‘r, so‘rab qo‘y, ko‘ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi. Lekin mustaqil fe‘l bilan yordamchi fe‘l orasida tovush o‘zgarishi bo‘lsa, bunday qismlar qo‘shib yoziladi: aytaver (ayta ber), boroladi (bora oiadi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

59. Ko‘makchilar ajratib yoziladi: shu bilan, soat sayin, bo‘lgan sari, bu qadar, kun bo‘yi kabi. Lekin bilan ko‘makchisining -la shakli, uchun ko‘makchisining -chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: sen-la, sen-chun kabi.

60. Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o‘sha so‘zlari o‘zidan keyingi yoki oldingi so‘zdan ajratib yoziladi: hamma vaqt, har kim, hech qàysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o‘sha yoqqa kabi. Lekin biipas, biroz, birato‘la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so‘zlari qo‘shib yoziladi: qayoqqa, qayerda kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to‘q, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi so‘zlar ajratib yoziladi: tim qora, liq to‘la, lang ochiq, och sariq kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: o‘n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi kabi.

63. Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismli chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko‘pdan ko‘p, tekindan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so‘zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so‘zlarga yishaklida qo‘shiladi: dardi bedavo, nuqtayi nazar, taijimayi hoi kabi. Lekin izofa

yozi olmaydigan soʻzlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi oʻzbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan soʻzlar qoʻshib yoziladi: gulbeor (guli beor), dardisar kabi.

Bosh harflar imlosi

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Dilbar Oʻrinova, Muhabbat Majidova, Azamat Shuhrat ogʻli, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif Sofizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpigʻichxon, Salomjon Alikov kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: Andijon, Yangiyoʻl (shaharlar), Naymancha, Bulqoboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chigʻatoy (mahallalar), Zavraq(dara), Yorqoq (yaylov), Qoratogʻ, Pomir (togʻlar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal), Turkiya, Hindiston (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi boʻlib kelganida bosh harf bilan boshlanadi: Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va sanʼat asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qoʻyilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: “Tong” (mehmonxona), «Saodat” (firma), « Navroʻz ” (xayriya jamgʻarmasi), «Kamalak” (matbaa birlashmasi), «Guncha” (bogʻcha), «Botanika” (sanatoriy), «Paxtakor» (stadion), «Qutlugʻ qon» (roman), «Dilorom» (opera), «Tanovor» (kuy), «Ozodlik» (haykal), «Jasorat” (yodgorlik), «Sino» (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navroʻz bayrami kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: Oʻzbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Biriashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi kabi. Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: Bosh vazirning

o‘rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Miiliy tiklanish demokratik partiyasi kabi. Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: Sog‘liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: “O‘zbekiston Qahramoni” (unvon), «Oltin Yulduz” (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: “Sog‘lom avlod uchun” (orden), “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” (faxriy unvon), “Matbaa a‘lochisi” (nishon) kabi.

73. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi: Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim (O.Yoqubov) Eslatma: 1) ko‘chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so‘zi (agar u atoqli ot bo‘lmasa) kichik harf bilan yoziladi: “Bu men”, - qo‘rqibgina javob berdi To‘lagan. (O.Yoqubov); 2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziqcha qo‘yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi: Ma‘muriy huquqbuzadik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishga tayyoriash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni: - mazkur ishni ko‘rib chiqish uning huquq doirasiga kirish - kirmasligini; - ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to‘g‘ri tuzilgan-tuzilmaganligini hal qiladi; 3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo‘yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi: Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy so‘zlar, 2) o‘zbekcha so‘zlar, 3) tojik tilidan kirgan so‘zlar, 4) arab tilidan kirgan so‘zlar, 5) rus tilidan kirgan so‘zlar (“O‘zbek tili” darsligidan).

74. Tarkibli nomlaming bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo‘lmagan ba‘zi birikmalaming qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: AQSH (Amerika Qo‘shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo‘g‘inga teng qism bo‘lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: ToshDTU (Toshkent davlat texnika univeisiteti) kabi.

75. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satriga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: to‘q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor kabi. Tutuq belgisi oldingi bo‘g‘inda qoldiriladi: va’-da, ma’-rifat, mash’-al, in’-om kabi.



76. Soʻzning bosh yoki oxirgi boʻgʻini bir harfdan iborat bolsa, ular quyidagicha koʻchiriladi: 1) soʻz boshidagi bir harfdan iborat boʻgʻin yolgʻiz oʻzi oldingi satrda qoldirilmaydi: a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, esnik-dan kabi; 2) soʻz oxiridagi bir harfdan iborat boʻgʻin yolgʻiz oʻzi keyingi satrga koʻchirilmaydi: mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa kabi.

77. Oʻzlashma soʻzlamning boʻgʻinlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha koʻchiriladi: 1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda koʻchiriladi: dia-gramma, mono-grafiya kabi; 2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga koʻchiriladi: silin-drik, kasan-drakabi.

78. Bir tovushni koʻrsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda koʻchiriladi: pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz kabi.

79. Bosh harflardan yoki boʻgʻinga teng qism va bosh harfdan iborat qisqartmalar, shuningdek, koʻp xonali raqamlar satrdan satrga boʻlib koʻchirilmaydi: AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi oʻzi tegishli raqamdan ajratib koʻchirilmaydi: 5-»A» sinf, V «B» guruh, 110 gr, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

81. Aloqli ot taikibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga koʻchirilmaydi: "Navroʻz-92" (festival), «Oʻqituvchi-2004» (koʻriktanlov), «Andijon-9», «Termiz-16» (gʻoʻza navlari), «Boing»-767" (samolot), «Foton-774» (televizor) kabi.

82. A. J. Jabborov, A. D. Abduvaliyev kabilarda ismning birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib koʻchirilmaydi. Shuningdek v.b. (va boshqalar), sh.k. (shu kabilar) singan harfiy qisqartmalar ham oldingi soʻzdan ajratib koʻchirilmaydi.

### O‘zbek xalq maqollari

- Adolat qilichi kesgan qo‘l og‘rimas.
- Aql ko‘pga yetkazar,  
Hunar — ko‘kka.
- Aqlning qayrog‘i - bilim.
- Armondan qolsang ham, darmondan qolma.
- Arzon beillat bo‘lmas,  
Qimmat - behikmat.
- Avval iqtisod, keyin siyosat.
- Avval taom, badaz kalom.
- Baland nom baland tomdan ulug‘.
- Befoyda so‘zni aytma,  
Foydali so‘zdan qaytma.
- Bola zamonasiga o‘xshar.
- Bulbul chamanni sevar,  
Odam - Vatanni.
- Buromad bo‘lmasa, daromad bo‘lmas.
- Daromadga qarab buromad.
- Daryo suvini bahor toshirar,  
Odam qadrini mehnat oshirar.
- Do‘stlik - barcha boylikdan afzal.
- Do‘stsiz kishi bor, dushmansiz kishi yo‘q.
- El sog‘lig‘i - yurt boyligi.
- Erinchoqning qo‘li yetmas,  
Qo‘li yetsa ham ishi bitmas.
- Erta ekan erta o‘rar.
- Farzand — belning quvvati.
- Fikri ravshaning so‘zi ravshan.
- Fosiqdan hayo tilama,  
Zolimdan - vafo.
- Gap quvgan baloga yo‘liqar,  
Yo‘l quvgan - xazinaga.
- Gapning qisqasi yaxshi,  
Qisqasidan - hissasi.
- Gunohiga yarasha jazosi.
- Go‘zallik husnda emas, mehnatda.

- Har daryoning o‘z kemasi bor,  
Har hunaming - o‘z chashmasi.
- Harakat, harakatda barakat.
- Haq gap tosh kesar.
- Haqiqat oltindan qimmat.
- Hisobli do‘st ayrilmas.
- Hunar bilan ilmning o‘g‘risi yo‘q.
- Hunarli er xor bo‘lmas,  
Do‘st-dushmanga zor bo‘lmas.
- Hunarmandning noni butun.
- Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan.
- Hurmating — savlating,  
Mehnating — davlating.
- Ikki kemanding boshini tutgan g‘arq bo‘lar.
- Ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmas.
- Intizomli lashkar yengilmas.
- Ish ustasidan qo‘rqar.
- Ishlaganing mingga,  
O‘rganganing o‘zingga.
- Jag‘likka jag‘ bo‘lguncha,  
Aqliga qo‘l bo‘l.
- Jon koyitmay ish bitmas.
- Joy berganga joy ber,  
Jon berganga — jon.
- Johil ulfat — boshingga kulfat.
- Jo‘xori eksang, tubiga ko‘za botsin.
- Kattaga hurmatda bo‘l,  
Kichikka izzatda bo‘l.
- Kattaga salom ber,  
Kichikka - kalom.
- Ko‘p bo‘lsa, ketar,  
Oz bo‘lsa, yetar.
- Ko‘pchilik — mo‘lchilik,  
Ozchilik — kamchilik.
- Laylakning ketishiga emas,  
kelishiga boq.
- Mehnat qancha qiyin bo‘lsa,

Keti shuncha shirin bo‘lar.

- Mehr - ko‘zda, aql - so‘zda.
- Molini quritaman degan pul qilar,  
Donini quritaman degan un qilar.
- Nafs — xiyonat yo‘li.
- Narvonga chiqsang, shoshmay chiq,  
O‘z haddingdan oshmay chiq.
- Nomardga ishi tushmagan  
Mardning qadrini bilmas.
- Nomusni yoshlikdan ehtiyot qil.
- Odam bo‘lish oson,  
Odamiy bo‘lish qiyin.
- Olim bo‘lsang, olam seniki.
- Olish o‘rgatmas, sotish o‘rgatar.
- Ona yurtning omon bo‘lsa,  
Rangi ro‘ying somon bo‘lmas.
- Ota rozi — xudo rozi.
- Otalar so‘zi — aqlning ko‘zi.
- Otangning duosidan ustozning faxri yaxshi.
- Osh qolsa — davlat,  
Ish qolsa - mehnat.
- Oshning ta’mi tuz bilan,  
Odamning ta’mi so‘z bilan.
- Patirdan qil chiqmas,  
Baxildan - pul.
- Puling kuchli bo‘lguncha,  
Biliming kuchli bolsin.
- Podsho zolim bo‘lsa, yurt to‘zar,  
Podsho odil bo‘lsa, yurt o‘zar.
- Pul bermas ma’raka buzar.
- Pulning onasi — tiyin.
- Pul topguncha hisob top.
- Puxtaning ishi besh,  
Shoshmaning ishi bo‘sh.
- Qadam qo‘y asta-asta,  
Qadam yetguncha ilm ista.
- Qish g‘amini yoz yegan

Xo‘ragini soz yer.

- Qunt bilan o‘rgan hunar,  
Hunardan rizqing unar.
- Qunt bilan ilm o‘rganish,  
Igna bilan quduq qazish.
- Qush tilini qush bilar.
- Rahmat olgan omondir,  
La‘nat olgan yomondir.
- Rejasiz ish — qolipsiz g‘isht.
- Rohatning onasi — mehnat.
- Rost so‘z haqqa qaror topar.  
Rost so‘z — qilichdan o‘tkir.
- Sabog‘ingni bilmasang,  
Do‘konda bo‘z to‘qitar.
- Saqlasang, ming kunlik,  
Saqlamasang, bir kunlik.
- Savolni javobsiz qoldirma,  
Do‘stni — e‘tiborsiz.  
Sevdirgan ham til,
- Bezdirgan ham til.
- Suvdan ilgari — to‘g‘on,  
Balodan ilgari - sadaqa.
- Suvning oqishiga qara,  
Xalqning xohishiga qara.
- So‘zdan so‘zning farqi bor,  
O‘ttiz ikki narxi bor.
- Tadbir bilan mushkul oson bo‘lar.
- Tekin boylik axtarguncha,  
O‘zingga bop hunar top.
- Tikansiz gul bo‘lmas,  
Mashaqqatsiz — hunar.
- Tig‘ yarasi tuzalar,  
Dil yarasi tuzalmas.
- Toma-toma ko‘l bo‘lur,  
Tommay qolsa, cho‘l bo‘lur.
- Tosh bilan otganga osh bilan ot.
- Ulug‘lik yoshda emas, boshda.

- Ustadan shogird o‘zar.
- Uydagi hisob bozorga to‘g‘ri kelmas.
- Uyiga sig‘magan eliga sig‘mas.
- Uyning vayronasi yomon,  
Undan ko‘ngil vayronasi yomon.
- Uzoqqa tuzoq qo‘yma.
- Vafosizda hayo yoq,  
Hayosizda vafo yoq.
- Vatan gadosi — kafan gadosi.
- Vatanning vayronasi,  
Umrning g‘amxonasi.
- Va‘daga vafo — mardning ishi,  
Va‘dasiz — subutsiz kishi.
- Xalq so‘zi — haq so‘z.
- Xalqqa suyansang, to‘lasan,  
Xalqdan chiqsang, so‘lasan.
- Xazina g‘oyibdan emas, mehnatdan.
- Xizmati oz - minnati ko‘p.
- Yaxshilarga yondashsang,  
Maqsadingga yetarsan.
- Yer qadrini bilmaydi yer ekmagan dehqonlar,  
El qadrini bilmaydi el ko‘rmagan nodonlar.
- Yer to‘ymaguncha, el to‘ymas.
- Yer - xazina, suv — oltin.
- Yetti o‘lchab, bir kes.
- Yomg‘ir bilan yer ko‘karar,  
Duo bilan — el.
- Yurishga yo‘l yaxshi,  
Aytishga - baxshi.
- Yutuqning kaliti - mehnat.
- Yo‘lda yursang tuya ishlat,  
Elda yursang - miyya.
- Zamon senga boqmasa,  
Sen zamonga boq.
- Zamon seni o‘qitar,  
Tayoq bilan so‘qitar.
- Ziyrakning aqli tosh yorar,

Nomardning mushti — bosh.

- O‘ylab qilingan ish bitar,  
O‘ylamay qilingan ish yitar.
- O‘qigan boshqa, uqqan boshqa.
- O‘qimay mulla bo‘lgan — Cho‘qimay qarg‘a bo‘lar.
- O‘qishning erta - kechi bo‘lmas.
- O‘choqdagi o‘t boshqa,  
Yurakdagi o‘t boshqa.
- G‘am yuki tog‘dan og‘ir.
- G‘at-g‘at qilgan kamaychi  
Baloga qolgan sumaychi.
- Gayrat etgan tog‘ni kesar.
- G‘urur g‘urbatga solur.
- Sheriklashib ishlaganning  
Yuragi sherday bo‘lar.
- Shirin so‘z - shakardan shirin.
- Shoshganning ishi unmas.
- Shoshmasang, tez yetasan,  
Shoshgandan o‘zib ketasan.
- Chin boylik - imon boylik.
- Chin so‘z — mo‘tabar,  
Yaxshi so‘z — muxtasar.
- Cho‘pon ko‘p bo‘lsa,  
Qo‘y harom o‘lar.
- Chumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin.

**H va X harfli soʻzlarning imlo lugʻati**  
**h — soʻz boshida**

|             |             |             |             |
|-------------|-------------|-------------|-------------|
| ha          | hamdam      | harfma-harf | habash      |
| hamd-u sano | hargiz      | habib       | hamiyat     |
| harom       | had         | hamisha     | harorat     |
| hadeb       | hamjihat    | hars-hars   | hadiksirash |
| hamkasb     | harsillamoq | hadis       | hamkor      |
| harchand    | hadya       | hamla       | hasad       |
| hafsala     | hamma       | hasanot     | hafta       |
| hammabop    | hafta       | hammolc     |             |
| hasip       | haftiyak    | hammom      | hasrat      |
| hah         | hamon       | hassa       | ha-ha       |
| hamqishloq  | hatlamoq    | hamroh      | hatto       |
| haj         | hamsoya     | havas       | hajm        |
| hamxona     | havaskor    | hajv        | hamyon      |
| havo        | hakam       | hamshahar   | havza       |
| hakim       | hamshira    | hayajon     | hakka       |
| handalak    | haybat      | hakkalamoq  | handasa     |
| haydamoq    | hal         | hangoma     | haydovchi   |
| halim       | hansiramoq  | hayfsan     | halinchak   |
| hanuzgacha  | hayhot      | halitdan    | haq         |
| hayiqmoq    | halloslamoq | haqgoʻy     | hayit       |
| halokat     | haqida      | haykal      | halol       |
| haqiqat     | hayo        | halovat     | haqiqatan   |
| hayot       | halqa       | haqorat     | hayqirmoq   |
| halqob      | haqqoniy    | hayrat      | halqum      |
| hayron      | ham         | harakat     | hayvonot    |



|             |                   |             |                |
|-------------|-------------------|-------------|----------------|
| hamal       | harbiy            | hamda       | hardam         |
| hazar       | hazil             | hiylakor    | hazil-huzul    |
| hingillamoq | hazm              | hodisa      | hazrat         |
| hofiz       | hasham            | hojat       | hashamatli     |
| hojatxona   | hashar            | hoji        | hasharot       |
| hokazo      | hokim             | hibsxona    | hokimiyat      |
| hidlamoq    | hidoyat           | holat       | hijjalamoq     |
| holbuki     | hijob             | holva       | hijrat         |
| homiy       | hijriy            | hordiq      | hijron         |
| horimoq     | hikmat            | hormang     | hikoya         |
| horg'in     | hil-hil (pishgan) | hosil       | hilol          |
| hotamtoy    | hilpiramoq        | hovli       | himmat         |
| hovliqmoq   | himmatli          | hovoncha    | himoya         |
| hovuz       | hind              | hovuch      | hindi          |
| hozir       | hiringlamoq       | hozirjavob  | hirotlik       |
| hoshiya     | hirs              | huda-behuda | his            |
| hudud       | his-hayajon       | hujjat      | hiq-hiq        |
| hujra       | hiqildoq          | hujum       | hiqichoq       |
| hukm        | hiqillamoq        | hukmdor     | hisobot        |
| hukmron     | hissadorlik       | hukumat     | hissiyot       |
| hulkar      | hiyla             | humo        | hunarmand      |
| huquq       | hur               | hurkak      | hurkmoq        |
| hurmat      | hurpaymoq         | hurriyat    | husayni (uzum) |
| husn        | husnixat          | huvillamoq  | huzur-halovat  |
| hush        | hushtak           | hushyor     | hushyorxona    |
| ho'l        | ho'plam           | ho'plamoq   | ho'ng-ho'ng    |

## h — soʻz oʻrtasida

|             |              |             |              |
|-------------|--------------|-------------|--------------|
| ahamiyat    | ahbob        | ahd         | ahl          |
| ahil        | ajdarho      | alahlamoq   | alayhissalom |
| alhamdu     | alhazar      | allamahalda | alohida      |
| anhor       | aslaha       | ayyuhannos  | badhazm      |
| badjahl     | baham        | bahamjihat  | bahavo       |
| bahaybat    | baho         | bahodir     | bahona       |
| bahor       | bahr         | bahramand   | bahs         |
| bahuzur     | bamaslahat   | barham      | barhayot     |
| befahm      | behad        | behi        | behisob      |
| behisht     | behold       | behuda      | behuzur      |
| bemahal     | benihoya     | berahm      | boʻhton      |
| daha        | dahan        | dahanaki    | dahliz       |
| daho        | dahshat      | darhaqiqat  | darhol       |
| dehqon      | dehqonchilik | dohiyona    | ehha         |
| ehhe        | ehrom        | ehson       | ehtimollik   |
| ehtirom     | ehtiros      | ehtiyoj     | ehtiyot      |
| es-hush     | fahm-farosat | fahmlamoq   | fasohat      |
| fotiha      | gavhar       | gohida      | goho         |
| gulbahor    | gulchehra    | guvohnoma   | ihota        |
| ilhaq       | ilhom        | ilhombaxsh  | ilohiy       |
| imtihon     | intiho       | islohot     | istehkom     |
| istehzo     | istihola     | istirohat   | izhor        |
| ishtaha     | jabha        | jahannam    | jahd-jadal   |
| jahl        | jaholat      | jahon       | jahongir     |
| jahonshumul | jarohat      | javohir     | jihat        |
| jihaz       | johil        | jumhuriyat  | kaltafahm    |
| kamhafsala  | kamhosil     | karohat     | kampirdahan  |

|              |               |           |             |
|--------------|---------------|-----------|-------------|
| kohin        | lahja         | lahza     | lavha       |
| lohas        | loyiha        | madhiya   | mahal       |
| mahalla      | mahbub        | mahbus    | mahkam      |
| mahkama      | mahkum        | mahliqo   | mahliyo     |
| mahmadona    | mahobat       | mahorat   | mahr        |
| mahrum       | mahsi         | mahsul    | mahtal      |
| mahv         | mahzun        | majhul    | malham      |
| malohat      | marhabo       | marhamat  | marhum      |
| maslahat     | mavhum        | mazhab    | mashhur     |
| mehmon       | mehnat        | mehr      | mehribon    |
| mehrob       | mohir         | mohiyat   |             |
| mubohasa     | mudhish       | muhabbat  | muhandis    |
| muharrir     | muhayyo       | muhim     | muhit       |
| muhlat       | muhofaza      | rnuhojir  | muhokama    |
| muhr         | muhtaram      | muhtasham | muhtoj      |
| mulohaza     | musohaba      | mustahkam | muttaham    |
| mushohada    | nahor         | nahotki   | nasihat     |
| navbahor     | nihol         | nihon     | nihoyat     |
| nihoyatda    | nogahon       | nomahram  | obihayot    |
| ohak         | ohho          | ohangrabo | ohista      |
| ohor         | ohu           | oh-voh    | pahlaviy    |
| pahlavon     | parhez        | payhon    | payraha     |
| pinhona      | podishoh      | qabihlik  | qabohat     |
| qahatchilik  | qahhor        | qahqaha   | qahqahlamoq |
| qahr         | qahramon      | qahraton  | qahvaxona   |
| qimmatbaho   | radiohavaskor | rahbar    | rahmat      |
| rahm-shafqat | rahnamo       | rayhon    | rohat       |

|             |                  |               |              |
|-------------|------------------|---------------|--------------|
| ruhan       | ruhoni           | ruhshunos     | sadarayhon   |
| sahar       | sihat-salomatlik | sahifa        | sahn         |
| sahna       | sahro            | siyohdon      | salohiyat    |
| sarhad      | sarhisob         | sarlavha      | sa'y-harakat |
| sayhon      | sayohat          | sehrgar       | soha         |
| sohibqiron  | sohil            | subhidam      | suhbat       |
| suhbatdosh  | sulhparvar       | tahammul      | tahdid       |
| tahluka     | tahlil           | tahqiriamoq   | tahririyat   |
| tahluka     | tahlil           | tahqiriamoq   | tahririyat   |
| tarahhum    | toshmehr         | to'y-hasham   | tuhfa        |
| uhlamoq     | umumjahon        | umumshahar    | vahhobiylar  |
| vahima      | vaholanki        | vahshiy       | vajohat      |
| valiahd     | voha             | xayrixohlik   | xohlamoq     |
| xushhavo    | yahudiy          | yahudiycha    | yuho         |
| zehn        | zinhor           | zohir         | zuhal        |
| zuhur       | zulhijja         | o'ho          | o'hho'       |
| g'am-hasrat | g'am-            | hasratli(siz) | g'unchadahan |
| shahar      | shahd            | shahd-shakar  | shahid       |
| shahlo      | shahloko'z       | shahriston    | shahriyor    |
| shahzoda    | shak-shubhasiz   | shohi         | shohid       |
| shohnoma    | shohona          | shohsupa      | shubha       |
| shuhrat     | shuzahoti        | chakra        | chorraha     |

### **h — so'z oxirida**

|         |          |         |               |
|---------|----------|---------|---------------|
| Alloh   | anduh    | arvoh   | astagfirulloh |
| banogoh | bazmgoh  | beh-beh | dargoh        |
| dastgoh | dilsiyoh | dugoh   | eh            |

|            |           |          |           |
|------------|-----------|----------|-----------|
| evoh       | fath      | fiqh     | fotih     |
| giyoh      | goh-goh   | gulruh   | gumroh    |
| gunoh      | guruh     | guvoh    | iloh      |
| inshoolloh | izoh      | janggoh  | jarroh    |
| kuloh      | maddoh    | majruh   | makruh    |
| mohir      | namozgoh  | nigoh    | nikoh     |
| nogoh      | ogoh      | oh       | olampanoh |
| qabih      | qadah     | qarorgoh | qiblagoh  |
| rasululloh | ruh       | sath     | sayilgoh  |
| sayigoh    | sayyoh    | segoh    | sipoh     |
| siyoh      | solih     | subh     | sulh      |
| sulloh     | tanbeh    | tarh     | tarovih   |
| tasbeh     | tashbih   | timsoh   | uh        |
| xayrixoh   | xilvatgoh | xonaho   | o‘yingoh  |
| shahonshoh | shoh      | shohruh  | shukuh    |

### **x— so‘z boshida**

|          |               |            |           |
|----------|---------------|------------|-----------|
| xabar    | xaspo‘shlamoq | xirillamoq | xafo      |
| xastalik | xirmon        | xafaqon    | xat       |
| xiroj    | xala          | xatar      | xirom     |
| xalal    | xatib         | xirs       | xalaqit   |
| xatcho‘p | xir-xir       | xalat      | xatlamoq  |
| xislat   | xalfa         | xatm       | xit       |
| xalifa   | xatna         | xitlanmoq  | xaloskor  |
| xato     | xitob         | xaloyiq    | xat-xabar |
| xitoy    | xalq          | xavf       | xitoycha  |
| xalqaro  | xavotir       | xivich     | xalta     |

|            |              |          |            |
|------------|--------------|----------|------------|
| xaltura    | xaxolamoq    | xayol    | xiyla      |
| xiyobon    | xam          | xayr     | xiyol      |
| xamir      | xayr-ehson   | xiyonat  | xamsa      |
| xanda      | xandaq       | xandon   | xayrixoh   |
| xayriyat   | xazina       | xizmat   | xizr       |
| xoda       | xazon        | xodim    | xanjar     |
| xashak     | xoh          | xarajat  | xari       |
| xarid      | xesh         | xijil    | xohish     |
| xoin       | xaridor      | xijolat  | xoja       |
| xarita     | xilma-xil    | xok      | xarj       |
| xaijlamoq  | xilof        | xokandoz | xilqat     |
| xokisor    | xarob        | xilvat   | xokisor    |
| xaroba     | xil-xil      | xokkey   | xarsang    |
| xilxona    | xo!          | xaitum   | xina       |
| xola       | xarxasha     | xippa    | xoli       |
| xas        | xipcha       | xoliq    | xasis      |
| xipchin    | xolis        | xaskash  | xira       |
| xolos      | xasib        | xirgoyi  | xom        |
| xomaki     | xomashyo     | xomkalla | xomsurp    |
| xomtalash  | xomtama      | xomtok   | xomush     |
| xom-xatala | xomcho't xon | xona     | xonadon    |
| xonaki     | xonanda      | xonatlas | xonavayron |
| xonim      | xontaxta     | xonqizi  | xoqon      |
| xor        | xorij        | xos      | xosiyat    |
| xossa      | xotima       | xotin    | xotira     |
| xotirjam   | xrom         | xudbin   | xuddi      |
| xudo       | xufiyona     | xufton   | xullas     |

|             |               |              |             |
|-------------|---------------|--------------|-------------|
| xulosa      | xulq-atvor    | xum          | xumdon      |
| xumkalla    | xumor         | xun          | xunob       |
| xunrez      | xunuk         | xuijun       | xurmacha    |
| xurmo       | xurofot       | xurrak       | xurram      |
| xursand     | xuruj         | xususiyat    | xutba       |
| xush        | xushbichim    | xushbo‘y     | xushmanzara |
| xushmuomala | xushmulozamat | xushnud      | xushomad    |
| xushovoz    | xushro‘y      | xushtor      | xushvaqt    |
| xushxabar   | xushxat       | xushchaqchaq | xo‘ja       |
| xo‘jayin    | xo‘mraymoq    | xo‘p         | xo‘ra       |
| xo‘rak      | xo‘randa      | xo‘rda       | xo‘rlamoq   |
| xo‘rlik     | xo‘roz        | xo‘rozqand   |             |
| xo‘rsinmoq  | xo‘sh         |              |             |

### **X — so‘z o‘rtasida**

|             |               |                |              |
|-------------|---------------|----------------|--------------|
| abxaz       | alaxsitmoq    | arxaizm        | arxar        |
| arxeologiya | arxitektor    | arxivshunoslik | axborot      |
| axir        | axloq         | axtarmoq       | ayronxo‘rlik |
| badaxloq    | badaxshonlik  | badbaxt        | badxat       |
| badxulq     | badxo‘r       | bamaylixotir   | barxan       |
| baxayr      | baxil         | baxmal         | baxt         |
| baxtiyor    | baxya         | baxshi         | bedilxonlik  |
| bexabar     | bexatar       | bexato         | bexosdan     |
| bodomnusxa  | bojxona       | bosmaxona      | boxabar      |
| bronxit     | gultojixo‘roz | buxgalteriya   | gulxan       |
| buxorolik   | gulxayri      | daraxt         | darvozaxona  |
| darsxon     | dasturxon     | dastxat        | daxldor      |

|               |               |              |               |
|---------------|---------------|--------------|---------------|
| daxma         | daxmaza       | devonxona    | dilxasta      |
| dilxiroj      | dilxush       | donxo'rak    | dorixona      |
| doxil         | duoxon        | duxoba       | do'zax        |
| do'xtir       | dushxona      | elchixona    | er-xotin      |
| fan-texnika   | faxriy        | faxrlanmoq   | fotomuxbir    |
| fotonusxa     | gazetxon      | ginaxonlik   | gulixandon    |
| ibodatxona    | iflixor       | issiqxona    | ixlos         |
| ixtisos       | ixtiyoriy     | ixcham       | ishxona       |
| jonbaxsh      | jumaxon       | jo'jaxo'roz  | jo'xori       |
| kabobxona     | kalxat        | kamxarj      | karaxt        |
| kasalxona     | kimxob        | kirxona      | kitobxon      |
| korxona       | kutubxona     | ko'mirxona   | laxtak        |
| lag'monxona   | loyxo'rak     | makkajo'xori | masxaraboz    |
| maxdum        | maxfiy        | maxluq       | maxraj        |
| maxsus        | maxzun        | mazaxo'rak   | merosxo'r     |
| mexanizatsiya | mixdon        | molxona      | moxora        |
| moshxo'rda    | murodbaxsh    | mutaxassis   | muxammas      |
| muxbir        | muxlis        | muxolif      | muxtasar      |
| muxtoriyat    | muzzona       | namozxon     | navoiyxonlik  |
| nowoyxona     | noxush        | nusxa        | nusxakash     |
| no'xat        | no'xatsho'rak | odamoxun     | olmaxon       |
| olxo'ri       | omixta        | onaxon       | otashxona     |
| otaxon        | oxiri         | oxirat       | oxirgi        |
| oxirzamon     | oxun          | oxur         | oshtaxta      |
| oshxamir      | oshxona       | oshxo'rlik   | palaxsa       |
| palovxo'rlik  | panshaxa      | paroxod      | patriarxal    |
| paxsa         | paxtakor      | pashshaxona  | pashshaxo'rda |



|               |                 |              |                 |
|---------------|-----------------|--------------|-----------------|
| peshtaxta     | pixillamoq      | poxol        | poytaxt         |
| puxta         | puxtalamoq      | qabulxona    | qiroatxonlik    |
| qiymataxta    | qorixona        | qorxat       | qo‘qonjo‘xori   |
| rasadxona     | raxit           | raxna        | ruxsat          |
| ruxsatnoma    | ruxsor          | ro‘yxat      | sarf-xarajat    |
| sartaroshxona | sartaxta        | sarxil       | savodxonlik     |
| saxiy         | saxovat         | serxarxasha  | sinxron         |
| six           | somonxona       | somsaxo‘rlik | soxta           |
| sudxo‘riik    | suratxona       | suxandon     |                 |
| suxandonlik   | sxolastika      | taxallus     | taxir           |
| taxlam        | taxlit          | taxminan     | taxmon          |
| taxt          | taxta           | taxtakach    | taxchil         |
| tekinxo‘r     | tekinxo‘rlik    | teploxod     |                 |
| texnika       | texnologiya     | tixirlik     | tuxum           |
| tug‘ruqxona   | to‘xtam         | to‘xtamoq    | ukaxon          |
| umidbaxsh     | umumxalq        | ustaxona     | ustuxon         |
| uxlamoq       | vaqtixush       | vaxta        |                 |
| va‘zxonlik    | yakkaxon        | yaxlamoq     | yaxlit          |
| yaxmalak      | yaxna           | yaxob        | yaxxona         |
| yaxshi        | yemakxona       | yemxona      | yetimxona       |
| almanax       | ax farax        | mazax        | yotoqxona       |
| yoxud         | yuz-xotirchilik | zavqbaxsh    |                 |
| zax           | zaxa            | zaxalanmoq   | zaxira          |
| zaxm          | ziyoratxona     | o‘xshamoq    | o‘xshatma       |
| o‘xshashlik   | o‘xchimoq       | g‘amxo‘rlik  | g‘ayriixtiyoriy |
| g‘azalxon     | shaxdam         | shaxobcha    | shaxmat         |
| shaxs         | shaxsan         | shaxt        | shifoxona       |

|            |                |            |             |
|------------|----------------|------------|-------------|
| shifobaxsh | shirinsuxanlik | shirxo‘rda | shox-shabba |
| sho‘rxok   | shaxta         | shaxtor    | sho‘xchan   |
| charxpalak | chandamoq      | choyxona   | choyxo‘rlik |

### **X — so‘z oxirida**

|         |       |       |       |
|---------|-------|-------|-------|
| almanax | ax    | farax | mazax |
| mix     | nasx  | rux   | six   |
| tarix   | shayx | sho‘x | zax   |
| shox    | sho‘x | charx |       |

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **HUQUQIY - ME'YORIY ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2016.-56b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-104b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-488b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-48b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-592b.

6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176

7. O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuni – 02.09.1993-y.

8. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni – 21.10.1989-y.

9. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonunning yangi tahriri – 21.12.1995y.

### **IMIY-USLUBIY ADABIYOTLAR**

10. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhleri uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288 b.

11. Normatova SH., Abdurahmonova M. O'zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.

12. Fayzullayeva SH., Azimova H., Usmonova G. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.

13. Yuldasheva SH., Kabulova D., Sobirova M. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Nukus: Bilim, 2013. – 156 b.

14. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

15. Lafasov U. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: ToshDSHI, 2016. – 532
16. Asilova G. Bojxona tizimida me‘yoriy hujjatlarni yuritish (rus guruhlar uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2016. – 176 b.
17. Iskandarova G. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent, 2009. – 67 b.
18. Iskandarova G., Gulibonu Keybatuli. O‘zbek tili darsligi (xitoyliklar uchun). – Pekin, 2016. – 348 b.
19. Muqimov Z. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. “Zarafshon”, 1998.
20. Мирқосимова М., Алимова Ш., Зоитова О., Умарова Н. Ўзбек тили (техника университетининг русийзабон талабалари учун). – Тошкент: ТДТУ, 2004. – 101 б.
21. Turdiyeva K., Ahmedova D. O‘zbek tili (tibbiyot institutlarining rus guruhlar talabalar uchun darslik). – Toshkent: Musiq, 2007. – 206 b.
22. Qahhorova H., Muhammedova S. O‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2004. – 192 b.
23. Назаров К.Н., Хўжанова Г.Ў. Ўзбек тили (юримдик институт ва университетларнинг ҳуқуқшунослик факультетлари рус гуруҳлари учун дарслик). – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 334 б.
24. Рафиев А. ва б. Чет элликлар учун ўзбек тили. II қисм (CDдискда). – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.
25. Рафиев А., Маҳмудов Н., Юлдашев И. Культура речи и делопроизводство на узбекском языке. – Ташкент, 2011. – 143 б.
26. Rafiyev A., Mahmudov N., Yuldashev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2013. – 143 b.
27. Русча-ўзбекча луғат (2 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013.
28. Тоғаев Т. Ўзбек тилининг кирилл ва лотин алифболаридаги имло луғати. – Тошкент: “Шарқ”, 1999. – 368 б.
29. Usmonova Sh. O‘zbek tili (koreyslar uchun). – Pusan, 2005. – 182 b.
30. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (5 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005–2008.

## XORIJIY ADABIYOTLAR

31. AloRaun. Basic course in uzbek. Published by Indiana University, 1996.
32. Iskandarova G., Gulibonu Keybatuli. O‘zbek tili darsligi (xitoyliklar uchun). – Pekin, 2016
33. Usmonova Sh. O‘zbek tili (koreyslar uchun). – Pusan, 2005. – 182 b
34. Зимняя И.Н. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Ж.Высшее образование сегодня, №5.– Москва, 2003.–С.34-42.
35. Пассов Е. И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1989. – 277 с.
36. Попова Е. В., Шаяхметова Н. Ш., Хасанова Г.Ф. Концепция обучение татарскому языку в школе с углубленным изучением английского языка и опыт её реализации. – Казань, 2004.
37. Норенков И.П., Зимин А.М. Информационные технологии в образовании. Учебное пособие. – М.: Изд. МГТУ, 2002. – 336 с.
38. Зеер Э.Ф., Шахматова Н. Личностно-ориентированные технологии профессионального развития специалиста. – Екатеринбург, 1999. – 244
39. Joseph J.E. Language and Politics.- Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.-170 p.
40. Bach K., Harnish R.M. Linguistic communication and speech acts. – Cambridge, Mass.: MIT Press, 2000, - 484p.
41. Маслова А.Ю. Введение в прагмалингвистику. Учебное пособие. М.Флинта, 2017,-148 с
42. Корнилов О.А. Языковая картина мира как производные национальных менталитетов. – М.: Че Ро, 2003.-347 с.
43. Колесов В.В. Язык и ментальность. – СПб: Петербургское Востоковедение, 2004.
44. Блакар Р.М. Язык как инструмент социальный власти. В кн.: Язык и моделирование социального взаимодействия. – М.: Прогр, 1987. – С.88-125.
45. Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1990. -89 с.
46. Hudson R.A. Sociolinguistics. -Cambridge: Cambridge Univ.Press, 2001.-279 p.

47. Pragmatics in Language Teaching (ed. by K.R.Rose and G. Kasper).-Cambride: Cambridge Univ. Press 2001.-386 p.

### **Internet saytlari**

<http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/>–  
Самоучитель узбекского языка  
<http://solver.uz/translate.php> – Русско-узбекский переводчик  
[http://sahifa.tj/rusko\\_uzbekskij\\_razgovornik.aspx](http://sahifa.tj/rusko_uzbekskij_razgovornik.aspx) – Русско-  
узбекский разговорник  
[http://sahifa.tj/uzbeksko\\_russkij.aspx](http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx)– Узбекско-русский  
переводчик  
<https://www.lex.uz>. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari  
ma’lumotlari milliy bazasi  
<http://library.ziyonet.uz/> – ta’lim portali

## MUNDARIJA

So‘zboshi

1-mavzu. O‘zbekiston – yagona Vatan

2-mavzu. O‘zbek tili – Davlat tili

3-mavzu. Milliy qadriyatlar – millat iftixori

4-mavzu. Tarix va zamonamiz

5-mavzu. Ulug‘ ajdodlarimiz

6-mavzu. Vatan va vatanparvarlik

7-mavzu. Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik

8-mavzu. Kelajak bilimli yoshlar qo‘lida

9-mavzu. Zamonaviy dunyoda ta’lim

10-mavzu. Kitob mutolaasi

11-mavzu. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

12-mavzu. Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltiruvchi manba

13-mavzu. Ommaviy axborot vositalari

14-mavzu. Internet hayotimizda 15-mavzu. O‘zbekiston va jahon

16-mavzu. XXI asrda innovatsiyalar

17-mavzu. Davrimizning global muammolari

18-mavzu. Tabiat va inson

19-mavzu. Inson va salomatlik

20-mavzu. Huquqiy madaniyat

21-mavzu. O‘zbekistonda oliy ta’lim

22-mavzu. Ilm maskanimiz hayotidan

23-mavzu. Bo‘lajak kasbim

24-mavzu. Hayot mening tasavvurimda

25-mavzu. Ustoz maktabi

26-mavzu. Kasbim tarixi

27-mavzu. Iqtidor va mehnat

28-mavzu. Yetuk mutaxassis

29-mavzu. Kasb bayrami

30-mavzu. Sharq akademiyalari

31-mavzu. Ilm sari yo‘l

32-mavzu. Kasb etikasi

33-mavzu. Nutq odobi

34-mavzu. San’at va ma’naviyat

35-mavzu. Men sevgan asar

36-mavzu. Iqtisod va hayot

37-45-mavzular. Ish yuritish tili va uslubi

Ilova

Adabiyotlar

## СОДЕРЖАНИЕ

Предисловие

1-тема. Моя Родина

2-тема. Узбекский язык

3-тема. Национальные ценности – гордость нации

4-тема. История и современность

5-тема. Наши великие предки

6-тема. Родина и патриотизм

7-тема. Музей – это мост между прошлым и будущим

8-тема. Будущее в руках образованной молодёжи

9-тема. Образование в современном мире

10-тема. Чтение книг

11-тема. Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои

12-тема. Литература – источник духовного процветания

13-тема. Средства массовой информации

14-тема. Интернет в нашей жизни

15-тема. Узбекистан и мир

16-тема. Инновации в XXI веке

17-тема. Глобальные проблемы современности

18-тема. Природа и человек

19-тема. Человек и здоровье

20-тема. Юридическая культура

21-тема. Высшее образование в Узбекистане

22-тема. Из жизни нашего учебного заведения

23-тема. Моя будущая профессия

24-тема. Жизнь в моём воображении

25-тема. Школа учителя

26-тема. История моей профессии

27-тема. Талант и труд

28-тема. Ведущий специалист

29-тема. Профессиональный праздник

30-тема. Академии Востока

31-тема. Путь к знанию

32-тема. Профессиональная этика

33-тема. Культура речи

34-тема. Искусство и духовность

35-тема. Моё любимое произведение

36-тема. Экономика и жизнь

37-45-темы. Язык и стиль делопроизводства

Приложение

Литература



## CONTENT

Introduction

1-theme. Uzbekistan is motherland 2-theme. Uzbek language - State language

3-theme. National values pride of the nation

4-theme. History and modernity

5-theme. Our great ancestors

6-theme. Homeland and patriotism

7-theme. A museum is a bridge between the past and the future

8-theme. The future is in the hands of educated young people

9-theme. Education in the modern world

10-theme. Reading books

11-theme. National library of Uzbekistan named after Alisher Navoi

12-theme. Literature is the source of spiritual prosperity

13-theme. Mass media

14-theme. Internet in our life

15-theme. Uzbekistan and the world

16-theme. Innovation of the 21<sup>st</sup> century

17-theme. Global problems of modernity

18-theme. Nature and people

19-theme. People and health

20-theme. Legal culture

21-theme. Education in Uzbekistan

22-theme. From University life

23-theme. My future profession

24-theme. Life in my imagination

25-theme. Teacher's school

26-theme. History of my profession

27-theme. Talent and work

28-theme. Leading Specialist

29-theme. Holiday profession

30-theme. Academy of the East

31-theme. Path to knowledge

32-theme. Professional ethics

33-theme. Culture of speech

34-theme. Art and spirituality

35-theme. My favorite work

36-theme. Life and economy

37-45-themes. Types and styles of business of manufactures

Attachment

Literature

Учебное пособие «Узбекский язык» было создано на основе типовой программы, рекомендованной Министерством высшего и среднего специального образования. В этом учебном курсе содержатся темы, охватываемые планом в течение учебного года. Каждый курс обогащен текстами разного направления, грамматическим материалом, упражнениями и заданиями для закрепления темы, тестами, лексическими упражнениями, глоссарием и словарем. Данное пособие предназначено для студентов 1-х курсов русских групп бакалавриата.

The textbook "Uzbek language" was created based on the model program recommended by the Ministry of Higher and Secondary Special Education. This course contains topics covered in the plan during the academic year. Each course is enriched with texts about different fields, grammar materials, exercises and tasks for the topic, vocabulary textbooks, vocabulary exercises, and glossary, also was enriched with dictionary. This textbook is intended for students of the 1st Russian language group and undergraduate Uzbek language students.

*Ilmiy-uslubiy nashr*

M.Abdurahmanova, D.Fattoxova, U.Xalmuxamedova, N.Inogamova,  
N.Egamberdiyeva

# **O‘ZBEK TILI**

O‘quv qo‘llanma

*Nashriyot muharriri: Ilhom Yo‘ldashev  
Musahhiha: Gulnigor Murodova  
Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev*

*«MUMTOZ SO‘Z»  
mas‘uliyati cheklangan jamiyati  
nashriyoti*

*Manzil: Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 69.  
Tel.: 241-60-33*

*Nashriyot litsenziyasi AI № 103. 15.07.2008  
Bosishga ruxsat etildi 27.12.2018  
Qog‘oz bichimi 60x84 1/32. Ofset qog‘ozi.  
Times New Roman garniturası. Hisob-nashriyot tobog‘i 38,5 b.t.  
Shartli bosma tobog‘i ?????? Adadi ??????  
Bahosi kelishilgan narxda*

**Bosmaxona**